

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«AUDIT» KAFEDRASI



**«AUDIT FANINI O'QITISH
METODIKASI» FANIDAN**

MARUZA MATNLARI TUPLAMI

TOSHKENT-2012

«Audit fanini o'qitish metodikasi» fanidan ma'ruza matnlar to'plami 5140900
- “Kasb ta’limi” bakalavriat yo’nalishi talabalari uchun ishchi o’quv dasturlariga
muvofoiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Fayziev Sh. – TMI, i.f.n., dots.
Meliev.I.I, -TMI, katta o’qituvchi
Avazov I.R. -TMI, katta o’qituvchi

KIRISH

Respublikamizda bozor iqtisodiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustivor yo'nalishlarni belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy xayotni, jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan xolda, bir qancha soxalarni jumladan audit tizimini xam islox qilishni taqozo etmoqda.

Qo'lingizdagi o'quv-qo'llanmasi «Audit» fanini o'qitish jarayonida mustaqil faoliyatingizga yordam beradi.

Mazkur qo'llanma kirish, o'quv fani bo'yicha ma'ruzalar matni hamda fan bo'yicha adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

O'quv-qo'llanmaning ma'ruzalar matni bo'limida «Audit fanini o'qitish metodikasi» o'quv fanini o'qitishning dolzarbligi asoslangan, mazkur fanning tuzilmasi keltirilgan hamda fan bo'yicha o'qitishning mazmuni ochib berilgan. Fanning o'quv dasturi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning mazmunlari va rejasi hamda foydalaniladigan adabiyotlarning ro'yxati ham keltirilgan. Bu bo'limda nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha o'zlashtirishni nazorat qilish hamda baholashning ko'rsatkich va mezonlari berilgan.

Shuningdek qo'llanmada "audit" fanini o'qitishda talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini asosli ravishda himoya qilish, bahslashish ko'nikmalarini hosil qilish uchun bahs-munozara darslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu maqsadda maruza matnlari tuplaminin jamiyat hayotidagi ba'zi masalalarni amaliy darslarda muhokama qilishga mo'ljallangan. Bunday darslarni olib borishda hozirgi paytda katta ahamiyat kasb etib borayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jumladan kichik guruhlarda ishlash, guruhlarning ma'lum pozitsiyani egallashi, barchaning bir-birini o'qitishi, «aqliy hujum» kabi usullarni keng qo'llash darslarni samarali bo'lishi, ularning qiziqarli kechishini ta'minlagan.

Maruza matnlari tuplami asosan oliy ta'limning bakalavr ta'lim yo'nalishlarida talabalarga dars berish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yaratilgan. Shu bilan birga albatta ba'zi bir kamchiliklardan xoli emas, shuning uchun matnda uchragan kamchiliklar, fikr-muloxaza va takliflarni lutfan qabul qilamiz, xamda sizlarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

1-MAVZU: “AUDIT” FANINI O’QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA ILMIY ASOSLARI

REJA:

- 1. “Audit fanini o’qitish metodikasi” fanini o’qitishdan maqsad va uning ahamiyati, fanning predmeti hamda ob’ektlari**
- 2. “Audit fanini o’qitish metodikasi” fanining metodlari. «Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi» fanida analiz, sintez, induksiya, diduksiya va boshqa usullarning qo’llanilishi**
- 3. “Audit fanini o’qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar” fanlar bilan o’zaro bog’liq va farqli jihatlari**

1.1. “Audit fanini o’qitish metodikasi” fani va uning ahamiyati, fanning predmeti va ob’ekti.

Iqtisodchi pedagoglar tayyorlashda «Audit fanini o’qitish metodikasi» fani alohida o’rin tutadi. Audit fanini o’qitish metodikasi aynan audit fanini talabalar tomonidan chuqur o’rganishlari uchun o’qituvchilarga metodik jihatdan yordam berishni ko’zda tutadi.

«Audit fanini o’qitish metodikasi» fanining maqsadi kasb ta’limi bakalavriat yo’nalishi talabalariga iqtisodiy fanlardan dars o’tishning turli metodlarini qo’llashni o’rganish va o’quv jarayonini tashkil qilishda ularni mohirlik bilan tadbiq qilish ko’nikmasini hosil qilishga qaratilgan.

Mazkur fanni o’rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta’lim standartlarida ko’zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada buladi: Audit, Boshqaruv hisobi, Moliyaviy hisob, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Iqtisodiyot nazariyasi, Moliya bozori va qimmatli qog’ozlar, Moliya, Pul, kredit va banklar, Soliqlar va soliqqa tortish va boshqa maxsus fanlar.

«Audit fanini o’qitish metodikasi» fanining ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarida aqliy hujum, klaster, «Bumerang» va «Veer», amaliy ish o’yini, portfolio, keys-stadi, onlayn tizimida suhbat va erkin yozuv usullaridan, muammoli ta’lim texnologiyasi, didaktik o’yinlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (Audit XP-Kompleks audit, Audit IT, 1S: Prof. Buxgalteriya, Buxgalteriya (VS), Balans, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust), slaydlardan, multimediya vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur fanning o’rganish ob’ektlari qo’yidagilar sanaladi:

- “Audit” fanini o’qitish metodikasi fanining predmeti va ilmiy asoslari.

- “Audit fanini o’qitish metodikasi” fanining predmeti, metodi va ob’ektlari;
- “Audit” fanini o’qitishda pedagogik texnologiya va dars o’tish metodikasi.
- “Audit” fanini o’rganishda qo’llaniladigan metodlar va ularni tanlash mezonlari.
- “Audit” fanini o’rganishda ma’ruza darsiga tayyorgarlik va ularni o’tkazish.
- mutaxassislik fanlaridan ma’ruzaga tayyorgarlik ko’rish va uni o’qitish metodikasi;
- mutaxassislik fanini o’qitishda ko’rgazmali qurollardan va texnik vositalardan foydalanish metodikasi;
- “Audit” fanini o’rganishda seminar va amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish hamda ularni o’tkazish.
- “Audit” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish xususiyatlari
- “Audit” fani bo’yicha o’quv - uslubiy kompleksi, ularni tuzish va o’quv jarayonida qo’llash metodikasi.
- Audit fanini o’qitish jarayonida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashga oid etarli darajada tizimlashtirilgan bilimlarni berish nazarda tutilgan.

Iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish va chuqurlashtirish natijasida xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo’jaliklari va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tub burilishga erishildi. Bu auditorlik tashkilotlari oldiga xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliya-xo’jalik, shuningdek ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, sub’ektlar o’rtasida hisob-kitoblarni yo’lga qo’yish hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish, byudjet bilan soliq va boshqa to’lovlar bo’yicha hisoblashishlarni o’z vaqtida amalga oshirish yuzasidan maslahatlar berish va boshqa malakali xizmatlar ko’rsatish masalasini dolzarb qilib qo’yadi. Shularni e’tiborga olganda, auditorlik tashkilot (auditor)lar xizmatiga ehtiyoj oshmoqda. Jumladan, hozirgi kunda auditorlik tashkilotlari quyidagi malakaviy xizmatlarni ko’rsatishlari Qonun¹ bilan belgilab berilgan: buxgalteriya hisobini yo’lga qo’yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot yuritish va tuzishni xalqaro standartlarga o’tkazish; xo’jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy-xo’jalik faoliyatini tahlil qilish va boshqa xizmatlar ko’rsatish. Shu ma’noda «Audit» faniga bo’lgan ahamiyat oshib bormoqda.

«Audit» fanini o’qitishdan maqsad, talabalarga auditorlik tashkiloti tomonidan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborotlarini to’g’riligi va qonun hujjatlarga mosligi to’g’risida xolis va asosli fikr shakllantirish uchun zarur bo’lgan auditorlik amallarini bajarish bo’yicha nazariy bilim berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, *fanning predmetini o’rgatish uchun bir necha vazifalar* qo’yildi, jumladan: auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan chuqur tanishtirish; auditorlik tekshiruvini tayyorlash uchun xo’jalik yurituvchi sub’ekt faoliyati bilan tanishish, shartnoma tuzish, dastlabki kelishuvlarni amalga oshirish, auditni dastlabki rejasi va dasturini tuzish to’g’risida bilim berish; auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorlik hujjatlari va dalillarini

¹ O’zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to’g’risida» gi Qonuni. T.: 2000, 17-modda.


to'plash; moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini tekshirish usullarini o'rgatish; auditorlik tekshiruvini yakunlanish bosqichida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzishni o'rgatish va h.k.

«Audit» faniga jami 246 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan, ma'ruza 84 soat, amaliy mashg'ulot 62 soat va mustaqil ta'lim 100 soatni tashkil etadi.

Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti

№	Mavzu	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1	Auditning mohiyati, ahamiyati va uni tartibga solish	4	2	4
2	Auditorlik tekshiruvini tayyorlash	4	2	4
3	Asosiy vositalar auditi	6	4	6
4	Nomoddiy aktivlar auditi	4	2	4
5	Moliyaviy investitsiyalar auditi	4	2	6
6	Tovar-moddiy zahiralar auditi	6	4	8
7	Tayyor mahsulot va tovarlar auditi	6	2	6
8	Hisob-kitoblar auditi	4	2	6
9	Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditi	6	2	6
Jami 1-qism		44	22	50
Hammasi 1-qism		116		
10	Pul mablag'lari auditi	8	8	8
11	Xususiy kapital auditi	6	6	8
12	Ishlab chiqarish va boshqa xarajatlar auditi	6	6	8
13	Moliyaviy natijalar auditi	6	6	8
14	Moliyaviy hisobot auditi	8	8	10
15	Auditorlik tekshiruvini yakunlanishi. Auditorlik xulosasi	6	6	8
Jami 2-qism		40	40	50
Hammasi 2-qism		130		
Hammasi		246		

Har qanday o'qituvchi ta'lim berayotganida uning «qanday qilib, qaysi usullar orqali bilim olish jarayonini faollashtirish mumkin?» – degan haqqoniy savolni hal qilish zaruriyati kelib chiqadi.



Bularning ichida eng inqilobiy va ijobiy fikrni, bizning fikrimizcha, insonlarning bilim olish jarayonini o'rganish bo'yicha yirik Yo'arab mutaxassisi Blum bildirgan va o'zining mashhur aktiv (faol) bilim olish tizimi kontseptsiyasini ishlab chiqo'an. Bu tuzilma ko'pincha «Bilim olishning olti pog'onasi yoki Blum taksonomiyasi» deb ataladi.

U yuqoridagi asosiy bosqichlardan iborat:

BILIM OLISH – Asosiy dalillarni qidirish va topish, hotirada saqlay olish, tavsiflash, tanish, qayta jonlantirish, nomini aytish, izlanish, tuzilishini bilish va ko'rsatish kabilar orqali amalga oshadi.

TUSHUNISH – qayta so'zlash, mohiyatini tushunish, tushuntirish, tasvirlash va boshqacha usulda hamda boshqacha so'zlar bilan ta'riflay olish natijasida erishiladi.

ISHLATISH (qo'llash) – olingan bilimni boshqa sharoitlarda qo'llash (ishlatish, echish, tajriba o'tkazish, qo'llash, kuzatish, oldindan bashorat qilish, biror–bir muammoni hal qilish) ni o'z ichiga qamrab oladi.

TAHLIL (analiz) – tushunchalar orasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash va ularning mohiyatini tushunish – soha materialini (bilimni, hodisani, mashinani, ma'lumotni) tashkil etuvchilarga (tarkibiy qismlarga) bo'lib chiqish va ularning har birining vazifasini tushunib chiqish. Oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga yo'nalishida tahlil qila olish (qismlar orasidagi munosabatlarni aniqlash, bir–biriga ulash, birlashtirish, bo'lib chiqish, turkumlarga ajratish, guruhlariga ajratish, umumiy qonuniyatlarni topish, toifalarga bo'lib chiqish).

SINTEZ – yangi narsani (bilimni, predmetni, mashinani) uning bir qancha qismlaridan (bo'laklaridan) va ularning xossalaridan foydalangan holda tashkil qilish (tuzish, konstruktsiya yig'ish, kombinatsiyalash, yangi fikr yaratish, yangi farazlarni taklif qilish), ularni sinashni amalga oshirish va natija asosida yangilarini mavjudlariga raqobatchi (konkurent) sifatida ishlab chiqish.

BAHOLASH – erishilgan natijani aniqlash, qaror qabul qilish yoki echim topish (baholash jarayonini amalga oshirish, hal qilish, sabab va oqibat zanjiridagi aloqalarini aniqlash, toifalarga bo'lish va ularni aniqlash).

1.2. «Audit fanini o'qitish metodikasi» fanining metodi. «Audit fanini o'qitish metodikasi» fanida analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya va boshqa usullarning qo'llanilishi

«Audit fanini o'qitish metodikasi» fanida analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya va boshqa usullaridan keng foydalaniladi. O'quvchi - talabalar ushbu zamonaviy ta'lim usullarini ishlatishlari, tegishli fanlardan to'laonli saboq olishlari va fanni tegishli bosqichda yaxshi (a'lo) o'zlashtirishlari uchun ular gimnaziya (maktab, litsey, kollej) dasturi hajmida hamda o'rganilayotgan fan haqidagi bir qism tayanch bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Ya'ni, iqtisodiyot asoslari, matematika, ona tili va adabiyot, tarix kabi maktab dasturiga oid fundamental bilimlarni puxta

o'zlashtirib olishlari lozim. Chunki fundamental bilim doirasiga ega insondagina mantiqiy fikrlash qobiliyati bo'lib, u bilan qandaydir bir soha haqida fikr almashish va uning dunyoqarashini (bilim doirasini) tegishli yo'nalishda mantiqan rivojlantirish mumkin. Agar bunga ba'zi bir ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra imkoniyat bo'lmasa, o'quvchi (talabalarni) fundamental yo'nalishlarning tegishli sohalarida boshlang'ich tayyorlash va ularga lozim bo'lgan bilimlar majmuasini berish zarur bo'ladi. Masalan, universitetda iqtisodiyot bo'yicha dars o'tilishi kerak bo'lsa, ularning maktab dasturi doirasida nimalarni o'zlashtirganlari, qaysi yo'nalishga ko'proq ahamiyat berilganligi, qaysi yo'nalishlar esa nazardan chetda qolganini aniqlab olish iqtisodiy ta'lim berishdagi muvaffaqiyatning asosidir. Agar talabalar bu aniqlash (o'rganish) natijasida mos guruhlariga bo'linib, maqsadli o'qitilsa, natijalar yana ham ko'zga ko'rinarli bo'lishi mumkin.


Samarali ta'lim muhitini yaratish rejalashtirilgan holatda (muhitda) guruhdagi talabalar bilan bevosita munozara va faol fikr almashinishni amalga oshirilganda uni yanada samarali qilish uchun quyidagilarga ahamiyat berilishi maqsadga muvofiqdir:

a) Tinglovchilardan qanday javoblar kutayotganingizni o'z so'zlaringiz, jonli misollaringiz va boshqa usullar bilan bildirishingiz talab qilinishi mumkin. Ko'pincha talabalar Siz bergan savollarga qisqa, lo'nda, yaxshi o'ylanmagan, sayoz va mavhum javoblar bersa, Siz bundan to'g'ri xulosa chiqarib olishingiz hamda mashg'ulotni kerakli yo'nalishga burib yuborish uchun harakat qilishingiz lozim bo'ladi.

b) Ba'zi paytlarda Sizga munozara yo'nalishini yana o'rganilayotgan matnga (faktga, hodisaga, qoidaga) qaratishingiz zarur bo'lib qolishi mumkin. Bu hol munozara butunlay boshqa mavzu tomonga burilib va o'zgarib ketgan holatlarda kerak bo'ladi.

v) Tinglovchilarda har bir masala bo'yicha xilma-xil javoblar (fikrlar, munosabatlar) mavjud bo'lishiga hurmat uyg'otish ham munozarani jonli ravishda rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu hol talabalarning tajribalari, hayotiy ko'nikmalari va qiziqishlari xilma-xil bo'lgani uchun tabiiy ravishda yuzaga keladi. Bunda ularning kutilmagan «noklassik» savollariga undov berish va ularni ijobiy/ijodiy jihatdan muhokama qilish hamda kerakli yo'nalishda rivojlantirish yaxshi natijalarga olib keladi.

g) Tinglovchilar/talabalarning javoblarini «to'g'rilash» ga urinish ko'pincha yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Bu ularni boshqalar oldida noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Chunki ularning javoblarini amaliy tajribasini hisobga olgan holda nazardan kechirsak, bunda o'ziga xos bir ma'no topishimiz mumkin, albatta. har qanday javobni ham qo'llab-quvvatlab, uning yaxshi tomonlarini, ratsional ma'nosini topa olish va buni o'quvchilarga ko'rsatish ularda o'z-o'ziga ishonch uyg'otadi hamda ularning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Bunda «Ishlagan odam yanglishadi» deb ba'zi o'quvchi/talabalarga tasalli berish ham ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.




O'rganish maqsadlariga berilgan ta'rifning ma'nosini quyidagi holatdan yaxshiroq bilib olsa bo'ladi:

„Qaerga borishingni bilmasdan yo'lga chiqsang, o'zing kutmagan erdan chiqib qolasan...”

Nazariy dars va instruktaj aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonlaridir. Bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan o'rganish maqsadlariga erishish uchun olib boriladi. Agar dars maqsadlari belgilanmay o'tkazilsa, u holda darsning mazmuniy va didaktik tuzilishi u yoki bu darajada tasodifga bog'liq bo'ladi.

Natijada dars davomida mavzuga taaluqli bo'lmagan mavzularga to'xtalishga to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida „aravani quruq olib qochishga“ olib keladi.

Maqsadlar aniq ishlab chiqilgandan keyingina nazariy dars va instruktajni mazmuniy va didaktik tuzishga kirish mumkin. Undan instruktor va o'qituvchi



uchun o'rganish maqsadlarini tanlash va aniqlash vazifasi yuzaga keladi.

O'qitish maqsadi taksomaniyalari. Turli faoliyatlar darajasi **Taksomaniyalar** deb ataluvchi o'rganish maqsadlarini klassifikatsiya qilishni talab etadi, bu klassifikatsiya xulqning tartibga keltirilishi va farqlanishiga olib keladi. O'rganish maqsadlari turlicha aniq yoki uncha aniq bo'lmagan shakllarda ishlab chiqilishi mumkin. Kasb-hunar ta'limi amaliyotida quyidagi uch tur farqlanadi:


Orientir maqsadlar - qonunan belgilanishi mumkin bo'lgan birlamchi ta'lim mazmunlarini tasvirlaydi (masalan: kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi qarorlarda ifodalangan mazmunlar). Ular o'qishning yo'nalishini belgilab bersalarda, yakuniy xulqni ifodalamaydilar.

Umumiy maqsadlar - ta'limning kichikroq qismlariga taaluqli bo'lib, o'quvchi qobiliyati to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarni tasvirlasada, yakuniy munosabatni ifodalamaydi. Umumiy maqsadlar ham yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda berilishi (qarorlar va ramochniy o'quv rejalarida) yoki instruktor va o'qituvchilar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilishi mumkin

Nazariy dars va instruktajlarni shakllantirish uchun oldindan mos keladigan maqsadlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars va instruktaj shundan so'ng mazmuniy va metodik ravishda belgilangan maqsadlarga erishish uchun yo'naltiriladi.

Amaliyotda har bir dars va instruktaj uchun o'rganish maqsadlari ishlab chiqiladi.

O'rganish maqsadlari shu orqali qanday strategiyalar va resurslar safarbar etilishi lozimligini belgilaydi. Mazkur strategiya va resurslar har qanday o'quv jarayonida bosh printsiplar sifatida xizmat qiladi.



Aniq maqsadlar-o'lchanishi mumkin bo'lgan aniq yakuniy xulqni ifodalaydi. Shuning uchun ularga berilgan ta'riflarda maqsadga erishish indikatorlari, shuningdek, erishiladigan natija uchun mavjud muhim shart-sharoitlar (instrumentlar) ham o'z ifodasini topadi.

Aniq maqsadlar umumiy maqsadlarni tasniflaydi. Aniq maqsadlarning mavjudligi avvalo umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatini beradi.

Aniq maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ularga qo'shimcha ta'rif va talqin berishning zaruriyati yo'q. Ular instruktor yoki o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi.

o'rganish maqsadlari 3 sohada to'ziladi va darajalarga bo'linadi.

- kognitiv o'rganish sohasi

- psixomotorik o'rganish sohasi
- affektiv o'rganish sohasi

Kognitiv o'rganish sohasi

Kognitiv sohasi aqlan qayta ishlangan axborotlarni, ya'ni faktlarni, tushunchalarni, printsiplarni va usullarni, shuningdek, printsiplarni analiz va sintez qilish, baholash va qaror chiqarish orqali qo'llashni o'z ichiga oladi.

U bilimlarni yodda saqlash, intellektual ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishni ko'zda tutgan o'rganish maqsadlarini o'zida mujassam etadi.

Kognitiv sohaning eng quyi bosqichi „**bilim**“ deb ataladi. Bu kimningdir faktlar va printsiplarni eslashi demakdir. Bu bosqichda shaxs o'zlashtirgan bilimlarini eslashi, ularni nomlashi va aytib berishi mumkin.

„**Tushunish**“ bosqichida xulosalar chiqariladi, mavjud vaziyat tahlil qilinib, unga aloqador holatlar aniqlanadi. Bu bosqichda printsiplar va qoidalar o'rganiladi.

„**Qo'llash**“ bosqichida o'rganilganlar umumlalashtiriladi va turli shakllarda qo'llaniladi. „**Tahlil qilish**“ va „**Sintez**“ bosqichlari shaxsga berilgan holatni tahlil qilish, fakt va printsiplarni o'rganish sohalaridan olgan bilimlari bilan bog'lash va bu orqali keng qamrovli aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi.

„**Baholash**“ eng yuqori bosqich hisoblanadi. U shaxsga ma'lum qadriyatlarga taaluqli holatlarni baholash, shuningdek, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish uchun baholash instrumentlarini yaratish imkonini beradi.

Psixomotorik o'rganish sohasi - Bu o'rganish sohasi amaliy ish jarayonlari orqali hosil qilinadigan qobiliyatlar va ko'nikmalar olishga mo'ljallangan. Bunda psihika orqali boshqariladigan muskul harakatlari (motorik harakatlar) amalga oshadi.

Amaliy faoliyat olib borish, misol uchun instrument ishlatish psixomotorik o'rganish sohasiga taalluqlidir.

Ushbu o'rganish sohasi inson-hohishi tomonidan boshqariladigan harakatlarni ifodalaydi. Ular esa o'z navbatida motorik ko'nikmalarni talab etadi. U misol uchun oddiy, o'rta va kompleks harakatlarga ajratilishi mumkin.

1.3.“Audit fanini o'qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar” fanlar bilan o'zaro bog'liq va farqli jihatlar

Auditning o'ziga xos predmeti va ob'ektlari mavjud. Audit maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning predmeti xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning faoliyatlari hisoblanadi. Ma'lumki korxonalar o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Korxonalarning aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir korxona o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida korxona faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarining korxona moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Auditning predmeti taftishdan o'laroq korxonaning faqat bir faoliyat turi yoki birgina ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Misol uchun, savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta operatsiyalari va boshqalar. Auditning predmetiga korxona moliyaviy hisobotning to'g'riligi, hisob siyosatiga, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki ob'ekti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bozor sharoitida korxonalarning faoliyati kengayib har tomonlama rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida auditning asosiy ob'ektlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

- mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan opretsiyalar;

- moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlar (xarajatlar, daromadlar, foyda (zararlar);

- valyuta operatsiyalari;

- tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan xorijiy sarmoyalar;

- hisob-kitob operatsiyalari (debitorlik, kreditorlik qarzlari);

- qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar.

Shunday qilib auditning predmeti va ob'ektlari quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatlari;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aktivlari va majburiyatlari;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning alohida jarayonlari (operatsiyalari).

Auditning asosiy predmeti bo'lgan korxonalarning faoliyatlari quyidagilarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish faoliyati;

- savdo faoliyati;

- xizmat ko'rsatish faoliyati.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatlari o'z navbatida quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- ta'minot jarayoni;

- ishlab chiqarish jarayoni;

- realizatsiya jarayoni.

Jarayonlar xo'jalik operatsiyalari orqali sodir bo'ladi.

Xo'jalik jarayonlarning auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlarning ikkiga bo'lish mumkin:

- miqdor ko'rsatkichlari;

- sifat ko'rsatkichlari.

Miqdor ko'rsatkichlar - ishlab chiqarilan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat.

Sifat ko'rsatkichlar - faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdorligini ifodalaydi.

Korxonalarning alohida jarayonlari va ko'rsatkichlari auditning ob'ektlari hisoblanadi.

Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga dolzarb masalalarda konstalting xizmatlarini ko'rsatish ham kiradi. Auditorlar va auditorlik tashkilotlari korxonalarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradilar.

Auditning o'ziga xos usullari va uslubi mavjud. Bu usullar auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Korxonada audit o'tkazish mutaxassis auditoridan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor sharoitida turli mulkka asoslangan korxona va firmalarning faoliyatlari bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalariga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditoridan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqdir. Ushbu usullarning turi ham ko'p.

Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Korxonalar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida korxona samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun-qoidalariga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);
- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);
- tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);
- taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);
- inventarizatsiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);
- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish korxonalarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);
- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);
- buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli (korxona aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);

- balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylash-tirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhlash usullaridan ham foydalaniladi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, ho'jalik jarayonlarining qonun-qoidalariga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adabiyotlarda auditning quyidagi usullariga katta e'tibor berilmoqda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish, tekshirilayotgan korxona bo'yicha muqobil (alternativ) balans tuzish, audit ob'ektlari bo'yicha testlar anketalar o'tkazish, kompyuter axborotlari texnologiyalaridan keng foydalanish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiy (an'anaviy) usullardan foydalanish bilan bir qatorda ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun "tijorat siri" hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanishlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, auditda qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

2-MAVZU: “AUDIT” FANINI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA VA DARS O’TISH METODIKASI.

REJA:

2.1 Pedagogik texnologiya va uning mazmuniga turli jihatdan yondashish. Pedagogik texnologiyaning shakllanishi. Ta’lim texnologiyasida dars o’tish metodlarining tutgan o’rni.

2.2 Ta’lim tizimiga yondashuvlar va dars o’tish metodlari. O’quv jarayonida axborotlarni qabul qilish. Ko’rgazmali-an’anaviy (tushuntirish – illyustrativ) yonlashuv. O’qitishga texnologik yondashuv, tadqiqiy-ijodiy yondashuv va boshqa nuqtai nazardan yondashuvlar.

2.3. An’anaviy va noan’anaviy yondashuvlarning umumiy tomonlari, farqlari, afzalliklari va kamchiliklari.

2.1 Pedagogik texnologiya va uning mazmuniga turli jihatdan yondashish. Pedagogik texnologiyaning shakllanishi. Ta’lim texnologiyasida dars o’tish metodlarining tutgan o’rni.

Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim tizimi va jarayoniga kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularni qo’llash bo-rasida ko’plab ilmiy izlanishlar, bahs-munozaralar mavjud. Al-batta, turli xil qarashga ega bo’lgan bu fikr-mulohazalar bir-bi-rini inkor etmaydi, balki to’ldiradi, deb o’ylaymiz.

Xo’sh, aslida “pedagogik texnologiya” nima?

O’tmishga nazar tashlasak, “pedagogik texnologiya” atamasi g’arb pedagogika fani va amaliyotiga dastlab 1950-60-yillardan boshlab kirib kelgan. Shu kungacha olimlar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar xususida ta’rif, tushuncha, izohlar juda ko’p bil-dirilgan. Lekin shuni aytib o’tish joizki, ayrim amaliyotchi o’qi-tuvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya metodika-ning aynan o’zi yoki darslarda interfaol usullar, texnika vosita-laridan foydalanish deb qat’iy fikr bildirilmoqda. Shu bois o’qituvchilar orasida noto’g’ri tushuncha bo’lmasligi uchun pedtexnologiya va metodikani bir-biridan ajratib olish zarur.

Bugungi kunda metodikaning o’zi ikki xil ma’noda ta’rifla-nadi, ya’ni, birinchidan, metodikaga fan sifatida qarash kerakli-gi, uning o’z predmeti va tadqiqot yo’nalishi e’tirof etiladi. Ik-kinchi tomondan esa metodikaga metod va usullarning uyg’unlashuvi, ya’ni texnologik jarayon sifatida qaraladi. O’qitish texnolo-giyasi – bu jarayon. Agar metodikaga fan deb qaralsa, metodik asos-larga ilmiy asoslar sifatida qaraladi. Bunda esa metodika va pe-dagogik texnologiyani bir-biriga tenglashtirib bo’lmaydi. Ya’ni, pedagogik texnologiyani kengroq ma’noda tushunish kerak. Chunki pedagogik texnologiya metodikadan farq qilgan holda faqat bilim berish emas, balki aniq maqsad va natijaga yo’naltirilgan ta’lim jarayoni hamdir.

Metodika, bizning fikrimizcha, ta’lim maqsadlariga yo’nal-tirilgan ta’lim mazmuni, o’qitishni tashkil etishning birgalik-dagi majmuidir. Bir xil mazmunga ega bo’lgan metodika, uslub va usullar yoki metodik tizim ikki o’qituvchida ikki

xil natija be-rishi mumkin. Pedagogik texnologiya qo'llanganda esa, turli o'qituvchilar turli yondashuvda turli xil vosita va usullardan foydalanishda, bir xil natija olishlari mumkin.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o'qituvchining shaxsi, mahorati va xarakteri metodikada aks etadi, ya'ni metodika o'qituvchiga natijani kafolatlamaydi. Pedagogik texnologiyalar esa, metodikadan farq qilgan holda ko'plab olimlarning fikricha, ilmiy va amaliy xulosalarga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyalar metodika, didaktika hamda ta'lim-tarbiya nazariyasini inkor etmaydi, ularning o'rnini bosmaydi ham. U ma'lum algoritmlarni ishlab chiqadi, o'quv jarayonini konstruktivlaydi hamda kafolatlangan natijaga erishishning aniq va qat'iy yo'llarini belgilaydi. ("Shkola texnologii" № 5, 2002 y, 58-bet).

Ushbu xulosalardan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya-larning ham, metodikaning ham o'z o'ri bor. Lekin har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar, har qanday yangi usul va metodlar pedagogik jamoa, ota-onalar tomonidan yaxshi qabul qilinishi hamda ta'lim tizimining yaxshilanishi, rivojlanishi, shu bilan birga o'qituvchilarning shaxs sifatida kamol topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi kerak. Buning uchun amalda qo'llanilayotgan yoki qo'llanilmoqchi bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar zahirida ilmiy asos-ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik, psixologik va falsafiy asos bo'lishi va ta'kidlab o'tilganidek, ta'lim tizimi va shaxs kamo-loti, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qila olishi lozim.

Tajribadan ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda maktab o'qituvchilari va ota-onalar tomonidan ziddiyatlar, qarama-qarshilik va noroziliklar yuzaga kelishi mumkin (Bunga hozirgi qo'llanilayotgan reyting tizimini misol qilish mumkin). Bunday vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish zarur, deb o'ylaymiz:

a) o'qituvchilarga qo'llanilmoqchi bo'lgan pedtexnologiya, uning maqsadi va kutiladigan natijalar to'g'risida to'liq axborot berish;

b) qarorlar qabul qilinishi bosqichida mazkur masala yuzasi-dan o'qituvchilar orasida keng miqyosda muhokamalar o'tkazishni tashkil etish va ularning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish;

v) o'qituvchilarning pozitsiyalariga ko'ra turli xildagi guruhlar bilan tabaqalashtirilgan ishlar olib borish;

g) moddiy, moliyaviy va psixologik yordam, moddiy texnik ta'minot, innovatsion faoliyatga ijobiy yondashishni shakllantirish;

d) hamma o'qituvchilar uchun doimiy va majburiy ilmiy metodik o'qishlarni (muammoli seminar, konferentsiyalar, davra suhbatlari, treninglar) tashkil etish.

Ma'lumki, DTSga o'tish bilan bog'liq oxirgi 20-30 yillar mobaynida rossiyalik olimlar rivojlangan g'arb davlatlari ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, pedagogik texnologiyaga oid ishlarni chuqur o'rganib bordilar va shu asosda ilmiy tadqiqot ishlarini yaratdilar (M.A.Gussakovsiy, M.A.Bogoslavskiy "Nauchnie dostijeniya i peredovoy opit v oblasti pedagogiki i narodnogo obrazovaniya" M. 1993 g.) O'z navbatida ilg'or pedagogik amaliyot va tadqiqotlarga asoslangan holda pedagogik jarayonlarni rivojlantirishning ilg'or yo'nalishlarini aniqladilar. Bu yo'nalishlarning

qo'llashda metodolo-gik asos sifatida qabul qilinishi ta'limning oqilona tashkil etilishiga omil bo'la oladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Pedagogik maqsadlarning yo'nalishini gumanitarlashtirish, ya'ni insonga beriladigan ta'lim va tarbiya jamiyat tomonidan in-sonning o'zi uchun xizmat qilishiga imkon berish.

2. Pedagogik jarayonlar orasidagi asosiy sub'ektlar o'qituvchi va o'quvchi munosabatini ob'ektiv-sub'ektiv shakldan dialog muno-sabatiga asoslangan sub'ektga ko'chirish. Bunda o'qituvchining ma'-naviy intellektual ta'siri ostida har bir o'quvchining o'z imko-niyatlarini to'la ishga sola olishlari ta'minlanishi kerak. Buning uchun nazariy-amaliy asosda tashkil etilgan maktab jamoasi ham butanlay o'zgarishga o'tishi kerak bo'ladi. Bu tashkilot pedagog va o'quvchilarning bosh yo'nalishi bo'lgan ma'naviy-ahloqiy va intel-lektual muhitni yaratishda birgalikda hamkorlik qilishlariga im-kon berish, shu bilan birga erkin o'quvchining shaxsi pedagog shaxsi bilan teng qo'yilishi kerak.

3. Shu vaqtgacha muntazam o'rnashib qolgan shaxsni bir xilda ijtimoiylashtirishdan farqli o'laroq, milliy, tabiiy, demogra-fik va ruhiy-fiziologik asoslarga o'quvchilarning individual xu-susiyatlari diqqat –e'tiborini kuchaytirish. Bunday holda har bir bolaning shaxsida zohir bo'ladigan ichki kechinmalarni avaylashga e'tibor berishni kuchaytirish muhimdir. Bunda «har tomonlama va uyg'un rivojlantirish» chaqiriqlariga qarama-qarshi o'laroq, shaxs-ni shakllantirishda faoliyat-xizmat tarzida yondashish yo'nalishi aniq ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

4. Ta'lim mazmuniga bo'lgan qiziqish “moddiy tomondan ri-vojlantiruvchi” yo'nalishga o'tishi. Boshqacha qilib aytganda, ta'-lim mazmuni “tayyor” holda beriladigan bilimlar miqdoriga emas, balki o'quvchilarning ijobiy tashabbuslari, faoliyatlarini rag'-batlantirish, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga xizmat qilmog'i kerak. Ya'ni dunyo, madaniyat, tabiat, hayot, oila, salomatlik kabi umuminsoniy tushunchalarni o'z ichiga olgan pedagogik jarayon-ning asosiy funksiyasini tashkil qiluvchi tarbiya masalalarini ta'lim orqali hal qilishga intilishdir.

5. Davlat va maktab akademik litsey, kasb-hunar kollej-lari orasidagi o'zaro munosabatlar xarakterining o'zgarishi – bu ta'lim muassasalarining mustaqil faoliyat ko'rsatishi bilan bog'-liqdir. Bu respublikamizdagi o'ziga xos xususiyatlari, sharoitlari bilan farq qiladigan hududlarda OO'Yu, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning o'ziga xos ravishda rivojlanishlariga davlat tomonidan kerakli sharoitlar yaratish orqali amalga oshi-riladi. Shuning uchun ham mustaqil davlatimizning yangilangan ta'lim siyosatini amalga oshirishi va zamonaviy pedagogik texno-logiyalarning samarali qo'llanishida mahalliy idoralar, hokim-liklarning mustaqil faoliyatlari muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim tizi-miga kirib kelar ekan, kerakli pedagogik shart-sharoitlar bo'li-shini taqozo etadi. Ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy izlanish-laridan ma'lumki, agar pedagogika jarayonda moddiy-texnik ta'-minot, mazmun, uslub, usul, o'qituvchi shaxsi o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda ta'sir etsagina, bu jarayon mukammal va samarali bo'-lishi mumkin.

Gap zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktab – kollej va oliy o'quv yurt-larining moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'yadi.

Mashg'ulotlarni guruhlariga ajratib va individual o'tish uchun o'quvchi-talabalarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni (auditoriya, sinf xonasi, kutub-xona, sport zali, ustaxona va h.k.) ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli material-lardan foydalana oshishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jurnallar, ga-zetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishi uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini engillashtirish uchun auditoriya, sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir.

Pedagogik jihatdan ta'minlanishning yana bir elementi, bu – o'qituvchi shaxsi, maktab, akademik-litsey, OO'Yu, pedagogik jamoa-sini shakllantirish, pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq zamonaviy maktab, kollej, universitet va institut-larda jahon andozalariga mos ravishda o'qitish ishlarini yaxshi-lash maqsadida pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash si-fati, kasbga tayyorgarlik darajalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'l-lashda maktab, oliy va o'rta ta'lim muassasalarining adaptatsiya jarayonidan o'tishiga imkon berishi ham pedagogik jihatdan ta'minlanishning elementlariga kiradi. Shu bilan birga o'quvchilar va talabalarning intellektual rivojlanganligi haqidagi axbo-rotga ega bo'lish zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy ta'lim, ZPT yangi ruh va mazmundagi pedagogik tafakkur, taraqqiy-parvar fikr, g'oyalar mah-sulidir. Yangi fikr, g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi ijtimoiy-ma-daniy muhit ahvoli tahlil qilingan holda ta'limni insonpar-varlashtirish, yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha ishlash zamonaviy pedagogik tafakkurning asosi bo'-lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim natijasini kafolatlaydi-gan, ta'lim tizimining rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotiga hissa qo'shadigan zamonaviy pedagogik texnologiya-larning kirib kelishiga zamin yaratadi.

Bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi: ta'limning har bir bosqichida zamonaviy pedagogik tex-nologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlarini isloh qilish, ya'ni demokratlashtirish, fuqaro-lik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvarlashtirishga sa-marali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-kontseptual asosga ega bo'lgan-dagina qo'llash muvofiqdir. Qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining xohlab, qoniqib o'qishiga imkon berishi va jamiyat ta-raqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafo-latlashi kerak. Zamonaviy pedtexnologiyalar qo'llanilishidan ol-din adaptatsiyadan o'tishi, pedagogik shart-sharoitlar, moddiy-tex-nik baza hisobga olinishi lozim.

Agar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ilmiy asos va kafolatlangan natija bo'lmas ekan, bunday texnologiyalar oqibati shaxs kamoloti, ta'lim tizimi va jamiyatning yuksalishiga to'g'anoq bo'laveradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, hozirda xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtrish hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud. Zotan, metodika - biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmui. U alohida metodikalarga ajraladi. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan farqi-ni tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi. Ular orasidagi farqlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan metodika orasidagi ayrim farqlar

Asosiy tushunchalar	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar	Metodika
Ta'riflar	Zamonaviy pedagogik texno-logiyalar insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat	Metodika – ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tar-biyaviy ishlar qonuniyat-larini tadqiq qiladi.
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning sifatli bo'li-shini ta'minlash
Qo'llash miqyosi	Butun ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o'qitish-da hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vo-sitalar, xususiy metodika-lar	Alohida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiya-viy ishlarda qo'llanila-digan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'lim va tarbiya texnolo-giyasi asosida. Ta'lim menejmenti va mar-ketingi asosida. Ta'lim – tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Etarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash na-tijalar olinishi ta'minla-nadi.	Ta'lim-tarbiya metodika-si ijodkor o'qituvchilar-ning ilg'or tajribalariga tayanib, rivojlanadi. Xu-susiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or peda-gogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bunda nati-jalar har kimda har xil bo'ladi. Zamonaviy pedago-gik texnologiyalarning tar-kibiy qismi hisoblanadi.
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor	Oldindan belgilangan maq-sadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab daraja-sidagi natija kafolatlan-maydi. Asosan ijodkor o'qi-tuvchilargina yaxshi nati-jaga erishadilar.
Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natija-sida kelib chiqqan.

Ushbu farqlar yuzasidan quyidagi farqni eslash mumkin: “As-lida zamonaviy ta’lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni ho-zircha batamom bo’g’ib tashlamagani deyarli mo’jiza, chunki bu nozik nihol (ya’ni, qiziquvchanlik) rag’batlantirish bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, yo’qsa bu shaksiz, mahv bo’la-di” (A.Eynshteyn).

Bu erda ta’lim metodlari qiziquvchanlikka etarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnolo-giyalar esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlan-tirishga qaratilgan.

“Pedagogik texnologiya”lar tushunchasi xususiy fanlar va ma-halliy darajalardagi o’qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratili-shida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko’proq protsessual, miqdoriy va va hisob-ki-tob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, si-fat va variantli yo’naltiruvchi tomonlar ko’proq ifodalanadi. Tex-nologiya mataeriallardan o’zining qayta tiklanuvchanligi, natija-larining turg’unligi, ko’plab “agar”lar (agar o’qituvchi iste’dodli bo’lsa, agar bolalar qobiliyatli bo’lsa, agar yaxshi ota-onalar bo’l-sa...) yo’qligi bilan farq qiladi.

Ya’ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo’lgan hamma mu-taxasislar tomonidan qayta tiklash va qo’llash mumkinligi bilan juda ham individual bo’lgan metoddan farq qiladi.

Metod – biror harakatni amalga oshirish yo’li, usuli yoki ko’-rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo’li deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo’llash mumkin bo’lgan bir nechta yo’ldan oldindan ko’zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo’lga aytiladi. Masalan, savod o’rgatish yo’llari: oilada o’rgatish, maktabda o’rgatish, bog’chada o’rgatish, o’qituvchi yordamida o’rgatish, kitoblar, kompyuter, ko’rgazmali qurollar va boshqalar vositasi-da o’rgatish. Shunga o’xshash sanoqni, arifmetik amallarni o’rga-tishda ham yuqoridagiga o’xshash yo’llardan foydalanishi mumkin. Shu yo’llardan foydalanib, harakatni amalga oshirishda turli usullar qo’llaniladi.

Harakatni amalga oshirish usuli deb, tanlangan ma’lum yo’l-dan foydalangan holda oldindan ko’zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo’llanadigan harakat usullariga aytiladi. Bular oilada, bog’chada, maktabda savod o’rgatishni amalga oshirishda o’qituvchi-ning, tarbiyachining qo’llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta’lim-tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvo-fi-q qo’llash usullarini o’z ichiga oladi. Shunga o’xshash arifmetik amallarni o’rgatish yuzasidan tanlangan har bir yo’l ham o’ziga xos usullarni qo’llashni nazarda tutadi.

Demak, har bir harakat ma’lum yo’l bilan va shunga muvofiq usulda amalga oshiriladi.

Biror harakatni amalga oshirish ko’rinishi deb, shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko’rinishga aytiladi. Bunda harakatning yo’-nalishi, yo’nalish o’zgarishi, tezligining ortishi, sekinlashuvi, to’xtashlari, bir nechta harakatning bir vaqtda bajarilishi yoki ularning oraliqlari, harakat natijasida shakllar, fazoviy holat-lar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirlarning tekisligi yoki g’adir-budurligining

o'zgarishi va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi.

Hozirda metodlar, metodikalar va texnologiyalar bitta tushun-cha sifatida idrok qilinmoqda. Texnologiyalar va metodikalarni aralashtirib yuborish shunday hollarga olib keladiki, ba'zan metodika texnologiyalar tarkibiga kirib qoladi, ba'zan esa aksincha.

Umuman, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayoni (ya'ni o'qituvchining, o'quvchi-talabanning pedagogik faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan¹.

2.2. Ta'lim tizimiga yondashuvlar va dars o'tish metodlari. O'quv jarayonida axborotlarni qabul qilish. Ko'rgazmali-an'anaviy (tushuntirish – illyustrativ) yonlashuv. O'qitishga texnologik yondashuv, tadqiqiy-ijodiy yondashuv va boshqa nuqtai nazardan yondashuvlar

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda ta'-lim mazmunidan kelib chiqib o'ziga xos usul va vositalardan foy-dalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar metodlariga quyidagilar kiradi.:

- o'qitishning faol metodlari;
- pedagogik texnika va pedagogik ishlab chiqarish asoslari;
- ta'lim jarayonini individuallashtirish;
- ilg'or pedagogik tizimlarni loyihalash;
- ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;
- modulli ta'lim texnologiyalari;
- pedagogikada innovatsion jarayonlar;
- pedagogik mehnatni tashkil etishning ilmiy asoslari;
- pedagogik test va standartlar;
- o'quvchi-talabalar va o'quv muassasalari reytingi (shuning-dek, o'quv rejalari va dasturlari);
- ishbilarmonlik o'yinlari;
- o'yin madaniyati;
- o'yin texnikasi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni faoliyatli tashkil etish ta'-limning zamonaviy vositalari, o'qitish vositalari, ta'lim turlari-ning ta'lim vositalariga muvofiqligini ta'minlashga bog'liqdir.

Pedagogik entsiklopediyada izohlanishicha, ta'lim metodi – ta'-lim mazmunini o'zlashtirishni ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchi-talabanning o'zaro aloqador ketma-ketlikda faoliyati tizimidir.

Ta'lim metodlari qo'yilgan maqsad, o'quv jarayoni sub'ekti-ning o'quv materialini o'zlashtirish usullari va shakllariga bog'-liq. Ma'lumki, ta'lim metodlari ta'lim mazmuni va maqsadiga muvofiq o'zgaradi.

O'qitishning faol metodlariga bo'lgan talab XIV asrda yuzaga kelgan bo'lsada, 1950 yillarda “uzluksiz ta'lim” termini qo'lla-nilishi bilan bu talab amaliy ifodasini topdi.

¹ Qarang: Yo'ldoshev J..G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi, 2004, 24-27 betlar.

Sotsiologlarning ta'kidlashicha, oliy o'quv yurtlari bitiruv-chilari har yili 5 % bilimlarini, 15 yildan so'ng 75 % bilimlarini yo'qotar ekan. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimiga talab kuchaydi, malaka oshirish va ta'limning faol metodlari, illyust-ratsiyalari takomillashib borishi "innovatsiya an'anasi"ning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Faol ta'lim metodlarining tadqiqotchilari-zamonaviy peda-goglar ko'p qirrali ta'lim metodlarini turli asoslariga ko'ra uch guruhda tavsiflaydi: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar.

Ta'lim metodlari uslublardan tarkib topadi. Ayni vaqtda pe-dagogikada quyidagi faol metod va uslublar qo'llaniladi:

1. Mikrota'lim (o'quv materialini bilimlarini kichik qismlarini ko'p qirrali ishlab chiqarishga ketma-ketlikda tatbiq etish). Pedagoglar mikrota'lim tarafdorlari ko'p qirralikni darsning ki-rish qismi elementi sifatida tavsiya etadilar, ya'ni tashkiliy qism, mashq, yangi harf, grammatik qoida va boshqalar.

2. Ta'limning modul texnologiyasi: didaktik birlikka qo'shish, ko'paytirish, konspektlashtirish, sana va so'zlarni esda saqlab qo'lish uslublari, test o'tkazish, optimallashtirish va h.k.

3. Mavzular mazmuniga muvofiq bilimlarni majmualash (bi-rinchi dars-axborotli, ikkinchi-muammoli, uchinchi-amaliy, to'rtin-chi mustahkamlash, test o'tkazish.

4. Ta'limning jamoa vositalari, o'quv matnlarini qismlarga bo'lib o'rganish. Bu uzluksiz tarzda o'quv matnlarini ketma-ketlik-da, uzluksiz o'quvchi-talabalar tomonidan o'rganish.

5. Ishbilarmonlik o'yinlari (o'qituvchi kasbiy faoliyatiga o'x-shashlik) o'yin texnikasini qo'llash uslublari: "aqliy hujum", "la-birint", «muammolar maydoni» va boshqalar.

6. Muammoli ta'lim metodlari (etishmaydigan bilimlar haj-mini aniqlash – muammolar tahlili – fanlararo aloqalarni aniq-lash, mustaqil hal etishga tayyorlash).

7. Qator muammolarni hal etish uchun vaziyatli tahlil: "vazi-yat-illyustratsiya", "vaziyat-baho", "vaziyat-muammo", "vaziyat-mashq".

8. Pedagogik trening, tez o'qish, tez yozish mashqi, fikrlash tex-nikasi, grafalogiya, mimika va taqlid pantomimika uslublarini egallash.

9. Ta'limda ilgarilab ketish metodikasini egallash.

10. Tayanch signallarni qo'llash metodikasini egallash.

11. O'quv predmeti yuklamasini orttirish metodikasini o'zlash-tirish.

12. O'quvchi-talabalar faoliyatini reyting metodi bilan baholash.

13. Pedagogik kvalimetriya (o'quvchi-talaba)ni EHM vositasi-da testdan o'tkazish.

14. Dasturli ta'limni tashkil etish.

15. O'quv rejasidagi barcha predmetlardan audiovizual kurs-lar ishlab chiqish.

16. Pedagog faoliyatini ilmiy tashkil etish.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim vositalarini bir vaqtda bir necha yo'nalishlarda qo'llash imkonini bermoqda:

multimedia – interfaol, intellektual va boshqa texnologiyalar, bular ayniqsa gipermatnli yoki gipermedial ko'rinishlarda ko'proq uchraydi.

Yangi zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash jarayonini tah-lil etish va ta'limni zamonaviy turlarini yuzaga kelish sababla-rini o'rganish ularning o'zaro bog'liq holda, ya'ni zamonaviy vosi-talarini qo'llash, ta'limning zamonaviy turlaridan foydalanish-ni taqozo etadi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish mexanizmi qu-yidagi qonuniyatga asoslanadi:

- ijtimoiy buyurtmani shakllantirish;
- zamonaviy ta'lim vositalarini ishlab chiqish;
- uni qo'llash texnologiyasini yaratish (ya'ni ta'lim usullari);
- ta'lim tamoyillari tizimlarini yaratish (ya'ni zamonaviy ta'lim turlariga xizmat qiladigan qoidalarni shakllantirish).

Yuqorida ta'kidlangan faoliyat pedagog-texnolog va metodist-larning to'plangan dalillar va ularni tizimli tahlil qilish aso-sida kasbiy mahoratni amalga oshirishiga yordam beradi¹.

“Buyurtma – vosita – uslub – yondashuv – ta'lim turi” tizimi-da kinoproektor, o'quv magnitofoni, radio va televidenie, linga-fon xonasi, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, multimedia va gipermantli ta'lim turlarining intellektual tizimi yordami-da o'zlashtiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar rivojlanishining kontsep-tual shakli ta'lim vositalari, ta'lim metodlari, ta'limga yonda-shuvlar, ta'lim turlarining rivojlanish jarayonlarini tushunti-rib beradi.

Ma'lumki, ta'limning zamonaviy vositalari deganda, biz o'quv matni (yoki tasvir, axborot tashuvchilar (qog'oz, slayd, disk ap-parati va ta'limni amalga oshirish vositalari (proektor, magni-tafon, EHM, nusxa ko'chirish apparati) va hokazolarni tushunamiz. Demak, matn tashuvchi apparat ayni vaqtda har qanday darajadagi o'quvchi va talaba uchun ta'lim vositasi hisoblanadi.

Umuman, har bir o'quv yurti doirasida o'ziga xos ta'lim vosi-talarining avlodi, usullari, yondashuvlari va ta'lim turlarida alo-hida amalga oshirish entuziastlaridan foydalanish zarur. Oliy o'quv yurtlarida ta'limning og'zaki turi ko'proq uchraydi. Ta'lim vosita-larini intellektullashtirish jarayoni doimiy takomillashib bo-radi va ta'limning zamonaviy texnologiyalarini, turlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, XII asrdan boshlanib XX asr oxirigacha ko'plab o'quv yurtlarida juft-guruhli ta'lim shakllari: bilim – tajriba – o'quv-chi – talabalar modeli asosida amalga oshirilgan. Mazkur paradig-ma guruhli deb nomlanib, talabalarning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, talabalarning vaqtlarini samarali o'tkazish, qayta aloqa sifati va sonini orttirish, didaktik materiallar si-fatini yaxshilash, talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini ken-gaytirish, rivojlangan ta'lim tizimini joriy etish, yangi kurs-larni loyihalash, o'quv rejasi mazmunini takomillashtirish, tala-balarning o'quv imkoniyatlari va muvaffaqiyatlarini orttirish, talabalarni baholashda (ommaviy ta'lim) gipermatn ko'rinishida-gi darslarni tashkil etish, ma'lumotlar ta'minot manbaini belgi-lash va boshqalar – bular hammasi intellektual ta'lim vositalari muammosini hal etadi.

¹ Qarang: Tolipov O'.Q., Usmanbaeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari - T.: 2006, 82-bet

Gipermatnli yondashuvning oddiy matndan farqi, elementlarni chiziqli ketma-ketligi ko'p darajali aloqalar asosida taqdim etila-di. Bu ta'lim jarayonini tuzishda axborotlarni ikkita texnologiya: multimedia va gipermatn asosida birlashtirish bilan zamonaviy ta'lim turi-gipermedial ta'limni shakllantirishga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim vosi-talarining yangi avlodi va ta'lim texnologiyasining oxirgi turla-ri ko'rinishida o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Bu bilan barcha o'quv yurtla-ri ta'limning zamonaviy turlariga bir vaqtda o'ta oladi, deb ayta olmaymiz. O'quv yurtlari, kollejlari va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy resurslari bir-biridan farq qiladi. Ta'lim muassasala-rida o'quv jarayonini kuzatish natijasida alohida olingan o'quv yurtlari darajasida ta'limning yangi turlariga o'tish ancha uzoq vaqt talab etadi. Buning uchun uchta sharoitni yaratish zarur:

1. Mavjud yaroqli vositalarning yangi avlodini va noto'liq ap-parat qismlarini ta'mirlash;

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va har qanday sohaga oid o'quv matnlarini tarjima qilish qobiliyatiga ega bo'lgan mahoratli pedagog-iqtisodchilarni tayyorlash;

3. Ta'limning texnik vositalaridan foydalanish jarayonida pedagoglar duch kelayotgan qiyinchiliklar, shuningdek, «faoliyatsiz farqlash» sabablarini o'rganish va bartaraf etishga erishish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan yangi para-digma, to'liq interfaol ta'lim jarayonidan iborat. Har bir talaba o'quv axborotlarini uch manba: o'qituvchi bilan, ma'lumotlar bazasi (muayyan fan bo'yicha o'quv doirasida), ekspert va shartli istalgan talabalar guruhi bilan o'zaro faoliyati natijasida egallaydi¹.

Bugungi kunda jahon miqyosida 30 ta mamlakatdagi 7000 dan ortiq universitetlar va kollejlari masofaviy ta'lim tarmoqlari orqali bog'langan. Ayni vaqtda Amerika, Angliya va Kanada univer-sitetlarida "uydan chiqmasdan" diplom olish mumkin.

Individuallashtirilgan ta'lim tabaqalashtirilgan, ochiq das-turli, masofaviy, avtomatlashtirilgan, modulli va boshqa shakl-larda bo'lishi mumkin.

Masofaviy ta'lim ikkinchi mutaxassislik yoki uchinchi oliy ta'lim olishni xohlovchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. An'anaviy sirtqi ta'limdan farqli o'laroq, ushbu ta'lim turida yangi shakl – kompyuter aloqalari vositasidan (modemlar, ta'li-miy videodastur, testlar va hokazolardan) foydalanish o'ziga xos mazmun baxsh etadi.


Yuqorida aytib o'tilganidek, ZPTni dars jarayonida qo'llash uchun o'ziga xos vositalar zarur bo'ladi. Har bir pedagogik texno-logiyada qo'llaniladigan vositalar umumiy o'xshash bo'lib, ularning turlari ko'p. Ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajartish mumkin: verbal, noverbal, vizual, audio, tabiiy o'quv anjomlari hamda maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yur-ti jihozlari.

Verbal vositalarning asosini axborot tashkil qiladi. Bular so'zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orqali ifodalab berish uchun

¹ Qarang: Tolipov O'.Q., Usmanbaeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari - T.: 2006, 84-85-betlar

o'qituvchi uni o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni shu axborot haqidagi bilimga ega bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, pedagogik texnologiyalarning verbal vositalarini o'qituvchining bilimlari darajasidagi axborotlar tashkil qiladi. Shu sababli hozirda ta'lim jarayonida faqat o'quvchi-talaba va o'qituvchining ishtirok etishi etarli bo'lmay qoldi.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalarining tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o'quvchi-talaba va o'qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya'ni, hozirda sifatli ta'lim berish uchun an'anaviy ikkita tomon – o'quvchi-talaba o'qituvchiga zarur axborotlarni etkazib turuvchi xizmatdan iborat uchinchi tomon faoliyatini tashkil qilish zarur.



Bu yo'nalish axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo'nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni o'quvchi-talabalar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash o'quvchi-talaba bilan o'qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi. Buni yuqoridagi sxema shaklida ifodalash mumkin.

Bu shakldan ta'lim jarayonida har bir axborotni o'qituvchi o'zlashtirgan darajada, uning mantiqiy tafakkuriga, nutqiy qobiliyatlariga, dunyoqarashi va mafkurasiga muvofiq ravishda bo'lishi ko'rinib turibdi.

Verbal muloqot shakllari har xil bo'lib, ularning asosiylari nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol so'rash, savolga javob berish, bahs, munozara, muzokara, xabar berish, kengash, maslahat, nasihat tanbeh, tab-rik, salomlashish, xayrlashish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu verbal muloqot shakllarida qo'llaniladigan nutq into-natsiyalari so'zlovchining fikrlaridagi uning maqsadiga muvofiq bo'lgan ma'no-mazmunlarni chuqurlashtirish, yaqqollashtirish imkonini beradi.

O'qituvchi o'quvchi-talaba uchun ma'lum bo'lgan tushunchalarga asoslangan holda yangi axborotlarni tanishtirib, tushuntirib boradi.

Bu jarayonda o'quvchi-talabalar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, tushunish, idrok qilish, mantiqiy fikrlash (tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish) xotirada saqlash, qayta eslash faoliyatlari bilan band bo'ladilar. Bunda o'quvchi-talabaning qiziqishi, havasi, ehtiyoji, manfaatdorligi, qobiliyat, iste'dod, iqtidori uning muvaffaqiyati asosi bo'ladi.

Yuqoridagi fikrimizning dalili sifatida verbal muloqot shakllaridan ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'ruzalarni faol usulda o'tkazish. Har qanday yuqori saviyada o'tkazilgan ma'ruza, garchand u faktlarga boy bo'lsa ham, agar uzoq vaqt davom etsa, o'quvchi-talabaning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Bu holat o'quvchi-talabani loqayd eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha uzoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamaya boradi.

Shuning uchun ma'ruzani kichik pedagogik texnologiya darajasi-da quyidagicha tashkil etish o'quvchi-talabalar uchun qulaylik tug'diradi.

Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha qismga bo'ladi. Har qismini 15-20 daqiqa davom ettiradi va so'ng to'xtab, mavzu bilan bog'liq qis-qa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Ma'ruza davomida ay-rim muammolarni o'rtaga tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga o'quvchi-talabalarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrla-rini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham tinglaydi. Bu holat ma'ruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartira-di, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. O'quvchi-talabalar-ni yakka tartibda suhbatga tortish 5 daqiqagacha davom etadi.

Ma'ruzachi o'quvchi-talabalarning qiziqish, intilish, mas'u-liyati oshib borishini kuzatib boradi. Ma'ruza davomida munta-zam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruza-chining tayanchiga aylanadi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta o'quvchi-talabaning kun-dalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi va qisqa munozaralar orqali tegishli echimlar topiladi.

Shu holda kechgan ma'ruzalarda o'quvchi-talabalar vaqt qanday o'tganini bilmay qoladilar. Ma'ruzaning yana davom etishini xoh-lab, befarqlik o'rnini hushyorlik, ichki intilish, echim qidirish egallaydi, o'zlari ham echimni topishda shaxsan ishtirok etishga hissa qo'shishga intiladilar.

Bunday ma'ruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshi-radi, navbatdagi munozaralarga chorlaydi.

Davra suhbatlari. Davra suhbatida ma'ruzachi-o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari, ko'pincha, o'quvchi-ta-labalarga tanish yoki ularga yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbatlari mavzulari, rejalari, savollari o'quvchilarga bir necha kun oldin tarqatiladi. Bunda o'quvchi-talabalar uchun mustaqil tayyor-garlik ko'rish, bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashish, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ish-lash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir o'quvchi-talaba unga individual tayyor-garlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bi-lan keladi. Suhbatni o'qituvchi, ba'zan etakchi o'quvchi-talabalar olib borishi mumkin.

Davra suhbatlari dars jadvali asosida oldindan rejalashti-rilgan holda tashkil qilinadi.

Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir o'quvchi-talaba o'z bilimini, og'zaki nutqini, shaxsiy fikrini emin-erkin namoyish etishiga sharoit yaratiladi. O'quvchi-talaba hamda o'qituv-chining shaxsiy mas'uliyati oshadi, ham o'qish, ham o'rganish birgalik-da davom etadi. Materialni o'qib-o'rganishga, o'zaro fikr almashish-ga, o'zlashtirishga motiv oshadi. Bilim olish, uning o'zlashtirishi kafolatlanadi.

Munozaralar o'tkazish. Munozaralarni tashkil etish va o'tkazish tashkilotchidan juda jiddiy tayyorgarlikni, ijodiy muhit yaratish-ni talab etadi. O'qituvchi ilgari-dan munozaraning mavzusini, uni o't-kazish rejasini, vaqtlarini o'quvchilar bilan o'zaro kelishib oladi.

O'quvchi-talabalarga o'quv yili boshlanishida munozara mavzu-lari e'lon qilinib, ularga tayyorgarlik ko'rishlari uchun vaqt beriladi. Munozara muhokamasiga maktab rahbariyati, mahalla faol-lari, mutaxassislar taklif etiladi. Munozaraga boshlovchi tayin-lanadi. Boshlovchi juda keng qamrovli bilimga ega bo'lishi kerak.

Munozara davrida vujudga keladigan muammoli masalalar, ay-niqsa, chigal fikrlar bo'yicha ularni chuqur tahlil qilish qobiliya-tiga ega ekspertlar taklif etiladi. Munozarani olib borishda uning ishtirokchilarini qiziqtirib, qovushtirib, boshqarib, zarur yo'llanmalar berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan muno-zara jarayonida to'g'ri xulosalar chiqarish juda katta mas'uliyat ta-lab etadi.


Munozaralar mavzuga qiziqish bildirgan sinflar yoki guruh-larni qo'shib, aksincha hollarda esa, ularni guruhlarga bo'lib, za-rur bo'lgan ayrim hollarda katta zallarda, katta sinf xonalarida yoki auditoriyalarda olib boriladi. Munozara erkin fikr yuritish va o'z shaxsiy fikrini asoslashga o'rgatadi. Eng muhimi, o'quvchini mustaqil mutolaaga, fikr almashuv orqali o'z bilim va malakasini oshirishga olib keladi.

Noverbal vositalar imo-ishora, qo'l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mavzuni ifodalash yoki ta'kidlashdan iborat. Nover-bal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'rnini bosh-qa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma'lum ma'-noga ega bo'lib, bu harakatlar turli xalqlarda turlicha tushunila-di. Bu harakatlarni noverbal nutq deb nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq insonning u yoki bu muskullarining harakati orqa-li amalga oshiriladi. Shu o'rinda insonning har qanday harakati, shu jumladan, uning fikrlashi ham undagi ma'lum muskullar hara-katidan iborat ekanligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq.

Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayoni-da o'quvchi-talabalar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan bar-cha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga sinf yoki auditoriya doska-sidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va boshqa tas-virlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlari, fotosuratlar, tas-viriy san'at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o'sim-liklar, tabiat ob'ektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko'rgazmali vositalarning zamonaviy pedagogik texnologiya-larda qo'llanilishi o'quvchi-talabalarga o'rgatish kerak bo'lgan ax-borotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko'rsatish or-qali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkonini beradi. Buni quyidagi shakl ko'rinishida ifodalash mumkin.

3-shakl



Bu jarayonda o'quvchi-talabaning faoliyati diqqatni jamlash, ko'-rish, kuzatish, tasavvur qilish, fikrlash (tahlil, qiyos, umumlashti-rish), idrok etish, xotirada saqlash va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashti-rish imkoniyatini beruvchi magnitofon tasmasi, turli disklar, bundan tashqari musiqa asboblarning ovozi va boshqa tabiiy ovoz-lar bo'lishi mumkin.

Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtning o'zida eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va bosh-qa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi.

Bu pedagogik vositalardan samarali foydalanish uchun o'quv-chi-talabaning qobiliyati, imkoniyati, xususiyatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Ma'lumki, o'quvchi-talabalar psixologik jihatdan tashqari axborotni ko'proq ko'rish yoki eshitish, shuning-dek, boshqa sezgi a'zolari yoki harakatlar orqali yaxshiroq eslab qolib o'zlashtiruvchilar toifalariga ajratiladi. Bu toifalar quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadilar:

Ko'rish orqali xotirada saqlovchilar – matn, sxema, diagramma, jadvallarni yaxshi eslab qoladilar, xotiralarida saqlaydilar va qayta tiklay oladilar.

Eshitish orqali xotirada qoluvchilar – matnni, uning mazmu-nini kimningdir ovozi orqali xotiralarida saqlab qoladilar.

Harakatlantiruvchi kuch orqali xotirada olib qoluvchilar – yozib-chizib, tasvirlab yoki qayta-qayta takrorlash orqali xotira-larida saqlaydilar.

Aslida esa, amaliyotda shu hamma toifalarga xos xususiyatlar-ni hisobga olgan holda har bir vaziyatda tegishli ijdodiy – yon-dashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yax-shi samara berishi mumkin.

Tabiiy vositalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar ja-rayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob-usukunalar, buyumlar, mashina, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat.

O'quvchi-talaba va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zaruriy vositalari hisoblanadi.

Umuman, zamonaviy pedagogik texnologiyalar sifati va samara-dorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zaruriy vosi-talarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydala-na bilishga bog'liq.

Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malakasi, mahorati, ijodkorligi va izlanuvchanligiga bog'liq.

2.3 An'anaviy va noan'anaviy yondashuvlarning umumiy tomonlari, farqlari, afzalliklari va kamchiliklari

Ta'lim samaradorligiga erishish ko'p jihatdan o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishga bog'liqdir. O'quv jarayonini loyihalashtirishda unga yaxlit tizim, ta'lim texno-logiyasi elementlariga aniq mezonlar sifatida qarash bilan bir qa-torda ularni aniq mezonlar asosida tanlash muhim o'rin tutadi.

Ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o'quv imkoniyatlari, ta'-limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlari va o'qituvchining mahoratlari inobatga olinadi. Ta'limning maqsadi-tahsil oluv-chilarda muayyan fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifat-larini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim berish jarayonida ta'lim maqsadini amalga oshirishda turli metodlarni qo'llash lozim bo'ladi. Demak, ta'lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil sifatida o'quv mashg'ulotlarining didaktik vazifasi inobatga olinadi.

Ta'lim metodlarini tanlashning ikkinchi mezonini dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko'pligini tashkil etmasa, u holda faol o'qitish metodlaridan foydalanib, o'qitishni jadal sur'atlarda olib borish mumkin bo'ladi. Agarda ko'p bo'lsa, ularning har biriga e'tibor berish uchun vaqt etishmasligi natijasida tahsil oluvchilarni boshqarish muvaffaqiyatsizlashadi. Bunda o'quv materialini bayon qilishda ko'proq og'zaki usullardan ya'ni: ma'ruza, hikoya, tushuntirishlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-shakl

O'quv maqsadi	Tanlash metodlari
Bilim	Ma'ruza, namoyish, videousul, bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, ishbop o'yin, rolli o'yin, muammoli vaziyat, loyihalash, davra suhbatlari
Ko'nikma va malaka	Laboratoriya ishlari, amaliy mashqlar, ishbop o'yin, rolli o'yin, muammoli vaziyat, loyihalash, yo'naltiruvchi matn hamda to'rt pog'onali metodlar

O'quvchi-talabalarni o'quv imkoniyatlari - bunda tahsil oluvchilar-ning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini e'tiborga olish mumkin.

Tahsil oluvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini quyidagi darajalarga bo'lamiz:

- birinchi daraja – o'quvchi-talaba berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to'liq tushunadi, vazifani bajarishda qoidalarga rioya qiladi va uni oxirigacha to'liq saqlaydi. Diqqat bilan vazifalarni aniq bajaradi, bajargan ishini nazorat qila oladi, agar xatoga yo'l qo'ysa, uni sezib, bartaraf etadi, vazifani topshirishga shoshilmaydi hamda uni to'g'ri, sifatli bajarilganini yana bir bor nazoratdan o'tkazadi;

- ikkinchi daraja – o'quvchi-talaba berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to'g'ri tushunadi, vazifani bajarish qoidalarga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda saqlaydi. Ish jarayonida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin, lekin uni sezmaydi va tuzatmaydi. Bajargan ishini tekshirish paytida ham xatolarni sezmaydi. Demak, tahsil oluvchi yaxshi baho olishga intilgan bilan bajargan ishining sifati uni qiziqitirmaydi.

- uchinchi daraja – o'quvchi-talaba berilgan vazifani bajarish ketma-ketligi davomida faqatgina uni bir qismini tushunadi, lekin mashg'ulot yakunigacha esda saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e'tiborsizlik tufayli emas, balki vazifani bajarish ketma-ketligini eslab qolmaganligi natijasida xatolarga yo'l qo'yadi. Odatda u xatolarni sezmaydi va ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Demak, tahsil oluvchi berilgan vazifani sifatli bajarishga harakat qilmaydi hamda olingan natijalarga sovuqqonlik bilan qaraydi.

- to'rtinchi daraja – o'quvchi-talaba vazifani bir qismini tu-shunadi, lekin shu zahotiy oq uni esdan chiqaradi, o'z xatolarini sezmaydi, ularni tuzatmaydi vazifani to'g'ri bajarilganligini na-zorat qilmaydi, natijada bajarilgan ish sifatiga befarq bo'ladi.

- beshinchi daraja – o'quvchi-talaba berilgan vazifani baja-rish ketma-ketligini to'la tushunmaydi, faqatgina qalam bilan qo-g'ozdan foydalanish kerakligini anglab oladi.

Ta'limning davomiyligi ham metodlarni tanlashga ta'sir eta-di. Bunda:

- * darsga ajratilgan;

- * vazifani bajarishga sarflanadigan;

- * ta'lim metodlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqt-larni hisobga olish zarur.

O'quv – moddiy sharoitlari: bunda mavjud shart-sharoitlarga asoslanish zarur.

Ba'zi metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmay-di. Masalan: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit dos-kasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Agar siz, maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo'lsan-giz, ularni ta'minlashingiz kerak bo'ladi.

Birinchi shakldan ko'rinib turibdiki, o'qituvchiniing mahorati tahsil olganlarning o'zlashtirish darajasini va o'qitish metodlari-ni ta'sir darajasini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Masalan, tahsil oluvchilarning o'quv materiallarini idrok qilish pay-tida ular qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalansa, esda olib qolingani bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

Agar bilimlar faqat ma'ruzalar orqali (passiv tinglash yo'-lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularni faqat 25% ni es-lash mumkin, xolos. Agar ma'ruzalar tinglash, namoyish qilingan va ko'rgazmali vositalar, ya'ni ko'rish orqali berilsa va shu to'g'ri-sida bahs-munozara yuritilganda berilgan bilimlar hajmini 3 kundan so'ng 75% ni eslashi mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birga-likda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarni qisqa xotiradan uzoq xoti-raga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosini tashkil etadi.

Tahsil oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metod-larining ta'sir darajasi:

1. Ma'ruza eshitish orqali	5%
2. O'qish orqali	10%
3. Videousul, namoyish-ko'rish orqali	20%
4. Tajribani namoyish qilish orqali	30%
5. Bahs-munozara, muhokama qilish orqali	40%
6. Mashqlar, o'qigan, yozgan, gapirish orqali	50%

7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash –musta-qil o'qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish orqali 75%

8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish – mustaqil o'rganilganini tahlil va muhokama qilish, boshqalarni o'qi-tish orqali berilayotgan axborotni 90% esda saqlanib qolishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga binoan ta'lim metodlari-ni tanlashda yuqorida keltirilgan mezonlarga asoslangan holda o'quv jarayonlarini to'liq loyihalashtirish

orqali tashkil etilsa va berilgan o'quv materiallari mazmuni tahsil oluvchilar ongiga tez-oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarining sifati bi-lan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy-intellektual salo-hiyatini oshiradi, natijada tahsil oluvchilarning erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

3- MAVZU: “AUDIT” FANINI O’RGANISHDA QO’LLANILADIGAN METODLAR VA ULARNI TANLASH MEZONLARI.

3.1. “Audit” fanini o’qitishda metodlardan foydalanishning ahamiyati, maqsadi va dars jarayonida qo’llaniladigan metodlar tavsifi

3.2. “Audit” fanini o’qitishda dars o’tish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari ularni tanlash xususiyatlari,

3.3 “Audit” fanini o’qitishda zamonaviy pedagogik metod va o’yinlarni qo’llash tartibi

3.1. “Audit” fanini o’qitishda metodlardan foydalanishning ahamiyati, maqsadi va dars jarayonida qo’llaniladigan metodlar tavsifi

Darhaqiqat, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”– gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, ilg’or metodikalarni qo’llagan hol-da tashkil qilish va o’tkazish shu kunning muhim muammolaridan hisoblanadi.

Hamмамizga ma’lumki, ta’lim jarayonida o’qituvchi bosh omil. U rejalashtirilgan ma’lumotlarni talabaga tezroq berishga harakat qiladi, lekin ta’limning asosiy ikki jihatiga e’tibor beradimi?

Ta’limning tashqi jhati – o’qituvchi harakatlarining izchil-ligi va talabalar harakatiga mos kelishidir. Ichki jhati talaba-ning holatini, uning bilim olishdagi faolligini, ma’lumotlar-ni o’zlashtirish darajasini ifodalaydiki, bu holat o’qituvchining ish usulubiga to’liq mos kelavermaydi. Talaba o’qituvchi o’rgatgani-dek fikr yuritishga intilsa-da, baribir o’zicha mulohaza yuritadi.

Talabalarning ma’lumotlarni qabul qilish darajasi bir xil, bilishlari turlicha, ular passiv eshituvchi. Bu ularning ta’lim ja-rayonidagi mas’uliyatni va javobgarlik hissini susaytiradi, ular mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish va bu xulosalardan umum-lashmalar hosil qilishdan yiroqda.

Talabalar yuqorida nomlangan ta’lim metodlarini o’rganish zaruratini bilishadi, lekin tajribalar shuni ko’rsatdiki, ma’ru-za darslarida o’qituvchi kutganidek natija bo’lmaydi. Shuning uchun har bir talabaga alohida – alohida yondashish ularning har biri uchun ushbu talabni o’rganish bo’yicha mustaqil topshiriqlar berilishi kerak, toki talaba metodlarning ilmiylik jihatlarini to’liq tushunib etishi uchun bilimlar etarli bo’lsin.

Ilmiy manba. Uslubning ommabopligi deganda o’quvchi-tala-balarning rivojlanishiga va ruhiy-pedagogik imkoniyatlariga ush-bu uslubning muvofiq kelishi tushuniladi. Bu uslub asosan uchta qoidani o’z ichiga oladi:

1. Yangi ma’lumotlarni ilgari o’rganilgan ma’lumotlar bilan boshlash. Bu erda, ya’ni talabaning mustaqil ravishda ishlashi, o’til-gan ma’lumotlarni mustaqil takrorlashi, mustaqil ravishda fikr-lardan xulosalar chiqarilishi talab qilinadi;

2. Rivojlanishning erishilgan darajasiga, bilishning shakl-langan jihatlariga va talabaning xususiyatlariga tayanish reyting asosida joriy nazorat yo’li bilan aniqlanadi;

3. O'quv materialini chuqurroq o'zlashtirilishi va talabanning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish asosan ularga mustaqil o'rga-nish uchun mavzular berish, mavzular asosida referatlar yozdirish va o'qituvchining ishchi dasturi asosida keyingi darslarga tayyor-garlik ko'rishlar orqali amalga oshirilishi kerak.

4. Ta'lim metodining samaradorligi, uning o'quv materialini mustahkam egallashga qaratilganligi. Bu erda ham o'zlashtirish-tirishi kerak bo'lgan ta'lim metodining samarasi talabanning mus-taqil mehnati, mustaqil harakati, uning oldindan ushbu metod ha-qida ma'lumotga ega bo'lishiga bog'liqdir.

5. Ilg'or metodlarni muntazam o'rganib borish, zamonaviy pe-dagogik texnologiyalarni loyihalash, tanlash va amalda qo'llash.

6. Ta'lim metodining ilmiyligi qoidasiga amal qilishda G'arb va Sharq allomalari, o'zbek mutafakkirlari, pedagog-olimlari dur-donalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni boyitib borish.

Ta'lim metodlariga qo'yilgan talablar bilan bir qatorda ta'-lim metodlari bilan bo'lajak o'qituvchilarni qurollantirishda za-monaviy pedagogik texnologiyalar elementlarini qo'llash shu kun-ning asosiy zaruratiga aylandi. Har bir metodning muhimligi, muammoliligi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishligi davr taqozosidir.

Xar bir o'tiladigan darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivoj-lantiruvchi maqsadi bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun o'qituvchi rahbarligida talabalar birgalikda harakat qiladilar. Bu harakat asosan uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi kerak:

1. Motivatsiya qismi.
2. Boshqarish qismi.
3. Bilish faoliyati.

Motivatsiya qismining asosiy maqsadi talabalarda ta'lim me-todlari haqida bilim olishga qiziqish, istak, xohish va zururat uyg'otish. Agar talabada u yoki bu mavzuni o'zlashtirish bo'yicha qizi-qish, xohish va zarurat bo'lmasa ta'lim jarayoni samarasiz bo'ladi. Talaba ushbu metodlar va metodlarga qo'yiladigan talablar, ma'lu-motlar ularga qanday imkoniyatlar yaratilinishi tushunib etishi kerak. Umuman olganda, talabanning ongida "men shu mavzu bo'yicha bilimli bo'lmasam, hayotda o'z o'rnimni topa olmayman" degan fikr doimo bo'lishi kerak. Ushbu motiv ta'lim jarayonining asosiy ha-rakatlantiruvchi kuchi bo'lishi shart.

Boshqarish faoliyati qismi asosan o'qituvchiga tegishli bo'lib, u talabalarda mustaqil bilim olishga, mustaqil fikrlashga va oxir oqibat ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng to'liq nazariy bilimli, amaliy ko'nikmali va malakali o'qituvchi bo'lib shaklla-nishini nazarda tutishi kerak.

Bilish faoliyati qismi o'quvchi-talabaga tegishli bo'lib, u aso-san o'z bilimini faqat o'zigina oshirishga qodir ekanligini tushu-nib etishi va shu asosda mustaqil harakat qilishi kerak.

Bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchilarni ta'lim metodlari bilan qu-rollantirishda zamonaviy peadagogik texnologiyalar elementlarini qo'llash natijasida ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashhis qi-lish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari yaratiladi. Ku-tilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi va ta'lim jarayoni sa-maradorligi oshadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar element-larini boshqa

pedagoglar qo'llaganda ham yuqori natija beradi va ta'lim samarasi yangicha bosqichga ko'tarilib, ta'limning yangi mo'deli amalga oshadi:

- talabaning istak-xohishi, qiziqishi va harakatlari ularning imkoniyat darajasida qondiriladi;
- talabaning o'quv mehnatiga va ilmiy dunyoqarashini o'stirish-ga mas'uliyati, javobgarligi, burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash, erkin fikrlash va xulosalar chiqarish qobiliyatlari oshadi;
- nihoyat, o'qituvchi sifatida jamiyatda o'z o'rnini topib olishga muhit yaratiladi.

Demak, pirovard maqsad bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchilarga ta'lim metodlari haqida nazariy bilimlar berish, ularda bu mavzu bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma'ruza darslarini qisqartirib, ular bilan yakka holda shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil ishlashi, mustaqil bilim olishlari uchun keng yo'l ochib berishda zamonaviy pedagogik texnologiya elementlarini qo'llash shu kunning zaruratiga aylanishi kerak.

“Audit” fanini o'qitishning zamonaviy usullari. “Audit” fani va amaliyotida o'qitishning juda ko'plab usul va uslublari mavjud. O'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'qituvchi ulardan samarali va ijodiy foydalanishi lozim.

Pedagogikada turli asoslarga ega bo'lgan o'qitish usullarining bir necha tasniflari bor. Ular asosan o'quv axboroti manbai bo'yi-cha hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro ta'siri usu-liga ko'ra tasniflanadi. Usullar tasnifi ikki guruhga bo'linadi: 1) bilimlarni dastlabki (yangi o'quv materialini) o'zlashtirishga yo'naltirilgan usullar; 2) olingan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, o'quv va malakalarni egallashga imkon beruvchi usullar. Hozirgi vaqtda o'qitishning quyidagi usullari keng qo'llaniladi:

Noimitatsion usullar: muammoli ma'ruza, evristik suhbat, o'quv munozarasi, izlanish xarakteridagi laboratoriya ishi, tadqiqot usuli, o'qitish dasturi asosidagi mustaqil ish (dasturlashtiril-gan o'qitish), kitob bilan mustaqil ishlash.

Imitatsion usullar (o'yinsiz mashg'ulotlar): aniq ishlab chiqa-rish vaziyatlarini tahlil etish, ishlab chiqarish vaziyatlariga bog'-liq masalalar echish, ko'rsatmalar bo'yicha mashq-faoliyat (ko'rsat-malar bo'yicha laboratoriya va amaliy ishlar bajarish), ishlab chiqa-rish amaliyoti jarayonida individual topshiriqlar bajarish.

O'yin usullari: taqlid asosidagi faoliyat, rol o'ynash (ish o'yin-lari elementlari), ish o'yini.

O'qitishning faol usullari bilishga bo'lgan qiziqishni ortti-radi, fikrlashga, mustaqil bilim olishga o'rgatadi. Biroq ular ko'p vaqt talab etadi. Shuning uchun butun o'quv jarayonida ularni qo'l-lab bo'lmaydi. Ular bilan birgalikda an'anaviy usullar, ya'ni ma'ruza, tushuntirish, hikoya va boshqalardan foydalanish maqsad-ga muvofiqdir.

O'qitishning axborot- rivojlantiruvchi usullari. O'qitishning axborot-rivojlantiruvchi usullari yordamida talabalar tayyor holda-gi o'quv materiallarini o'zlashtiradilar. Ular o'qituvchi (ma'ruza, hikoya, tushuntirish, suhbat) yoki diktator (o'quv kinofilmi) bayonini tinglaydilar yoki o'qitish dasturi asosida mustaqil bilim oladilar, darslik va qo'llanmalardagi o'quv materiallarini o'rganadilar.

O'qitishning muammoli – izlanish usullari. Bu usullarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bunda talabalar oldiga masala (muammo) qo'yiladi. Ular bu masalalarni mustaqil hal qiladi. Bu-ning uchun esa, ular yangi bilimlar izlaydi, "kashfiyotlar qiladi", nazariy xulosalarini shakllantiradi.

Muammoli ma'ruza odatdagi ma'ruzadan shunisi bilan farq qiladiki, u savol, ya'ni muammo qo'yish orqali boshlanadi. Bu muammo esa o'quv materialini bayon etish jarayonida ma'ruzachi to-monidan izchil va mantiqiy holda echib beriladi yoki uni hal etish yo'llari ko'rsatiladi. Muammo qo'yish o'quv materialining aniq mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Ma'ruza davomida ilmiy, ijtimoiy, kasbiy muammolar qo'yilishi mumkin.

Evristik suhbat o'qituvchining talabalar fikri va javobini yo'naltiruvchi qator masalalarni qamrab oladi. Suhbatni faktlar-ni keltirib o'tish, hodisa voqealarni tavsiflash, hal etilishi lo-zim bo'lgan muammoli vaziyatni ko'rsatuvchi kinofilmlardan parcha ko'rsatish orqali boshlash mumkin.

Evristik suhbat jarayonida o'qituvchi qator masalalar qo'yib, talabalarni o'z bilimi, kuzatishlari, hayotiy tajribasi, mantiqiy mulohazalari asosida yangi tushunchalar, xulosalar, qoidalarni shakllantirishga yo'llaydi. Evristik suhbat muammoli o'qitish usulining asosi hisoblanadi.

O'quv munozarasi – muammoli o'qitish usullaridan biri. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi ayni bir muammoga tegishli ikki nuqtai nazarni ilgari suradi hamda talabalarga o'z nuqtai nazarini tanlash va asoslashni taklif etadi. Bunda tabiiy, ilmiy yoki turmush-hayot bilan bog'liq qarama-qarshi ikki nuqtai nazar tanlanishi mumkin.

Izlanish xarakteridagi laboratoriya ishi. Qator o'quv fanlarini o'tishda nazariy materiallarni o'zlashtirish bilan bir qatorda ko'rsatmalar asosida izlanish xarakteridagi laboratoriya ishlari ham olib boriladi. Bunda talabalar hodisalarning bir-biriga bog'liq va aloqador xususiyatlari haqida mustaqil xulosa chiqaradilar.

Tadqiqot usuli shundan iboratki, talabalar mustaqil ravishda o'quv tadqiqoti olib boradilar va mashg'ulotlarda uning natijasi haqida ma'lumot beradi. To'plagan materiallari asosida o'rgani-layotgan fan (kurs)ning nazariy asoslarini tasdiqlaydilar. O'quv tadqiqoti natijalaridan o'qituvchi mavzuni bayon etishda foydalanishi mumkin. O'quv tadqiqotlari fanlar bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarda ko'proq olib boriladi.

O'qitishning amaliy usullari. Kasb-hunar ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi – talabalarni kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorlash. Mehnatga tayyorlash jarayoni o'z ichiga bir tomon-dan, talabalarga mehnat faoliyatida zarur bo'ladigan bilimlar berishni, ikkinchi tomondan esa, ularda kasbiy o'quv va malakani shakllantirishni qamrab oladi. Mutaxassisning o'z mehnat faoliyatida (ayniqsa o'zgaruvchan sharoitda) olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. O'quv yoki malaka faoliyat jarayonida shakllanadi. Biroq malakani egallash uchun unga oid faoliyatni ko'p marta takrorlash, mashq qilish, muntazam amalga oshirish zarur. Tegishli topshiriqlarni bir qancha marta bajarish jarayonida talabalarda uquv shakllanadi.

Ishlab chiqarish vaziyatini tahlil etish. Mutaxassislar ishi-da tahliliy xarakterdagi masalalar katta o'rin egallaydi. Vaziyat-ni tahlil etish, baholash va bu tahlillar

asosida to'g'ri qaror qabul qila bilish – har bir rahbar-xodimning ajarmas sifatidir.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, talabalarga qandaydir ishlab chiqarish vaziyati taqdim etiladi. Bunda sharoit (shart) lar va uning ishtirokchilari faoliyati tavsiflab beriladi. Talabalar voqea ishtirokchilarining to'g'ri yo'l tutgan-tutmaganligini baholay-di hamda ularning faoliyati haqida asosli xulosa va tahlillar beriladi. Ishlab chiqarish vaziyati og'zaki bayon etish, kinoparcha ko'rsa-tish, talabalarining rol ijro etishi orqali taqdim etilishi lozim.

Kasbiy vaziyatga bog'liq masalalar. Bu usul talabalarda kasbiy malakalar shakllantirish uchun foydalaniladi.

Ishlab chiqarish (kasbiy) vaziyatiga bog'liq masalalarni echish-da o'qituvchi talabalar e'tiborini quyidagilarga jalb etadi:

- bayon etilgan ishlab chiqarish vaziyatini tahlil etish;
- masalani echishda zarur bo'ladigan usullar (me'yorlar, qoidalar, uslublar)ni aniqlash;
- masalani echish uchun kerakli ma'lumotlarni hisoblash, ularning etarligini aniqlash;
- masala (topshiriq)lar bilan bog'liq amal (hisoblash)larni bajarish;

Ta'lim muassasalarida kasbiy vaziyatlarga bog'liq masalalarni echish bo'yicha didaktik materiallar fondi yaratilishi kerak: namunalar, chizmalar, sxemalar, vaziyat tavsifi va hokazo.

Ish o'yinlari. Ish o'yinlarining afzalligi shundan iboratki, o'yin ishtirokchilari o'ziga u yoki bu rolni olib, garchan qiziqishlari bir-birinikiga mos tushmasa-da, o'zaro muloqotga kirishadilar. Natijada ziddiyatli vaziyat yaratilib, ehtirosli holat yuzaga keladi va bu o'yinga qiziqish uyg'otadi. Bunda ishtirokchilar nafaqat kasbiy o'quv va malakalarini, balki umumiy iqtidorini, o'z ta'biatida mavjud bo'lgan jur'atlilik, tezkorlik, kirishimlilik, tashabbuskorlik, faollik kabi xususiyatlarini ham namoyon etadilar. Buning uchun maxsus ish o'yinlari avvaldan ishlab chiqilishi va o'yinlar stsenariyasi (mazmuni) talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarni qamrab olishi lozim: o'yin vazifalari va ularni hal etish izchilligi; ishtirokchilarning roli va majburiyatlari; o'yin qoidalari; g'oliblarni aniqlash tartiblari.

Rol o'ynash. Rol o'ynash asosida hamisha ziddiyatli vaziyat yotadi. Masalan, ishlab chiqarish ustasi rejani bajarish uchun ishdan tashqari vaqtda ishlashga davat qiladi. Ishchi esa me'yoriy ish kuniga amal qilish bo'yicha o'z huquqini himoyalab, mehnat tartibiga amal qilishni talab etadi. Ishlab chiqarish ustasi yuzaga kelgan vaziyatga bog'liq holda texnologik jarayon me'yorlaridan ozgina chetga chiqish zarurligini aytadi va hokazo.

Bundan tashqari mashqlar yordamida kasbiy faoliyatni amalga oshirish va ishlab chiqarish jarayonida individual topshiriqlarni bajarish usullari ham keng qo'llaniladi.

Modul tizimi asosida o'qitish.

Kasbga o'rgatishning modul tizimi mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ta'limning alohida birlik-modullarini izchil holda ketma-ket o'zlashtiradilar.

Modul algoritmi asosida quriladi va quyidagi tarkibiy qism-lardan tashkil topadi: aniq maqsad, nazariy bilim, amaliy mashg'u-lot, uslubiy ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar, nazorat, o'zlashtirilgan bi-lim va malakani baholash.

Modul birliklari mehnat faoliyati asosida ishlab chiqiladi va kasbga oid o'quv elementlaridan tashkil topadi. U bir necha o'n va hatto bir necha yuz birliklaridan iborat bo'lishi mumkin. Ular-ning soni u yoki bu kasb mehnati mazmuni bilan belgilanadi.

Ta'limda modul tizimini qo'llash eski modul birligi o'rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo'llash imkonini beradi. Bunda katta hajmdagi darslik materiallarini o'zlashtirishga ho-jat qolmaydi, ya'ni ta'lim jarayonida ma'lumotnoma xarakteri-dagi materiallardan foydalaniladi.

Modul tizimi asosida ta'lim berishning afzalligi shundan iboratki, bunda e'tibor ko'proq ta'sir oluvchiga, uning mustaqil ishlashi va mashqiga hamda o'z-o'zini nazorat qilishiga qaratiladi.

Modul tizimi asosida o'qitishning davomiyligi ta'lim oluv-chining tayyorgarligi va kasbiy malakani qay darajada egallash is-tagiga bog'liq. O'qitishni ta'limning istagan modelidan keyin to'xtatish mumkin.

3.2.“Audit” fanini o'qitishda dars o'tish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari ularni tanlash xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish iqtisodiy ta'lim tizimida talabalarni chuqur bilim olishiga, iqtisodiyot qonunla-rini puxta o'rganishga, kasbiy mutaxassislik fanlarini o'qitish-da zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga yangi talablar qo'ymoqda.

Iqtisodiy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi quyidagi zaruriyatdan kelib chiqadi:

- jahon talablari darajasida raqobatlaridan iqtisodchi-muta-xasis kadrlar tayyorlash;
- bozor iqtisodiyoti talablariga moslashish;
- ta'lim tizimiga yondashuvlar va dars o'tish metodlarini tan-lash, ishlab chiqish;
- o'qituvchining o'quv jarayonida tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyaviy jarayonga qo'yilgan talab, erishilgan natija va h.k.

Albatta, kasbiy mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfa-ol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari katta bo'lib, bunda dars o'tish metodlari ta'lim qonuniyatlari va didaktik printsip-laridan kelib chiqqa holda tanlanadi.

Dars o'quvchi-talabalarga bilim berishning asosiy tashkiliy shaklidir. Hozirgi zamon darslari qanday bo'lmog'i kerak? Bugungi o'qituvchi darsda qanday natijalarga erishishi kerak? O'quvchi-talaba darsdan qanday bilimlar olib ketishi kerak?

Bugungi dars o'quvchi-talabada ijodiy qobiliyatni o'stirishi, aqliy salohiyatni kengaytirishi, ilmiy dunyoqarashni tarkib top-tirishi va har bir yangilikni to'g'ri qabul qila olishni o'rgatishi kerak. Shunday ekan, darsda o'qituvchi va o'quvchi-

talaba munosabat-lari qanday tashkil etilishi, o'qituvchi darsda o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun metod va vositalarni to'g'ri tanlay olishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bugun darsda o'qituvchining asosiy vazifa-si darsni boshqarish hisoblanadi. Darsni boshqarish uchun darsda o'quv – metodik ta'minot to'liq bo'lishi kerak. O'qituvchi dars maq-sadlarini to'g'ri belgilashi kerak. Darsda o'qitish vazifalari bi-lan tarbiya vazifalari o'zaro bog'liq bo'lib, muayyan tushunchalar, g'oyalar tarkib topishi natijasida ilmiy dunyoqarash va e'tiqod-lar hosil qilishi muhim ahamiyatga ega. Darsda talabalarning erkin, ijodiy ishlashlari uchun sharoit yaratish kerak. Buning uchun dars-larning har bir qismi uchun o'quv materialini to'g'ri va aniq tan-lash kerak.


An'anaviy ta'lim metodlari bilan birga noan'anaviy ta'lim metodlaridan – interfaol metodlardan foydalanish dars sa-maradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Inter-faol metodlardan foydalanganda o'quvchi-talabalarning ijodiy ishlashlariga imkon berilishi g'oyat muhim. Interfaol metodlar o'quv-chida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi (talaba)lar bu metodlardan foydalanganda yangi bilim va tushunchalarni tez va mustaqil o'zlashtirib oladilar. Ular o'z fikrlarining to'g'ri yoki xato ekanligini isbot qila oladilar. Interfaol metodlardan foydalanganda quyidagi talablarga amal qilish lozim:

- dars o'quv dasturi asosidagi ta'limiy – tarbiyaviy va rivoj-lantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lmog'i lozim;
- dars maqsadlari amaliyotdagi tajribalarga asoslanib, me-todlar qo'llanilganda to'liq hal qilinishi muhim;
- metod barkamol shaxsni tarbiyalash mezonlariga asosan ax-loq-odob me'yorlariga mos kelishi zarur;
- metod tashkil qilinishi mantiqiy ketma – ketlikka ega bo'-lishi kerak;
- interfaol metodlardan foydalanganda didaktik pritsiplar-ga amal qilingan holda eng kam vaqt sarflashga erishish kerak.

Interfaol metodlardan foydalanib dars o'tganda, o'quvchi-ta-labalarning alohida va o'ziga xos xususiyatlari to'liq namoyon bo'ladi.

Ular ijodiy ishlaydilar, berilgan muammo ustida qo'shimcha manbaalar hamda o'z kuzatishlari asosida xulosalar chiqaradilar, Yangi g'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, o'rtoqlari fikriga hurmat bilan qarash sifatleri tarkib topadi. Bunday darslarda belgilangan maqsad va vazifalar to'liq amalga oshiriladi va yakuniy natija kafolatlanadi. Interfaol metodlardan foydalanib, tashkil qilingan dars qurilishi quyidagi 5-shaklga ega:

5-shakl



Bu darsda o'quvchi-talabalar jamoatchilik, vatanparvarlik, in-tizomlilik kabi tushunchalarni o'zlari yakka tartibda va kichik guruhlar bilan ishlab, ta'riflar chiqaradilar. Pedagogikadan "Ta'-lim shakllari" mavzusidagi "Elpig'ich" texnologiyasi asosida o'tka-zilgan dasrdan bir lavha keltiramiz.

6-shakl

TA'LIM SHAKLLARI					
INDIVIDUAL		DARS		NOAN'ANAVIY	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
O'quvchi-talaba topshi-riqni ongli ravishda bajarishga o'rganadi.	O'qituvchi o'quvchi-talaba bilan har kuni ishlay olmaydi	O'quvchi-talaba-larni jamoa bo'-lib ishlashga o'rgatadi	O'quvchi-talaba-larning barchasi mavzuni chuqur o'zlashtira olmaydi	O'qituvchi iz-lanadi, yangi-lik yaratadi	Bitta shaklni ikkinchi marta takrorlab bo'l-maydi
Mustaqil o'z ustida ishlashga o'rganadi	O'z fikrni o'zgalardan ustun qo'yadi.	Dars aniq maqsad-larni amalga oshiradi.	O'quvchi-talaba-larning bilimi-ni bir qolipga solib qo'yadi	O'quvchi-talaba-larning in-tiluvchanligi, bilimdonli-gi ortadi	O'quvchi-talaba-larning diqqat-i chalg'iydi.

O'zi qiziq-qan mavzu bo'yicha ko'p-roq bilimga ega bo'ladi	O'quvchi-talaba-zerika-di va char-chaydi. Ja-moatchilik yo'qoladi.	O'quvchi-talaba-larning ma'na-viy-madaniy dunyo-qarashini shakl-lantiradi	Har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imko-niyati yo'q	O'qituvchi va o'quvchi-talaba-ijodkor-ligi shaklla-nadi	Dars rejasi buzilsa, aniq natijaga eri-shib bo'lmaydi
Mehnats e-varlikka o'rganadi		Darsda tartib-intizomga o'rganadi.	Vaqt qat'iy chegaralangan.	Berilgan bilimlarni mustahkam-ligi ta'minlanadi	Metod noto'g'ri tanlansa, o'quvchi-talaba psi-xologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi
Aqlli fikr-lash qobi-liyati, nut-qi, dunyoqa-rashi shakl-lanadi		Jamoa bo'lib meh-nat qilishga o'r-ganadi		Dars to'liq o'z maqsadlarini amalga oshi-radi	
		Dars qat'iy jadval asosida, belgilangan vaqt-da o'tkaziladi		O'qituvchi va o'quvchi-talaba-larning mehnatse-varligi va qiziquvchan-ligi ortadi	

Xulosa shuki, ta'limning har 3 shakli o'z vaqtida to'g'ri tanlan-sa, o'quvchi-talabalarga tugallangan va to'liq bilim beradi, ularning dunyoqarashini shakllantirib, aqliy qobiliyatlarini o'stiradi. No-an'anaviy ta'lim shakli o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyat-larini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

3.3.“Audit” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik metod va o'yinlarni qo'llash tartibi

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'-anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni o'rga-nishga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayot-gan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tah-lil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarish-lariga o'rgatadi. O'quvchi faoliyati bu jarayonda shaxsni rivojlani-shi, shakllanishi, ilm olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchi, yo'naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim tizimini kontseptual asosla-riga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashti-rishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishga-cha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalash-tirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilim-li, etuk malakaga ega bo'lishlarini

ta'minlaydi. Innovatsiya (ing-lizcha innovation) - yangilik, kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunini tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi talabalarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning hamkorlikda belgilangan maqsad-dan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonning asosi hisoblanadi. Har bir dars mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xislati shunda-ki, unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi o'quv jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liq.

O'quv jarayonini loyihalashtirish quyidagi uch bosqichdan iborat:

- o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash;
- natijalar asosida nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- o'quv jarayonining texnologik xaritasi (dars ishlanmasi xa-ritasi)ni ishlab chiqish.

O'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsa-dini, o'tilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakl-lari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldin-dan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qara-tish maqsadga muvofiqdir.

Maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchi-talabani hamkorlikdagi faoliyati ham-da ular qo'ygan maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita, ya'ni texnolo-giyaga bog'liq.

Zamonaviy ta'lim texnologiyasi quyidagi elementlardan tash-kil topgan:

1. Ta'lim beruvchi;
2. Ta'lim oluvchi;
3. Ta'lim shakllari;
4. Ta'lim maqsadi;
5. Kutilayotgan natija;
6. Ta'lim metodlari;
7. Ta'lim vositalari;
8. Nazorat va baholash.

Elementlardan eng asosiysi maqsad va kutilayotgan natijalardir.

O'quv maqsadi- bu muayyan ta'lim jarayonini yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshi-riqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilat-lari va xulqini belgilaydi. O'quv maqsadi va natijalarni belgilashda aniq o'lcha-nadigan, real amalga oshiriladigan, erishish mumkin bo'lgan imko-niyat inobatga olinadi.

O'qituvchi va o'quvchi talabani maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi talbalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sha-roitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, nati-jaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlashi lozimdir, bal-ki, film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyot-lar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi – talabaga bog'liqdir.

Demak, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalari (O'TV)ni asosiysi, o'quv-chi-talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi fao-liyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina ke-rakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Natija esa baho-lanmog'i zarur, o'quvchi-talabani bilimini baholash doimo "Ni-mani baholamoq kerak?" degan savol bilan bog'liq.

Bunga "o'qitish va o'rgatish maqsadi va vazifalariga erishgan-lik darajalarini baholash" deb javob berish zarur. Bu holda maq-sad o'qituvchining faoliyatiga qaratilganligi (o'rgatish, tushunti-rish, ko'rsatish, gapirib berish va hokazo), vazifalarga esa (ingliz adabiyotiga asoslanib) o'rgatish natijalari kiritilganligi

foйда-лiроқ. Demak, vazifa –bu o'quvchi-talabalar avval bilmaydigan va uddalay olmaydigan bilim va haraktlarni darslarni tinglagandan so'ng bilishi va uddalay olishidir.

Agar vazifalar aniqlangan bo'lsa, unda o'quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Bular og'zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo'lishi mumkin.

Ta'lim oluvchilarni baholashda mezonli baholash shaklidan foydalaniladi. Ushbu baholash-baholanuvchining ta'lim jarayoni-da qo'lga kiritilgan natijalarini bilim, ko'nikma va malakalari-ni oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqil-gan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Baholashning bu shak-lida ta'lim oluvchilar xaqqoniy, xolis baholanadilar va kuchli guruhlarini yaxshiroq farqlash imkoni yaratiladi. Qisqa qilib ayt-ganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish zarur.

O'qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilishi, uni ta-savvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi muhim ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayot-gan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imko-niyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texno-logik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pe-dagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyala-ridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, uslublar-ni bilishi kerak bo'ladi.

Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xarita-siga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ix-tiyoriga bog'liq. Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining bircha qirralari o'z aksini topadi.

Demak, o'quv jarayonining texnologik xaritasi dars jarayoni-dagi faoliyatni loyihalashtirish, dars mazmunini boyitish va ta'-lim samaradorligini oshirishdir, masalan:

Fan: zamonaviy pedagogika asoslari

Mavzu: ta'lim jarayonini loyihalash

Mavzu maqsadi: o'quvchi-talabalardan ta'lim jarayonini zamo-naviy pedagogik texnologiya va didaktik loyihalashtirish to'g'ri-sida dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

* mavzuning mohiyatini tushuntira oladi;

* didaktik jarayonni tashkil etishda zamonaviy pedagogik tex-nologiyalar asosida o'quv jarayonini loyihalashni aytib bera oladi;

* parallel va zanjirsimon bog'lanish orasidagi farqlarni ay-tib bera oladi;

* tayanch iboralarni ifodalab bera oladi;

* o'zi mustqil mavzuni tahlil qila oladi.

Mavzuni o'rganish uchun ajratilgan vaqt:

(80 daqiqa)

O'qitish va o'rganish strategiyasi:

trening shakli va interfaol o'qitish usullaridan foydalanish.

Resurs (dars uchun zarur bo'lgan jihozlar):

Dars turi: hamkorlikda o'rganish.

Dars tafsiloti

7-shakl

TEXNOLOGIK XARITA (DARS REJASI):

Mashg'ulot bosqichlari	Mashg'ulot mazmuni		Vosita	Metod
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi		
Tashkiliy qism 3 daqiqa	Navbatchidan davomatni bilib olish, o'quvchi-talabalarni dars-ga tayyorgarligini tekshirish, ma'naviyat daqiqasini o'tkazish	Hisobot beradi		Og'zaki
Mavzuga kirish 5 daqiqa	Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijani e'lon qilish.	Fikr bildiradi.	Yozuv taxta-si ma'ruza matni daf-tar va dars-lik	Og'zaki
Ma'lumot berish 10 daqiqa	Mavzu haqida ma'lumot berish (reja asosida)	Tinglaydi	Ko'rgazma tarqatma Kodoskop, kompyuter	ma'ruza
Ma'lumotlar-ni mustahkamlash 3 daqiqa Taqdimotga tayyorgarlik 35 daqiqa	Topshiriq mohiyatini tushun-tirish. O'quvchi-talabalarni ki-chik guruhlariga bo'lish va ularga topshiriqlar berish: (Nazorat savollari asosida). Baholash mezonlarini ishlab chiqish: Mazmun Dizayn Taqdimot	Kichik guruh-larda ish olib boradilar; Savollarga javob bera-dilar.	Plakat, flamaster, marker, oq qog'ozlar, ma'ruza, matn	Amaliy Klaster Pinbord FSMU
Taqdimot 15 daqiqa	Ishtirokchilardan olingan javoblarni tahlil qilish va qo'shimcha ma'lumotlar berish. O'quvchi-talabalarda tug'ilgan savollarga javob berish	Taqdimot: Tushunmaga n savollarni so'raydilar		Munozara
Mashg'ulotga yakun yasash 4 daqiqa	Mavzuni umumlashtirish, uyga vazifa berish va darsga yakun yasash			Og'zaki

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mo-hiyati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim oluvchilarni beril-gan sharoitda va ajratilgan vaqt oraliq'ida loyihalashtirilayot-gan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'-liq boshqarish g'oyasini tashkil etadi.

Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashti-rishdan – uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib, tanlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pe-dagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asosla-rini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuri-tilmoqda.² Shu o'rinda "Interaktiv" dars metodini "interfaol" deb chala tarjimasini aytish mazmunan xato ekanligiga e'tiborin-gizni qaratmoqchimiz. "Interaktiv" so'zi qo'shma so'z bo'lib, agar tar-jima qilish zarur bo'lsa, unda har bir so'zni tarjima qilish kerak.

"Interaktiv" inglizcha "Interactive" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro xarakat va ta'sirlanish" degan ma'noni anglatadi.

Interaktiv metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqot-da, o'zaro bahs-munozarada fikrlanish asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.³

O'qitishning interaktiv usullarini tanlashda ta'lim maqsa-di, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasa-sining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituv-chining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Quyida o'qitishning interaktiv metodlari haqida qisqacha to'x-talib o'tamiz.

«Aqliy hujum» metodi

Keyingi paytda miya ish faoliyatining foydali ish koeffi-tsientini oshirishga mo'ljallangan turli xil metodlar ishlab chi-qilmoqda. Vaholanki, mutaxassislarning fikricha, miyaning bor-yo'g'i 7% gina ishlar ekan, xolos. Miya faoliyatini faollashtira-digan ta'lim usullariga ijtimoiy psixologik trening, sinekti-ka, autogen mashq, morfologik tahlil, rolli o'yin, «aqliy hujum» va boshqalar kiradi.

«Aqliy hujum» – «*breynstorming*» (*brain storming*) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, faol ta'limning, boshqaruvning va tadqi-qotning metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod aqliy faollik-ni qo'zg'atadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi.

Bu metodning paydo bo'lishi ikkinchi jahon urushida Yapon dengizida xizmat qilgan amerikalik mutaxassis A.Osborn bilan bog'liq. Harbiy kemani qanday qilib torpedolardan himoya qilish mumkinligi masalasida kema Kengashi o'tkaziladi. Kengash qoida-siga ko'ra hamma – yungadan tortib kapitangacha har qanday, hatto xayoliy va amalga oshirib bo'lmaydigan g'oyalarni ham aytaversa bo'-lardi, har qanday takliflar yozilib borildi. Matroslardan biri shunday fikrni ilgari surdi: "Torpedoni sezib qolsam, men butun komandani bortga tizardimda, torpedoga qarab puflashni buyurar-dim". G'oyani eshitib, hamma kulib yubordi, hatto shu g'oya ham yozil-di. Muhokama paytida bu g'oya qaytadan ishlab chiqildi va suvning kuchli oqimidan foydalanishga qaror qilindi. Suv nasosdan oti-layotgan

² Qarang: Tolipov O'.Q. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: «Fan», 2006, 150 bet

³ Asranov S. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning imkoniyatlari. Zamonaviy pedagogik texnologiya-larning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. –T.: 2005, 41–bet.

oqim yordamida torpedoga urildi va u to'xtatildi. Bir qa-rashda kulgili tuyulgan g'oya masalani hal qildi-qo'ydi.

Ijodiy faollikning va mahsuldorlikning stimulyatori hi-soblangan «Aqliy hujum» metodi asosan yangi, original fikrlar-ning tug'ilishiga qarshilik ko'rsatuvchi tanqidiy muhitning yo'q-ligi deb atalgan psixologik mexanizmga tayanadi. Bunday muhitda hech qanday fikr tanqid qilinmaydi, noto'g'ri fikr aytishdan qo'r-qilmaydi, hech kimning ustidan kulinmaydi.

Shunday qilib, "Aqliy hujum" metodi dastlab AQSh, Angliya, Frantsiyada so'ngra Yaponiyada ishlatildi. 70-yillardan boshlab Rossiyada, 90-yillardan boshlab esa O'zbekistonda ishlatila boshlandi.

"Aqliy hujum" metodini o'tkazilish texnologiyasini quyidagicha tushuntirsa bo'ladi.

"Aqliy hujum" metodini o'tkazuvchi kishi ma'lum muammoni ilgari suradi va ishtirokchilardan bu muammoni hal qilish bo'yicha qanday mulohazalari borligini hamda ulardan eng kutilmagan fikrlarni ham ilgari surishlarini so'raydi. Metodni o'tkazuvchi kishi barcha fikrlarni yozib boradi. Shu o'rinda aytilayotgan fikr-larga nisbatan tanqidiy munosabat bildirmaydi va fikrlar oxi-rigacha yozib borilaveradi.

"Aqliy hujum" metodini o'tkazishdan ko'zlangan maqsadlar qu-yidagilar:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni chiqarish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab, tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarning paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Ijod psixologiyasida ta'kidlanadiki, g'oyalarni ishlab chiqish jarayonida tanqidiy fikrlar bu jarayonni sekinlashtiradi. Hatto eng kuchli g'oyalar generatori ham tanqidchilarga qarshilik ko'rsa-tishga ojizlik qilishi mumkin.

Shuning uchun ham "Aqliy hujum"da quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1. *G'oyalarning ilgari surilishi bosqichida tanqid (hatto ha-zil) taqiqlanadi.*
2. *Original, hatto fantastik g'oyalar rag'batlantiriladi.*
3. *Barcha g'oyalar yozib boriladi yoki audio yoki videoplyonkada qayd qilinadi.*
4. *Agar ma'qul topsa, muallifning o'zi ham yozib borishi mumkin.*
5. *"Aqliy hujum" metodi qatnashchilari hammasi bir-biri bi-lan yuridik va administrativ (ma'muriy) jihatdan mutlaqo bog'-liq bo'lmasligi zarur.*
6. *Tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g'oyalarni tahlil qi-ladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi.*


"Aqliy hujum" metodi besh bosqichdan iborat bo'lib, quyida ularning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

1.1. "Aqliy hujum" metodiga kirish

Yuksak darajadagi aqliy va ijodiy harakatni talab qiladi-gan "Aqliy hujum" metodini o'tkazishdan oldin metodni o'tkazuv-chi qatnashchilar uchun etarli darajadagi qulay tashqi muhitni yara-tish lozim bo'ladi: ularni qulay joyga o'tqazadi, xonani shamolla-tadi, sokin musiqadan foydalanadi, g'oyalarning

generatorlariga kofe yoki salqin ichimliklar ulashdi va hokazo. Qatnashchilarning aqliy va emotsional holatini ko'tarish uchun «Aqliy hujum» rah-bari etarli darajada erkin va demokratik holda auditoriya bilan muomala qiladigan bo'lmog'i lozim. Aqliy toliqishni oladigan psixologik mashqlarni o'tkazish mumkin.

“Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalari quyidagicha:



9- shakl. “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalari.

Masalan, maxsus bo'lim-lar talab qilinmaydigan masala yoki vaziyatlarni echish mumkin.

Shundan keyin “Aqliy hujum” metodini o'tkazishning bevosita shartlariga o'tish mumkin bo'ladi. Ekranida: - maqsadlar: reja va qoidalar aks ettiriladi.

Bu tadbirlarni amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

1.2. “Aqliy hujum” metodining shiorini tanlash

Iloji boricha “Aqliy hujum”ning shioridan foydalangan ma’-qul. Chunki aynan shu shior mutaxassislar komandasini g'oyalarning tezlik bilan tug'ilishiga jalb qiladi. Metodni o'tkazuvchi ekranida bir qancha shiorlarning variantlarini tavsiya qiladi. Masalan:

1. *Biz masalani echamiz va muammolar qolmaydi!*
2. *Muammo o'ta murakkab, biz uni hal qilamiz!*
3. *Har qanday muammo yagona to'g'ri echimga ega. Agar biz uni topolmasak, dahshat bo'ladi!*
4. *Hal qilinmagan muammo asabni taranglashtiradi, kayfiyat-ni tushiradi, vijdonni qiynaydi. Vahima bizga yarashmaydi!*
5. *Muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiramiz!*

1.3. Muammoni qo'yish va uni tushuntirish

Bu bosqichda asosiy rol “Aqliy hujum” metodini o'tkazuvchiga bog'liq bo'ladi. U tashkilotchi va ijodkor bo'lmog'i lozim. Oldini-ga u “Aqliy hujum” metodi ishtirokchilariga bir qancha muammo-lardan birini tanlashni taklif qiladi. Shu bilan birgalikda tanlangan muammo mutaxassis-qatnashchilar uchun dolzarb, tanish, qiziqarli bo'lmog'i lozim. Agar bu pedagogik muammo bo'lsa, unda, masalan, o'quv jarayonini faollashtirish muammosini o'rganish mumkin. Shunda muammoni quyidagicha qo'yish maqsadga muvofiq:

1. *Tinglovchilarni faollashtirish muammolari.*
2. *Faollashtirish zaruriyati masalalari.*
3. *Tinglovchilarni nima uchun faollashtirish zarur?*
4. *Tinglovchilarni faollashtirish psixologiyasi.*

Muammo shakllanishi va qabul qilinishi uchun inobatga olgan holda muammoning umumiy tahlilini amalga oshirish zarur bo'ladi:

- *muammoning murakkabligi nimada;*
- *qarorning bajarilishi imkoniyati;*
- *muammoning minuslari va plyuslari;*
- *murakkab savollarning aniqlanishi;*
- *muammoning tasnifi, (kvalifikatsiya) ya'ni ma'lum bir tipga aloqadorligi;*
- *noaniqlik darajasi va h.k.*

Muammoning bunday tahlili muammo haqida tinglovchilarda tasavvur paydo qiladi va tinglovchilar muammoni hal qilish yo'l-larini topishda qiynalishmaydi.

2.1. Generatsiya – eksperiment (razvedka) bosqichi

Shunday qilib, “Aqliy hujum” metodini oʻtkazish boshlanadi. Oldiniga gʻoyalar yaratilishining eksperiment (razvedka) bosqichi boshlanadi. Metodni oʻtkazuvchi ilk gʻoyalarni ilgari suradi, qoi-dalarni qatʼiy nazorat qiladi, ayniqsa, tanqidga taalluqlisiga alohida ztibor beradi. Oʻz gʻoyalarining generatorlarini 2-shaklga mos holda toʻldiradi. Bu jarayon 5-7 daqiqa davom etadi.

Gʻoyalarning generatorlari uchun

10-shakl

Muammoni yozing

Muammoni hal qilish boʻyicha Sizning gʻoyalaringiz	Gʻoyaning yangiligi nimada? Kutilayotgan qiyinchilik-lar, oʻziga xos xususiyatlar, bajarishning taklif qi-lingan muddati. Sizning shaxsan qatnashadigan qis-mingiz, bajarish algorit-mi. Kutiladigan natijalar	Gʻoya muallifining ismi, sharifi
--	--	--

2.2. Bevosita generatsiya bosqichi

Generatsiya – eksperiment (razvedka) bosqichi sekin-asta bevo-sita generatsiya bosqichiga oʻtadi. Bunda endi har bir ishtirokchi oʻzining original gʻoyasini ilgari suradi. Maxsus assistent gʻoya-larni qanday aytilayotgan boʻlsa, shundayligicha hech qanday sharh-siz yozib boradi.

Agar metodni oʻtkazuvchi ishtirokchilarning yangi gʻoyalarni il-gari surmay qoʻyayotganini sezib qolsa, ularni ilgarigi fikrlari-ning aksini aytishga chorlash kerak boʻladi. Shunda ularda «ikkin-chi nafas» ochiladi.

Bu bosqichning soʻnggida (bu bosqich 20-30 daqiqa davom etadi) rahbar barchaga «Aqliy hujum»da qatnashganliklari uchun minnat-dorchilik bildiradi.

3.1. Ishning sintez bosqichi

Bu bosqichda tahlilchilar guruhi (3-5 odamdan iborat) 2-shakl boʻyicha toʻplangan gʻoyalarni yigʻib olib, ularni keyinchalik tahlil qilish uchun korzinkalarga tashlashadi. Shundan soʻng barcha gʻoyalar sistema (tizim)lashtiriladi, tasnif qilinadi, baholanadi va nis-batan muammoning echilishiga yordam beradiganlarini alohida olib qoʻyadilar.

Tanqidiy bosqich

Bu bosqichda tahlilchilar ikkita guruhga bo'linadilar: tahlil-chilar va tanqidchilar. Tanqidchilar ilgari surilgan g'oyalarni tan-qid qiladilar va bunda generatorning shaxsini emas, balki g'oya-larning o'zini tanqid qilishi zarur bo'ladi.

Shundan so'ng g'oyalar uchta korzinaga tashlanadi:

1. *Yangi, bemalol hayotga tatbiq qilsa bo'ladigan g'oyalar.*
2. *Ma'lum g'oyalar.*
3. *Keyinchalik tahlil qilish uchun saqlanadigan g'oyalar.*

Metodikani o'tkazuvchilar tahlilchilarga doimiy konsulta-tsiyalar berib boradilar va reglamentni saqlashga xarakat qiladi-lar (reglament 30 daqiqa). Tahlilchilar 3-shaklga mos holda for-matni to'ldiradilar. Shunday qilib, yangi ma'lumot tizimi dunyoga keladi.

11-shakl

**Tahlilchilar uchun “Tahlilchilar guruhi”ning ismi-sharifi (asosiy
tahlilchilarni ko'rsating)**

Ilgari surilgan g'oyalar bo'yicha kiritadigan ma'lumotlar.

1. Miqdoriy ko'rsatkichlar: _____
 - a) qatnashchilar miqdori _____
 - v) g'oyalar miqdori _____

2. Sifat ko'rsatkichlari:

- a) yangi, hayotga tatbiq qilish mumkin bo'lgan g'oyalar;
- b) ma'lum g'oyalar;
- v) keyingi tahlil uchun “tashlandiq g'oyalar”.

3. Birinchi ikkita yo'nalishdagi g'oyalarni alohida belgilash va tahlil qilish zarur;

4. Muallifini ta'kidlagan holda nisbatan original g'oyalarni ajratish zarur (g'oyaning ma'nosini qisqacha yozish zarur):

G'oyalarni umumlashtirish bo'yicha bosh tahlilchining ma'ruzasi.

Tahlilchilar guruhi 10 daqiqalik ma'ruza uchun bosh tahlilchi-ni mustaqil holda tanlashadi. Ma'ruzaning taxminan quyidagi shakli taklif qilinadi. Miqdoriy ko'rsatkichlar:

1. *Ishtirokchilar miqdori*
2. *G'oyalar miqdori*

Shularda:

- 1.1. *Yangi va real g'oyalar*
- 1.2. *Original g'oyalar*

1.3. *Ma'lum g'oyalar*

1.4. *Keraksiz g'oyalar*

Birinchi korzinkadagi g'oyalarga alohida e'tibor qaratiladi.

“Aqliy hujum” bo'yicha umumiy xulosalarning chiqarilishi

“Aqliy hujum” metodini o'tkazuvchi zudlik bilan g'oyalarni ol-dinga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda tahlil qiladi va mavjud bo'lgan eski g'oyalar bilan qiyoslaydi. Bundan tashqari, “Aqliy hujum”ning o'tkazish jarayoniga qisqacha baho beradi. Shu o'rinda natijaga alohida e'tibor qaratiladi, eng kelajagi bor g'oyalar real amaliy faoliyatda qo'llanilishi ta'kidlanadi.

Xulosa

“Aqliy hujum” metodini har xil variantlarda amalga oshi-rish mumkin:

– *og'zaki individual fikr bildirish. Bunda muallif va uning g'oyasi doskada muqarrar qayd qilinadi;*

– *guruh bilan ishlash. Bunda komandalarning guruhiy g'oyalari qayd qilinadi;*

– *“Aqliy hujum” metodi “G'oyalar konferentsiyasi” ko'rinishi-da ham amalga oshirilishi mumkin;*

– *“Aqliy hujum”ning yana bir ko'rinishida mualliflarning o'zlari o'z fikrini yozadilar va uni og'zaki tushuntiradilar.*

Xulosada shu narsani ta'kidlamochimizki, “Aqliy hujum” me-todi yangilik tuyg'usi rivojlangan, intellektual ijod rag'batlan-tiriladigan g'oyalarni haqiqatdan ham hayotga tatbiq etiladigan ja-moadagina samara berishi mumkin.

Ma'lumki, ba'zi bir ishga taalluqli o'yinlarda ma'lum massa-lalarning muhokamasi paytida “Aqliy hujum”dan foydalanila-di. Shuning uchun pedagoglar “Aqliy hujum” metodini o'yin ja-rayonida qo'llash texnologiyasini iloji boricha mukammal o'zlash-tirib olishlari zarur.

“Yalpi fikriy hujum” metodi

“Yalpi fikriy hujum” metodi J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchi-tala-balardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchi-talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchi-talabalarni o'z ichiga olgan guruhlar-ga 15 da-qiqa ichida ijobiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy va-zifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy xal etilgach, bu haqida gu-ruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy va-zifaning echimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qi-tuvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning echimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni

e'lon qi-ladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ular-ning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi E.A. Aleksandrov to-monidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodining mohiyati quyidagichadir:

– *jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchi-talabani shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;*

– *o'quvchi-talabalarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bil-dirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga kel-tirish.*

“Fikrlashning shiddatli hujumi” metodini ijtimoiy, gummani-tar va tabiiy yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagichadir:

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

– *o'quvchi-talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;*

– *vaqtni iqtisod qilish;*


– *har bir o'quvchi-talabani faolikka undash;*

– *ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.*

“6X6X6” metodi

Bu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi-tala-bani muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imko-niyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta-ga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. 12-shakl

Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bita-dan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadosh-lariga avvalgi guruh tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokama qiladilar.



“6x6x6” metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'-nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shu-ningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham ting-lovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchi-talabadan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik gu-ruhlar o'rtasida “6x6x6” metodi qo'llanilganda vaqtni ko'payti-rishga to'g'ri keldi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar to-monidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish im-koniyati mavjud.

“6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o’qituvchi-dan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantirish olish layoqatiga ega bo’lishni talab etadi. Guruhlarning to’g’ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifa-larning to’g’ri hal etilmasligiga sabab bo’lishi mumkin. “6x6x6” metodi yordamida mashg’ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. *O’qituvchi mashg’ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo’yib chiqadi.*

2. *O’qituvchi-talabalar o’qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo’linadilar. O’qituvchi-talabalarni guruhlariga bo’lishda o’qituvchi quyidagicha yo’l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob’ekt (masalan, kema, to’lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo’yib chiqadi. Mashg’ulot ishtirokchilariga kema, to’lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o’qituvchi-talaba o’zi tanlagan varaqchadan tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo’yilgan stoldan joy egallaydi.*

3. *O’qituvchi-talabalar joylashib olganlaridan so’ng o’qituvchi mashg’ulot mavzusini e’lon qiladi hamda guruhlariga muayyan top-shiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.*


4. *O’qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o’rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo’l-yo’riqlar ko’rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan top-shiriqlarning to’g’ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so’ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so’raydi.*

5. *Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o’qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo’lishiga alohida e’tibor qaratiladi. O’qituvchi-talabalar o’z o’rinlarini almash-tirib olganlaridan so’ng, belgilangan vaqt ichida guruh a’zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning echimi xususida guruh-doshlariga so’zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq echimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.*

“Klaster” metodi

“Klaster” (*g’uncha, bog’lam*) metodi pedagogik, didaktik strategiya-ning muayyan shakli bo’lib, u o’qituvchi-talabalarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bema’lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imko-niyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o’qituvchi-talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Stil va Stil g’oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o’ylangan strategiya bo’lib, undan o’qituvchi-talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotlarda o’qituvchi-

talabalar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. "Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi (13-shakl).



13-shakl. "Klaster" metodining qoidalari

"Qarorlar shajarasi" ("qarorlar qabul qilish texnologiyasi") metodi

"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyat-larda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o'quvchi-talabarlari ishtirokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o'n nafar o'quvchi-talabalarning bilimlari dara-jasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkoni-ni beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muay-yan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchi-talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ular-ning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish im-koniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabalar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv textasidan foydalanadilar):

"Qarorlar shajarasi" metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:


1. *O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomoni-dan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarini tayyorlaydi.*

2. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni 4 yoki 6 nafardan iborat gu-ruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilish, bu borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va afzal bo'lmagan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtam-ga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Za-rur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchi-talabalar bil-dirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

14-shakl



Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniq-liklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi bu-ning sababini izohlaydi.


"Qarorlar shajarasi" metodining o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu metod bevosita ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko'rinishga ega:

15-shakl

“QARORLAR ShAJARASI” metodi					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

"TAJRIBA VOSITASIDA O'QITISH TSIKLI" (D.KOLB G'OYASI) METODI

Mazkur metod quyidagi to'rt omil asosiga quriladi:



16-shakl «Tajriba vositasida o'qitish tsikli» metodining asosiy omillari.

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan shior (g'oya)ga asoslanadi. Chunonchi:

- 1) *o'quvchi-talabalar uchun mashq (topshiriq)lar mazmunini tan-qidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkonini beruvchi sha-roitni yarat (reflektiv kuzatish);*
- 2) *o'quvchi-talabalarga zarur nazariy bilimlarni ber;*
- 3) *muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash, kontseptuallash);*
- 4) *o'quvchi-talabalarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashq(topshiriq)larni ish-lab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);*
- 5) *yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkaz va faoliyatda un-dan foydalanish (aniq tajriba o'tkazish).*

"Qora quti" metodi

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad, o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nik-malarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- *o'quvchi-talabalar juftlikka biriktiriladilar;*
- *juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha-lar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartoch-kalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;*

- *o'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda guruhlar to-monidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;*
- *topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning echimini yozuv taxtasiga yozadi;*
- *o'quvchi-talabalar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar qanday ma'noni anglatishini aytadilar);*
- *to'g'ri javob bergan talaba – o'quvchi o'qituvchi rolini baja-rib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi shakl, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriq-ning bajarilishini tekshiradi.*

"Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi, ...) ortiqcha" metodi

O'quvchi-talabalarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmala-riga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'l-lashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluv-chi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchi-talabalarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchi-talabalarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchi-talabalardan ti-zimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini ta-lab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'-liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr-lash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek, tengdoshlari-ning fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'-nikmalarini ham shakllantiradi.

“3/3” (“4/4”, “5/5”,) METODI

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqo-bili hisoblanib, o'quvchi-talabalardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'-lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng mu-him tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra, o'qituvchi mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan uchta (to'rtta, beshta va hokazo) to'g'ri va unga teng nisbatda (uchta, to'rtta, beshta) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar) dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchi–talaba ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadi va harakatlarining mohiyatini izohlaydi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- *o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;*

– *o'quvchi-talabalar mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'lmagan aso-siy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;*

– *o'quvchi-talabalar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.*

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchi-talabalar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash ham-da ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

“Rasmlarni to'g'ri joylashtir” metodi

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijo-biy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– *o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochka-ning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushuncha-ning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);*

– *har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;*

– *guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochka-larning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriq-ning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.*

Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'girilganda mavzuning mohiyatini yorituvchi "yadro" tushuncha hosil bo'ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchi-talabalarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sin-tez asosida aniqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

"Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodi

O'quvchi-talabalar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg'ulotlar so'nggida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:

– *o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi «yadro» tushuncha-ning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);*

– *har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;*

– guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochka-larning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshi-riqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Maktab, akademik litsey, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Iqtisodiy nazariya" va "Iqtisodiy bilim asoslari" fanlari bo'yicha tash-kil etilgan mashg'ulot jarayonida "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodini qo'llashda o'quvchi-talabalarga quyidagi sa-vollarni berish mumkin.

1. Inson ehtiyojlarini qondirish uchun unga turli xil ne'mat-lar (resurslar) zarur bo'ladimi?

2. Havo, suv, quyosh nuri va issiqligi, shuningdek, foydali qazilma-larni inson kuchi bilan hosil qilish mumkinmi?

3. Inson mehnati, u tomonidan tashkil etilayotgan iqtisodiy faoliyatning mahsuli mahsulot deb ataladimi?

4. Mahsulotlar faqat moddiy ne'matlardangina iboratmi?

5. Xizmat ko'rsatishning muayyan ko'rinishi mahsulot bo'la oladimi?

6. Moddiy ne'mat yaratmaydigan, biroq natijasi insonlar eh-tiyojini qondirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat xizmatlar deb ataladimi?

7. Mahsulot ishlab chiqarish uchun iqtisodiy resurslar (xom ashyo, insonning jismoniy va aqliy kuchi, turli mexanizm, mashina va as-bob-uskunalar, ishlab chiqarish korxonalari)ning bo'lishi shartmi?

8. Iqtisodiy resurslar miqdorining "cheklangan deb hisoblani-shi" to'g'rimi?

9. Jamiyatda iqtisodiy cheklanganlik muammosi mavjudmi?

10. Iqtisodiy cheklanganlik muammosining iqtisodiyotning aso-siy (bosh, etakchi) muammosi deb hisoblanishi to'g'rimi?

"Videotopishmoq" metodi

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'-lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Video-topishmoq meto-didan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– o'quvchi-talabalar o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta video lavha namoyish etiladi;

– o'quvchi-talabalar har bir lavhada qanday jarayon aks etti-rilganligini izohlaydilar;

– jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;

– o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar.

"Yumaloqlangan qor o'yini" metodi

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'z-lashtirish imkonini beradi hamda o'quvchi-talabalarda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;
 - ularning orqa tomoniga mavzuni o'zlashtirishga oid o'n–besh va-riantdan iborat topshiriqlar yoziladi;
 - o'quvchi-talabalar ikki yoki uch guruhga bo'linadilar (guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniladi);
 - har bir guruh a'zolari bir nechta juftliklarga biriktiri-ladilar;
 - har bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi;
 - jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.
- “Yumaloqlangan qor o'yini” metodidan muayyan bo'lim yoki bob-lar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustah-kamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulay.

“Zakovatli zukko” metodi

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchi-talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim aha-miyatga ega. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchi-talabalarda tezkor fikr-lash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z xohishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchi-tala-balar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan beril-gan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olish-lari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir sa-volga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy bal-larning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchi-talaba-larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi o'quvchi-talabalarning shaxsiy imkoni-yatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Metod o'quvchi-talabalar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.

"Qarama-qarshi munosabat" metodi

Metod o'z mohiyatiga qo'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;
- ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
- tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;
- jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;
- kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;
- jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuv-chi jadval yaratiladi.

O'quvchi-talabalar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiborlariga quyidagi jadvallarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir:

1. Yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanish uchun

2-jadval

Mavzuning ahamiyati			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo'lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
3.		3.	
4.		4.	
5.		5.	
...		...	

2. Jamoa asosida ishlash jarayoni uchun

3-jadval

Mavzuning ahamiyati		
№	Jamiyatning ijtimoiy (iqtisodiy, madaniy) hayotidagi roli	Shaxs hayotidagi roli
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
...		

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi

Ushbu metod o'quvchi –talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilim-lari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchi – talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mum-kin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomo-nidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan be-rilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;

2) *guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.*

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

17-shakl

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. O'quvchi–talabalarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O'quvchi–talabalarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini bo-yitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.

3. O'quvchi–talabalarni mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq taf-siloti quyidagicha:

- *o'quvchi – talabalar guruhlariga biriktiriladi;*
- *o'quvchi–talabalarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga ega-lik darajasi o'rganiladi;*

- *o'quvchi–talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar lo-yihaning 1-bandiga yozib boriladi;*

- *o'quvchi–talabalarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlar-ni boyitishga bo'lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushun-chalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;*

- *o'qituvchi o'quvchi-talabalarni yangi mavzuga oid umumiy ma'-lumotlar bilan tanishtiradi;*

- *o'quvchi-talabalar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;*

- *bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'-yiladi;*

- *mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.*

"Zig-zag" metodi

Metod talaba–o'quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tez-kor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi qu-yidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. *O'quvchi –talabalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi shaklla-nadi;*

2. *Mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi*

“Zig-zag” yoki “Boshqalarni o’qitish” metodi

“Zig-zag” metodining qo'llanish qoidasi quyidagicha:

1 – *bosqich. Kichik guruhlar tashkil etiladi.*

2 – *bosqich. Har bir guruh ishtirokchilariga 1, 2, 3 raqamlari yozilgan qog'ozlar (topshiriqlar soniga qarab) tarqatiladi.*

3 – bosqich. Har bir guruhdagi ishtirokchilar alohida stol at-rofida birlashadi (1,1,1,1), (2,2,2,2), (3,3,3,3) va ushbu guruhlar-ning har biriga alohida topshiriqlar beriladi (misol uchun 1-guruhga metodik, 2-guruhga ilmiy, 3-guruhga didaktik tahlil).

4 – bosqich. Guruh ishtirokchilari belgilangan vaqt oralig'ida berilgan tahlil turlarini puxta o'rganadilar va har bir ishti-rokchi "o'qituvchi" darajasiga ko'tariladi.

5 – bosqich. Har bir ishtirokchi avvalgi o'rniga qaytadi va o'zi-ning puxta o'rganib kelgan materialini (dars tahlili turini) she-riklariga galma-galdan tushuntirishi kerak. Mana shu tartibda dars tahlili turlari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi. Va bu ishlarning taqdimoti o'tkaziladi.


Dars tahlilining qaysi turi bo'yicha taqdimot qilish o'qituv-chi tomonidan belgilanadi, ya'ni guruhlar taqdimot qilib bera-dilar. Har bir guruhlar taqdimotini qolgan guruhlar baholaydi.

Baholash mezonlari maksimal – 10 ball. Mazmun – 6 ball, taqdi-mot – 2 ball. G'olib guruh o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

“Ven diagrammasi” metodi

Ushbu metod o'quvchi-talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yon-dashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'z-lashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiri-ladi. “Ven diagrammasi” metodi kichik guruhlarini shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasida o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'-lakka quyidagi sxema chiziladi:



Metod o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etish-ga yordam beradi. Ushbu metoddan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Metodni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar to'rt guruhga bo'linadi;
- yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks etti-ruvchi sxema chiziladi;
- har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasi-dan alohida topshiriqlar beriladi;
- topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;

– liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradilar.

“Insert” metodi

Bu metod o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchi-talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniq-lash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida qu-yidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi. Har bir gu-ruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi;
- o'quvchi-talabalar navbatma-navbat mulohazalarni bayon eta-dilar;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni gu-ruhlarga tarqatadi;
- guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bil-dirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganli-gini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordami-da qayd etiladi);
- guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va max-sus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi, liderlar sinf va guruh jamoasining natijalari bilan tanishtiradilar;
- guruhlarning yondashuvlari umulashtirilib, yakuniy xulosa chi-qariladi.

Metodni qo'llashda o'quvchi–talabalar faoliyatni quyidagi sxe-malar bo'yicha tashkil etadilar:

1. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildiril-gan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildiril-gan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida sa-vollar tug'ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarning natijalari-ni o'rganish chog'ida:

Maxsus belgilarning tartib raqamlari	Guruhlarning nomlari			
1.	Kopernik	Galiley	Gippokra t	Ibn Sino
2.				
3.				

Metod o'quvchi-talabalarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.⁴

Demak, "Insert" texnologiyasi o'quv materiallarini o'zlashti-rish va mustahkamlash, o'quvchi-talabalarning kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, berilgan vazifalarini mustaqil bajarishda qo'l keladi. Ushbu texnologiya qo'llanilganda o'quvchi-talabalar matnlardan mustaqil foydalanish, olingan axborotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish, ularni qisqa va aniq bayon qilish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. O'qitish-ning ushbu texnologiyasida o'qituvchi yangi mavzuni bayon etmaydi, balki uning nomini e'lon qiladi. Mavzu e'lon qilingach, o'quvchi-talabalar berilgan matnni mustaqil o'qib-o'rganadi.

Shundan keyin keltirilgan maxsus jadvalning "bilaman" (+), "bilmayman" (-), "fikrimga qarshi" (x), "bilishni xohlayman" (b), "tushunmadim" (?) deb nomlangan ustunlarini belgilar bilan to'l-diradi. So'ng o'qituvchi o'quvchi-talabalar bilan birgalikda to'l-dirilgan jadvallarni muhokama qiladi.

Metodning afzalligi:

- o'quvchi-talaba matnlardan mustaqil foydalana oladi;
- olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi;
- axborotlarni tizimlashtirib, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligini mustahkamlaydi

Metodning kamchiligi:

- metodni qo'llash uchun ko'p vaqt kerak;
- har bir ishtirokchi uchun alohida tarqatma material talab etiladi;
- ishtirokchilarning o'zlashtirish darajalari har xilligi sa-babli kutiladigan nitajaga har doim ham erishilavermaydi

«Ajurli arra»

«Ajurli arra» (ajar so'zi frantsuzcha «*ajour*» so'zidan olingan bo'lib, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi) metodi tuzilish jihatidan o'zida quyidagi bos-qichlarni qamrab oladi:

- *Topshiriqni bo'lish:* topshiriq va matnli materiallar bir necha asosiy qismlarga (yoki) mavzularga qir qiladi.
- *Birlamchi guruhlar:* har bir guruh a'zolari qir qilgan mavzuni oladi va ekspertga aylanadi.
- *Ekspert guruhlar:* qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan o'quvchi-talabalar mavzuni muhokama qilish, boshqalar-ga o'rgatish, rejasini egallash uchun ekspert guruhiga birlashadilar.

⁴ 1. Qarang: Tolipov O'.Q., M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006, 144 – 174-betlar.

- *Birlamchi guruhlar: o'quvchi-talabalar o'zlarining birlamchi guruhlariga o'rganganlarini o'qitishadi.*

Shuningdek:

1. *O'qitish jarayoniga bu tarzda yondashilganda o'quvchi-tala-balarning hamkorlikda ishlashlariga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishlariga imkon tug'iladi.*

2. *U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun talaba – o'quvchilarga boshlang'ich axborotlarni uzatish zarurati tug'ilsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali qurol hisoblanadi*

3. *O'qituvchi murakkab mavzular bo'yicha o'quvchi-talabalarni dars-ga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohi-da axborot tayyorlaydi. Unda darslikdan tashqari qo'shimcha tarzda gazeta, jurnallardagi maqolalardan materiallar bo'lishi kerak.*

4. *Har bir o'quvchi-talaba ikki guruh tarkibida ishtirok eta-di: Dastlab “o'z uyi” (birlamchi) guruhiga keyin esa (ekspert) guru-higa birlashib, o'quv elementlarini mustaqil ravishda o'rganisha-di. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o'quvchi-talabalar olgan axborot paketlaridan har bir mavzuga oid materiallar, bir xil rangdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror bir burchagi bo'yalgani ma'qul.*

5. *Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha o'quvchi-talaba (o'quvchi-talabalar soniga qarab) bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi-talaba “o'z uyi”dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olishi kerak.*

6. *O'qituvchi o'quvchi-talabalarni “rangli topshiriqlar” asosi-da guruhga birlashishini taklif etadi hamda ular alohida mavzu-lar bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, “qizil” larni audito-riya yoki sinf xonasi oxirida, “ko'k”larni esa OO'Yu, kasb-hunar kol-leji, maktab yo'lakchasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhida o'quvchi-talabalar soni 3 nafardan kam bo'lmasligi kerak.*

7. *Guruhlarga axborotli paketlar tarqatiladi, har qaysi gu-ruh turli xil materiallar to'plamini olishlari va ularni muho-kama qilishi, aynan ana shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylani-shi lozim. O'quv materiallari bo'yicha “ekspert” bo'lishi uchun o'quv-chi-talabalarda vaqt etarli bo'lishi zarur. Buning uchun, agar ma-teriallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol, bir dars jarayoni to'liq talab qilinadi.*

8. *O'quvchi-talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:*

- *paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling;*
- *bir-biringizdan so'rang, materiallarni har biringiz tushu-nib olganingizga ishonch hosil qiling;*

- *o'z “uyingiz” guruhida o'qitish zarurligini hisobga olib, ma-terialning muhim o'quv unsurlariga e'tiborni qarating.*

9. *O'quvchi-talabalarining o'z “uylariga” qaytishlarini ilti-mos qiling. Har biri o'z “uyi” guruhiga axborot beradi. Shak-shub-hasiz, “u” guruhida ekspert guruhidan 1 ta o'quvchi-talaba bo'lishi shart. O'rganib kelgan o'quvchi-talaba materiallarni o'z guruhi o'quvchi-talabalariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga oladi. Bu jarayon o'quv materiallarining o'zlashtirilishi zarurligiga qarab, yana bir saot davom etishi mumkin.*

“Iqtisodchi” metodi

“Iqtisodchi” metodi o’quvchi-talabalarda fikriy bog’liqlik, man-tiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muam-moni hal qilishda o’z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahorati-ni shakllantiradi.

Masalan, iqtisodiy iboralarni pedagogik terminlar bilan to’ldirish. O’quvchi-talabalar iboralarni tavsiya qilishadi: biznes, tadbirkor, iqtisod, hisobot, statistika va hakoza. Bu ibora to’g’ri-sida to’xtaymiz:

H	I	S	O	B	O	T
I	B	A	G	O	B	A
M	R	B	Z	G	R	D
O	A	O	A	L	O	B
Y	T	Q	K	I	L	I
a	L		I	Q	I	R
	I			L		
				I		
				K		

Veer (elpig’ich) metodi

Bu metod murakkab, ko’p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarak-teridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan.

Metod mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning turli tar-moqlari bo’yicha bir yo’la sharh beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interaktiv metod tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlanishiga hamda o’z g’oyalari, fikrlarini yozma va og’zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Veer metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhoka-ma qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, audito-riyaning faol ishlashiga qaratilgan.

Veer metodi mavzuni o’rganishning turli bosqichlarida qo’lla-nishi mumkin:

- *boshida: o’z bilimlarini erkin faollashtirish;*
- *mavzuning o’rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahm-lash va anglab etish;*
- *yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.*

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

- *aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tek-shiriladi;*
- *afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz;*
- *fazilat – ijobiy sifat;*

- nuqson–nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik;
- xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha da-lildan natijaga kelish.

Veer metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakter-dagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- ishga ijobiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

Shunday qilib, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida inter-faol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchik-lab o'rganish o'quvchi– talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoni to'g'ri echimini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil iqtisodiy muammolar interfaol metodlar orqali tah-lil etilganda, o'quvchi-talabalarning bilishini kengayishi va chu-qurlashishi aniqlanadi. Shuning uchun quyidagi amaliyotda foydalanilayotgan interfaol metodlar asosidagi dars ishlanmasi (uslubiy ko'rsatma)ni keltiramiz.

Mavzu: Interfaol metodlar asosida dars o'tish **Dars shakli: Seminar**

TA'LIM METODLARI:	Suhbat, savol – javob “Aqliy hujum”, “Qo-ra quti” hamda “5x5x5”, “Beshinchisi ortiq-cha”, test so'rovi.
DARSNING MAQSADI:	Oliy o'quv yurtlari talabalarida ta'limni amalga oshirishning asosiy metodlari va tashkiliy shakllari to'g'risida bilimlarini mustahkamlash.
DARSNING JIHOZLARI:	Mavzuga oid adabiyotlar, slaydlar, oq qog'oz, marker, o'quvchi-talabalarni guruhlarga bo'lish uchun turli shakl va rangdagi kartochka-lar.

Darsning rejasi:

- I. “Aqliy hujum” metodi yordamida dastlabki tushunchalarni aniqlashtirib olish.
- II. “5x5x5” metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirish.
- III. Savol – javob asosida suhbat tashkil etish.
- IV. “Qora quti” metodi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalar-ni mustahkamlash.
- V. “Beshinchisi ortiqcha” metodi yordamida o'zlashtirilgan bi-limlarni mustahkamlash.
- VI. Qisqacha test so'rovi yordamida talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash.

Darsning borishi

Mashg'ulot o'qituvchining oliy ta'lim tizimida "Zamonaviy pe-dagogik texnologiyalar" fani haqidagi kirish so'zi bilan boshlanadi. U o'z ma'ruzasida ta'lim metodlari oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili ekanligini yorqin misollar bilan tushuntiradi, bunda an'anaviy hamda noan'anaviy ta'lim metodlarini sanab o'tadi. Ma'ruzalar matnda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanmay, qo'shimcha adabiyotlarga, jumladan "Pedagogika", "Psixologiya" hamda maxsus fanlarni o'qitish metodlariga oid boshqa qo'llanmalarga murojaat qiladi. Mavzuga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati jadval shaklida talabalarga havola qilinsa, o'qituvchi bergan ma'lumot yanada samarali, esda qolarli bo'ladi.

Mashg'ulot davomida amalga oshiriladigan har bir metod mos ravishda savol – javoblar orqali mustahkamlab boriladi. Chunonchi, "Siz metod" tushunchasini qaysi fan sohalarida uchratgansiz?, "Siz bakalavr kursida tahsil olish davomida "ta'lim metodi" tushunchasi bilan bog'liq qanday ma'lumotlarni eslay olasiz?", "Oliy ta'lim muassasasida tahsil olish davomida qo'llanilgan qanday ta'lim metodlarini sanab bera olasiz?" kabi savollarga talabalar, albatta javob berishadi. Ular aytishga qiynalgan, mu-nozarali o'rinlarni esa o'qituvchining o'zi to'ldirib boradi.

Talabalarga ma'ruza mashg'ulotida *metod, metodika, metodo-logiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlari* bilan bog'liq tushunchalarni mustaqil ravishda, chuqurroq o'rganish topshirilishi lozim. Ta'lim metodlari tushunchasi ancha keng va birmuncha murakkab bo'lib, ularni mustaqil ravishda birlamchi o'qish amaliy mashg'ulot jarayonida ularni o'zlashtirish va mustahkamlashni ancha osonlashtiradi, matnda uchraydigan qiyin so'z, jumla va nomlarni to'la tushungan holda o'zlashtirishga yordam beradi.

I. "Aqliy hujum" metodi yordamida dastlabki tushunchalarni aniqlashtirib olish

Mashg'ulotni o'qituvchi "Aqliy hujum" metodi bilan boshlaydi: "Ta'lim metodi nima?". Talabalarning javoblari doskaga yozib boriladi va tayanch so'zlar tagiga chizib, umumiy ta'rif ishlab chiqiladi: "Ta'lim metodi" deyilganda, ta'lim oluvchilar va o'qituvchining ta'lim, tarbiya va o'qitish jarayonida shaxsni rivojlantirish masalalarini hal qilishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi, birinchi guruh "Metodika nima?", ikkinchi guruh "Metodologiya nima?", uchinchi guruh "Zamonaviy pedagogik texnologiya nima?" degan savollarga 15 daqiqa davomida javob o'ylab ko'rishlarini va har bir guruhdan bir kishining gapirib berishini iltimos qiladi.

Talabalar javob berib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi *metodika, metodologiya va pedagogik texnologiya* haqida ma'lumotlarni umumlashtiradi.

II. “5X5X5” metodi yordamida bilimlarni o’zlashtirish

Guruh talabalari 5 nafardan bo’lib, 5 ga bo’linadilar. Mavzu-ning umumiy matni 5 qismga bo’linib, har bir qism har bir guruh-ga beriladi va guruhlariga matnni o’rganib chiqish vazifasi topshiriladi. Matn guruhlar tomonidan o’rganilgandan so’ng, guruhlar qayta tashkil etiladi (ushbu o’rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a’zosi bo’lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so’ng, har bir talaba o’zi o’zlashtirgan ma’lumotlarni qolgan talabalarga hikoya qilib beradi. Shu tarzda mavzu matni talabalar tomonidan o’zlashtiriladi.

III. Savol-javoblar asosida suhbat tashkil etish

Talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoya metodini oliy ta’lim tizimida qo’llashning o’ziga xosligi nimada?
2. Suhbat metodini tashkillashtirishda o’qituvchi va talabaga nisbatan qanday talablar qo’yiladi?
3. Ma’ruza metodining hikoya va suhbat metodidan printsiptial farq qiladigan jihatlari nimada?

IV. “Qora quti” metodi yordamida o’zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash

Ushbu metod vositasida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: talabalar juftliklarga birikadilar va ularga ta’lim metodlari-ning mohiyatini yorituvchi asosiy vaziyatlarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O’qituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni to’g’ri bajaragan juftlikning bir a’zosi o’qituvchi rolini bajaradi va yozuv taxta-siga quyidagi vaziyatlarni yozadi: talabalar qiziqish va motivatsiya-larini aniqlash, yangi bilimlarni o’zlashtirish, o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni amalda qo’llash malakalari-ni hosil qilish, bilimlarning o’zlashtirilish darajasini aniqlash. So’ngra talabalardan ushbu vaziyatlar nimani anglatishini so’raydi, to’g’ri javob bera olgan talaba o’qituvchi vazifasini ijro etadi va talabalardan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi beshta tushunchani kartochkalarga yozishni so’raydi. Ushbu *talaba - o’qituvchi* yordamida topshiriqni juftlik talabalar qanday bajaraganlarini tekshiradilar va yozuv taxtasiga quyidagi atamalarni yozadilar: *hikoya, suhbat, ma’ruza, intervyu, munozara, test so’rovi*. O’qituvchi rolini bajarayotgan talaba tengdoshlaridan ushbu so’zlar nimalarni anglatishini so’raydi.

V. “Beshinchisi ortiqcha” metodi yordamida o’zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash

Talabalarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: beril-gan tushunchalar ro’yxatidan mavzuga taalluqli bo’lmagan tushuncha-larni aniqlang va ularni ro’yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang.

Tushunchalar:

1. *Metodika, metod, imtixon, usul, metodologiya.*
2. *Hikoya, hikoya-nutq, hikoya-bayon, hikoya-xulosa, hikoya-nazorat.*

VI. Qisqacha test so’rovi yordamida talabalarning o’zlashtirish darajasini aniqlash

Dars davomida talabalar tomonidan bilimlarning o’zlashtiri-lishini nazorat qilib, ularni baholash uchun qisqacha test so’rovi o’tkaziladi. Bunda mavzu yuzasidan ishlab chiqilgan test savollari muayyan o’lchamdagi kartochkalarga yozib, tarqatiladi.

1-test

Metod tushunchasi nimani ifodalaydi?		
☐	A	Ta’lim berish usullari va shakllari
☐	B	Tadqiq qilish yoki bilish yo’li
☐	C	Pedagogika qonuniyatlarini ta’limda ifodalanishi
☐	D	Talabalarga bilim berish va baholash jarayoni
☐	E	Pedagogik jarayonlarni amalga oshirish usuli

2-test

Metod tushunchasining to’g’ri berilgan ta’rifini ko’rsating.		
☐	A	Dars jarayonida tabiiy va sun’iy ko’rgazmali vositalardan foydalanish
☐	B	Ma’lum o’qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo’lgan yordamchi o’quv materiallari
☐	C	Tushuntirish, suhbat, ma’ruza, hikoya
☐	D	Ta’lim jarayonida o’qituvchi va talabalarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati
☐	E	Talabaga yordam berish lozim bo’lgan ilmiy bilimlar maj-muasi

3-test

Ta’limdagi og’zaki metodlarni ko’rsating.		
☐	A	Hikoya, suhbat, tushuntirish metodlari
☐	B	Ko’rgazmalilik va muammoli-izlanish metodlari
☐	C	Induktiv va deduktiv metodlar
☐	D	Kitob va qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash metodlari
☐	E	Ekskursiya va to’garak mashg’ulotlari

4-test

O’qitishning ko’rgazmalilik metodi qanday usullarda olib boriladi?		
☐	A	O’qituvchi va talaba tomonidan amalga oshiriladi
☐	B	Induktiv va deduktiv usulda
☐	C	Ekskursiya va to’garak mashg’ulotlari shaklida

☐	D	Namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya usullarida
☐	E	Kitob va qo'shimcha adabiyotlar yordamida

5- test

Nazariy bilish shakllari qaysi javobda berilgan?		
☐	A	Aksioma, teorema, qonun, formula
☐	B	Suhbat, bahs, tushuntirish
☐	C	Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar
☐	D	Dars, ma'ruza, amaliyot, seminar
☐	E	Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish

6-test

O'qitishning amaliy usullari qaysi javobda berilgan?		
☐	A	Seminar va laboratoriya mashg'ulotlari
☐	B	Yozma mashq, tajriba-laboratoriya mashg'ulotlari, mehnat topshiriqlarini bajarish
☐	C	Ekskursiyalar va amaliyotlar
☐	D	Ma'ruza va tushuntirish mashg'ulotlari
☐	E	Talabalar bilim darajasini nazorat qiluvchi sinov mashg'ulotlari

7-test

Seminar mashg'uloti qaysi javobda ko'rsatilgan?		
☐	A	O'quv ishlarining asosiy shakli va metodi
☐	B	O'quv ishlarining asosiy yuklamasi bajariluvchi markaziy qismi
☐	C	Talabalarining mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil etish
☐	D	Amaliy va tajriba mashg'ulotlari
☐	E	Bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'uloti

8-test

Nazariy tadqiqot metodlarini ko'rsating		
☐	A	Tushuntirish va suhbat
☐	B	Ma'ruza va seminarlar
☐	C	Tashhis qilishni o'rganish, pedagogik tajribani umimlashtirish
☐	D	Kuzatish, og'zaki so'rash, suhbat, yozma so'rash, mutaxassislar bahsi, testlar
☐	E	Analiz, sintez, modellashtirish, konkretlashtirish

9-test

Empirik tadqiqot metodlari qaysi javobda berilgan?		
☐	A	Tushuntirish va suhbat
☐	B	Ma'ruza va seminarlar
☐	C	Tashhis qilishni o'rganish, pedagogik tajribani umimlashtirish
☐	D	Kuzatish, og'zaki so'rash, suhbat, yozma so'rash, mutaxassislar bahsi, testlar
☐	E	Analiz, sintez, modellashtirish, konkretlashtirish

10-test

Ta'limning faol o'qitish metodlarining tavsifi		
☐	A	Ta'lim oluvchilar faolligini tashkillashtirish
☐	B	Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini, ijodiy mustaqilligini oshirish

☐	C	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish
☐	D	Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash
☐	E	Ta'lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlariga, uning bazaviy tayyorgarligiga muvofiqlashtirish

11-test

Nazariy va empirik metodlar guruhi uchun umumiy bo'lgan metodlarni ko'rsating.		
☐	A	Tushuntirish va suhbat
☐	B	Ma'ruza va seminarlar
☐	C	Tashhis qilishni o'rganish, pedagogik tajribani umumlash-tirish
☐	D	Kuzatish, og'zaki so'rash, suhbat, yozma so'rash, mutaxassislar bahsi, testlar
☐	E	Analiz, sintez, modellashtirish, konkretlashtirish

“Klaster”, “Bumerang”, “Intervyu” va “Aniqlashtirilgan maqsadli differentsial” texnologiyalar asosida dars o'tish

Iqtisodiy ta'lim tizimida olib borgan tajriba-sinovi-miz natijasi o'laroq, e'tiboringizga havola qilinayotgan ikki soatlik *“Iqtisodiy o'sish va uning omillari” mavzusidagi ma'ruza darsini o'tishda “Klaster”, “Bumerang”, “Intervyu”, “Aniqlash-tirilgan maqsadli differentsial”* kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalandik.

Mavzu: Iqtisodiy o'sish va uning omillari (2 soatlik ma'ruza darsi misolida)

Darsning maqsadi: talabalarga iqtisodiy o'sish, uning turlari va omillari kabi iqtisodiy tushunchalar haqida ma'lumot berish va ularda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: talabalar bilan salomlashib, ularni kayfiya-tini ko'tarish bo'yicha biror fikr bildirish, auditoriyaning umumiyy holatini, talabalarning darsga tayyorgarligini nazarot qi-lish, yo'qlama qilish.

Asosiy qism: avvalgi darslarda o'tilgan mavzularni takror-lash va mustahkamlash hamda yangi mavzuni bayon etishga asos tayyor-lash maqsadida tegishli savollar bilan talabalarga murojaat qi-linadi. So'ngra yangi mavzu bayoni quyidagi reja asosida tashkil etiladi (bu reja aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texno-logiyaning “S” standart dasturini tashkil etadi):

1. Iqtisodiy o'sish va uning iqtisodiyot uchun ahamiyati.
2. Iqtisodiy o'sish omillari.
3. Iqtisodiy o'sish turlari.
4. Iqtisodiy o'sish tsikllari.

Dars jihozlari: Prezident asarlari, bukletlar, foto albom-lar, jadval va grafiklar.

Darsda qo'llaniladigan vositalar: kompyuter, video texni-ka, proektor, multimediya.

Dars o'tishda qo'llaniladigan uslublar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, suhbat, intervyu, namoyish etish.

Dars o'tish texnologiyasi: “Intervyu”, “Klaster”, “Bumerang”, “Aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiyalar”.

Reja savollariga javob berishga o'tishdan avval o'qituvchi, talabalarni iqtisodiy o'sish tushunchasini qay darajada tushunish-larini o'rganish maqsadida, bir vaqtning o'zida “INTERVYU”, “BUMERANG”, “KLAUSTER texnologiyalari”dan foydalanib tala-balarga quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: (savol-lar berilishidan avval o'qituvchi guruhni uchga bo'lib oladi. Har bir guruhga tegishli texnologiya topshiriqlari beriladi).

“INTERVYU texnologiyasi” bo'yicha: Iqtisodiy o'sish deganda nima tushuniladi? O'sishning iqtisodiyot uchun ahamiyati qanday? (albatta, talabalar o'z javoblarini ketma-ketlikda bayon etadilar).

“BUMERANG texnologiyasi” bo'yicha quyidagi savollar ikkin-chi guruhga beriladi (lekin ular javoblarini yozma ravishda bayon etishlari uqtiriladi):

1. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari deganda nimalar nazarda tu-tiladi?
2. Kichik va xususiy biznesni iqtisodiy o'sishga ta'siri qan-day bo'ladi?
3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar qaysilar deb o'y-laysiz?

“KLAUSTER texnologiyasi” bo'yicha: uchinchi guruh talabalariga o'qituvchi biznes va tadbirkorlik tushunchalari bilan bog'liq tayanch iboralarni tarmoqlarga bo'lib yozishlarini talab qiladi.

Shart: har bir guruh tayyor bo'lgandan so'ng bir-birlariga hala-qit bermasdan, javob berishlari kerak, har bir javob diqqat bi-lan tinglanishi zarur va talabalar bir-birlarini fikr-muloha-zalarini hurmat qilishlari kerak.

(Yuqoridagi qo'llanilayotgan texnologiyalar birinchidan, tala-bani uyda qanchalik mustaqil tayyorlanganligini ko'rsatsa, ikkin-chidan, o'qituvchi bayonida bu fikrlar tayanch iboralar vazifasini o'taydi, ya'ni talabani bor bilimini o'qituvchi boshqa materiallar asosida boyitadi).

Aytilgan fikrlar o'qituvchi tamonidan umumlashtiriladi va rejada berilgan har bir savolga o'qituvchi talabalarning javobla-riga asoslanib, tushuntirishlar beradi, ya'ni ma'ruza qiladi. Ma'-ruza matni oldindan talabalarga tarqatiladi. Ma'ruza darsi so'ng-gida o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalarning savollariga javob beradi, umumlashtiradi va uyga vazifa berib, dars yakunlanadi.

Mazkur mavzuni seminar darsi dars o'tish metodikasi misoli-da keltiramiz. Seminar darsini “Aniqlashtirilgan maqsadli dif-ferentsial texnologiya” asosida o'tiladi.

Mavzu: Iqtisodiy o'sish va uning omillari (2 soatlik seminar darsi misolida)

Darsning maqsadi: talabalarni ma'ruzada olgan bilimlarini, iqtisodiy o'sish va uning omillari, iqtisodiy o'sish turlari, iq-tisodiy tsikl va uning fazalari kabi iqtisodiy tushunchalarni qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat qilish.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: talabalar bilan salomlashib, auditoriyaning umumiy holatini, talabalarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish, yo'qlama qilish.

Asosiy qism: avvalgi darslarda o'tilgan mavzularni takror-lash va mustahkamlash hamda yangi mavzu bo'yicha seminar savollari muhokamasi.

Dars jihozlari: Prezident asarlari, bukletlar, foto albom-lar, jadval va grafiklar.

Darsda qo'llaniladigan vositalar: kompyuter, video texni-ka, proektor, multimediya.

Dars o'tishda qo'llaniladigan uslublar: og'zaki, namoyish etish, ko'rgazmali, amaliy suhbat, intervyu.

Dars o'tish texnologiyasi: "Aniqlashtirilgan maqsadli dif-ferentsial texnologiya"

Izoh. "Aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiya " da uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi: "A", "V", "S" das-turlari ajralib turadi.

Dastur quyidagi vazifalarni hal qiladi:

– muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni ta'min-laydi:

– ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi.

Yuqoridagi dasturlar asosida dars o'tish uslubiyotidan namuna keltiramiz.

"S" dastur

"S" dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni ba-jarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradilar. "S" dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir tala-ba bajara olishi lozim. Ya'ni, bizning namunadagi mavzuimizda ma'ruza darsidagi reja savollari "S" dastur uchun asos bo'ladi. Chunki, bu materiallar bilan ma'ruza darsida har bir talaba tanishgan va seminarga tayyorlanish jarayonida mustaqil bilimga ega bo'lganlar.

Demak:

1. Iqtisodiy o'sish va uning iqtisodiyot uchun ahamiyati.
2. Iqtisodiy o'sish omillari.
3. Iqtisodiy o'sish turlari.
4. Iqtisodiy o'sish tsikllari.

(Yuqoridagi savollar talabalar tamonidan atroflicha yori-tilgach, o'qituvchi "S" dastur materiallarini to'ldiradigan, ken-gaytiradigan va talabalarni mustaqil ishlarini ta'minlaydigan "V" dasturiga o'tiladi. Bu dastur savollari, asosan, talabalarni amaliy ishlashlarini ta'minlashi lozim. Bu jarayonda ular musho-hadalaydi, fikrlaydi, xulosa qiladi, mustaqil qaror qabul qiladi, mantiqqa asoslanadi. Bu dastur savollari asosan, "yaxshi" o'zlash-tiradigan talabalarning bilimini inobatga olib, tuziladi).

"V" dastur

Izoh. "V" dasturi mavzuni qo'llash bilan bog'liq masalalarni echish uchun zarur bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatning umumiy va o'zi-ga xos usullari bilan egallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga ki-ritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materialla-rini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish eta-di va oydinlashtiradi, tushunchalarning amal qilish va qo'llani-lishini ko'rsatib turadi.

1. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv usullarini sharh-lang. Ularning asosiy jihatlarini gapirib bering.

2. Nima sababdan iqtisodiy o'sishda tsikllar bor? Ularning har birini tushuntiring va iqtisodiy tsikl fazalarini ifoda-lovchi chizmani chizing.

3. Quyidagi jummalarda tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rni-ga qo'yib, to'g'ri javobingizni tekshirib ko'ring:

a) iqtisodi o'sishi va ko'payishini bildiradi.

b) real YaMM narxlarda hisoblanadi.

v) ekstensiv o'sish yuz berganda sarfi ko'payadi, inten-siv o'sishda sarfi tejaladi.

g) Iqtisodiy tsikllar ikki turga bo'linadi: 1).....

2).....

(Bu berilgan savollarga talabalar mustaqil, mantiqan yondash-gan holda javob topadilar va o'zaro muhokamaga kirishadilar. O'qi-tuvchi bu erda kuzatuvchi va yo'l ko'rsatuvchi vazifasini o'taydi. Ya'ni, bahs jarayonini nazorat qiladi. So'ng munozarani nihoyalab, umumlashtiradi va yakuniy xulosa qilib, "V" dasturdan ham murak-kabroq bo'lgan, uni materiallarini yanada to'ldiradigan, kengayti-radigan "A" dasturga o'tiladi. Bu dastur savollari asosan, "a'lo" o'zlashtiradigan talabalar bilimini hisobga olib, tuziladi).

"A" dasturi

Izoh: "A" dasturi talabalarning iqtisodiy bilimlarni to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodiy qo'llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chu-qurlashtirilgan materiallar, ularning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

1. Mamlakatda hozir yiliga 115 milliard so'mlik YaMM yara-tiladi, 5 yildan so'ng YaMM hajmi 150,7 millard so'mga etdi. YaMM mahsulotning mutlaq va nisbiy o'sishini hisoblab, toping.

2. Investitsiyaning 1 %ga o'sishi YaMMning 0,27% o'sishini ta'-minlaydi. Agar hozir YaMM 47,8 millard so'm bo'lsa, investitsiya 4,4%ga ko'paysa, keyinchalik iqtisodiy o'sish necha so'mga teng bo'li-shini hisoblab toping.

3. Pul shaklidagi investitsiya 16%ga ko'paydi, investitsion to-varlar narxi 12%ga qimmatlashdi. Real investitsiya qanday o'zgar-ganligini hisoblang.

Ushbu keltirilgan masalalar talabalar tomonidan bajariladi va echimi topiladi. O'qituvchi masalalarni echishda talaba unga qan-day yondashayotganligini nazorat qiladi, mantiqan fikrlayotganini kuzatadi va echilgan masalalarni javoblarini tekshiradi. Talaba-ga tegishli izohlar, tuzatish va tushuntirishlar beradi.

Yakuniy qism: keyingi seminar darsi savollari beriladi va talabalar bilan keyingi darsgacha xayrlashib, dars nihoyalanadi.

Demak, "*Aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnolo-giya*"dan foydalanib, iqtisodiy fanlarni o'qitishda quyidagi sa-maradorlikka erishiladi;

– talabada mukammal iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikma ho-sil bo'ladi;

– talaba ta'lim jarayonining nafaqat ob'ekti, balki sub'-ektiga aylanadi;

- talabada iqtisodiy tafakkur shakllanadi;
- talaba o'ylanadi, izlanadi, mushohada yuritadi va mustaqil qaror qabul qiladi;
- fikrini ochiq va erkin bayon qilishni o'rganadi;
- talabalarning iqtisodiy bilimlarga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, tadbirkorlik va iqtisodiyotga qiziqish kuzatiladi;
- iqtisodiy ta'limda uzluksizlik yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, dars jarayonida “Klaster”, “Bumerang”, “Intervyu”, “Aniqlash-tirilgan differentsial texnologiya”lardan foydalanish iqtisodiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

4-MAVZU: “AUDIT” FANINI O’RGANISHDA MA’RUZA DARSIGA TAYYORGARLIK VA ULARNI O’TKAZISH.

REJA:

1.Ma’ruza o’qish jarayonining asosiy shakllari, ma’ruzaning tarkibiy qismlarini ko’rsatish.

2.Ma’ruzada qo’yiladigan savollar hozirgi kunning dolzarb muammolari bilan bog’lanishni bilishi, muammoli ma’ruzalar bilan umumiy ma’ruzalarning farqi va ma’ruzaga tayyorgarlik ko’rish.

3.Ma’ruza matni, unga qo’yiladigan talablar, ma’ruzani tayyorlashda davlatning qonun-qoidolari, farmonlari, yo’riqnomalari, Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo’mitasi, Markaziy bankning me’yoriy hujjatlaridan, maxsus adabiyotlaridan foydalanish tartibi.

4.Ma’ruza materiallarida muammolar qo’yish va ularni echish yo’llarini ko’rsatib bera olish. Ma’ruzada slaydlar, jadvallar, multimediyalar va boshqa amaliy materiallardan foydalanish va ularni dars jarayonida ishlatish, ma’ruza o’qishda auditoriya bilan aloqa o’rnatish usullari.

4.1. Ma’ruza o’qish jarayonining asosiy shakllari, ma’ruzaning tarkibiy qismlarini ko’rsatish.

«Audit» fanidan ma’ruzaga tayyorgarlik ko’rish va uni o’qitish metodikasi ushbu fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda (fanning predmeti, ob’ekti, metodlari va maqsad hamda vazifalarini hisobga olgan holda) amalga oshiriladi. Bunda, faol ta’limning ma’ruza usulini o’qituvchi puxta o’zlashtirgan bo’lishi lozim. Chunki ushbu usul hozirgi paytda deyarli har bir o’quv–tarbiya muassasasida keng miqyosda qo’llanilmoqda. Bunday hammabop usulni qo’llaganda o’qituvchi tomonidan barchaga bir tekisda bir xil ma’lumot berish juda ham osonlashadi. Ya’ni, bunda «Ommadan chiqqan insonlarga ommaviy ravishda xizmat ko’rsatiladi» deb nomlangan ma’lum va mashhur tamoyilga amal qilinadi. Ma’ruza dars berish jarayonini umumiyashtirishga imkon yaratadi va hech kimga sir emaski, talabalar hozirgi paytda xuddi shu dars uslubiyatiga qiziqib, ko’pincha unga yuz foiz qatnashadilar. O’tilayotgan darslarning asosiy qismi va mag’zi xuddi shu xilda tashkil etiladigan darslarda talabalar ixtiyoriga havola qilinadi. Shuning uchun ham ta’lim berishning bu usulining ijobiy va salbiy tomonlarini batafsilroq ko’rib chiqishga harakat qilamiz. haqiqatan ham juda keng miqyosda qo’llaniladigan ushbu ma’ruza usulining ko’pchilik olim va mutaxassislar tan olgan quyidagi uch yirik kamchiligi mavjud:

1. Tajribalar va ilmiy izlanishlar natijasida ta’lim berishning ma’ruza usuli bilan bog’liq quyidagi xulosalar olingan:

Ko’pchilik ma’ruzalarning ancha kam qismi tinglovchilar tomonidan to’la o’zlashtiriladi. Masalan, ellik daqiqalik ma’ruza davomida talabalar fikrining yo’naltirilganligini aniqlash (ushbu holda ularning konspektlaridagi yozuvlar hajmi va ma’nosi o’rganilib chiqilgan) ularning darsning 15 daqiqasi davomida 41 foiz

hajmdagi materialni yozib olganliklarini, keyingi 30 daqiqada esa 25 foiz hajmdagi materialni yozib olganliklarini va butun ellik daqiqalik ma'ruza davomida talabalar ma'ruza materialining bor-yo'g'i 24 foizinigina yozib olganliklarini ko'rsatgan. Boshqa bir ilmiy izlanishda esa ma'ruza boshlanishidan 15 daqiqa o'tgandan so'ng talabalar 10 foizining diqqat-e'tibori boshqa narsalarga chalg'iy boshlagan, 25 daqiqadan keyin esa 30 foiz tinglovchilarning fikri boshqa tomonga o'zgargan, 35 daqiqadan so'ng hamma tinglovchilarning fikri tarqoq holga kelgan, 45 daqiqadan so'ng esa diqqat-e'tibor yana ham susayib, talabalarning ba'zilar mudrab qolganlar. Bir sutkadan so'ng ularning ushbu mavzu bo'yicha olgan bilimlari tekshirilgan. Bunda tinglovchilar berilgan materialning atigi 15–25 foizinigina o'zlashtirganliklari aniqlangan. Qolgan ma'lumot va raqamlarni esa ular qandaydir noaniq hamda mavhum holda eslab qolganlar.

2. *Ko'pincha ma'ruzalar* tinglovchilardan oddiy, ibtidoiy va ancha sodda darajadagi fikrlashni talab qiladi. Ko'pchilik hollarda ma'ruzalarda inson miyasi va aql-idrokining vazifasi eshitish, so'zlarni ilg'ash, tanib olish va eslab qolish bilan chegaralanadi xolos. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'zgalarning biror-bir sohadagi ajoyib fikrlarini hamda mavjud dalillarni eslab qolish hech qachon samarali fikrlash va ijod qilishga olib kelmagan va olib kelmaydi ham. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, ma'ruzani insonlar orasidagi bir-biriga ma'lumot/informatsiya uzatish usuli sifatida munozaradan yaxshi deb bo'lmaydi. Munozara esa ma'lumot oluvchilar va uni beruvchilar orasida bevosita muloqot/aloqani mustahkamlaydi, xatolarga kamroq yo'l qo'yiladi va tinglovchilarda tahliliy/mantiqiy fikrlashni rivojlantirib, ular muammolar qo'yish, tushunish/tanish va ijodiy ravishda hal qilishga undaydi/o'rgatadi.

3. *Ba'zi yosh o'qituvchilar*, dars berishning ma'ruza usulini talaba/o'quvchilarga aytib yozdirish (diktovka) usuliga aylantirib, uning mavqeini juda ham tushirib yuborishlari mumkin. Buni bir qancha sabablar bilan izohlashlari, masalan, bu sohadan o'zbek tilida adabiyot mavjud emas, talabalar bu darsdan daftarlariga bir nima yozib ketadilar, imtixonga kelganlarida bu yozuvlar yordam beradi va shunga o'xshash sun'iy baxonalar keltirishlari mumkin. Bularning hammasi ham asossiz bo'lib, o'quvchi/talabalarni to'laqonli bilim olishdan chalg'itadi xolos.

Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, ma'ruzalarning ham o'ziga xos bir qancha yaxshi, diqqatga sazovor hamda ijobiy tomonlari mavjud:

1. *Biror-bir soha, fan, yo'nalish, yangilik* haqida umumiy ma'lumot berish va tinglovchilarga ushbu yo'nalish bilan bog'liq ko'rsatma/yo'l-yo'riqlar berish uchun ma'ruza usuli juda qulay, oson va maqsadga muvofiqdir. Bunda tinglovchilar sohani/yo'nalishni umumiy holda chuqurroq va tezroq o'zlashtiradilar. Bu xuddi ovqatlanish muassasasida tayyor va sifatli ovqatlarni ularning qanday tayyorlanganini bilmasdan huzur qilib eyishga o'xshab ketadi. Chunki ularning qanday tayyorlanganini bilmasdan ham, ovqatlarning qaysi biri yaxshi va qaysi biri unchalik emasligini bemalol ayta olasizda. Ularning mazasi haqidagi fikringiz ham tayyorlanish jarayonini bilish bilan aslo bog'liq emas.

2. *Agarda auditoriyada*, o'quv muassasasida har bir tinglovchini/talabani alohida ma'ruza matni yoki u bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiali/kitob/ma'ruza

matni bilan ta'minlashga imkoniyat bo'lmasa, ma'ruza tinglovchilarga ommabop, chegaralangan va umumiy holdagi tegishli ma'lumot (yoki bilim) berishning eng yaxshi usulidir, desak hech ham yanglishmagan bo'lar edik.

Agar talaba/o'quvchi harakatchan, aqlli, bilimli va faol bo'lsa ta'limning an'naviy va sust ma'ruza usuli orqali ham ancha katta bilim hajmiga ega bo'lishi mumkin, lekin uning ijodiy va samarali fikrlash doirasi baribir (taxminan 95 foizli ehtimollik darajasida) chegaralangan bo'lib qoladi. Agarda o'quvchi/talabaning tug'ma qobiliyatlari, oilaviy sharoiti yoki muhiti buni to'ldirmasa, uning tanqidiy mushohada qilish qobiliyati ham shubxasiz chegaralangan, bir Eqlama bo'lib qolishi mumkin. Demak, boshqacha qilib aytganda, insonning kichik aqliy salohiyati (intellektual koeffitsienti) uning juda katta hajmdagi haqiqiy bilimlar majmuasi tufayli katta bo'lib ko'rinishi mumkin, chunki u o'ylamasdan va fikr qilmasdan o'zining bilimlar majmuasidan tayyor kerakli javoblarni darhol aytish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning isboti uchun atrofingizdagi insonlar bilan muloqot qilish va ularning betakror harakatlarini o'rganish kifoya.

3. *Tinglovchilar soni ko'p bo'lganda* ushbu usulning samarasi yuqori bo'ladi deb ayta olamiz. Ma'ruza yuzlab o'quvchi/talabalarga bir vaqtning o'zida ma'lumot etkazish, unda mavzu bilan bog'liq savollarni muhokama qilish, yo'nalish olish va mavzuning mohiyatiga tushunish uchun real imkoniyat yaratadi.

4. *Bu usul ta'lim berishda unchalik tajribasi* ham, bilimi ham, intilishi ham bo'lmagan o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga imkon yaratib, o'quv muassasasidagi o'qituvchi kadrlar safini bir qadar to'ldirishga xizmat qiladi. Chunki ular uchun ma'ruza usulini qo'llash, o'zini bilimdon qilib ko'rsatgan holda dars berishga cheksiz imkoniyatlar yaratadi, bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan bevosita muloqotda bo'lmasdan, minbardan turib ma'ruza o'qish orqali o'z pedagogik mahoratini ma'lum darajada namoyish etishga imkoniyat topadi. Mavzu bilan uzviy bog'liq biror–bir savol yoki muammo bilan unga murojaat qilinsa, u masalan quyidagi tarzda javob berishi mumkin: «Azizim men hech qachon palov pishirmaganman, lekin palovning mazasini har qanday oshpazdan ham yaxshiroq bilaman».

Demak, yuqorida keltirilgan an'anaviy ma'ruza usuli haqidagi tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, ta'limni bunday tashkillashtirishda talabalar ma'ruzaning mazmun/mohiyatini yaxshi eslab qololmaydilar, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantira olmaydilar hamda unda olingan ma'lumotlarni hayotda ishlatishga birmuncha qiynaladilar. Ya'ni, ular xuddi kompyuterning hotirasidagi saqlanayotgan ma'lumotlar bankidagi ma'lumotlar majmuasiga o'xshash passiv bilimlarga ega bo'ladilar, xolos. Shuning uchun ham undan farqli o'laroq, quyida biz zamonaviy faol ma'ruza usulini va uni tashkil qilish qonun–qoidalarini ko'rib chiqamiz.

Esda olib qoling va esga tushurish mumkin bo'lgan bilimga o'z vaqtida erishilgan tushunish darajasi hamda o'rganish (o'zlashtirish)ning professionalizmi ham ta'sir ko'rsatadi, masalan mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va eslab qolish muayyan bir mobaynida ta'sir qiladi.

Agar o'quv materiali qismlarga bo'lingan bo'lsa va uni o'zlashtirish uzoqroq vaqtga taqsimlangan bo'lsa, u yaxshi esda olib qolinadi. EBBINGXAUZ

eksperimentlari vaqt davomida esga tushirish mumkin bo'lgan bilimlarning pasayishini jadvalda ko'rsatilganday ko'rsatdi. Bundan shunday amaliy qoida ishlab chiqarildi:

Aniq vaqt davomida bilimlar kamida 3 marta takrorlanishi kerak, lekin takrorlanganda, har safar boshqacha nuqtai nazardan va o'rganishning har xil usullari va uy vazifalardan foydalanish kerak.

Ma'ruzachiga maslahatlar:

1. Nazariy dars oxirida eng muhim narsalarni (xulosalar, qoidalar, ...) takrorlab umumlashtiring

2. Ertasi kuni yangi materialni tushuntirishni boshlashdan avval bu umumlashtirishni takrorlang

3. Hafta oxirida o'quvchilarni eng muhim bilimlarni og'zaki test yoki uy vazifasi orqali esga tushirishga majbur qiling

Idroq qilish paytida qancha ko'p sensorik kanallardan foydalanilsa, esda olib qolingani bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Tadqiqotchining aniq natijalariga asoslanmasdan ham, quyidagi xulosaga kelish mumkin: Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75%ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idroq qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa fenomenning asosi bo'lib hisoblanadi.


Buning davomi sifatida o'quv vaziyatida o'quvchilarning faol ishtiroki orqali o'qitishining 3-chi bosqichi «ong» kuchayadi.

Bundan quyidagi qoida kelib chiqadi:

1. O'quv vaziyatini tayyorlashda va interaktiv usullar va audio-vizual vositalar oqilona «aralashmasi»ni ishlatish uchun tayyorlab qo'ying. Bunda birdaniga ko'pgina sensorik kanallar jalb etiladi.

2. O'quv materiali to'g'risida bahslashishga doim imkon bering. O'quv suhbatlar, guruhviy bahs-munozaralar tavsiya etiladi, chunki bu usullar o'quvchilarni faollikka jalb qiladi.

Eslab qolish darajasi va sensorik kanallarni ishlatish



Hozir biz ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan Aktiv/Faol ma'ruza usuli quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo'ladi:

Bu bosqich ma'ruza darsi o'tilishining ilk bosqichi bo'lib, unda o'qituvchi talabalarning diqqat-e'tiborini o'rganilishi lozim bo'lgan mavzuning materialiga (soxasiga, muammosiga) iloji boricha tezroq jamlashga yordam beruvchi biror-bir topshiriq, masala yoki fikr beradi. U bunda ikki maqsadni ko'zlaydi: tinglovchi, o'quvchi yoki talabalarga ushbu soha bo'yicha ularning bilgan barcha bilimlarini eslashni taklif qiladi va buning asosida ma'ruzada javob berilishi zarur bo'lgan savollar majmuasini tuzadi. Demak, ushbu birinchi (Chaqiriq, Tayyorlanish) bosqichning asosiy maqsadi talabalarning ma'ruza o'qilishi kerak bo'lgan yo'nalishdagi bilimlarini faollashtirish, ularda bo'lajak ma'ruzaga ma'lum bir darajada qiziqish uyg'otish va ma'ruzaning pirovard maqsadlarini aniqlashga qaratilgan.

Bunda, masalan, o'qituvchi quyidagi tartibda o'z ishini tashkil qilishi mumkin:

a) Tanlangan ma'ruza mavzusi bo'yicha o'quvchi-talabalarning bilimlarini jamlash uchun besh daqiqavaqt ajratish (bu ishni o'qituvchining topqirligi va aql-farosati bilan bog'liq ravishda xilma-xil usullarda va ko'rinishlarda uyushtirish mumkin);

b) O'quvchi-talabalarning ma'lum tartibda xosil qilingan guruhlarida yoki ikki kishilik juftliklarda (bu holda har bir o'quvchi o'zining yonidagi sherigi bilangina muloqot qilishi mumkin) muhokama qilish uchun savollar qo'yish va ularning muhokamasini jonli ravishda tashkil qilish;

v) Tinglovchilarga ushbu aniq ma'ruza ma'nosi va matni bilan bog'liq iboralar, tayanch so'zlar, atamalar yoki tushunchalar ro'yxatini ko'rsatish va ulardan ushbu iboralar hamda atamalarni izohlab berishni, mohiyatini yoki ma'nosini so'rash. Agar shunday ish amalga oshirilsa, ma'ruzani berish jarayoni ancha oson va ortiqcha muammolarsiz o'tadi hamda o'quvchilar o'zlarini erkin his qilib, masalaning mohiyatini anglay boshlaydilar.

4.2. Ma'ruzada qo'yiladigan savollar hozirgi kunning dolzarb muammolari bilan bog'lanishni bilishi, muammoli ma'ruzalar bilan umumiy ma'ruzalarning farqi va ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish.

Mazkur hal qiluvchi bosqichda o'qituvchi 10–15 daqiqa davomida ma'ruza matnini tushuntiradi yoki uning tub mohiyatini o'quvchilar diqqat-e'tiboriga havola qiladi. Bu vaqt butunlay tasodifiy ravishda mualliflarning o'zlari tomonidan tanlangan emas, albatta. Uning o'ziga xos ilmiy-uslubiy va amaliy asosi mavjudki, bunga rioya qilmasdan aslo ilojimiz yo'q. Chunki ma'ruza qanday bo'lmasin, uning davomiyligi belgilangan vaqtdan oshib ketgandan so'ng tinglovchilarning ma'ruzaga bo'lgan fikr-e'tibori asta-sekin susaya boshlaydi. Demak, ular uchun qandaydir miya faollashtiruvchi turidagi yoki ularning mudragan miyasini jonlantirish uchun turtki bo'luvchi ishchan faoliyatni tashkil qilish lozim bo'ladi. Ushbu ish esa keyingi bosqichda amalga oshiriladi.

Ma'ruzaning ikkinchi bosqichida ta'rif etilgan birinchi «Ma'lumot olish» deb nomlangan qismi tugaganidan so'ng, o'qituvchi o'z ma'ruzasini ma'lum muddatga

to'xtatadi va tinglovchilardan hozirgina tinglangan ma'ruza qismi bo'yicha eshitganlarini hamda o'zlarining ushbu yo'nalish, fan yoki soha haqidagi shaxsiy fikrlarini o'zlashtirilgan ma'lumot bilan solishtirishni va ijodiy fikrlashni taklif qiladi. Masalan, o'qituvchi tinglovchilarni juftliklarga bo'lib, ularga birgalikda (o'z sheriklari bilan) quyidagi turdagi savollarni muhokama qilishga yo'llashi mumkin:

- Hozir eshitgan ma'ruzadagi Siz olgan eng asosiy ma'lumotlardan bittasini aytib bera olasizmi?
- Ma'ruzadan olingan ma'lumotlar Sizning ushbu soha haqidagi fikringiz va tajribangiz bilan mos keladimi?
- Uning qaysi bir jihatlarini yoki tarkibiy qismlarini o'zingiz uchun muhim deb bilasiz?
- Ma'ruzada bayon qilingan fikrlar Sizning shaxsiy fikringiz va tajribangizga mos keladimi?

Bu bosqichda ma'ruza o'qiydigan o'qituvchi talabalar yoki tinglovchilarga aynan birinchi bosqichda amalga oshirilgan jarayonga o'xshash yakka yoki juftliklarda ishlash uchun qisqa topshiriqlar beradi va bu topshiriqlar ularning ongida mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi lozim bo'ladi. Bundan pirovard maqsad bo'lib quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- O'quvchi–talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini jamlash, ularda ma'ruzaning keyingi qismini eshitish uchun qiziqish (stimul) xosil qilish;
- Ma'ruza qiziqarli ekan, degan ijobiy fikr uyg'otish;
- O'quvchilarning diqqatini yana bir marta ijodiy bilim olishga jalb qilish.

Bu bosqichda o'quvchilarga mavzu davomining mohiyati qisqa hamda ifodali qilib tushuntiriladi va shundan so'ng o'qituvchi yana 10–15 daqiqa mobaynida mohirlik bilan ma'ruzaning keyingi qismini tinglovchilar diqqat–e'tiboriga havola qiladi va uning mazmunini (mohiyatini, tub ma'nosini, materialini) tanqidiy (jonli ravishda, ijodiy) jihatdan o'ylash va tahlil qilish uchun talabalar diqqatiga xavola qiladi. Bunda jonli misollardan foydalangan holda, tushunarli va hayotiy qilib ma'ruza savol va masalalarini tavsiflash katta amaliy ahamiyatga egadir. Agar o'qituvchi shu masalani muvaffaqiyatli hal qila olsa, hech qiynalmasdan keyingi bosqichga o'tishi mumkin.

Bunda o'qituvchining hurmat va e'tiboriga loyiq tinglovchilari o'z shaxsiy fikrlarini hamda bilimlarini ma'ruzadan olgan ma'lumot va g'oyalar bilan solishtirish hamda tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bizningcha, faol ma'ruza o'tkazishning asosiy va hal qiluvchi bosqichlari va uni tashkil qilishning tub sir–asrorlari kitobxonga ancha tushunarli bo'ldi chog'i. Demak, biz olg'a qarab harakat qilishga o'ziga xos harakat dasturi yaratdik va ma'ruza bilan bog'liq keyingi qadamlar ma'nosini ham ko'rib chiqishga tayyormiz.

Xuddi shu tartibda harakat qilinsa, ma'ruzaning uchinchi, to'rtinchi va boshqa hamma qismlari muvaffaqiyatli o'qiladi va nixoyat darsni yakunlash bosqichiga etib kelinadi. Bu esa o'z–o'zidan yakuniy topshiriq turidagi mashg'ulot bo'lib,

yalpi miqyosdagi (ko'inishdagi), ma'ruzaning hamma tarkibiy qismlarini va mohiyatini qamrab olgan ijodiy va tanqidiy ko'inishdagi fikrlashni talab qiladi.

Faol usulda o'tkazilayotgan ma'ruzaning ushbu oxirgi va hal qiluvchi bosqichda o'qituvchi talaba-o'quvchilarga shunday turdagi topshiriq, masala, test, muammo yoki ko'rsatma berishi lozimki, unda tinglovchilar ma'ruzada berilgan asosiy ma'lumotlar, faktlar va qoidalar to'g'risida ijodiy hamda jonli fikrlasinlar. Bu esa o'z navbatida, albatta, o'qituvchining mavjud tajribasi va bilimi darajasi bilan aniqlanib, xilma-xil ko'inishlarda va usullarda tashkil qilinishi mumkin. Bunday tadbirlarga yaqqol misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Sinfdagi (guruhdagi) talabalarni (o'quvchilarni, tinglovchilarni) maqsadga muvofiq ravishda tashkil qilingan guruhlariga yoki juftliklarga bo'lingan holda ma'ruzaning asosiy qismlari haqida oldindan tuzilgan ochiq turdagi savollarga javob berishlarini so'rash mumkin;

- Har bir tinglovchiga ma'ruzaning asosiy qismini, undagi berilgan qoidalar va ma'lumotni hamda ma'ruza mohiyatini qamrab oluvchi «5 daqiqalik insho (hikoya)» yozishni taklif qilish ham samarali natijalarga olib kelishi mumkin;

- Har bir tinglovchi/talabaga ma'ruza davomida ko'rib chiqilgan muammolar bilan bog'liq birgina savolga bag'ishlangan «5 daqiqalik insho» yozish topshirig'ini berish hamda ular uchun ma'ruza davomida javobsiz qolgan birgina savolni yozishlarini taklif qilish. O'qituvchi bu insholarni yig'ib oladi va ularni kelajakda o'z ma'ruzasini yanada boyitish uchun ishlatishi mumkin yoki ularning ichidan eng qiziqarli /maqsadga muvofiqlarini tinglovchilar/talabalar bilan birgalikda muhokama qilishi mumkin. *Endi har bir alohida olingan bosqichda qo'llanilishi mumkin bo'lgan faol pedagogik usullar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.*

(*Chaqiriq, Tayyorlanish*) bosqichida talabalarining o'rganilishi zarur bo'lgan yo'nalishdagi bilimlarini faollashtirish, ularda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ma'lum bir darajada qiziqish uyg'otish va ma'ruzaning berilishi bilan bog'liq pirovard maqsadlarini aniqlash uchun quyidagi turfa usullarni qo'llash mumkinki, ular o'qituvchining ishini ancha osonlashtiradi va uning o'quvchilar bilan maqsadga muvofiq ravishda muloqot qilishiga imkon beradi:

Mantiqiy zanjir usuli

Bu usul ko'pincha tezda faollashtirilish va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatiga etish o'ta muhim bo'lgan mavzularni o'rganishda yoki shunday xususiyatlarga ega bo'lgan guruhlarda qo'llaniladi. O'qituvchi ushbu mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lgan so'zlar ketma-ketligini (gapni, fikrni, qoidani, fakti, tushuntirishni, gipotezani, xronologik ketma-ketlikni, sabab-oqibat zanjirini va hokazo) ixtiyoriy ravishda tanlab oladi va ularni bir qancha alohida so'z qismlariga bo'lib, alohida qog'ozlarga yozib chiqamiz. Keyin talabalar (tinglovchilar) guruhlariga fikrlarini jamlab muhokama qilish natijasida, so'zlarni ma'no-mohiyatiga ko'ra to'g'ri tartibda joylashtirish vazifasini beradi. Bir qancha tinglovchi/talaba bu ishni bajarib, guruh yagona bir xulosaga kelganidan so'ng, o'qituvchi ularga bu fikr o'rganilayotgan ma'ruza matnida qanday ma'noda kelishiga e'tibor berishni va ma'ruzadan so'ng uni iloji boricha aniqroq va batafsilroq aniqlashga harakat qilish kerakligini bildiradi. Demak, endi talabalar

ma'ruza davomida bu so'z/fikr qachon va qay tarzda hamda qanday ma'noda kelishiga alohida e'tibor beradilar, ya'ni ularning fikri ma'ruza davomida bir tomonga yo'naltirilgan (fokuslashgan) holatda bo'ladi. Yo'naltirilgan fikr–e'tibor esa ularga mavzuni aql nuri bilan yoritishga va undan tegishli ma'noni atroflicha tushunishga olib kelishi tabiiy.

Ma'ruza mavzusi bo'yicha ma'lumot yozish.

Tinglovchi/talabaga besh daqiqa davomida taklif etilgan mavzu bo'yicha ular biladigan hamma ma'lumotlarini erkin uslubda yozish taklif qilinadi. Besh daqiqa o'tgandan so'ng esa ishni ijodiy ravishda yakunlash uchun yana bir daqiqa qo'shib berish ham yaxshi natijalarga olib keladi. Chunki tig'iz (kritik) sharoitlarda inson miyasiga eng yaxshi va samarali fikrlar kelishi mumkin. Keyin esa ularning ba'zilaridan yozganlarini bir-birlariga aytishlarini, munozara qilishlarini yoki barcha sinf o'quvchilariga o'qib berishlarini so'rash mumkin. Ularga ma'ruza davomida qaysi bir fikr, g'oyalar yoki kimning fikri to'g'ri chiqishiga ahamiyat berishni so'rash ularning fikrini jamlashga va keyinchalik bo'ladigan ma'ruzani diqqat–e'tibor bilan tinglashga katta yordam beradi. Bunda, albatta, o'qituvchi shart–sharoitga va o'quvchilarning qiziqish darajasiga bog'liq ravishda bundan boshqa imkoniyatlarni ham keng miqyosda qo'llashi mumkin.

Semantik xususiyatlar tahlili

Bunda tinglovchi (talaba)larga ma'lum bir ko'rinishdagi va tuzilishdagi jadval tuzish taklif qilinadi. Ushbu jadval birinchi ustunining birinchi satrida ularga yaxshi ma'lum bo'lgan bir hodisa, dalil yoki faraz hamda ikkinchi satrda bugun o'rganiladigan mavzu bilan bog'liq hodisa, dalil yoki farazning yo'nalishi qo'yiladi. Jadval birinchi satrining qolgan katakchalarida esa mavzu bilan bog'liq asosiy ko'rsatgichlar yozib chiqiladi. Talabalarga xosil bo'lgan jadvalning ikkinchi va uchinchi satrlaridagi bo'sh katakchalarni to'ldirish taklif qilinadi. Agar ular tegishli ma'lumotlar yo'qligi yoki uni yaxshi bilmasliklari sababli jadval katakchalarini to'ldira olmasalar yoki javoblarining to'g'ri ekanligiga unchalik ishonmasalar, buni ma'ruza davomida eshitgan ma'lumot, qoida yoki faktlardan foydalanib, amalga oshirishlari (tekshirishlari) mumkinligini yotig'i bilan tushuntirish kerak bo'ladi. Demak, endi talabalar ma'ruza davomida uni tinglash va tegishli ma'lumot olish uchun yordam beradigan bir yordamchi vositaga ega bo'ladilar. Bu usul matematika, fizika, iqtisodiyot kabi aniq fanlarni o'rganishda juda ham qo'l kelishi va foyda berishi mumkin.

(Ma'lumot olish) bosqichiga tinglovchilar (talabalar) **(Chaqiruv, Tayyorlanuv)** bosqichidan so'ng bir qadar tayyor bo'ladilar. Chunki ular bu bosqichga ma'ruza mavzusi bo'yicha bilganlarini imkoniyat darajasida eslab olgan, o'zlariga mavzuga oid aniq savollar bergan, oldilariga tegishli maqsadlarni qo'ygan va demak, ushbu mavzuga qiziqo'an holda keldilar. Bu bosqichda ham quyida keltirilgan bir qancha metodik usullarni qo'llash mumkinki, ular darsning samaradorligini birmuncha oshiradi:

O'zaro so'rov usuli

Bu metodik usul quyida bayon qilingan tarzda qo'llanilishi mumkin. Ikki talaba(o'quvchi) mavzuga bog'liq biror–bir matnni, ma'lumotni, qoidani, dalilni o'qiydilar va har bir bo'lim yoki xat boshidan so'ng bir qancha muddat to'xtaydilar hamda bir–birlariga o'qilgan material bo'lagining mazmuni yuzasidan tegishli savollar beradilar. Bunda ular bir–birlaridan ushbu matn bo'lagidagi asosiy fikrlar haqida so'raydilar. Mabodo qiyinchilik tug'lsa yoki tushunmovchilik ro'y bersa, o'qituvchi ularni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirib turishi va masala mohiyatini tushuntirishi lozim bo'ladi. Bu usulni qanday qo'llash kerakligini auditoriyadagi talabalarga ko'rsatgandan so'ng, o'qituvchi guruhning barchasini maqsadga muvofiq bo'lgan juftliklarga bo'ladi hamda ularning ko'rsatilgan tartibda birgalikda ishlashlarini amalga oshiradi va kerak bo'lganda, ularga yana yaqindan uslubiy–axborot tarzda yordam beradi. Bunday juftliklar o'qituvchi–sinf tarzida ham tashkil qilinishi mumkin. Bunda o'qituvchi matnning biror–bir qismini o'qiydi va o'quvchilar uning mazmunini tushunganlaridan so'ng, talabalar ushbu qism bilan bog'liq savollar beradilar. Keyin esa o'qituvchi rolini biror–bir talaba egallashi mumkin. Bunda o'qituvchi sun'iy ravishda o'z–o'zidan «oddiy tinglovchi/o'quvchi» darajasiga tushishi lozim bo'ladi.

Ko'pchilikka uchun ma'lumki, o'rganishning eng yaxshi usuli o'zgalarni biror bir narsaga o'rgatishga harakat qilishdir. Bunda inson o'zining hamma bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, bu vazifaga ijodiy ravishda yondoshadi. O'zaro bir–birini o'qitish usuli ham mana shu tamoyilga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilarga vaqtinchalik o'qituvchilik rolini bajarish taklif etiladi va ular guruhdagi boshqa talabalarni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq matnlar, qoidalar, dalillar yoki ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhdagi har bir talabaga biror–bir matnning bir xil nusxasi tarqatiladi. O'quvchilar galma–galdan o'qituvchilik rolini o'ynaydilar. Bunda «o'qituvchi» rolini o'ynaydigan talabadan quyidagilarni bajarish so'raladi. Ya'ni guruhdagi hamma talabalar matnning biror–bir bo'lagini o'qib bo'lishganidan so'ng «o'qituvchi»:

- Matn bo'lagidagi ma'lumotlarning mohiyatini qisqacha aytib va tushuntirib beradi;
- Matn bo'yicha savollar o'ylab topib, ularga boshqa talabalarning javob berishini so'raydi;
- Boshqalar uchun tushunarsiz bo'lgan joylarini qayta tushuntirishga va ularning ma'nosini chaqishga harakat qiladi;
- Matnning keyingi bo'lagida nimalar kelishi mumkinligi haqidagi o'z taxmini fikrlarini aytib va tushuntirib o'tadi;
- Matnning keyingi bo'lagini o'qish va uni atroflicha tahlil qilish uchun topshiriq beradi.

Bunday turdagi darsning boshlanishida avvalo o'qituvchining o'zi talaba/o'quvchiga bu usulni aniq va ravshan namoyish qilib berishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ham u talabalarga o'zining matn birinchi qismi bo'yicha munozara boshlovchi bo'lishini bildiradi va ulardan bu jarayonni diqqat bilan kuzatish

kerakligini so'raydi. Talabalarning o'zlari ham bu usulda dars olib borishlari zarurligini bilganlaridan so'ng o'qituvchining namoyish qilayotgan darsini diqqat bilan kuzatadilar va kerakli xulosalarni chiqaradilar. O'qituvchi yuqorida keltirilgan besh bosqichdan iborat harakatlar ketma-ketligini tinglovchilarga batafsil tushuntirib bo'lganidan so'ng har bir bosqichda nima qilish lozimligini aniq va ravshan shaxsan o'zi namoyish qilib berishi juda muhimdir. Bundan tashqari o'qituvchi matnni qanday usulda maqsadga muvofiq bo'lgan qismlarga bo'lish muammosini ham oldindan hal qilib olishi lozim. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida tanlangan matn qismini 8–10 daqiqadavomida muhokama qila olinishi ish muvaffaqiyatining garovidir. Demak, matnni qismlarga bo'lganda, uning har bir alohida bo'lagida qanday turdagi va hajmdagi ma'lumotlar mavjudligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Savollarni ham mantiqiy, ma'lum me'yorlarga rioya qilgan holda berish maqsadga muvofiqdir. Bunda ham talabalarga savol berish malakasini namoyish qilish lozim bo'ladi (bu boradagi qo'shimcha foydali maslahat va ma'lumotlarni qo'llanmaning tegishli bo'limidan olishingiz mumkin). Savollar matn parchasida mavjud bo'lgan fikrlarni oydinlashtirish va yanada chuqurroq tushuntirish, unda aytilmagan (lekin yashirin holda mavjud) tomonlarni aniqlash hamda ularni talabalarning fikrlari bilan solishtirish maqsadida berilgani ma'qul. O'qituvchi ma'lum turdagi va ma'nodagi savollar vositasida talabalarning predmetni/sohani o'rganish jarayonini iloji boricha maqsadli ravishda boshqarishi lozim. Matnning keyingi qismida nima kelishi mumkinligi haqida o'z fikrlarini aytishda o'qituvchi o'z shaxsiy fikrlarini bildirishi yoki bu haqda talabalarning mulohazalarini ham so'rashi mumkin. Agarda talabalar birinchi namoyish vaqtida usulning mohiyatiga to'la tushunmasalar yoki shartli «o'qituvchi» sifatida ishlashga qiynalsalar, o'qituvchi ularga hamma bosqichlarni yana bir karra batafsil tushuntirib, ikkinchi marta namoyish qilish jarayonini amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

O'qitish bo'yicha talabalar uchun maxsus qo'llanma tayyorlash. Bunday turdagi qo'llanmalar tayyorlash o'qituvchi bo'lmagan taqdirda ham (yoki shunday sharoitni sun'iy ravishda yaratib) talabalarning o'rganishlariga va bilim olishlariga asos yaratib, ularning ilmiy izlanishlar olib borish malakalarini rivojlantiradi. Masalan, ular mustaqil ravishda biror-bir narsani, hodisa yoki mavzuni o'rganmoqchi bo'lganlarida bu juda ham qo'l keladi. Oldindan aniq berilgan savollar mavjud bo'lganda talabalarning diqqat-e'tibori matnda u yoki bu erda tarqoq holda berilgan ma'lumotlarga, dalillarga va qoidalarga yo'naltiriladi hamda bu hol ularning sohani chuqurroq o'zlashtirishlariga va ijodiy fikrlashlariga yordam beradi. Tegishli matn parchasi o'qib bo'linganidan so'ng, muddatli munozara uyushtiriladi. Tanqidiy munozara qila olish qobiliyatini rivojlantirish va fikrlash jarayonini mukammal tashkil qilish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu turdagi qo'llanmalar quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin:

a) Ular talaba(o'qituvchi)larga matndagi muhim, ammo unchalik ko'zga tashlanmaydigan fikr va g'oyalarni ilg'ab olishga imkon beradi. Oddiy holatlarda talabalar bunday fikr va ma'lumotlarni unchalik tushunmaydilar yoki tub mohiyatiga eta olmaydilar;

b) Ushbu turdagi qo'llanmalar va yozma materiallar ta'lim olishning hamma bosqichlarida yuqori darajadagi va sermaxsul o'ylash jarayonini rivojlantirishga olib keladi hamda pirovard natijada o'quvchilarning ta'lim samaradorligini va saviyasini sezilarli darajada oshiradi;

v) Bunday yozma manbalar va qo'llanmalar talabalarning bo'lajak munozara va yozma ishlari uchun o'ziga xos imkoniyat (vositachi) vazifasini bajaradi.

Ikki bo'limdan iborat kundaliklar

Bunday ko'rinishda tashkil qilingan kundalik turiga mansub yozuvlar talabalarga o'rganilayotgan (o'qilayotgan) mavzu matnining mazmunini o'z shaxsiy tajribalari hamda real hayot bilan solishtirishga, o'zlarining tabiiy ravishdagi qiziqishlarini imkoniyat darajasida qondirishga va fikrlarini bir yo'nalishda jamlashga yordam beradi. Bunday ikki bo'limdan iborat kundaliklar tuzishni talaba (o'quvchilarga) biror–bir katta hajmli matnni yoki mavzuni mustaqil ravishda o'zlari o'rganib kelishlari haqidagi uy vazifasi yoki mustaqil topshiriq sifatida berilganda juda ham foydalidir. Bunday ko'rinishdagi kundalikni tuzish uchun daftarning har bir varag'i o'rtasidan teng ikkiga bo'linadi. Daftardagi ushbu chiziqning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularda katta taassurot qoldirgani haqida yozishadi. Masalan, matnning bu qismi ularga hayotlarida uchragan biror–bir voqea yoki hodisani, tajribani, hikoyani yoki voqeani eslatgandir, yoki ular biror–bir narsaga qarshidirlar, ishonmaslar, astoydil qarshilik qilishni hohlarlar. Kundalikning o'ng tomonida esa talabalar chap tomonda o'zlarining yozganlariga tushuntirish yoki izoh berishlari lozim bo'ladi. Ya'ni,

- Nega bu qism ularda katta taassurot qoldirdi?
- Nima sababdan ular shu matn qismini tanlab olib, kalendarga yozdilar?
- Bu ma'lumot ularda qanday ijobiy yoki salbiy fikrlarni yuzaga keltirdi?
- O'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq qanday savollar yoki muammolar tug'ildi?

Demak, talabalar matnni mustaqil o'qish va o'zlashtirish jarayonida vaqti–vaqti bilan to'xtab, fikrlab, o'zlarining ikki bo'limdan iborat kundaliklarida tegishli xulosalar qilishlari lozim bo'ladi. Bu esa ularni o'ylashga, fikrlashga va mushohada yuritishga majbur qiladi. Ushbu Yozuvlar hajmi o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan bo'lishi ham mumkin, masalan, har besh betli matnni yoki mavzuni o'qiganda talaba(o'quvchi) o'z kundaligida o'nta yozuv qilishi shart deyilsa, ularning ishini yanada samaraliroq qilish mumkin bo'ladi. Yozuvlar hajmi albatta matnning yo'nalishi, ma'nosi va ahamiyatiga bog'liq bo'lishi kerak.

Navbatdagi **(Fikrlov)** bosqichda oldingi bosqichlarda qo'llanilgan ko'pgina usullarni qaytadan ishlatish mumkin bo'ladi. Bu aqliy (mental) ko'rinishga ega bo'lgan bosqichda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir usul va uslubiylatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Asosiy atamalar, qaytaruv

Agarda matnni yoki mavzuni mutolaa qilishdan oldin talaba(o'quvchi)larga unda uchraydigan asosiy atamalarni va so'zlarni umumiy ravishda izohlash talab qilinsa hamda ular konkret matnda qanday ma'noda ishlatilganligi so'ralsa, matnni o'qib bo'lgandan so'ng ulardan «Bu so'z, atama, so'z qismlarini yana qaeirlarda va qanday ma'nolarda ishlatga bo'ladi?» – degan savol bilan murojaat qilish mumkin

bo'ladi. Bu esa o'z navbatida talabalar va ustoz orasidagi qizg'in munozara hamda fikr almashinuv uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bir–biriga bog'lanmagan mantiqiy zanjirlar, qaytaruv

Matnda uchraydigan voqea–hodisalar aks ettirilgan gap (gap qismlari, bo'laklari) larni alohida so'zlarga ajratgan holda talabalarga tavsiya etiladi va matnni o'qib chiqish jarayonida (yoki undan keyin) so'zlarning matn bilan uzviy bog'liq ravishda joylashuvi, ketma–ketligini topib, so'zning boshlang'ich ko'rinishini tiklash topshirig'i beriladi. Ushbu vazifa talab darajasida bajarilganidan so'ng, o'quvchilar(talabalar) sinfdoshlari oldida bajargan ishlarini tushuntirib va izohlab berishlari lozim bo'ladi. Agarda o'quvchilar uchun mo'ljallangan qo'llanma yaxshi o'ylab tuzilgan bo'lsa, undagi topshiriqlar o'quvchi (talaba)larga matn mazmunidagi mavjud ma'lumotlarni chuqur fikrlagan va topshiriqo'a ijodiy yondoshgan holda to'plashga va umumlashma hosil qilishga yordam beradi. Albatta, bunda bajarilgan ishlardan xulosa chiqarish deb ataladigan va alohida ahamiyatga molik bo'lgan bosqichni ham aslo yoddan chiqarmaslik zarur, chunki har bir talaba o'z tajribasi va bilimidan kelib chiqqan holda muqobil va o'ziga xos ko'rinishdagi echimlarga kelishi tabiiy. Bu esa o'z navbatida talabalar orasida jonli muloqot hamda qizg'in munozarani amalga oshiradi va ushbu munozara haqiqatning myozoni sifatida xizmat qiladi.

Ikki bo'limdan iborat kundaliklar, qaytaruv

Matn o'qib bo'lingandan so'ng, **(Fikrlash)** bosqichida talabalar yana ikki bo'limdan iborat kundaliklar bilan ishlash jarayoniga qaytadilar. O'qituvchi matnni yoki tegishli mavzuni qismlarga bo'lgan holda kundaliklaridagi yozuvlardan foydalanib, bir–birlari bilan mavzu doirasida o'zaro fikr almashishlarini so'raydi. O'qituvchining o'zi ham matnga, mavzuga va uning tarkibiy qismlariga tegishli bo'lgan izohlarni tayyorlab kelishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishga iloji boricha ijodiy yondoshish lozim. Chunki o'qituvchi muloqot chog'ida o'quvchilarga o'zining shaxsiy fikrlarini ham bayon etishi va ularni har taraflama izohlashi lozim bo'ladi.

O'ylang/Birgalikda ishlang/Fikr almashing.

Bu faoliyat turi o'quvchi (talabalar)ni matn mazmuni hamda mohiyati haqida atroflicha fikr yuritishga va unga oid ma'lum bir xulosa chiqarishga undaydi. Buni tashkil etish uchun o'qituvchi talabalarni chuqur o'ylashga va mushohada yuritishga undaydigan savollar tayyorlaydi. Keyin har bir talabaga ushbu savollarga qisqa va lo'nda javob yozishni so'raydi. Shundan so'ng talabalar juftliklarga bo'linib bir–birlari bilan mavzu haqida fikr almashadilar hamda ikkala talabaning javobini ham hisobga olgan holda bir butun javob tayyorlashga harakat qiladilar. Mashg'ulotning oxirida o'qituvchi talabalar juftliklariga qisqa muddatda o'z ishlarining yakunini (muhokamalarining natijasini) guruhga so'zlab berishlarini so'raydi. Bu mashg'ulot ularni faollikka, o'zaro fikr almashishga, tanqidiy mulohazaga va ijodiy fikrlashga undaydi.

3. Muloqot vositasida dars berish usullari

Muloqot vositasida dars bera oladigan o'qituvchilar ko'pincha ushbu sohadagi (yo'nalishdagi, fandagi, mavzu bilan bog'liq) eng malakali, ta'lim va amaliyot

soxasida katta tajribaga ega ustozlar bo'lib, ular ta'lim jarayonida xilma-xil zamonaviy usullarni ongli, ijodiy va jonli ravishda qo'llay oladilar. Ko'pincha, «Dars berishga o'rganishning eng yaxshi usuli – dars jarayoniga bevosita kirishishdir», – deb noto'g'ri ta'lim beradilar. Chunki sohani to'liq bilmasdan dars berish suzishni bilmay, suvga tushganday gap. Bundan tashqari, bunday etarli darajada malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilar o'qish uchun bilim dargohiga kelgan o'quvchilar(talabalar)ning hafsalasini pir qilib, o'qishdan sovitadi. Bunday o'qituvchidan saboq olganlar esa o'ziga xos chalasavodlar safini to'ldirishi aniq. Bizningcha, dars samaradorligini oshirishning birdan-bir yo'li, bu sohani va tanlangan fanni puxta o'zlashtirib olishdir. haqiqatan ham, agar o'qituvchi o'zi dars berayotgan sohani chuqur va har taraflama bilmasa, qanday qilib uning nozik tomonlarini tushuntirishi, savollarga to'liq javob berishi va samarali hamda ilg'or pedagogik usul (texnologiya) larni qo'llay olishi mumkin. Bunda o'qituvchining dars samarasi pasayib, talabalarga o'zi bilmagan, his qilmagan va ko'rmagan asosiy dalillarni hamda ta'riflarni kitobiy va sayoz holda tushuntirib beradi, xolos. Talabalar bunday o'qituvchilar haqida ko'pincha «U nazariy masalalarnigina biladi xolos», – deb o'zaro fikr yuritadilar. Bu esa o'z navbatida darsga qiziqishning ancha susayishiga olib kelib, oxir-oqibatda ushbu o'qituvchi talabalar orasida o'z obro'-e'tiborini batamom yo'qotadi. Muloqot vositasida dars bera oladigan o'qituvchilar jarayonni boshqarishni, tartibni saqlash usullarini yaxshi bilishlari, psixologiyani, o'zaro muloqot asoslarini tushunishlari, soha bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni puxta o'zlashtirib olgan bo'lishlari lozim. Ular doimiy ravishda 20–30 nafar malakali va qiziquvchan tinglovchilar oldida so'zlash, fikrini bildirish, muloqot qilish va o'z nuqtai-nazarini himoya qilish qobiliyatini namoyish qilishga qodir va tayyor turishlari kerak.

Muloqot vositasida dars berishning uch asosiy va ajralmas tarkibiy qismi mavjud:

- ta'lim berish etikasi va estetikasi,
- ta'lim berishga amaliy jihatdan yondoshish,
- muammolarning qiziqarli tomonlarini tushunish va ko'ra olish hamda buni ma'lum bir artistik (mnemonik), moxirona harakatlar vositasida namoyish etish.

Ta'lim berish etikasi

Ta'lim berish etikasiga rioya qilish o'qituvchining talabalar ko'z o'ngidagi obro'-e'tiborini kuchaytirib, darsning ahamiyatini ham ancha oshiradi. O'qituvchining dars davomida hamda jamoa orasida o'zini tutishi, gapirish va muomala madaniyati, kiyinishi, nutq mazmuni, muhim bilimlarni bera olish qobiliyati, savollarga javob berishi, dunyoqarashining kengligi shak-shubxasiz uning reytingini (imidjini, obro'sini) oshirishga olib keladi. Ta'lim berish etikasini rivojlantirish va uni har bir bosqichda tekshiruvdan o'tkazish uchun amalda quyidagi uch vositani qo'llash mumkin:

- tasdiqlov,
- dialog (muloqot),
- o'zaro, hamkor (kooperativ) muloqot.

Har bir talabaning bergan savollarini diqqat bilan tinglash, **ijobiy fikrlarini tasdiqlash**, ularning intilishlarini, qiziqishlarini hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda tegishli javob berish talabalar ko'z o'ngida o'qituvchining hurmatini yanada oshiradi (ko'taradi) va ular bu o'qituvchi bilan bog'liq ushbu fanga yana ham qiziq boshlaydilar. Chunki ko'pincha fan va uni o'qitadigan o'qituvchi haqida talabalar ko'z o'ngida birday tasavvur hosil bo'ladi. Ko'pincha insonlar Sizning nimani gapirayotganingizga emas, balki qanday gapirayotganingizga ko'proq e'tibor beradilar va shu asnoda aytmoqchi bo'lgan fikringizni qabul qiladilar. Agar Siz ularning o'qituvchilar haqidagi ichki fikrini, dunyoqarashini va tasavvurini tasdiqlasangiz hamda ularning tasavvuridagi «Yaxshi» va «Ijobiy» o'qituvchi bo'la olsangiz, ular ham Sizning faningizni qiziqish bilan va yaxshi o'zlashtiradilar.

Dialog (muloqot) tashkil qilish ta'lim berish etikasini rivojlantirishning ikkinchi asosiy bosqichidir. Talaba va o'qituvchi orasidagi muloqotni maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri tashkil qilish va mumkin bo'lgan usullar bilan uni rivojlantirish ta'lim sohasida o'ziga xos inqilobiy o'zgarish yaratadi, desak yanglishmagan bo'lar edik. Chunki ushbu usulni qo'llaganda talaba o'qituvchidan cho'chimasdan o'z fikrlarini aytadi va o'rtoqlasha oladi, bilmagan savollariga to'g'ri javoblarni olish va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuning bilan birga kelajakda faol kurashuvchan va izchil demokratik pozitsiyalarda bo'lish sabog'ini ham oladi. Talabalarni dialog usulidan bezdirmaslik uchun ularning har qanday savollariga e'tirozsiz, yotig'i bilan javob berish kerak bo'ladi. Fikrlariga esa ular qanday bo'lmasin, ijobiy va ijodiy yondoshish lozim. Ba'zi hollarda esa bu usul ularni xilma xil ko'rinishdagi o'ta mutaassib (fanatik) dunyoqarashdan qaytarish uchun ham amaliy vosita bo'lishi mumkin. Chunki keng va ijodiy fikrlovchi inson hech qachon «fanat» bo'la olmaydi. Agar dialog davomida Siz bilmagan savol yoki muammolar kelib chiqsa, buni to'g'ri tan olish va keyingi darsda o'rinli javob berish zarurdir. Talabalarning har qanday savoli javobsiz qolib ketmasligi juda muhimdir. Chunki shundagina ular o'zlarining shaxsiy fikrlari ham ma'lum bir qiymatga ega ekanligini qalban his qiladilar. Bu esa teskari aloqa signali sifatida muqarrar ravishda talaba miya faoliyatining kuchayishiga va yangi foydali fikrlar oqimi yuzaga kelishiga (generatsiyasiga) olib keladi.

Kooperativ (o'zaro, hamkor) muloqot usuli esa talabalar bilan yaqin bo'lishni, ularning muammolarni yaxshi tushunishni, munozaralar uyushtirishni va iloji bo'lsa, ota-onalari yoki yaqin odamlari bilan ham ma'lum turdagi tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy va ijodiy aloqalar o'rnatishni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda o'qituvchining roli faqat ma'lum bir fandan ta'lim beruvchi inson sifatidagina emas, balki tarbiyachi, maslahatchi, mehribon ustoz hamda yo'l ko'rsatuvchi sifatida bo'lishi lozim.

Ta'lim berishga konstruktiv (amaliy) jihatdan yondoshish. Muloqot vositasida dars berishning ikkinchi asosiy tarkibiy qismi ta'lim berishga **konstruktiv (amaliy) jihatdan yondoshish**dir. har bir o'qituvchi ma'lum bir fanni yoki sohani nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilganliklari holda, ikki asosiy talabga (savolga) javob berishga tayyor bo'lishlari zarur:

1. Men dars bermoqchi bo'lgan (fan/soha/predmet) bilan talabalarning oldingi o'quv yoki hayot tajribasi orasida qanday bog'liqlik mavjud?

2. Men dars bermoqchi bo'lgan (fan/soha/predmet) bilan talabalarning shaxsiy istak va maqsadlari orasida qanday bog'liqlik bor?

Bu nuqtai-nazar asosida o'quvchi(talaba)lar o'qish-o'rganish jarayonida ma'lumotni sust qabul qiluvchilar emas, balki bilim olish jarayonining faol qatnashchilaridir degan g'oya yotadi. Ular o'zlarining o'quv yoki hayotiy tajribalari hamda shaxsiy istak va maqsadlari asosida dars jarayonini tashkil qiladilar va o'rganadilar. O'qituvchi esa ularga maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi va kerak bo'lganda, o'z bilimining asosiy qismlarini etkazuvchi hamda ularni tushuntiruvchidir. O'quvchi(talaba)lar mushohada va munozara orqali tegishli fanni chuqur egallashga erishadilar, bu bilan kelajak hayotga va ilmiy izlanishlar uchun puxtaroq tayyorgarlikdan o'tadilar. Faol muloqot vositasida dars beruvchi o'qituvchi bilim olish jarayonini talabalar va o'zining faol muloqoti orqali amalga oshiriladi deb tushunadi (va bunga astoydil ishonadi) hamda uni xilma-xil usullar yordamida ro'yobga chiqaradi.

Muammolarning qiziqarli tomonlarini tushunish va ko'ra olish hamda buni ma'lum bir **mohirona harakatlar vositasida** namoyish etish usulida o'qituvchilar har bir dars bilan bog'liq bo'lgan tadbir va o'yinlar tashkil qilish orqali, o'quvchi (talaba)larning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holdagi qiziqarli holatlarni tahlil qilish, ularning qiziqishlari va intilishlarini inobatga olishga harakat qiladilar. Dars berish va biror-bir narsani o'rganishda loqaydlikka (sustlikka) aslo yo'l qo'yilmaydi. har bir talaba(o'quvchi) o'zining qiziqishi, iste'dodi va imkoniyatiga bog'liq ravishda nimagadir jalb qilinadi, qiziqtiriladi hamda ular bundan qandaydir ma'naviy qoniqish xosil qiladilar. O'rganilayotgan soha bilan bog'liq ishbilarmon o'yinlar, qiziqarli holatlar, Case Study (ishlab chiqarish bilan bog'liq hayotiy misollar) lar, hikoyalar, hodisalar, muammolarni jonli ravishda ifodalash va bu bilan o'quvchi (talaba)larda bilim olish uchun intilish uyg'otish o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qilishi tabiiy, albatta.

Munozara o'tkazish usullari

Muloqot vositasida dars berishning eng yaxshi usullaridan biri munozara(diskussiya)dir desak, yanglishmagan bo'lar edik. Munozarada o'qituvchining monopol (yakka hokim) ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi, birgina uning o'zi «monolog» (yakkaxon) sifatida gapirishi va fikrlar almashinishi faqat uning ko'rsatmasi asosidagina amalga oshmasligiga diqqat-e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bunday holda o'quvchilar juda ham zerikib va ba'zi holatlarda esankirab qoladilar. Munozara talabalar tomonidan mavzu tanlanganda, ular erkin fikr almashinish yo'nalishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlarida va bu ularning tabiiy qiziquvchanligini qondirgandagina qiziqarli va jonli o'tadi. Bunda o'qituvchining asosiy o'rni «tanqidiy-yo'naltiruvchi-jonlantiruvchi» shaklda bo'lishi lozim. Jarayonni amalga oshirish va munozarani bo'shashtirmay, tashabbus shak-shubxasiz talabalar qo'lida qolishi uchun o'qituvchi to'rt bosqichdan iborat bo'lgan vazifalar (ishlar) ketma-ketligini amalga oshirishi zarur bo'ladi:

1. Tasdiqlash. Bu usul aytilgan fikrning tushunilganini bildirish, uni o'zlashtirilganlik (tasdiqlash) belgisini berish yoki bu fikr haqida biror–bir tanqidiy mulohaza bildirishdir. Tasdiqlash bilan bog'liq gaplar o'quvchi (talaba)larga unchalik qattiq botmaydi va shuning uchun ham ularni javob berishga undaydi. Masalan, Siz bunday deyishingiz mumkin:

«Mening tushunishimcha, Siz bunday deyapsiz:»

«Bu menga oldin aytib o'tilgan larni eslatdi»

«Menimcha, Siz bunday demoqchimisiz:, lekin Nosir Sizdan oldinroq bunday degan edi:»

«Menga tushunarsiz bo'layapti»

O'quvchi (talaba)lar o'qituvchining savollaridan ko'ra, o'z savollarini katta qiziqish bilan muhokama qiladilar («Sizning barmog'ingiz kesilganidan ko'ra, boshqa bir inson uchun uning o'zini chivin chaqib olgani muhimroqdir» – Deyl Karnegi). Shuning uchun ham ularni munozarali savollar berishga jalb qilishga intiling. Buni amalga oshirish uchun, masalan, quyidagi mazmunda savollar berishingiz mumkin:

«Ushbu matnning mazmuni bo'yicha nimalarni oydinlashtirish va tegishli savollar berish mumkin?»

«Biz o'z munozaramizda hozircha nimalar xususida to'xtalmadik?»

«Ushbu matnda yana qanday tushunarsiz so'zlar va holatlar qoldi?»

«Siz ushbu muammo bo'yicha nimalarni to'g'ri deb hisoblaysiz va bunga ishonch xosil qilgansiz?»

«Ushbu muammo bo'yicha nimalarni noto'g'ri deb hisoblaysiz, bunga qat'iy ishonch xosil qilgansiz?»

3. Belgilar va ishoralar berish. Ko'pincha o'qituvchining bevosita munozaraga aralashuvi va talaba(o'quvchi)larga yo'l–yo'riq ko'rsatishi ulardagi erkin fikrlash jarayonini chegaralashga olib kelishi mumkin bo'lgani uchun munozarani so'zlamasdan, ma'lum bir belgi va ishoralar yordamida boshqarish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchining tushunmaslik yoki norozilik alomatini berishi o'quvchilarga tushuntirib berish kerakligini anglatadi. Qo'llarning ikki narsani solishtirish shaklidagi tarozi turidagi ko'rinishi talabalarga fikrlarni solishtirib, ularning qaysi biri bilan talabalarning roziligini aniqlash lozimligini bildiradi, qiziqib, e'tibor bilan eshitish va ko'tarinki kayfiyat talabalarga qo'shimcha kuch–quvvat hamda intilish baxsh etadi va hokazo.

4. Sukut saqlash. Savol berilgandan so'ng o'quvchi (talaba)larga ijodiy fikrlash (o'ylash) uchun ma'lum vaqt bering. To'rt, besh, o'n soniya davomida sukut saqlash xosil bo'lgan vaqt oralig'ini to'ldirish uchun o'quvchi (talaba)larga katta imkoniyat beradi. Agarda bu vaqt oralig'ini o'qituvchi to'ldirmasa, talabalar ichidan, albatta, buni bajarishi mumkin bo'lgan birorta ko'ngilli topiladi. Ya'ni, «bo'sh joy har doimo to'ldirilish xususiyatiga egadir».

«**Menga yakunlovchi yoki oxirgi so'zni bering.**» Ushbu ta'lim jarayonini faollashtirish uslubi ham matnni o'qigandan so'ng fikrlash jarayonini faollashtirish uchun qo'llaniladigan bir usuldir. Bu uslub har qanday turdagi matnni o'rganish va muhokama qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. U, ayniqsa, umumiy munozara jarayoniga juda ham sust, uyatchan talabalarni jalb qilish uchun foydali

bo'lishi mumkin. «Menga yakunlovchi yoki oxirgi so'zni bering» usuli quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. O'quvchilardan ularning matnini o'qish va o'rganish jarayonida bir necha, ular uchun qiziqarli va diqqatga sazovor joylarini yoki so'z tarkiblarini (tsitatani) topish so'raladi.

2. Talaba ushbu qismlarni birorta qog'ozga (kartochkaga) yozib oladi va matndagi uning betini (joyini) ko'rsatib qo'yadi.

3. Qog'ozning (kartochkaning) orqa tomonida o'quvchi ushbu so'z tarkibi yoki fikrga nisbatan o'zining javobini (taqrizini, ilovasini, sharhini) yozib qo'yadi. Bunda u ushbu fikr bilan rozi bo'lmasligi, unga biror nima qo'shishi, rivojlantirishi yoki shunga o'xshash narsalarni amalga oshirishi mumkin. Bu uning shaxsan o'ziga havola etiladi.

4. Keyingi darsda o'quvchilar ushbu kartochkalarni olib keladilar va o'qituvchi ularning ayrimlaridan yozganlarini o'qishni so'raydi. Bunda, albatta, talaba ushbu qismni (so'zni, tsitatani) qaysi joydan (betdan) olganini aytishi lozim, chunki ushbu holda boshqa o'quvchilarning ham u bilan birgalikda sinxron (baravar, ayni bir vaqtda) fikr yoritish jarayoni osonlashadi.

5. Bu qism (so'z, tsitata) o'qib bo'lingandan so'ng, o'qituvchi boshqa o'quvchilarning bunga javoban munosabat bildirishlarini so'raydi. Bu munosabat ijobiy, salbiy, rozilik, norozilik ko'rinishida bo'lishi yoki boshqa bir muhim jihatlarni qo'shish haqida bo'lishi ham mumkin. Lekin buni amalga oshirganda talabalarning munozara maqsadidan chetga og'ib ketishlariga yo'l qo'ymang, berilgan fikrlarning ma'nosiz bo'lishiga va boshqalarni xafa qilishiga yo'l qo'ymang.

6. O'quvchining oldindan yozib qo'ygan fikrini aytishiga imkon bering va u o'z shaxsiy fikrini guruh(auditoriya)ga bayon qilsin. Shundan so'ng munozara hech qanday ko'rinishda o'quvchilar yoki o'qituvchi tomonidan zinhor davom etmasligi lozim. Shuning uchun ham bu usul «Menga yakunlovchi yoki oxirgi so'zni bering» deb atalishini anglagan bo'lsangiz kerak.

7. O'qituvchi keyingi o'quvchini chaqiradi va jarayon yangidan boshlanadi. Bir dars davomida hamma o'quvchiga bunday imkoniyat yaratib bo'lmaydi, albatta. Shuning uchun bu ishlarni keyingi darsda ham davom ettirish mumkin.

4.3. Ma'ruza materiallarida muammolar qo'yish va ularni echish yo'llarini ko'rsatib bera olish. Ma'ruzada slaydlar, javdallar, multimediyalar va boshqa amaliy materiallardan foydalanish va ularni dars jarayonida ishlatish, ma'ruza o'qishda auditoriya bilan aloqa o'rnatish usullari

Iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish va chuqurlashtirish natijasida xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tub burilishga erishildi. Bu auditorlik tashkilotlari oldiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik, shuningdek ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, sub'ektlar o'rtasida hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish, byudjet bilan soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha hisoblashishlarni o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan maslahatlar berish va

boshqa malakali xizmatlar ko'rsatish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Shularni e'tiborga olganda, auditorlik tashkilot (auditor) lar xizmatiga ehtiyoj oshmoqda. Jumladan, hozirgi kunda auditorlik tashkilotlari quyidagi malakaviy xizmatlarni ko'rsatishlari Qonun⁵ bilan belgilab berilgan: buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot yuritish va tuzishni xalqaro standartlarga o'tkazish; xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va boshqa xizmatlar ko'rsatish. Shu ma'noda «Audit» faniga bo'lgan ahamiyat oshib bormoqda.

«Audit» fanini o'qitishdan maqsad, talabalarga auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborotlarini to'g'riligi va qonun hujjatlarga mosligi to'g'risida xolis va asosli fikr shakllantirish uchun zarur bo'lgan auditorlik amallarini bajarish bo'yicha nazariy bilim berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, *fanning predmetini o'rgatish uchun bir necha vazifalar* qo'yildi, jumladan: auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan chuqur tanishtirish; auditorlik tekshiruvini tayyorlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati bilan tanishish, shartnoma tuzish, dastlabki kelishuvlarni amalga oshirish, auditni dastlabki rejasi va dasturini tuzish to'g'risida bilim berish; auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorlik hujjatlari va dalillarini to'plash; moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini tekshirish usullarini o'rgatish; auditorlik tekshiruvini yakunlanish bosqichida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzishni o'rgatish va h.k.

«Audit» faniga jami 246 soat hajmda vaqt ajratilgan. Shundan, ma'ruza 84 soat, amaliy mashg'ulot 62 soat va mustaqil ta'lim 100 soatni tashkil etadi.

Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti

N	Mavzu	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1	Auditning mohiyati, ahamiyati va uni tartibga solish	4	2	4
2	Auditorlik tekshiruvini tayyorlash	4	2	4
3	Asosiy vositalar auditi	6	4	6
4	Nomoddiy aktivlar auditi	4	2	4
5	Moliyaviy investitsiyalar auditi	4	2	6
6	Tovar-moddiy zahiralari auditi	6	4	8
7	Tayyor mahsulot va tovarlar auditi	6	2	6
8	Hisob-kitoblar auditi	4	2	6
9	Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditi	6	2	6
Jami 1-qism		44	22	50
Hammasi 1-qism		116		
10	Pul mablag'lari auditi	8	8	8

⁵ O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. T.: 2000, 17-modda.

1 1	Xususiy kapital auditi	6	6	8
1 2	Ishlab chiqarish va boshqa xarajatlar auditi	6	6	8
1 3	Moliyaviy natijalar auditi	6	6	8
1 4	Moliyaviy hisobot auditi	8	8	10
1 5	Auditorlik tekshiruvini yakunlanishi. Auditorlik xulosasi	6	6	8
Jami 2-qism		40	40	50
Hammasi 2-qism		130		
Hammasi		246		

O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi xujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni echimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob'ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga

beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda «Audit» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda to'tadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda to'tadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan kontseptual yo'riqlarga asoslangan holda, «Audit» kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni,

kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq, joriy va yakuniy baholash natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

MA'RUZA, SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA TA'LIM TEKNOLOGIYASI

(Ma'ruza – 4 soat, amaliy mashg'ulot – 2 soat)

1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-mavzu bo'yicha ma'ruza
<i>Dars vaqti: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60-70 nafargacha</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Auditning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari. 2. Auditning mohiyati. 3. Auditning turlari, xillari va shakllari. Audit va taftish. 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekistonning 2005 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2006 yildagi iqtisodiy islohotlarni eng muhim ustuvor yo'nalishlariga doir ma'ruzasining fanni o'qitishdagi roli va ahamiyati.
<i>O'qitish maqsadi:</i> Auditning mohiyati, unga bo'lgan ehtiyoj, uning paydo bo'lishi va uni tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi bilmilarni chuqurlashtirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Auditning mohiyati, unga	Auditning kelib chiqishi, unga bo'lgan ehtiyojni,

bo'lgan ehtiyoj, uning paydo bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari bilan tanishtiradi	uning rivojlanish bosqichlarini aytib bera oladilar
Auditning turlari va xillarini o'rgatadi	Auditning turlari va xillarini sanaydi va farqlay oladi
Audit va taftishning bir-biridan farqlarini hamda foydalanish sohalarini tushuntiradi	Audit bilan taftishning bir-biridan farqlaydi va foydalanish sohalarini sanab beradi
<i>O'qitish usullari</i>	Ma'ruza, namoyish, blits-so'rov, pinbord texnikasi
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy ish
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska
<i>O'qitish sharoiti</i>	Texnik va guruhlarda ishlash uchun jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: blits – so'rov, nazorat savollari

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish qismi (5-10 daqiqa)	1.1. Ma'ruza mavzusini aytadi va ushbu mavzuga tegishli bo'lgan ma'ruza matni tarqatiladi. 1.2. Ushbu mavzuga oid asosiy savollar, tanyach so'z va iboralariga izoh beriladi. 1.3. Mavzu bo'yicha reyting baholash tizimi va joriy, oraliq hamda yakuniy baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). Mustaqil tayyorlanish uchun asosiy adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. 1.4. Birinchi mavzu, o'quv faoliyatining maqsadi va natijalarini aytadi.	Tinglaydi Tinglaydi va yozib oladi. Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati va Internetdagi saytlarni yozib oladilar. Tinglaydi va mavzuni yozib oladi. Qarang O'MM
2-bosqich. Asosiy qism (60-65 daqiqa)	2.1. Darsning maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyatining natijalaridan kelib chiqqan holda ushbu mavzuda qanday masalalar o'rganib chiqilishini o'ylash va javob berish taklif qilinadi (2-ilova). 2.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza matni tarqatiladi va uning rejasi, tayanch so'z va iboralar bilan tanishish tavsiya etiladi. 2.3. Mavzu rejasining savollariga oid nazariy asoslar Power Point rejimida yoki slayd (3-ilova) ko'rinishida ko'rsatiladi va izohlanadi. Har bir band bo'yicha xulosa qilinganda, muhim jihatlariga e'tiborni jalb qiladi.	Talabalar qo'yilgan savollarga javob beradilar va yozib boradilar. Qarang O'MM Tinglaydi. Tarqatma materiallar to'plamida keltirilmagan qirralarini konspekt qilib boradilar Savollar beradi
3-bosqich. Yakuniy qism (5-10 daqiqa)	3.1. Mavzuning birinchi qismi bo'yicha xulosa qilinadi. 3.2. Talabalarining faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasi aniqlanadi. 3.3. Talabalarining savollariga javob beriladi.	Savollar beradi

	3.4. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beriladi (4-ilova). Mavzuning davomini Insert usulidan foydalanib o'qish va kerakli belgilarni belgilash vazifasi beriladi (5-ilova).	Mustaqil ishlash uchun topshiriqlarni yozib oladi. Qarang O'MM
--	--	--

1-ilova (1.1.)

«Audit» o'quv fani bo'yicha reyting:

Fan bo'yicha maksimal ball	-100
shu jumladan:	
- joriy baholash	- 45
- oraliq baholash	-40
- yakuniy baholash	-15
- saralash balli	-55

Baholash mezonlari

O'zlashtirish %	To'plashi lozim bo'lgan ballar	Baho
85,1% - 100%	85,1 – 100 ball	5 (a'lo)
70,1% - 85%	70,1 – 85,0 ball	4 (yaxshi)
55,1% - 70%	55,1 – 70,1 ball	3 (qoniqarli)
0 – 55%	0 – 55,0 ball	2 (qoniqarsiz)

Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotda talaba 1,3 ballgacha baho oladi.

Reyting bo'yicha baholash natijalari:

- 1,1 ball – «a'lo»
- 0,9 ball – «yaxshi»
- 0,7 ball – «qoniqarli»
- 0,7 ballgacha – «qoniqarsiz»

2-ilova (1.1.)

Mavzuni jonlantirish uchun savollar

1. Audit nima?
2. Auditorlik faoliyat qanday faoliyat hisoblanadi?
3. Ichki va tashqi audit bir-biridan qanday farq qiladi?
4. Auditning paydo bo'lish va uning rivojlanishiga nima sabab bo'lgan?
5. Audit bilan taftishni bir-biridan qanday farqlaysiz?
6. O'zbekistonda auditning dastlabki ko'rinishlari qachon paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?

Ma'ruzaning mazmuni bo'yicha ko'rgazmali slaydlari


1-slayd

«Аудит» сўзи лотинча «audio» сўзидан олинган бўлиб, у «эшитилади» деган маънони билдиради.

Аудиторлик фаолияти деганда аудиторлик ташкилотларининг аудиторлик текширувларини ўтказиш ва профессионал хизматлар кўрсатиш борасидаги тадбиркорлик фаолияти тушунилади

Аудитор – аудитор малака сертификатига эга бўлган жисмоний шахсдир.

Аудитор аудиторлик текширувини сифатсиз ўтказганлиги, тижорат сирини ошкор этганлиги ҳамда бошқа хатти-ҳаракатлари оқибатида аудиторлик ташкилотига зарар етказганлиги учун қонун ҳужжатларига мувофиқ аудиторлик ташкилоти олдида жавобгар бўлади



3-slayd

Audit va taftish o'rtasidagi tafovutlar

Farq qiladigan belgilari	Audit	Taftish
Maqsadlariga ko'ra	Moliya-xo'jalik faoliyatidagi kamchiliklarni uning ajralmas elementi sifatida aniqlashga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash	Kamchiliklarni oldini olish va bartaraf qilish uchun ularni aniqlash
Huquqiy jihatlar bo'yicha	Fuqarolik huquqi	Ma'muriy huquqi

Gnoseologik (bilish) jihatlar bo'yicha	Mijoz korxona buxgalteriya hisobotidagi axborotlarning haqiqiylikni isbotlash	Sodir etilgan operatsiyalarning qonuniyligi va xodimlar tomonidan o'g'irliklar yo'qligini aniqlash
Uslubiy jihatlar bo'yicha	Uslubiy jihatdan o'xshash, ammo qo'yilgan maqsadlar xilma-xilligidan kelib chiqib har xil nisbatlarda qo'llaniladi	
Ob'ektlari bo'yicha	Mijoz-korxona to'lov layoqatini izdan chiqaradigan, uning moliyaviy ahvolini yomonlashtiradigan barcha vaziyatlar ob'ektlari hisoblanadi	Amaldagi qonunchilik va korxona hisob siyosatining buzilishiga olib keladigan barcha vaziyatlar ob'ektlari hisoblanadi
Boshqaruv shakliga ko'ra	Aloqalar gorizontal va ixtiyoriy	Aloqalar vertikal, ma'muriy tayinlash va majburiy tartibda
Xizmatlar uchun haq to'lash printsiplariga ko'ra	Haqni mijoz-korxona to'laydi	Haqni yuqori tashkilot yoki davlat to'laydi
Amaliy vazifalar bo'yicha	Yangi passiv manbalarni jalb qilish, to'lov qobiliyatini mustahkamlashga doir vazifalarni mijoz-korxona hal qiladi	Korxona aktivlarining saqlanishi, suiiste'mol qilishlarning oldini olish va to'sqinlik qilish bo'yicha vazifalarni xo'jalik tizimi hal qiladi.
Etarlilik darajasiga ko'ra	Xarajatlar va natijalar nisbatiga qarab oqilana etarlilik printsipli amal qiladi	Eng yuqori darajadagi aniqlik va aybdor shaxslarni, so'ralgan zarar ko'lamini aniqlash printsipli amal qiladi
Natijalariga ko'ra	Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish bilan yakunlanadi	Taftish dalolatnomalari, tashkiliy xulosalar, jarima solish, majburiy ko'rsatmalar va ularning yuajarilishini tekshirish

4-ilova (1.1.)

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Auditni vujudga keltirgan shart-sharoitlar nimadan iborat?
2. Auditorlik faoliyati dastlab qaysi mamlakatlarda paydo bo'lgan?
3. Auditorlik faoliyati qaysi mamlakatlarda taraqqiy etgan?
4. Auditorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. Auditorlik tashkilotlarinig huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari nimalardan iborat?

5-ilova (1.1.)

Insert texnikasidan foydalanish qoidasi

1. Ma'ruza matnni o'qing va uning hoshiyasida quyidagi belgilarni belgilang:
V – mavjud bilim (axborot)ga mos keladi
+ (plyus) – yangi axborot hisoblanadi
- (minus) – mavjud bo'lgan bilimga mos kelmaydi
? – tushunarsiz/aniqlash talab qilinadigan/ qo'shimcha axborot
2. Olingan ma'lumotlarni quyidagi jadval ko'rinishda bir tizimga keltiring:

Mavzu savollari	v	+	-	?
1				
2				
3				
4				

1.2. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot shakli</i>	Mavzu bo'yicha ma'ruza
<i>Dars vaqti: 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60-70 nafargacha</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalar. 2.Auditorlik faoliyatini tartibga solish. 3.Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonunning mazmuni va ahamiyati.
<i>O'qitish maqsadi:</i> Auditning mohiyati, unga bo'lgan ehtiyoj, uning paydo bo'lishi va uni tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi bilmilarni chuqurlashtirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Audit va taftishning bir-biridan farqlarini hamda foydalanish sohalarini tushuntiradi	Audit bilan taftishning bir-biridan farqlaydi va foydalanish sohalarini sanab beradi
Auditor bilan mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritib beradi	Auditor bilan mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatni aytib bera oladi
Auditorlik faoliyatni tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlar bilan tanishtiradi va mazmunini o'rgatadi	Auditorlik faoliyatni tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlarni sanaydi va ularning mazmunini aytib bera oladi
<i>O'qitish usullari</i>	Ma'ruza, namoyish, blits-so'rov, Insert texnikasi
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy ish, guruhlarda ishlash
<i>O'qitish vositalari</i>	<i>Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska</i>
<i>O'qitish sharoiti</i>	<i>Texnik va guruhlarda ishlash uchun jihozlangan auditoriya</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	<i>Og'zaki nazorat: blits – so'rov, nazorat savollari</i>

Ish bos-qichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish qismi (5-10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomini aytadi. 1.2. Birinchi mavzu, o'quv faoliyatining maqsadi va natijalarini eslatadi. 1.3. Blits-so'rov asosida o'tilgan savollar kaytariladi. 1.4. Mavzuning birinchi qismiga doir jadval va sxemalar yana bir bor eslatiladi 1.5. Aqliy hujum uslubni qo'llab ushbu mavzuga oid asosiy tushunchalarni sanab berish so'raladi. Barcha tushuncha (so'z va ibora)lar doskada yozib boriladi.	Tinglaydi Savollarga javob beradilar Tushuncha (so'z va ibora)larni sanab beradi
2-bosqich. Asosiy qism (60-65 daqiqa)	2.1. Insert usulida bajarilgan ishlarni o'zaro tekshirish va o'qish davomida paydo bo'lgan savollarga javob berish taklif etiladi. 2.2. Erkin guruhlariga bo'linadi va Insert jadvalini tuzish taklif etiladi.	Juftlikda ishlaydi: urganilgan material bo'yicha fikrlar almashadi. Fikr almashish

	2.3. Natijalarni prezentaiya qilish taklif etiladi. 2.4. Mavzu rejasining savollariga oid nazariy asoslar Rower Roint rejimida yoki slayd (2-ilova) ko'rinishida ko'rsatiladi va izohlanadi. Har bir band bo'yicha xulosa qilinganda, muhim jihatlariga e'tiborni jalb qiladi.	jarayonida tanlab olingan materiallar asosida guruh jadvallarini tuzadilar. Asosiy e'tiborni yangi ma'lumotga berib, guruh etakchisi prezentatsiya qiladi. Tinglaydi va sxema va jadvallarni yozib boradilar Savollar beradi
3-bosqich. Yakuniy qism(5-10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. 3.2. Talabalarining faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasi aniqlanadi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beriladi (3-ilova) 3.4. Talabalarining savollariga javob beriladi.	Birinchi mavzu bo'yicha talabalar o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tadilar Mustaqil ishlash uchun topshiriqlarni yozib oladi.

1-ilova (1.2.)

Mavzuni jonlantirish uchun savollar	
1.	Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari nima?
2.	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga solish tizimini tavsiflang.
3.	Auditorlik faoliyatining milliy standartlari nima?
4.	Auditorlik faoliyatining tasnifi (auditorlik tekshiruvi va professional xizmatlari)
5.	Majburiy auditorlik tekshiruvini tavsiflang.
6.	Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi nima?
7.	Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlari tashabbusga ko'ra audit o'tkazishning xususiyatlari nimalardan iborat?
8.	Auditorlik tashkilotlarinig huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari nimalardan iborat?

Endi faraz qilaylik, Sizga kimdir qandaydir dars rejasini tayyorlab olib keldi. Uning samaradorligini va foydalilik darajasini tekshirish qanday amalga oshiriladi? Bu ishni amalga oshirish uchun quyida keltirilgan tartibda ishlasak va fikr yuritsak, yaxshi natijalarga kelishimiz mumkin.

Dars rejasini tekshirish ketma-ketligi:

- Dars jarayonida ishlatilayotgan material o'rganilayotgan tilning real hayotda qo'llanilishiga mos keladimi yoki yo'qmi?
- Talabalar Sizning darsingizdan qoniqish hosil qildilarmi? Agar bunday bo'lmasa, ularni qiziqtirish uchun Siz nima qilmoqchisiz?
- O'rganish tsikli bilan bog'liq savol: Sizning rejalashtirgan darsingizda nazorat qilinishda erkinlikka qarab yo'nalgan harakat mavjudmi?
- Sizning darsingizda motivatsiya qilinishga, taqdimotga, amaliyotga va natijaga bag'ishlangan faoliyat turlari bormi?
- Darsning natijaviy tashkil etuvchi qismlari talabalarga ular nima deyishlari va qanday qilib gapirishlari haqida ma'lumot bera oladimi?
- Darsdagi ko'rsatmalaringiz va vazifalarning bajarilish tartibini talabalarinigiz aniq tushuna oladilarmi?

- Dars tadbirlari talabalarning birgalikda ishlashi, fikr almashishi va o'qituvchi bilan bermalol muloqot qilishiga imkon yaratadimi?
- Darsda ishlatiladigan so'zlarning aniq tarjimasiz Sizda bormi?
- Siz qaysi grammatik qoidalarni ularga o'rgatmoqchisiz va qanday qilib?
- Darsda o'qish, yozish, gapirish va tinglash kabi malakalarni rivojlantirishga ham imkon beriladimi?
- Dars Sizning guruhingiz uchun juda osonmi yoki juda ham murakkabmi?
- Siz o'z sinf tadbirlaringizni oddiy sharoitlarda va berilgan vaqt doirasida o'tkaza olasizmi?
- Agar vaqtingiz ko'proq bo'lsa, yana nimalar qilardingiz?
- Darsda madaniy-ma'naviy jihatdan mos kelmaydigan materiallar va ma'lumotlar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa, Siz nima qilishni rejalashtirayapsiz?
- Uy vazifasi berishni rejalashtirganmisiz?
- Dars vaqtida o'quvchilarni qiziqtirish uchun yana nimalar qilmoqchisiz?

Ushbu savollar majmuasiga rioya qilinsa, har qanday fanga oid bo'lgan dars rejasini ham to'la tekshirib, unga ma'lum bir ma'nodagi qo'shimcha rivojlantiruvchi elementlar qo'shish mumkin bo'ladi.

O'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq biror–bir matn parchasi o'qilgandan so'ng yoki biror bir muammoli mavzu bo'yicha o'tkazilgan munozaradan so'ng, talaba(o'quvchi)larga ma'lum vaqt berilib, ularning o'z fikrlarini erkin va yozma ravishda ifodalashga imkon berish ham ijobiy natijalarga olib keladi. Bu hol talabalarga muammoni (mavzuni) hech kimdan tortinmasdan erkin ravishda fikrlash imkonini beradi, ularning ijodiy imkoniyatlarining ko'z ilg'amas qirralarini rivojlantirishga olib keladi. Ya'ni, «har bir o'quvchida ham geniylikning bir bo'lagi mavjud». Shunday qilib, bunda talaba/o'quvchilar berilgan muddatda matn (mavzu, muammo) haqida o'z fikrlarini to'xtamasdan yozadilar. Agar ulardan birortalari men nima yozishni bilmayapman desa, xuddi shu gapni yozib qo'yishlarini so'rasangiz, maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, bunda asosiysi to'xtovsiz va tez yozish, uni qayta o'qimaslik, tuzatmaslik. Ushbu yozma ish (esse) bajarib bo'linganidan so'ng ko'rib chiqish va tahlil qilish mumkin, bunda asosiy g'oyalarga, fikrlarga nazar solib, o'ylagandan so'ng, uni yangi yozma ishni bajarish mumkin. Albatta, bu holda oldingi bosqichdagi hamma chala va chuqur o'ylanmagan fikrlar olib tashlanadi hamda yozma ish bir qadar tugallangan holatga keladi.

Qisqa muddatli yozma ish. Bu turdagi yozma ishni darsning oxirida o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'lib, bunda o'quvchi/talabalar o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olgan bilimlarini umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi qanday bo'layotganligini bilib oladi. Bunda o'quvchi (talaba)larga ikki yo'nalishdagi ishni bajarish taklif etiladi:

1. Ushbu mavzu yuzasidan nimalarni bilib oldilar;
2. Qaysi bir savolga ular qoniqarli javob ololmadilar.

O'quvchilar tomonidan yozilgan ishlarni o'qituvchi yig'ishtirib oladi va ularni keyingi darsni rejalashtirishda yoki o'quvchi (talaba)lar bilimini tegishli yo'nalishlarda yanada chuqurlashtirish maqsadida ishlatishi mumkin.

Tanqidiy mushohada usuli. Ushbu usulning tub ma'nosi va mohiyati talabalarni nafaqat tinglash hamda fikrlashga undashdan, balki bunga qo'shimcha ravishda o'rganilayotgan mavzuning mohiyati haqida boshqa birovlar bilan aktiv va ijodiy fikr almashinishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham darslarni tashkil etish jarayonida shunga katta ahamiyat berish lozimki, o'quvchi (talaba)larni mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati bo'yicha atroflicha hamda chuqur fikrlashga undash, o'zaro fikr almashinishga chaqirish va qiziqtirish samarali natijalarga olib keladi. Darsni bu yo'nalishda tashkil etish talabalar o'zlashtirish darajasining ham keskin o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki dars jarayonining bunday to'laqonli ravishda tashkil qilinishi darsning zerikarli o'tilishiga barham berib, o'qituvchi bilan talabalarning faol fikr almashishiga, munozara qilishiga va bevosita muloqotga olib keladi. Shuni yodda tutish lozimki, biz (ya'ni, barcha o'qituvchi va hurmatli ustozlar) har doim o'quvchi va talabalarga u yoki bu yo'nalishlarda samarali, tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim berishimiz lozim bo'ladi. Buni **tanqidiy nuqtai-nazardan mushohada qilish** deb atasak, uning o'zi nima ekanligini quyidagicha aniqlab olishimiz kerak bo'ladi:

1. Tanqidiy mushohada yuritish bu qandaydir fikrlar ketma-ketligi va majmuasining pirovard natijasidir. Bu biror-bir shaxs biror-bir narsa haqida fikr yuritganda, uning fikrlarini o'zgalar tomonidan boshqa yo'nalishlarda, chuqurlashgan holda tanqidiy nuqtai-nazardan ko'rib chiqishdir. Demak, bu yangi hamda boshqacha noan'anaviy fikrlar, ma'lumotlar orqali atroflicha mushohada va munozara qilish usulidir.

2. Tanqidiy mushohada faol jarayonlar turiga mansub bo'lib, o'rganuvchining bilim olish jarayonida atayin yoki tasodifiy (spontan) ravishda yuzaga keltiriladi va uning o'rganayotgan ma'lumotlar to'plamini ijobiy ravishda o'zgartirishga, moslashtirishga, kengaytirishga yoki ma'lum bir keraksiz va muhim bo'lmagan qismining o'zgartirilishiga yoki yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

3. Tanqidiy mushohada jarayoni quyidagi mazmundagi savollar berilganda yoki muammolar o'rta tashlanganda yuzaga kelishi mumkin:

- a) Men ushbu bilimlarni qanday qilib amaliyotda ishlata olaman?
- b) Ushbu soha bo'yicha oldindan bilganlarim bilan mazkur bilimlar orasida qanday munosabat yoki bog'liqlik bor?
- v) Bu ma'lumotlar men uchun kerakmi, foydalimi yoki yo'qmi?
- g) Bu ma'lumotlar yoki mavzu haqida shaxsan men qanday fikrdaman?
- d) Bu ma'lumot hamda g'oyalarni qo'llash men va o'zgalar uchun qanday qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi?

A. Tanqidiy mushohada uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish shartlari:

a) Tanqidiy mushohada yuritishni dars jarayonida amalga oshirish uchun vaqt va imkoniyat yaratish.

b) Talabalarga dars davomida mushohada yuritish, o'ylash, savollar berish va tanqidiy fikrlash uchun imkoniyat berish.

v) O'qituvchining talabalar tomonidan bildirilgan xilma-xil fikrlar, g'oyalar, ma'lumotlar, qoidalar, faktlar va mulohazalarni qabul qilishga tayyor bo'lishi.

g) Talabalarni tegishli mavzularni o'rganish va uni tanqidiy tahlil qilish jarayoniga faol hamda keng miqyosda jalb qilishni tashkil qilish.

d) Talabalarining darsda ham, undan tashqarida ham hech narsadan va hech kimsadan cho'chimasdan, o'z tanqidiy fikrlari uchun izza bo'lishdan yoki jazolanishdan qo'rqmasdan mulohaza qilishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish.

e) har bir talabaning ongida tanqidiy fikr bildirishga layoqatli ekanligiga hamda bunga to'la haq-huquqi borligiga ishonch xosil qildirish.

j) Tanqidiy mushohadaning kerakli va foydali ekanligini talabalarga muntazam tushuntirish hamda uni qadrlash lozimligini o'quvchi (talaba)lar ongiga turli usullardan foydalanib singdirish.

B. Talabaning tanqidiy mushohadaga jalb qilinishi uchun lozim bo'lgan mas'uliyatlari.

a) O'quvchi o'z shaxsiy fikrlari va mulohazalarining qadr-qimmatini hamda ahamiyatini har tomonlama tushunib etishi.

b) O'quvchining darsda, darsdan tashqarida va boshqalar bilan muloqotda o'z-o'ziga ishonchini mumkin bo'lgan usul va vositalar yordamida rivojlantirish.

v) Talabalarining mavzuni atroflicha o'rganish jarayonida faol va bevosita ishtirok etishi.

g) Atrofdagilarning fikrlarini imkoniyat darajasida hurmat qilgan holda, ularning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, eshitish va ular haqida mulohaza qila olish.

d) Mavjud va xosil bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar haqida puxta o'ylamasdan turib, tegishli xulosalar chiqarishga shoshilmaslik.

e) Har tomonlama o'ylab, fikrlab, nuqtai-nazarlarni solishtirib va tegishli dalillar bilan tasdiqlagan holda xulosalar chiqarish.

V. Tanqidiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan jihatlar.

a) Ma'lumot to'plash va uni topa olish qobiliyati – ma'lumot olish uchun mavjud adabiyotlarni yoki atrof-muhitni o'rganish, tevarak-atrofdagi insonlardan tegishli ma'lumotlarni yig'ish.

b) Ma'lumotni saqlash va uni o'zgalarga bera olish qobiliyati – aniq va tushunarli hisobotlar yozish, muammoni tushuntirish yoki boshqa usullardan foydalangan holda jarayon (mavzu, hodisa) haqida ma'lumotlar berish.

v) Tahlil qila olish qobiliyati – atrof-muhitdagi butun bir hodisa yoki jarayonni, mavzuni, ma'lumotni ma'lum tartibda qismlarga bo'lgan holda ularning mohiyatini o'rganish.

g) Boshqa ob'ektlar yoki ma'lumotlar majmuasi bilan solishtirish qobiliyati – ob'ektdagi yoki ma'lumotdagi o'xshashliklarni hamda farqlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish.

d) Ob'ektlarni yoki ular bilan bog'liq ma'lumotlarni turkumlarga ajrata olish qobiliyati – ob'ektlarni yoki ma'lumotlarni ma'lum bir ma'noda hamda maqsadga muvofiq ravishda guruhlariga bo'lib chiqish va ularning sabab-oqibatlarini mulohaza qilish.

e) Oldindan ko'ra olish yoki bashorat qilish qobiliyati – o'rganilayotgan mavzu, voqea, hodisa yoki ma'lumotning kelajakda olib kelishi mumkin bo'lgan tafsilotlarini o'rganish hamda ularni sabab–oqibat zanjiriga ulay olishlik.

j) Faraz qila olish (gipotezalar tuzish) qobiliyati va ularning oqibatlari haqida xulosa chiqarish.

i) Fikrni himoya qila olish qobiliyati – harakatlarga, fikrga, qabul qilingan qarorlarga hamda nuqtai–nazarga doir sabablarni ko'rsatish va tushuntira olish. Sabab–oqibat zanjirini boshqalarga tushuntira olish va ularni qat'iy ximoya qilish, natijalarni oldindan ko'ra bilish.

y) Boshqalarni o'z nuqtai–nazariga va fikriga ishontira olish qobiliyati – boshqa odamlarni yoki insonlar guruhni o'z qat'iy fikriga dalillar keltirish orqali ishontira olish.

k) Mavjud yoki kutilayotgan muammolarni echa olish qobiliyati – atrof–muhitda ma'lum bir sabablarga binoan xosil bo'lgan masala va muammolarni atroflicha hamda chuqur o'rgangan holda tegishli va mos echimlar taklif qilish.

l) Qismlardan butun bir fikrni yoki g'oyani sintez qila olish (umumlashtirish) qobiliyati – mavjud bo'lgan bir qancha xilma–xil g'oyalardan yoki mulohazalardan bir butun mulohaza, fikr yoki g'oya tashkil qila olish.

m) Muammoning yoki masalaning ahamiyatini aniqlay olish qobiliyati – ma'lumot, ob'ekt, fikrning yoki qabul qilingan qarorning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini to'g'ri ma'lumot, asosiy dalil va qoidalarga asoslangan holda aniqlay olish.

Tanqidiy mushohada qilishni tashkil etish uchun qo'llaniladigan usullar:

1. *Malakali tashkilotchilik* – Ushbu yo'nalish, mavzu yoki soha bo'yicha chuqur hamda har tomonlama bilimga ega bo'lish, insonlarni ishontira olish va ularga yo'l boshchilik qila olish hamda o'rganilayotgan muammoga, mavzuga yoki savolga qiziqish bilan yondoshish.

2. *Yo'naltirilgan savollar* – Taqdimot paytida, mavzuni tushuntirishda, uni ximoya qilishda, boshqalar bilan muloqot davomida yoki matnni o'qish davomida vujudga kelgan xilma xil savollarga javob bera olish.

3. *Aqliy hujum yoki juft aqliy hujum* – talabalarining ushbu soha haqida tegishli bilimi yoki amaliy tajribasi mavjudligini aniqlash maqsadida yakka tartibda yoki guruhlarda ishlash jarayoni.

4. *Guruhlashtirish* – Soha haqidagi bilimga ega talabalar orasida aqliy hujum usulini qo'llab, buning natijalariga monand ravishda tegishli xulosalar chiqarish va shunga mos bo'lgan guruhlar tuzish.

5. *Yo'naltirilgan mutolaa – fikrlash faoliyati* – Mavzuga oid matnni bir necha qismlarga bo'lish, uni o'qib chiqish va talabalardan matnning keyingi qismda nima bo'lishi mumkinligini oldindan aytib berishni yoki keyin nimani o'rganishlari kutilishini so'rash.

6. *Oldindan berilgan so'zlar* – Talabalarga matndan olingan bir qancha asosiy so'zlar, jumlar, fikrlar yoki ma'lumotlar ruyxati beriladi. Keyin esa talabalar juftliklaridan bu so'zlarning ma'nosini va ularning matnda qanday ahamiyatga ega bo'lishini aniqlash va natijalarni guruhda aytish so'raladi.

7. *Bilmoq/Bilishni hohlash/o'rganmoq* – Sinfni mavzu bo'yicha nimalarni oldindan bilishlariga qarab, alohida guruhchalarga ajratish va ularga mavjud bilimlarga tegishli savollar tuzish haqida topshiriq berish.

8. *Erkin insho (Bayon)* – Biror–bir mavzu yoki sohaga oid dars boshlashdan avval talabalarga bu haqdagi o'z shaxsiy fikrlarini qisqacha bayon shaklida yozish topshirig'i beriladi. Bu jarayonda ushbu mavzuga, undagi asosiy dalillarga va uning berilishiga qiziqish uyg'otiladi.

1. *Muammolar tahlili usuli* – Talabalar orasida biror–bir oldindan berilgan matn yoki mavzu haqidagi bilimlar to'g'risida «aqliy hujum» usuli qo'llanilganidan so'ng, mavzu bo'yicha bilganlariga aloqasi yo'q qismlarni, ularning bilimlariga qarama–qarshi kelayotgan qismlarni, kutilmagan ma'lumotlar bor bo'lgan qismlarni va muammoli savol berishlari mumkin bo'lgan jumboqli qismlarni belgilash so'raladi.

2. *Yo'naltirilgan mutolaa – fikrlash va bashorat qilish holatlari* – Matnni yoki mavzuni bir necha alohida qismchalarga bo'ling va har bir matn qismi bilan tanishib bo'lganlaridan so'ng nima bo'lishi yoki kutilishini talabalardan aniqlang, agar bu biror–bir ma'lumot berilgan matn yoki mavzu bo'lsa, keyingi bosqichda nimalarni o'rganishlari mumkinligini oldindan aytib berishlarini (bashorat qilishlarini) ulardan so'rang.

3. *Ikki qismga bo'lingan yozuvlar usuli* – Daftar varaqlarining o'rtasiga chiziq tortib, ikkiga bo'ling. Chap tomonga o'rganilayotgan matndagi ular uchun juda muhim ko'ringan qismlarini yozishni so'rang, o'ng qismiga esa o'sha qism haqida talabaning shaxsiy fikrini, u qanday bo'lishidan qat'iy–nazar, yozishni so'rang. Ba'zilar buni yozishga tortinishlari ham mumkin, shuning uchun ham bunday o'quvchilarni nazardan qochirmaslik lozim.

4. *Talabalar orasidagi o'zaro dars berish usuli* – Biror–bir matnni yoki mavzuni kichik talabalar guruhi tomonidan mutolaa qilib bo'linganidan so'ng, biror–bir talabaga uning vaqtincha o'qituvchi rolini o'ynagan holda o'qib bo'lingan matn mohiyati haqida sinfdoshlarga bir qancha savollar berishini so'rang, tushunilmagan joylarini tushuntirish va matnning keyingi qismida nimalar bo'lishini oldindan aytib berish ham bu mashg'ulotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

5. *Birgalikda o'rganuvchi guruhlar* – Ushbu guruhlar boshqa guruhlarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha turli savollar berib, unga javob olishga intilishlari yoki mavzuga oid dolzarb muammolar topib, uni hal qilish vazifasini boshqa guruhlarga yuklashlari mumkin. Masalan, bunda talabalar uchun ma'lum bir rollar berish yoki «muammoli dars» o'tish taklif qilinishi mumkin. Bunda talabalarni rag'batlantirish yoki ularga ma'lum darajada baho yoki reyting ballari qo'yishni tashkil qilish ham ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. *O'ylash/fikr almashish/juftliklarda ishlash* – Talabalarga o'tilgan mavzu yoki dars haqida bir qancha muammoli savollar bering va ulardan bu savollarga beriladigan javoblar haqida yakka tarzda o'ylab ko'rishlarini yoki bu savollar yuzasidan ma'lumot tayyorlab, yozib kelishlarini so'rang. Keyinchalik ular juftliklarga bo'lingan holda bir–birlarining javoblarini eshitadilar, solishtiradilar va

tanqidiy muhokama qiladilar. Keyin esa ba'zi juftliklar sinfdoshlari oldida o'z fikrlarini o'rtoqlashib, ijodiy ravishda fikr almashadilar.

7. *Yo'naltiruvchi savollar* – Talabalarga fikrlarini mavzu yoki matnning ba'zi asosiy qismlariga qaratadigan yo'llanma bering va mavzuni o'rganayotgan davrlarida yo'naltiruvchi savol yoki ko'rsatmalar asosida ijodiy ravishda fikrlashlariga erishing (intiling).

1. *O'quvchining savollarga javoblari* – Ma'ruza o'qib bo'linganidan so'ng talabalarga faol fikrlashni talab qiladigan va mavzuni yoritadigan umumiy ko'rinishdagi bir qancha savollar majmuasi beriladi. Ular masalan, quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkin:

Ushbu mavzu bo'yicha Siz nimalarni bilib oldingiz?

Mavzuning qaysi jihatlarini Sizni o'ylashga va fikrlashga majbur qildi?

Mavzu haqida shaxsan Siz qanday fikrdasiz?

Shu bugun o'rganganlaringizni hayotga qanday tarzda tadbiiq qilish mumkin?

2. *Ikki qismga bo'lingan yozuvlarni ko'rib chiqish* – Talabalardan mavzu bo'yicha yozgan fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashishlarini so'rang va bu bo'yicha baxs-munozara uyushtirishga harakat qiling.

3. *Maxsus savollarga javob berish* – Talabalarga ma'ruza mavzusi bilan uzviy bog'liq bir necha xil javoblar berilishi mumkin bo'lgan savollar tayyorlab kelishni topshiring va bu savollarni hamda ularga berilishi mumkin bo'lgan javoblarni guruhda tanqidiy muhokama qilishni uyushtiring.

4. *Oxirgi so'zni menga bering* – Bir talabani doskaga chaqirib, unga mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarning biror qismini doskaga yozishni, ikkinchi tomoniga esa bu matn to'g'risida uning shaxsiy fikr-mulohazasini yozishni so'rang. Keyin sinfdagi barcha talabalarni buni faol muhokama qilishga chaqiring. Lekin, doskaga chaqirilgan talabaning yakunlovchi so'z aytishini yoddan chiqarmang.

5. *Munozara* – Talabalar juftliklariga muhokama qilinayotgan mavzuga oid muammoning ijobiy va salbiy (negativ va pozitiv) tomonlarini yoritadigan savollar tuzishni so'rang. Ular birgalikda ishlab, tegishli savollarni tuzib bo'lishgandan so'ng, keyingi juftliklar bilan birgalikda javob variantlarni muhokama qilishlari lozim bo'ladi. Demak, bu xildagi tadbir o'tkazishda bir guruhning o'ylab topgan savollariga boshqa guruhdagi talabalarning javob berishlari lozim bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu tadbir munozara deb atalishini anglab olgan bo'lsangiz kerak.

6. *Muhokama/Munozaralar/Debatlar* – Talabalarni ikki alohida guruhga bo'lib, o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq masalalarni, savollarni yoki muammolarni qizg'in muhokama qilishni uyushtirish. Bunda barcha talabalarning teng huquqlilik asosida munozarada qatnashuvini, barcha ishtirokchilarning faol bo'lishini ta'minlash o'qituvchining zimmasida bo'ladi.

7. *O'n daqiqali bayon* – Talabalarga o'n daqiqadavomida mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lgan o'rganilayotgan muammo haqidagi o'z fikrlari bo'yicha bayon yozish topshirig'i beriladi. Ba'zi talabalarning hech nima tushunmadim deb, bekor o'tirishlariga yo'l qo'ymaslik o'qituvchining mas'uliyatlari doirasiga kiradi. Ularni ham mavzu bo'yicha nimalarnidir o'ylash va yozishga undash yaxshi natijalarga olib keladi.

8. *Tugallash kartochkalari* – Biror bir mavzuga bag'ishlangan darsdan so'ng, talabalarga quyidagilar haqida ma'lumot yozishni topshiring:

- Bugungi darsda o'rganilgan eng muhim g'oya, fikr, ma'lumot yoki o'zlashtirilgan bilim.
- O'rganilgan mavzu bilan bog'liq materiallar haqida juda bo'lmaganda bitta savol.
- O'rganilgan soha haqidagi ma'lumotlar bo'yicha umumiy ravishda ifodalangan mulohaza.

9. *Takrorlash* – Talabalar darsda bundan oldin o'rganilgan matnlar (mavzular, muammolar)ga bog'liq savollarga javob berib, bu javoblarni hayotiy (shaxsiy, jonli) misollar bilan to'ldiradilar. Bu usulni qo'llaganda «Takrorlash – bilimning onasidir» degan maqolni yana bir marta eslash va hayotga tadbqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

10. *Bilimlarni boshqa muammolarga qo'llash* – O'rganilgan bilimlarning qanday qilib va qaerda hamda qay tartibda qo'llanilishini talabalarga jonli misollarda atroflicha tushuntirib bergandan so'ng ulardan bu bilimlarning, ma'lumotlarning yoki usulning yana qaerda va qanday qo'llanilishi mumkinligini so'rang. Ularning shaxsiy fikri bo'lishiga, ushbu fikrni ularning ishonch bilan ximoya qila olishlariga va bu fikrlarning iloji boricha turli-tuman va yangi (original) bo'lishiga e'tibor bering. Ijodiy fikrlar ko'lami (generatsiyasi) keng bo'lgan talabalarni imkoniyat doirasida rag'batlantirish ham yaxshi natijalarga olib keladi.

5-MAVZU : “AUDIT” FANINI O’RGANISHDA SEMINAR VA AMALIY MASHG’ULOTLARGA TAYYORGARLIK KO’RISH HAMDA ULARNI O’TKAZISH

5.1. Fan bo’yicha amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish xususiyatlari, adabiyotlar, amaliy materiallar tanlash, ularni o’rganish va auditoriyaga etkazish usullari.

5.2. Seminarlarga tayyorgarlik ko’rish usullari. Adabiyotlar, amaliy materiallar tanlash, ularni qrganish va auditoriyaga etkazish usullari.

5.3. “Audit” fanining xususiyatlari va dars o’tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish.

5.4. Seminar olib borishda ko’rgazmali qurollardan foydalanish, Talabalarining seminarga tayyorgarligi, hozirjavoblighi va darsga aktiv qatnashish darajasini baholash.

5.1.Fan bo’yicha amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish xususiyatlari, adabiyotlar, amaliy materiallar tanlash, ularni o’rganish va auditoriyaga etkazish usullari.

Audit fani bo’yicha mashg’ulotlarda talabalarining nazariy jihatdan olgan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashda asos bo’luvchi omil bo’lib, uning o’quv jarayonidagi roli, ayniqsa salmoqlidir. Avvalambor, seminar mashg’ulotini olib borishda seminarining maqsadi va vazifasini aniqlash, ma’ruza bilan seminarining uzviy bog’liqligini ta’minlash, ko’riladigan savollarning mantiqiy birligiga erishish lozim bo’ladi.

O’qituvchi oldindan har bir darsni (mavzuni) qanday ko’rinishda muvaffaqiyatli yakunlashi lozimligini aniqlab olishi lozim va bunda u quyidagilarga alohida e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir:

a) Darsda o’zlashtirilishi lozim bo’lgan mavzu yoki muammoni o’rganish chegaralari qay darajada bo’lishi maqsadga muvofiq.

b) Bu muammo yoki mavzuni qaysi darajada(gacha) va qanchalik batafsil o’rganish maqsadga muvofiq bo’lishi mumkin?

v) Talabalar bilishi zarur deb topilgan asosiy dalil, qoida, kontsepsiya yoki tamoyillar to’plami mavjudmi?, Agar ular haqiqatan ham mavjud bo’lsa, bular qanday asosiy dalil, qoidalar, kontsepsiya yoki printsiplar?

g) Talabalar mavzuga yoki o’rganilayotgan muammoga oid qo’shimcha material, kitob, davriy nashr yoki ma’ruza matnlarini qaerdan va qanday qilib topa oladilar?, O’qituvchi bu borada amaliy yordam bera oladimi va qanday qilib?

d) Mavzuga yoki o’rganilayotgan masalaga oid hozirgacha echimini topa olmagan muammolar ham mavjudmi? Agar bo’lsa, bular qanday turdagi va ko’rinishdagi muammolar? Ularni hal qilishning qanday asosiy usullari (yo’llari) mavjud?

O'qituvchining mavzu bilan bog'liq ma'lum bir turdagi savollarni yoki ularning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan majmuasini yo'naltirilgan va maqsadga muvofiq holda bera olishi ham talabalarda tanqidiy mushohada bilan bog'liq qobiliyatni rivojlantish yoki aks natija beruvchi muhim amaliy–uslubiy vositalardan biridir. Agarda berilgan savollar o'quvchi (talaba)larning fikrlash jarayonini bir qadar cheklab qo'ysa va ular uchun faqat o'qilgan (tinglangan) materialni oddiygina tarzda qaytarishni talab qilsa, ushbu hol o'quvchilarning fikrlash jarayonini ancha sust holatga olib keladi va ularning fikri hech kimga kerak emas, degan ma'noni bildiradi. O'ylashga, erkin fikrlashga, har tomonlama tahlil qilishga va yaratuvchilikka qaratilgan savollar esa fikrlash ko'lamini, darajasini va samarasini oshiradi. Bunday tadbirlar o'quvchilarni ular bilan hisoblashishlari lozimligini va ularning fikri ham qandaydir bir qiymatga ega ekanligiga ishontiradi. Bu borada «Savollar qanday ko'rinishda bo'lishi maqsadga muvofiq?» – degan muammo yuzaga keladi. Bunga bir qadar qoniqarli javob topishga urinib ko'ramiz. Talabalarga o'rganilayotgan mavzu yoki muammo bilan uzviy bog'liq bo'lgan savollar to'plamini berganda quyidagi myozonlarga alohida ahamiyat berish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin:

- Beriladigan savol o'tilgan yoki o'tilayotgan mavzu bilan bog'liq, aniq, lo'nda va qisqa bo'lishi kerak;
- Talabalarga berilgan bitta savol bilan mavzuga bog'liq bo'lgan faqat birgina narsani (fakti, qoidani, holatni va xokazolarni) so'rash zarur;
- Savol o'rganilayotgan soha, mavzu yoki muaammoning biror bir jihati bilan bog'liq bo'lishi lozim, chunki talabalardan ular hali yaxshi o'rganmagan mavzu bo'yicha nazariy savollarni so'rash va unga qaysarlik bilan javob olishga urinish yaxshi natijalarga olib kelmaydi va ularni mavzuni o'rganishdan cho'chitadi;
- O'qituvchi savollar tuzayotganida mavzu bilan bog'liq har bir savolga bir qancha javoblar berish mumkinligiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir;
- Beriladigan muammoli savolning ma'nosi o'quvchi (talaba)larga to'la tushunarli bo'lishi kerak. Aks holda, savol berish jarayonini boshlashdan oldin bu haqda ularga boshlang'ich tushunchalar berib o'tish lozim bo'ladi;
- Mavzuda tahlil qilib o'tilgan aniq narsa, dalil, voqea-hodisa, qoida yoki predmetlardan umumiyliklariga qarab boring. Faqat shu holda harakat qilingandagina o'quvchi (talaba)larga fikrlash, tushunish, o'ylash va javob berish oson bo'ladi;
- «Ha» yoki «Yo'q» shaklidagi va «To'g'ri» yoki «Noto'g'ri» ko'rinishidagi javoblar berilishi mumkin bo'lgan yopiq turga mansub savollarni iloji boricha kamroq bering;
- O'quvchi (talaba)lar javob bera olmaydigan va mavzu bilan bog'liq bo'lmagan turdagi savollarni zinhor bermang;
- O'quvchi/talabalarga o'zlarining hayotiy tajribalariga, ko'rgan va o'rgangan narsalariga hamda kelajakda ular duch kelishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlarga tayangan holda javob qidiriladigan savollar berishga intiling;
- Mavzu bilan uzviy bog'liq ravishda va undan kelib chiqqan holda o'z nuqtai–nazarlarini boshqalarga yotig'i bilan va atroflicha tushuntirishga undaydigan savollar berishga harakat qiling;

- O'quvchi (talaba)lar savollarga javob berayotganlarida, iloji bo'lsa, ba'zan «Nega bunday deb o'ylaysiz?» – turkumiga mansub qo'shimcha savollar ham berish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Agarda talabalar (o'quvchilar)ga o'rganilayotgan mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan savollar berish jarayonida quyidagilarga alohida diqqat–e'tibor qaratilsa, shakl–shubhasiz ijobiy natijalarga erishish va talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi:

- Tegishli savol yoki savollar majmuasi berilgandan so'ng (bu ish og'zaki yoki yozma ravishda tashkil etilishi mumkin) o'qituvchi talabalar (o'quvchilar)ga bu haqda o'ylash uchun bir necha daqiqi vaqt berilishini tashkil qilsa, ular bu qisqa muddatda berilgan savolning ma'nosini chaqib, chuqur tushunishga hamda asl mohiyatiga etishga harakat qiladilar va javoblari ham to'liq bo'lishi tabiiy. Talabalarning to'g'ri javoblariga alohida urg'u berish va rag'batlantirish ularni bundan keyin ham faol bo'lishga undaydi.

- O'quvchi(talaba)larga berilgan savollar bilan bog'liq va mumkin bo'lgan muqobil javoblarni yozish topshirig'i beriladi. Bu esa savolga bir necha ko'rinishda javob topish, solishtirish, aql tarozusidan o'tkazish va fikrlarini jamlash imkoniyatini beradi. Buning pirovard natijasida berilgan savollarga javoblarning yaxshi o'ylangan, asosli va mantiqli bo'lishiga erishiladi.

- Ba'zi paytlarda o'rtaga tashlangan savollarga javob berish uchun ko'ngilli bo'lib o'z ixtiyori bilan otilib chiqqanlarga iloji boricha javob berish taklif etilmasligi maqsadga muvofiq, chunki ular mavzuni, muammoni yoki sohani ko'proq bilganliklari uchun munozarada etakchi o'rinni egallashga harakat qiladilar. Bu esa ba'zi tortinchoq va uyatchan talabalar (o'quvchilar)ga javob berish va munozarada ishtirok etish uchun etarli darajada imkoniyat qoldirmaydi. Javob bergisi kelayotgan, ammo buning uchun tortinchoqligi va uyatchanligi imkoniyat bermayotgan talabalarga ko'pincha javob berish tajribasi etishmaydi, shuning uchun ham ularga ko'proq e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki «Ular qo'rqqoq emaslar, faqatgina qo'rqadilar xolos». Ko'ngilli bo'lib chiqqanlardan ular osonlikcha javob berishi mumkin bo'lgan savollarga javob olishni rejalashtirmang. Boshqa tortinchoqroq talabalardan esa ular javob berishi mumkin bo'lgan savollargagina javob berishlariga harakat qiling. Talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda savol berish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilish kerakki, tortinchoq, kamtar va uyatchan talaba(o'quvchi)lar javob berishga qiynalib, boshqalar oldida esankirab va dovdirab qolmasinlar. Shunday hol yuz bersa, bunday talabalar qattiq ruhiy iztirobga tushib, bilganlarini ham tamoman yoddan chiqaradilar.

- Mavzu yoki o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq bo'lgan savolni bir qadar o'zgartirib, qaytadan berish usuli munozaraning faollashuvi uchun yaxshi yordam beradi va vaqtni tejaydi. Bunda o'qituvchi savolni shunday qilib tuzishi lozim bo'ladiki, unga birdan ortiq xildagi javoblar berish mumkin bo'lsin. Talabalar javoblaridan kelib chiqqan holda, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa savollar ham berilishi, mavzuni o'rganish jarayonini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Shunday qilib, guruhdagi (sinfdagi) hamma talaba(o'quvchi)lar qiziqarli va faol munozaraga jalb qilinishi mumkin.

- Yuqori (oliy) darajadagi (ya'ni, chuqur, atroflicha, ijodiy va g'oyaviy) fikrlash jarayonini boyitadigan savollar berish talabalarning munozaraga ko'proq va keng ko'lamda jalb qilinishiga, qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Bu sharoitlarda ular munozara jarayoniga berilib va raqobat muhitini yaratgan holda faol qatnashadilar. Bunda aksariyat savollar turkumi talabalarni fikrlashga, o'ylashga, tahlil qilishga, oddiydan murakkabga borishga, baholashga va xulosa chiqarishga majbur qilishi lozim bo'ladi. O'qituvchi bunday turdagi muammoli savollarni tez-tez berib turishga harakat qilishi kerak, chunki bu ishni amalga oshirish talabalarning tanqidiy mushohada qobiliyatlarini yana ham va sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

- Talabalarning turli mavzu va yo'nalishlarda savollar berish qobiliyatini va bu boradagi malakasini oshirish maqsadida ularning bu yo'nalishda bevosita mashq qilish jarayonini amalga oshirish kelajakda ular bilan ushbu yo'nalishda ishlashni ancha osonlashtiradi va darsni ham juda qiziqarli o'tilishini ta'minlaydi. O'qituvchi talabalar (o'quvchilar)ga aniq misol va masalalar bilan bog'liq savollar berib, ularni iloji boricha ko'proq mashq qildirishi kerak. Bu savollar, misol va masalalar atrof-muhitdagi real amaliy hayot bilan va talabalar (o'quvchilar)ning kundalik faoliyati bilan uzviy bog'langan holda bo'lsa, yana ham katta samaraga erishish tabiiy. Bular, masalan, o'quvchini aniq savolga tegishli javob topish jarayonini tahlil qilishga undaydigan yoki javobning mohiyatini har tomonlama o'ylashga yo'llaydigan qo'shimcha savollar turkumi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Agarda talaba(o'quvchi)lar mavzu bilan bog'liq savollarga noto'g'ri javob bergan taqdirlarida ham o'qituvchi jahl qilmasligi, bayon etayotgan fikridan adashmasligi, ruhiyati va kayfiyati buzilmasligi kerak. Bunday sharoitlarda u quyidagi ko'rsatma va maslahatlarni dasturi-amal qilib olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Talaba tomonidan berilgan javobning to'g'ri tomonini bo'rttirib ko'rsatgan holda, o'quvchi (talaba)da o'z kuchiga qat'iy ishonch uyg'otish lozim. Keyin esa to'g'ri javob topish uchun nimadan foydalanish va yana nimalar qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar berish, shunga mos javobni topa olish uchun yo'llanma berish zarur. Javobning to'g'ri qismidan amaliy ravishda foydalangan holda, uning noto'g'ri jihatlarini tuzatish yo'llarini ko'rsatish juda foydalidir.

- Berilgan savolni boshqa so'zlar bilan tushunarli tarzda ifodalang yoki uni boshqacha usulda bering. Bu esa o'z navbatida o'quvchi (talaba)ga to'g'ri javob topish uchun yana bir real imkoniyat xosil qiladi va u o'z faolligini yo'qotmaydi, o'z kuchiga, bilimiga va imkoniyatlariga yana ham ko'proq ishona boshlaydi. Demak, undagi ichki ma'naviy kuchlar rivojlanib, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun kerakli ma'naviy-ma'rifiy oзуqa oladi.

- O'quvchi (talaba)ga javob topish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan maslahatlar yoki ko'rsatmalar berish orqali uni ijodiy fikrlashga, har taraflama o'ylashga va mulohaza yuritishga undang. Bu usulda o'ylash jarayonida uning ongi faollashib, bilimlari chuqurlashadi, xilma-xil dalil va qoidalarni o'zicha o'ylab topadi.

- O'quvchi (talaba)ning berilgan savolga javobining mohiyatini tushuntirish va yotig'i bilan hamda atroflicha javobning qaysi qismi to'g'ri hamda qaysi qismi

noto'g'riligini bildiring. So'ngra to'g'ri javob topishga harakat qilishni yana bir karra taklif qiling.

- Agar o'quvchi savolni tushunmagan bo'lsa, mavzu bo'yicha berilgan savolni o'zgartirishga yoki soddalashtirishga erishinki, toki o'quvchi (talaba) unga iloji boricha osonlik bilan javob bera olsun. Yoki savolni bir qancha mayda savolchalarga bo'lingki, talabaning to'g'ri javoblar berishiga imkoniyat yaratilsin. Bu jarayon albatta o'qituvchidan anchagina mahorat, sabr, bilim va madaniyat talab qilishi tabiiydir.

- Agar talaba savolga noto'g'ri javob berayotganligini sezib qolsangiz, ushbu savolga to'g'ri va batafsil javob berish uchun boshqa o'quvchi (talaba)lardan yordam so'rang. Lekin bunda javob berayotgan talabaning izzat–nafsiga tegib ketishdan ehtiyot bo'lish lozim.

- Agar o'quvchi (talaba) mavzu bo'yicha savolga noto'g'ri javob berayotgan bo'lsa, undan madaniyatli muomala qoidalariga rioya qilgan holda, ehtio'tkorlik bilan «Siz nega bunday deb o'ylaysiz?» – deb so'rash ham mumkin. Bu holda o'quvchi o'zining noto'g'ri javobidan noqulay holatga tushib qolmaydi va ko'pincha fikrlash jarayonida o'zining javobidagi mantiqiy xatosini topib olishi ham mumkin. Bu esa unga berilgan savolga to'g'ri javob topishga amaliy yordam berishi tabiiy.

5.2. Seminarlarga tayyorlik ko'rish usullari. Adabiyotlar, amaliy materiallar tanlash, ularni o'rganish va auditoriyaga etkazish usullari.

Avvalambor, seminar mashg'ulotini olib borishda seminarning maqsadi va vazifasini aniqlash. Ma'ruza bilan seminarning uzviy bog'liqligini ta'minlash. Ko'riladigan savollarning mantiqiy birligiga erishish muhimdir.

“Audit” fani bo'yicha amaliyot darslarini o'tishda eng ko'p o'llaniladigan uslublardan biri talabalar diqqati, fikrini qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan savollar asosida olib borish uslubidir.

Seminar darslarida, ayniqsa ikticodiy fanlarda seminar rejasi bo'yicha atroflicha suhbat yoki aniq maqsadga yo'naltirilgan savol-javob asosida dars o'tish keng yoyilgan.

Tahliliy fikrlash savol qo'yishdan boshlanadi, muammoni aniqlashdan boshlanadi. Shuning uchun darsda savol qo'yish orqali talabalarni o'z fikrini asoslash k o'nikmasini Hosil qilish ni Hoyatda katta a Hamiyatga ega. Aynan savollar orqali inson noaniqlikni bartaraf qilishga urinadi.


O'quv rejasi bo'yicha savol-javob shunday pedagogik metodki, uning yordamida talabalar o'quv jarayoniga savollar yordamida jalb etiladi. Savollar orqali talabalarda fikr – muloHaza yuritish, o'z fikrini izo Hlashga ishtiyoq uyg'otiladi. Talabalar bir tomondan savollarga javob berishadi, ikkinchi tomondan esa, o'zlari savol berish imkoniyatiga ega. Noaniq vaziyatni oydinlashtirish imkoni katta.

O'qituvchining savoli talabalarni fanni o'rganishda boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Aynan savollar, ularning mohiyati va vaziyatga ko'ra qo'llash, talabalarni tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Bunday metod

asosida dars o'tganda talabalarning soni 25-30 tadan oshmagani ma'qul. Bu metod asosida dars o'tishda auditoriyada stol-stullarni joylashtirish ham muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'qituvchiga nisbatan «b o'ynini ch o'zib», yoki «qayrilib» o'tirishlari yaxshi emas.

Talabalar iloji boricha bir-birini ko'rib turadigan bo'lib o'tirgani ma'kul. Eng ideal variant «P» shaklida, lekin Hamma vaqt Ham bunday shaklda dars o'tkazib bo'lmaydi. Sababi, auditoriyada bunga imkoniyat yo'q. Ko'p ilg'or pedagoglarning fikricha stollarni «archa» shaklida joylashtirgan ma'qul. Ya'ni Har bir talaba o'qituvchiga nisbatan yarim oborotda joylashib, kichik guru Hlarga bo'linib, dars o'tish uchun Ham qulay bo'ladi. Savol-javob, davra su Hbati tarzida dars o'tganda stollarni yarim doira shaklida joylashtirish mumkin.

Talabalarni joylashtirish:



Hamma vaqt Ham auditoriya talabga javob beradigan darajada bo'lmashligi mumkin. U Holda imkoniyatga ko'ra talabalarni joylanishini dars o'tishda qo'llaniladigan metodga ko'ra ta'minlashga Harakat qilinadi.

O'qituvchi talabalarga shunday impuls berishi kerak-ki, uning rahbarligida o'quv materialini butun guruh tomonidan birgalikda o'rganilishi, muhokama qilinishi, ishlab chiqilishi kerak.

5.3. "Audit" fanining xususiyatlari va dars o'tish metodlarini tanlashda ularni hisobga olish

Darsni muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchi tomonidan auditoriyada ijobiy atmosfera yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba savolga javob berish, suhbat jarayonida to'laqonli suhbatdosh tariqasida qatnashayotganiga ishonch hosil qilishi kerak. o'zining fikrini, shubha qilgan savollarini bemalol ayta olishi, Hamda darsda qo'yilgan maqsadga erishish uchun faol qatnashishi kerak.

O'qituvchi esa savollar yordamida butun guruHga bir xilda ta'sir qilishga, qo'yilgan savollarga, muammolarga Hech bo'lmaganda qoniqarli javob olishga Harakat qilishi kerak.

O'quv rejasi bo'yicha xilma-xil savollar talabalar bilan atroflicha suhbat o'tkazish o'qituvchidan chuqur, maxsus bilim, turli sohalardan xabardorlik, oxirgi yangiliklar, o'zgarishlardan xabardor bo'lishni talab qiladi.

Chunki o'qituvchi talabani Har qanday savoliga javob berishga Hozir b o'lishi kerak. o'qituvchi dars jarayonida talaba bilan Hamkorlikka tayyor turishi zarur, tayyor turibgina qolmay, Hamkorlik qilishi kerak-ki, dars berishdan q o'yilgan maqsadga izchillik bilan erishishga olib kelsin.

Maqsad esa quyidagilar:

1. Belgilangan vaqt (orasida) davomida o'quv materiallarini o'rganish va xotirada saqlash.
2. Bosqichma-bosqich mantiqiy fikr yuritishga o'rganish.
3. o'qishdagi oraliq maqsadlarga erishish (masalan, o'rto g'ining fikrini ta Hlil qilib, tanqidiy o'rganish).

Ma'lumki savollarsiz dars o'tib bo'lmaydi. Savollar asosida dars o'tish bu eng ko'xna va shu bilan birga Hech qachon eskirmaydiran metod. Ta'lim jarayonini qanday metodlar asosida tashkil qilishimizdan kat'iy nazar albatta savollardan foydalanamiz.

Aniq yo'naltirilgan savollar asosida su Hbat asosan turli savollar va o'qituvchining k o'rsatmalari asosida olib boriladi. Su Hbatning muvaffaqiyati k o'p ji Hatdan savollarni t o' g'ri q o'yishga bo g'liq. Avvalgi mavzuda k o'rib o'tilgan savollar alo Hida yoki savollar tizimi shaklida qo'yilishi mumkin. Oddiy yoki murakkab savollar b o'lishi mumkin.

Savollar qo'yilishi, mazmuni, maqsadi va boshqa ji Hatlari bilan farqlanadi. Ularni shartli ravishda quyidagi guru Hlarga b o'lish mumkin.

1. Axborat xarakteridagi savollar. Bu savollar q o'yilgan muammo b o'yicha dalillar, sabablar, sanalarni aniqlashga qaratilgan. Bu guru Hga kiritilgan savollarni o'zi ikki xil: ochiq savollar va yopiq savollar b o'lishi mumkin. Ochiq savollar -- turli s o'roq gaplar orqali ifodalanib, turli-tuman javob berilishi k o'zda tutiladi. **Masalan:** Siz daromadlarga belgilangan progressiv soliq stavkalariga qanday qaraysiz? Yopiq savollar -- bu savollarga javob « Ha », « y o'q », « e Htimol t o' g'ri » tarzida olinishi mumkin b o'lgan savollar b o'lib, odatda ular fe'lga « mi » q o'shimchasi q o'shib Hosil etiladi. **Masalan:** Talab egri chizi g'ini siljishiga modaning o'zgarishi ta'sir kiladimi? Yoki yalpi ichki ma Hsulot Hisoblaganda transfert t o'lovlarini q o'shamizmi?

2. Alternativ savollar - bunday savollarga ikki variantda javob b o'lib, ulardan birini tanlash kerak. U yoki bu javobni tanlaganda eng asosiysi ulardan biri nisbatan ishonchliroq b o'lishi kerak.

3. Tasdiqlovchi yoki musta Hkamlovchi savollar. Bunday savollar odatda u yoki bu Holat, vaziyatni aniqlash maqsadida q o'yiladi. **Masalan:** a) talaba bildirilgan fikrlarni tushundimi, yoki tushunarli bayon qilindimi, aniqlanadi. Aytilgan fikrlarga Hamma tushundimi? Yoki men aytganlarim tushunarlimi? tarzida q o'yilishi mumkin.

4. Faraz qilish, taHlil kilishga undashga qaratilgan savollar. Bunday savollar ikkilanish, Hayajonlanishni bartaraf qilishga yordam beradi. Odatda bu savollar, aytaylik, faraz qilaylik, k o'z o'ngimizga keltiraylik degan s o'zlar bilan boshlanadi.

5. Kontakt o'rnatish uchun qo'yiladigan savollar. Bu savollar auditoriya bilan kontakt o'rnatishga, keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

6. Yo'llovchi, esga soluvchi yordamchi savollar. Savollarning mazmuni voqea, Hodisaning bajarilishi r o'y berishi, eHtimoli yuqori darajadaligini ta'kidlagan Holda o'z savol oHangi bilan to'g'ri javob berishga undaladigan savollar bo'lib, talabaga to'g'ri javob berishga yordamlashadi.

7. So'zsiz savollar. Bunday tarzda savol o'qituvchining qarashi, mimikasi, imo-ishorasi bilan beriladi. U auditoriyadagi talabalarda diqqat, jiddiylilik tu g'diradi. Bunda o'qituvchi eHtiyot b o'lishi kerak. Agar uning yuzida, imo-ishorasida xayriHoHlik ifodalanmasa, talabada o'zini be'mani gaplar gapirganini His qilib, ishonchini y o'qotib, talmovsirab qolishi mumkin.

Savollarni tuzish va uni talabalarga berishdan qo'yilgan maqsalga ko'ra: taxmin qilingan savol, sintez qilingan savol, sharhlashga doir savol, qo'llashga savol tarzida Ham guruHlarga ajratish mumkin.

Savollar bilan bir qatorda impuls va HoHish, istak tu g'diruvchi s o'zlardan Ham foydalanish mumkin. Impulslar bu talabalarning bildirayotgan fikri, gapirishiga turtki beruvchi yoki qisqa mulo Haza maslaxat berish, masalan Ha, davom eting, to'g'ri, shunday qilib, to'g'riro g'i, aniqrog'i kabilar. Ko'pincha impuls savol keng fikrlash imkonini berib, nisbatan mustaqil k o'zlangan natijaga erishishga olib keladi. Savol esa umuman olganda fikr doirasini anchagina cheklaydi.

Kisqa mulo Haza, do'stona oHangda yoki iltimos shaklida ifodalanadi, ular ko'rsatma tariqasida «asoslab bering», «xulosa chiqaring», «yakun yasang», «xarakterlang» va Hokazo tarzida ifodalanadi. o'qituvchi doimo o'z oldiga qanday savol berish kerak yoki qanday qilib to'g'ri savol bersam b o'ladi degan masalani q o'yadi. Savol berishda o'qituvchi uchun quyidagi masla Hatlarni berish mumkin:

- **Savolni barcha talabalarga berish kerak.** Avvalo savolni butun auditoriya oldiga q o'yish kerak. Hamma talabalar o'ylab k o'rsin. S o'ngra ma'lum darajada pauzadan s o'ng aniq bir talaba javob berishga chiqishi mumkin.

- **Auditoriyaga xos savollar berish kerak.** Savol talabalarning bilim darajasi, darsga tayyorgarligi kabilarni Hisobga olgan Holda berilishi kerak. Shu bilan birga guruHdagi talabalarning individual xususiyatlarini Ham Hisobga olish kerak. Avvalo nisbatan b o'sh talabalarga uncha murakkab bo'lmagan savollar berish, s o'ngra bilimi kuchli talabalarga murakkab savollar berib borish kerak. Natijada oddiydan murakkab tomon boriladi.

Dastlab ixtiyoriy javob bermoqchi bo'lganlarga diqqat qaratish kerak, s o'ngra bosiq, o'zi ishtiyoqi bilan javob bermaydigan talabalarni javob berishga jalb qilish, Haddan tashqari faol talabalarni birmuncha tiyib turish kerak. Haddan tashqari darrov javob berishlariga urinmaslik, balki bir necha javob berishni Ho Hlovchilarni aniqlab, qachonki bir necha talaba javob berishi mumkinligini His qilgach boshlash lozim. Mu Him va murakkab savollarda k o'proq pauza saqlab, talabalarni tayyorgarlik darajasini k o'zdan kechirish zarur.

*** Aniq maqsadga qaratilgan Holda savol berish kerak.** O'z-o'zidan ma'lum narsalar Haqida savol berish zerikarli. Talabalarni fikr yuritishini zarur y o'nalishga solib, unchalik kerak b o'lmagan masalalarga e'tibor berish, atrofda aylanish, chetga chikishdan qochish kerak. Haddan tashqari uzun savollar darsni maqsadidan chetga chiqib ketishga olib kelsa, Haddan tashqari qisqa savol esa, «fikr yuritish» uchun kam «joy» qoldiradi. Tushundingizmi degan savol ko'pincha javobsiz koladi. Shuning uchun yaxshisi tipik nazorat shaklidagi savol bergan ma'qul. Bitta s o'roq gapda q o'yilgan bir necha savollar talabalarni adashtiradi. Shuning uchun savolni oddiy, tushunarli qilib tuzish kerak.

*** Savollarni xotirjam tarzda berish kerak.** Xotirjamlik bilan berilgan savol tushunishni osonlashtiradi. Savoldan keyin fikr yuritish, javobni ta'rifini tuzish uchun ma'lum muddat qoldirish kerak. Doimo savol bilan javob berish o'rtasidagi muddat savol beruvchiga, javob beruvchiga nisbatan uzoq davom etganga o'xshab k o'rinadi. Shuning uchun shoshish yaramaydi. Auditoriyadagi k o'ngilli atmosfera unga talabalarni darsga faol qatnashishlarini kuchaytiradi va darsni muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi. Vaqti-vaqti bilan o'qituvchi o'zining savol q o'yish texnikasi, mazmunini tekshirib turishi kerak.

Guru Hni juftlik yoki kichik guruHlarga bo'lib dars o'tganda avval savolga javobni o'rto g'i bilan yoki kichik guru Hda o'ylash va mu Hokama qilish uchun vaqt berish kerak. S o'ngra auditoriyada mu Hokama qilish boshlanadi. o'qituvchi bunda bildirilgan fikrni asoslash yoki musta Hkamlash uchun k o'shimcha savollar beradi. Nima sababdan? Siz shu fikrga q o'shilasizmi? Misol keltiring-chi? o'rtog'ingiz bildirgan fikr to'g'rimi? Siz o'zingizni xulosangizni ayting-chi? Yoki shunday tarzdagi savollar bilan kichik guru Hlarni bir birlariga murojaat qilishga y o'naltiradi.

O'z fikrini bayon qilayotgan talabaga: Aytingchi, siz yoki guru Hingiz q o'yilgan savolga ana shunday javob berishga nima sababdan qaror qildingiz? deb murojaat qilib, savolga javobni eshitgach, auditoriyaga boshqalar Ham shu fikrdami, uni noto'g'ri deb Hisoblovchilar, marHamat o'z fikringizni bildiring deb, boshqa talabalar fikrini aniqlash mumkin.

Agarda to'g'ri javob yagona bo'lmasa, o'qituvchi qani o'ylab k o'ringlarchi, yana qanday muqobil javoblar bo'lishi mumkin? degan savol q o'yish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tdik, savollarsiz dars o'tib bo'lmaydi, barcha metodlarni qo'llaganda Ham savollardan foydalanamiz. Shu bilan birga ustun darajada savol va ularga javoblarga asoslangan dars o'tish usullari Ham talaygina. Ulardan biri savol-javob metodi. Uni turli usullar asosida o'tkazish mumkin.

Kisqacha savol-javob(blits so'rov-javob) usuli.

Bu usulda o'qituvchi qanday maqsad qo'yishiga qarab, qisqa savollar tayyorlaydi. Talabalardan Ham qisqa lo'nda javob berishni talab qiladi. Uni turlicha o'tkazish mumkin

1. Savol qo'yib, HoHlovchilar javob berishi yoki barcha o'quvchi, talabalrndan navbati bilan so'rab chiqish mumkin.

2. Konkurs-musobaqa tarzida o'tkazish mumkin.

Bunda guru H ikki komandaga bo'linadi. O'qituvchi mavzu bo'yicha Har ikki komanda navbati bilan savol berishi va ikkinchi komanda unga javob berishi lozimligini, qo'yilgan savol va unga berilgan javobga qarab komandalar ba Holanishini uqtiradi. Ba Holashni osonlashtirish uchun to' g'ri savol Ham, to'g'ri javob ham 1 ball bilan ba Holanadi. Eng ko'p ball yiqqan komanda 1-o'rin oladi va komanda a'zolarining qatnashishiga ko'ra guru H jurnalida tegishli ball aks ettiriladi.

1-komanda ishtirokchilari 2-komanda a'zolariga savol beradi. Ko'yilgan savol talabga javob bersa 1 ballni qo'lga kiritadi. Savolga javob bergan 2 komanda a'zolari esa javobning to'g'ri-noto'g'riligiga qarab , tegishli ball bilan baxolanadi .

Javobning qoniqarli to'g'ri yoki noto'g'ridigini birinchi komanda tasdiqlaydi. Agar raqib komandaning javobi qoniqarsiz deb topilsa savol bergan komandaning o'zi to'g'ri javobni aytishi yoki uni to'ldirishi lozim . Savollar tegishli fanning o'rganilgan bo'limlariga doir qoida yoki formulalar ko'rinishida Ham bo'lishi mumkin. Bu musobaqa- o'yin shartlarining bajarilishini o'qituvchi nazorat qiladi va baholaydi.

O'quvchilar berish uchun savol topolmay qolgan yoki komandalar teng ball to'plagan hollarda o'qituvchi o'zi oldindan tayyorlab qo'ygan qiziqarli (mantiqiy) savollardan ularning e'tiboriga havola qiladi. Yuqori ball to'plagan komanda g'olib hisoblanada va rag'batlantiriladi.

Darsning shakllantirishning bu usuli o'yin-baxs tarzida bo'lgani uchun o'quvchilar unga qiziqish bilan yondashadi. Dars davomida komandalar 20-30 tadan savol berish imkoniga ega. Demak, o'quvchilar 40-60 ga yaqin tushuncha, formula yoki birliklarni takrorlashga urunadi. Bundan tashqari, o'quvchi keyingi mashg'ulotlarga yanada qiziqarliroq va jiddiyroq savol topib kelishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchi, talabalarning o'z ustida jiddiy ishlashiga olib keladi.

«Zanjir» o'yini Fanni, mavzuni takrorlashga, xotirani mustaxkamlashga yordam beradigan savol-javobga asoslangan yana bir o'yin usuli «Zanjir». u usulni amaliy darslarda qo'llaniladi. Bu erda savol yashirin. Chunki ochiq savol berilmaydi, **o'quvchi talaba o'ziga o'zi xayolan savol** beradi. Bu usulni fandagi biron bo'limni yoki bir nechta mavzularni o'tib bo'lgach qo'llagan ma'qul, sababi talabalar ko'proq iqtisodiy kategoriya, tushuncha, terminlar bilan tanish bo'lishadi. Bu usul bilan o'quvchi talabalar tanish, chunki ular bog'chadan boshlab, so'zlarni avvalgi so'zning oxirgi Harfi bilan yangi so'zni bosh Harfi bir xil bo'lgan so'zlarni tizimli tarzda ifodalashni bilishadi. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda umuman so'z emas, balki iqtisodiy fikrni ifodalovchi so'zlardan foydalaniladi. Umuman, barcha tushunchalarni ifodalovchi so'zlar bo'yicha bu usulni qo'llash oson. Lekin uni qo'llashni fan doirasida, ayniqsa o'rganilayotgan bo'lim yoki 2-3 mavzu miqyosida chegaralab tatbiq etilsa ancha murakkab. Buning uchun ilojisiz fanga tegishli bo'limni puxta o'rganishni talab qiladi. Kimni navbati kelganda so'z topolmasa o'yindan chiqadi. Kim o'z vaqtida o'yin qoidasida kelishilgandek mavzuga, fanning bo'limiga tegishli kategoriya, tushunchalarni ifodalaydigan to' g'ri so'z aytmasa o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan talabaga eng yuqori ball, boshqalarga olgan o'rinlariga ko'ra ball berib chiqiladi.

O'tilgan mavzularni o'quvchi mukammal o'zlashtirishi uchun xotirani mustaxkamlash asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Xotirani mustaxkamlash, fikr yuritishga undaydigan usullardan biri «Zaif bo'lg'in» usulidir.

«Zaif bo'lg'in» o'yini Bu usul Ham o'yin tarzida o'tkazilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi darsda qo'yilgan maqsadga ko'ra, mavzu yoki fanning bo'limi, fan bo'yicha kategoriya, tushunchalarni ma'nosi va uning javobini tayyorlab yozib keladi. O'quvchi talabalarga o'yin qanday o'tishini tushuntiradi. U oxirida 2 o'quvchi, talaba qolguncha bosqichma-bosqich aylanib davom etadi. O'qituvchi tushuncha, kategoriyaning mazmunini aytadi, o'quvchi, talabalar uning nomini aytishi kerak. Kim noto'g'ri aytsa, o'yindan chiqadi. Yoki uni aksincha tarzida tashkil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi kategoriya, tushuncha, terminni aytadi. O'quvchi, talabalar esa uning mazmunini aytib berishlari lozim bo'ladi. O'yinda avval osonroq tushunchalar, so'ngra borgan sari murakkab tushunchalarni berish mumkin. Bu usulni qo'llash uchun darsga o'qituvchi Ham o'quvchi, talabalar Ham puxta tayyorlanib kelishlari kerak. Bo'lmasa dars kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa o'qituvchi. O'qituvchidan iloji boricha ko'proq tushuncha, kategoriyalarni tanlash talab qilinadi. U savollarni glossariy(izohli lug'at) tarzida tayyorlagani ma'qul

Umuman olganda, 15-20 kishidan iborat bo'lgan guruH uchun bir necha boqichga etarlicha savol tayyorlash lozim

«Zakovat» o'yini Bu o'yinni o'quvchi talabalar mash Hur ko'rsatuvdan juda yaxshi bilishadi. Shuning uchun unga tayyorlanib kelish va qatnashish ular uchun tushunarli. O'qituvchidan uni o'rganilayotgan mavzuga moslashtirish talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi mavzuning yoki asosiy qonun yoki kategoriyaning, fanni o'rganishdagi muhim tushuncha, muammo, qiziqarli masala tayyorlab. konvertlarga solib stol ustiga qo'yadi. O'quvchi, talabalar kichik guruHlarga bo'linadi. Har bir guruH vakili stoldan konvertlardan birini tanlab olishi kerak. Savolni muhokama qilib, tayyorlanish uchun 1 minut vaqt beriladi. GuruH savolga to'g'ri javob bermasa, o'qituvchi boshqa talabalarga murojaat qiladi. Hamma o'z fikrini aytib bo'lgach, o'qituvchi to'g'ri javobni o'qib eshittiradi. O'z vaqtida to'g'ri javob berganlarga ball beriladi.

O'qituvchi o'zi uchun savol va aniq javobni yozib qo'ygan bo'lishi kerak. Savolni tayyorlay beray, javobini bilamanku degan fikrga bormaslik. kerak. Chunki, ayrim paytlarda javobda muallif, manbani ko'rsatishga to'g'ri keladi, ayrim vaziyatlarda esa qizarib qolish Hech gap emas.

Savollar asosida darslarni «O'yla, izla, top», «Kilni qirq yorib», «Kim millioner bo'lishni Hozlaydi?», «Intellektual ring» «Mo'jizalar maydoni» va boshkalar kabi tashkil qilish mumkin. Ularni Hammasi Ham aynan savollarga asoslangan.

«Audit» fanidan yoki «Soliq va soliqqa tortish» fanidan dars o'tganda, masalan «Kilni qirq yorib» o'yinini qo'llash darsni qiziqarli o'tishi va ularda talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa real Hayotdan o'qituvchi faktlar asosida topshiriq tayyorlasa yanada yaxshi.

Tahliliy (analitik,kritik) fikrlashni rivojlantirishga ham amalda savollar yordamida erishiladi. O'quvchi, talabalar xotirasini mustaxkamlash va ularni

ijodkorlikka o'rgatish maqsadida ularni savol va unga javob topishga undovchi usullardan yana biri **skanvord, krossvord**lardan foydalanishdir. Ayniqsa o'quvchi, talabalarning o'ziga fanga, uning biron bo'limiga, mavzusiga oid krossvord va skanvord tuzishni topshirish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

Skanvord , Krossvord tuzish uchun ular savol-javob tanlashda turli adabiyotlardan foydalanadilar va o'zlari tanlagan savollarni mantiqiy ji Hatdan mulo Haza qilib, talabga javob berishi, ularni tuzish qoidalarga rioya qilishga harakat qiladilar. Bular esa ularni fikrlashga, kitob bilan mustaqil ishlashga, ijodiy mehnat qilishga va asosiysi, o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatadi. Shubxasiz, bunday sifatlar barkamollikning asosi hisoblanadi. Barkamol avlod esa buyuk kelajak poydevoridir.

Agarda o'quvchi-talabalarga o'rganilayotgan mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan savollar berish jarayonida quyidagilarga alohida diqqat-e'tibor qaratilsa, shak-shubhasiz ijobiy natija-larga erishish va o'quvchi-talabalarning faolligini sezilarli da-rajada oshirish mumkin bo'ladi:

- tegishli savol yoki savollar majmuasi berilgandan so'ng (bu ish og'zaki yoki yozma ravishda tashkil etilishi mumkin) o'qituvchi o'quvchi-talabalarga bu haqda o'ylash uchun bir necha daqiqa vaqt be-rilishini tashkil qilsa, chuqur tushunishga hamda asl mohiyatiga etishga harakat qiladilar va javoblari ham to'liq bo'lishi tabiiy. O'quvchi-talabalarning to'g'ri javoblariga alohida urg'u berish va rag'batlantirish ularni bundan keyin ham faol bo'lishga undaydi;

- o'quvchi-talabalarga berilgan savollar bilan bog'liq va mum-kin bo'lgan muqobil javoblarni yozish topshirig'i beriladi. Bu esa savolga bir necha ko'rinishda javob topish, solishtirish va fikr-larini jamlash imkoniyatini beradi. Buning pirovard natijasida berilgan savollarga javoblarning yaxshi o'ylangan, asosli va man-tiqli bo'lishiga erishiladi;

- ba'zi paytlarda o'rta tashlangan savollarga javob berish uchun ko'ngilli bo'lib, o'z ixtiyori bilan otilib chiqqanlarga iloji boricha javob berish taklif etilmasligi maqsadga muvofiq, chunki ular mavzuni, muammoni yoki sohani ko'proq bilganliklari uchun munozarada etakchi o'rinni egallashga harakat qiladilar. Bu esa ba'zi tortinchoq yoki uyatchan o'quvchi-talabalarga etarli darajada imkoniyat qoldirmaydi. Javob bergisi kelayotgan, ammo buning uchun tortinchoqligi va uyatchanligi imkoniyat bermayotgan o'quvchi-talabalarga, ko'pincha, javob berish tajribasi etishmaydi, shuning uchun ham ularga ko'proq e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki *“Ular qo'rqqoq emaslar, faqatgina tortinadilar, xolos”*. Ko'ngilli bo'lib chiqqanlardan ular osonlikcha javob berishi mumkin bo'lgan savol-larga javob olishni rejalashtirmang. Tortinchoqroq o'quvchi-talabalardan esa ular javob berishi mumkin bo'lgan savollargagina javob berishlariga harakat qiling. O'quvchi-talabalarning bilim darajasini hisobga olgan holda savol berish maqsadga muvofiq-dir. Shunday qilish kerakki, tortinchoq, kamtar va uyatchan o'quvchi-talabalar javob berishga qiyalib, boshqalar oldida esankirab va dovdirab qolmasinlar. Shunday hol yuz bersa, bunday o'quvchi-talabalar qattiq ruhiy iztirobga tushib, bilganlarini ham tamoman yoddan chiqaradilar;

- mavzu yoki o'rganilayotgan muammo bilan bog'liq bo'lgan savol-ni bir qadar o'zgartirib, qaytadan berish usuli munozaraning fa-ollashuvi uchun yaxshi

yordam beradi va vaqtni tejaydi. Bunda o'qi-tuvchi savolni shunday tuzishi lozimki, unga bir necha xil javob berish mumkin bo'lsin. O'quvchi-talabalar javoblaridan kelib chiq-qan holda, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan savollar ham berilishi, mavzuni o'rganish jarayonini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Shunday qilib, guruhdagi (sinfdagi) hamma o'quvchi-talabalar qi-ziqarli va faol munozaraga jalb qilinishi mumkin;

- yuqori (oliy) darajadagi (ya'ni, chuqur, atroflicha, ijodiy va g'oyaviy) fikrlash jarayonini boyitadigan savollar berish o'quv-chi-talabalarning munozaraga ko'proq va keng ko'lamda jalb qilini-shiga, qiziqishlarining ortishiga olib keladi. Bu sharoitlarda ular munozara jarayoniga berilib va raqobat muhitini yaratgan holda faol qatnashadilar. Bunda aksariyat savollar turkumi o'quv-chi-talabalarni fikrlashga, o'ylashga, tahlil qilishga, oddiydan murakkabga borishga, baholashga va xulosa chiqarishga majbur qili-shi lozim bo'ladi. O'qituvchi bunday turdagi muammoli savollarni tez-tez berib turishga harakat qilishi kerak, chunki bu ishni amal-ga oshirish talabalarning tanqidiy mushohada qobiliyatlarini yana ham va sezilarli darajada oshirishga olib keladi;

- o'quvchi-talabalarning turli mavzu va yo'nalishlarda savol-lar berish qobiliyatini va bu boradagi malakasini oshirish maqsa-dida ularning bu yo'nalishda bevosita mashq qilish jarayonini amal-ga oshirish kelajakda ular bilan ushbu yo'nalishda ishlashni ancha osonlashtiradi va darsning ham qiziqarli o'tilishini ta'minlay-di. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga aniq misol va masalalar bilan bog'liq savollar berib, ularni iloji boricha ko'proq mashq qildi-rishi kerak. Bu savollar, misol va masalalar atrof-muhitdagi real amaliy hayot bilan va o'quvchi-talabalarning kundalik faoliyati bi-lan uzviy bog'langan holda bo'lsa, yana ham katta samaraga erishish tabiiy. Bular, masalan, o'quvchi-talabani aniq savolga tegishli ja-vob topish jarayonini tahlil qilishga undaydigan yoki javobning mohiyatini har tomonlama o'ylashga yo'llaydigan qo'shimcha savollar turkumi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

O'quvchi-talabalar mavzu bilan bog'liq savollarga noto'g'ri ja-vob bergan taqdirlarida ham o'qituvchi jahl qilmasligi, bayon eta-yotgan fikridan adashmasligi, ruhiyati va kayfiyati buzilmasligi kerak. Bunday sharoitlarda u quyidagi ko'rsatma va maslahatlarni dasturiamal qilib olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *O'quvchi-talaba tomonidan berilgan javobning to'g'ri tomo-nini bo'rttirib ko'rsatgan holda o'quvchi-talabada o'z kuchiga qat'iy ishonch uyg'otish lozim. Keyin esa to'g'ri javob topish uchun ni-madan foydalanish va yana nimalar qilish kerakligi haqida ko'rsat-malar shunga mos javobni topa olish uchun yo'llanma berish zarur. Javobning to'g'ri qismidan amaliy ravishda foydalangan holda, uning noto'g'ri jihatlarini tuzatish yo'llarini ko'rsatish juda foydalidir.*

2. *Berilgan savolni boshqa so'zlar bilan tushunarli tarzda ifodalang yoki uni boshqacha usulda bering. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchi-talabaga to'g'ri javob topish uchun yana bir imkoniyat beradi va u o'z faolligini yo'qotmaydi, o'z kuchiga, bilimiga va im-koniyatlariga yana ham ko'proq ishona boshlaydi. Demak, undagi ichki ma'naviy kuchlar rivojlanib, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun kerakli ma'naviy-ma'rifiy ozuqa oladi.*

3. *O'quvchi-talabalarga javob topish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan maslahatlar yoki ko'rsatmalar berish orqali ularni ijodiy fikrlashga, har taraflama o'ylashga va mulohaza yuritishga undang. Bu usulda o'ylash jarayonida ularning ongi faollashib, bilimlari chu-qurlashadi, xilma-xil dalil va qoidalarini o'zicha o'ylab topadilar.*

4. *O'quvchi-talabalarning berilgan savolga javobining mohiyati-ni tushuntiring va yotig'i bilan hamda atroflicha javobning qaysi qismi to'g'ri hamda qaysi noto'g'riligini bildiring. So'ngra to'g'ri ja-vob topishga harakat qilishni yana bir karra taklif qiling:*

- Agar o'quvchi-talaba savolni tushunmagan bo'lsa, mavzu bo'yicha berilgan savolni o'zgartirishga yoki soddalashtirishga erishing-ki, toki o'quvchi-talaba unga iloji boricha osonlik bilan javob be-ra olsun. Yoki savolni bir qancha mayda savolchalarga bo'lingki, o'quvchi-talabaning to'g'ri javoblar berishiga imkoniyat yaratilsin. Bu jarayon, albatta, o'qituvchidan anchagina mahorat, sabr, bilim va madaniyat talab qilishi tabiiydir.

- Agar o'quvchi-talaba savolga noto'g'ri javob berayotganligini sezib qolsangiz, ushbu savolga to'g'ri va batafsil javob berish uchun boshqa o'quvchi-talabalardan yordam so'rang. Lekin bunda javob berayotgan o'quvchi-talabaning izzat-nafsiga tegib ketishdan ehtiyot bo'lish lozim.

- Agar o'quvchi-talaba mavzu bo'yicha savolga noto'g'ri javob be-rayotgan bo'lsa, ehtiyotkorlik bilan "Siz nega bunday deb o'ylay-siz?" – deb so'rash ham mumkin. Bu holda o'quvchi-talaba o'zining no-to'g'ri javobidan noqulay holatga tushib qolmaydi va ko'pincha, fikrlash jarayonida o'zining javobidan mantiqiy xatosini topib olishi ham mumkin. Bu esa unga berilgan savolga to'g'ri javob topishga amaliy yordam berishi tabiiy.

Savollarning asosiy turlari quyidagilar:

Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan bosqichlardan foydalan-gan holda savollarni quyidagi turlarga bo'lib chiqish mumkin:

Bilim olish – bunda savollar turkumining mazmuni mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan mavjud dalillarni aniqlashga yo'nal-tirilgan bo'ladi:

- Qaysi.....?
- Qanday.....?
- Nima bo'lgan edi.....?
- Aniqlang.....
- Qaerda.....?
- Qachon.....?
- Solishtiring.....
- Chizib bering.....

Tushunish – ushbu bosqichda mavzular bo'yicha tuzilishi mumkin bo'lgan savollar majmuasi tushunchaning o'zlashtirilishini tekshi-rishga (ko'rishga, aniqlashga) qaratiladi:

- Mavzu bo'yicha nimalarni bilib oldingiz?
- Mavzu bo'yicha qanday dalillar yoki qoidalar asosiy ahamiyat-ga molik?
- Nimalar Sizga tushunarsiz?

- Nimalarni oydinlashtirish lozim?
- O'z so'zlaringiz bilan aytib bering:
- Tushuntiring:
- Qaysi biri va qanday?
- Ushbu ma'lumotlar nimani tasdiqlaydi?
- Grafikni (chizmani) tushuntirib bering.
- Qachon?

Ishlatish (qo'llash) – bunda mavzu yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan va ma'ruzada o'rganilgan ma'lumot (bilim) larni qanday qilib hayotda ishlatish (qo'llash) masalalari ko'rib chiqiladi.

- Mavzu bo'yicha olgan bilimlaringizni amaliy hayotda qo'llani-lishi bilan bog'liq qanday misollarni bilasiz?

- Atrof-muhitdagi qaysi dalil, omil, hodisa, qoida yoki ma'-lumotni amaliy qo'llanishga misol qilib ko'rsata olasiz?

- Bu bilimlarni qanday qilib ishlata olasiz?
- Buni qaysi jabhada ishlatish maqsadga muvofiq?
- Nega bunday bo'lganini tushuntiring.
- Ushbu hodisani tushuntiring:
- Bu voqeani tushuntirish uchun qanday qoidalarni (asosiy da-lil, ma'lumot) qo'llash mumkin?

Tahlil (analiz) – o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq tushuncha-larning tashkil etuvchi (bo'lak, qism)lari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish va tushuntirib berish talab qilinadi.

- qanday tarkibiy qismlardan iborat?
- qanday munosabatda?
- Solishtiring
- Qanday asosiy xossalari mavjud ?
- U yoki bu bo'lim (bo'lak, qism) orasidagi farqni ko'rsating:
- Turkumlarga ajrating:
- Tarkibiy qismlarga bo'lib chiqing.
- Ushbu mavzu bilan bog'liq xatolaringizni toping.
- Qanday nuqtai nazar to'g'ri bo'lishi mumkin?

Sintez – bunda mavzu bilan bog'liq voqea-hodisa, material, us-kuna, qism (bo'lak)larni mantiqiy jihatdan butunga qo'shish (bir-lashtirish, moslashtirish) ni uddalash talab qilinadi.

- O'rganilayotgan masalaning mohiyatini qanday tarkibiy qism-lar tashkil qiladi?

- Qanday tarkibiy qismlar qo'shilsa, ob'ektning mohiyati se-zilarli ravishda o'zgaradi?

- Bajaring
- Faraz (fikir, nuqtai nazar)ni qanday qilib tekshirar edingiz?
- Siz tarkibiy qismlarni qanday qilib hosil qilardingiz (yaratardingiz, qurardingiz)?

- *Asosiy mavzularni va namunalarni aniqlang*
- *Ba'zi bir tarkibiy qismlarning bor yoki yo'qligi masalaning mohiyatiga qanday ta'sir qiladi?*

Baholash – yuqorida ko'rib o'tilgan tahlil va sintez natijala-riga asoslanib, qaror qabul qilish hamda xulosa chiqara olish qo-biliyati ko'rib chiqiladi.

- *Ushbu ni baholang.*
- *..... bo'yicha fikringiz qanday?*
- *Aniqlang*
- *Ushbu ko'rsatkichlarga mos tushadimi?*
- *Nega shunday? yoki Nega shunday emas?*
- *Namuna yaxshimi? Nega?*
- *Qanday ko'rsatkichlarga asoslangan holda ? ni asoslab bering?*
- *Ko'rsatkichlarni qanday aniqladingiz? Ularni asosli ra-vishda tushuntirib bering*
- *Nega Siz shunday deb fikrlaysiz/o'ylaysiz?*
- *..... haqida qanday xulosa chiqara olasiz?*

Agar barcha fanlarni aniq va aniq bo'lmagan fanlar deb, bir-biridan ajratsak, ikkinchi guruhga kirib qolgan fan namoyonda-lari bizdan juda qattiq xafa bo'lishlari va ranjishlari aniq. Shuning uchun ham ularni bir-biridan ajratmaymiz va taklif qi-linayotgan uslubiyotlarni hech qanday cheklanuvlarsiz qo'llashlari-ga teng imkoniyat yaratamiz. Yuqorida aytib o'tilgan ko'p usullar (ko'rsatkichlar, qoidalar, yondashuvlar) pedagogik tomondan aniq deb tan olingan fanlarni ham faol usulda o'qitishda juda qo'l ke-ladi. Chunki bu usullar inson ruhiyati (psixikasi) ning imkoniyat-lari va ta'lim berish sohasidagi zamonaviy pedagogik texnolo-giyalar yutuqlariga asoslangandir. Bunda, albatta, «*Hamma yangi narsalar, unutib yuborilgan eski narsalardir*», - deb ham ayti-shingiz mumkin. Lekin bu eski narsalarni topish va joy-joyida maqsadga muvofiq ravishda ishlatish ham ma'lum darajada topqir-lik hamda bilimni talab qilishi hech kimga sir emas.

Hozirgi paytda zamonaviy pedagogik texnolo-giyalar usulida ishlaydigan ilg'or pedagoglar ta'lim berishni o'quvchi-talabadagi mavjud bo'lgan bilim majmualarini ijodiy va tanqidiy fikrlash asosida kengaytirish va qayta tuzish sifatida tushunib, ta'lim oluvchilarga loqayd (passiv) ravishda bilim be-rish usulini aslo tan olmaydilar. Chunki sust ta'lim usuli o'quv-chi – talabalarni befarq va loqayd qilsa, faol ta'lim usuli tex-nologiyalari ularning iqtidori va iste'dodini rivojlantirishga, tasavvur doiralarini kengaytirishga, muloqotlarini jonli qi-lishga va ishga (hayotga) hamda jamiyatga ijodiy yondashishlariga olib keladi. Agar biz o'quvchi-talabalarning o'zlari yaxshi bilgan hodisalarni va bilimlari asosida ularga yangi bilimlar majmua-sini berib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llasak, u hol-da quyidagi ikki holatni kuzatishimiz mumkin.

Birinchidan, o'quvchi – talabalar savollar berishlari va bu sa-vollarga to'g'ri javob topishlari uchun faol bo'lishlari kerak bo'-ladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z

bilganlarini yana bir marta eslashi va buning asosida o'quvchi – talabalarga nimalarni bermoqchi ekan-ligini aniqlab olishi lozim.

Ikkinchidan, bilimlarining xilma-xilligidan kelib chiqqan holda yangi hodisa, qoida, omil va dalillarni o'rganmasdan turib, noto'g'ri xulosaga kelib, adashib qolishlari xavfi ham mavjud. Bi-nobarin, o'quvchi – talabalar yangi bilimni (ma'lumotni) o'zlaricha noto'g'ri talqin qilsalar, bu ularning chala, to'laqonli bo'lmagan yoki noto'g'ri bilim olishlariga olib keladi. Shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi ziyraklik bilan bunday hollarga yo'l qo'ymaslik va o'quvchi – talabalarining oldingi bilganlarini ham bir karra tekshirib chiqishdan iboratdir. Bizningcha, quyidagi fikr bejiz aytilmagan: «*Har bir o'qituvchining vazifasi o'quvchi – tala-bada bilimga qiziqish uchqunini yoqish, uning alangaga aylanishi esa ilm oluvchiga bog'liq*».

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar nafaqat iqtisodiy fanlarni, bal-ki, boshqa har qanday turdagi fanlarni ham o'rganishda juda mu-him ahamiyat kasb etadi. o'qitish va ta'lim – tarbiya jarayonini o'quv-chi-talabalarining mavjud haqiqiy – daliliy (faktual) bilimlari bilan garmonik ravishda qo'shib amalga oshirilsa hamda ularning qiziqishlari, intilishlari hisobga olinsa, juda yaxshi natijalar-ga olib kelishi mumkin. Aniq fanlar sust (passiv) usulda o'qi-tilsa, ulg'ayganimizda muayyan bilimlar majmuasiga ega bo'lishi-miz mumkin, lekin bu bilan «tekshirilmagan, sinalmagan» holda qolib ketaveradi va biz ularni real hayotda maqsadga muvofiq ra-vishda ishlatishimiz mumkin bo'lib qoladi. Aniq fanlarni o'qi-tishning faol usuli bilim olish jarayonini o'quvchi – talabalar-ning qiziqish va intilishlari bilan uzviy bog'langan holda olib boradi hamda ularning bilimlaridan foydalangan holda yangi bi-limlar majmuasini taqdim etadi. Demak, ular ongida mavjud bo'l-gan eski bilimlar majmuasi yangi bilimlar to'plami uchun bir ula-nish nuqtasi, o'ziga xos harakat dasturi bo'lib xizmat qiladi va bir-biriga eng muvofiq ravishda uyg'unlashadi.

Audit fannini o'qitish o'quvchi – talabalarda quyidagilar bi-lan aniqlanadigan ilmiy-amaliy yondashuvni tarbiyalaydi:

1. *Chuqur, har taraflama va atroflicha bilim olishga intilish va bunga astoydil qiziqish;*

2. *Nazariy tomondan aniqlangan ko'rsatmalar asosida ushbu fanga oid bir nima qilish orqali biror-bir hodisani, qoidani, da-lilni yoki ma'lumotni aniqlamoq. Masalan, mavzuga oid tajriba qilib ko'rish, amaliy ish o'yinini tashkil qilish yoki misol va masa-lalar echish;*

3. *Mavzuga oid va u bilan bog'liq bo'lgan, ko'pincha uchrab turadigan fikrlar, g'oyalar, ma'lumotlar, asosiy dalillar, kontseptsiyalar, qoida-lar va hodisalarni yana ham diqqat bilan o'rganish (skeptitsizm);*

4. *Xilma-xil audit tekshiruvchlari turalirining bir–biriga bog'liqlikni va bunday aloqalarning tub mohiyatini aniqlash va isbot qilishni bilim olish jarayonida ish-latish (mantiqiy – nazariy va tanqidiy fikrlash);*

5. *. U yoki bu sohadagi har bir real masalalarni hal qila olish, ma'lumotlarni topish, ularni bir-biriga bog'lash, maqsadga muvo-fi-q ravishda ishlatish hamda muammolarni hal qilish uchun ma'lum bir qoidalar, dalillar, ma'lumotlar,*

tushunchalar to'plamiga ega bo'lish va ularni amaliy ravishda ishlata olish (strategiyalar);

7. Boshqalarning fikrlarini, bilimlarini, ma'lumot maj-mualarini va g'oyalarini bir-biriga maqsadga muvofiq ravishda bog'lay olish hamda ulardan unumli ravishda foydalanib, yangi bi-limlar majmuasini tuza olish (integratsiya).

O'qituvchi bu bosqichni alohida e'tibor bilan amalga oshirish va uning asosiy tamoyillarini hayotga tatbiq qilish uchun o'ziga qu-yidagi savollarni bermog'i lozim:

1. Ushbu darsda o'quvchi – talabalar mavzu bilan uzviy bog'liq bo'lgan qanday tamoyilni o'rganadilar?

2. Ushbu tamoyil bilan chuqurroq tanishish uchun ular yana nima qilishlari kerak?

3. O'quvchi – talabalar mavzu bilan bog'liq ravishda nimalarni kuzatishlari lozim va qanday qo'shimcha yozuvlar qilishlari zarur?

4. O'quvchi – talabalar uchun mavzuni chuqurroq va amaliy ra-vishda o'rganish borasida qanday ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish mantiqan to'g'ri bo'ladi?

5. O'rganilayotgan tamoyillarni o'quvchi – talabalaraga bil-dirmasdan turib, ularga bu yo'nalishda harakat qilish uchun qanday zarur va etarli ko'rsatmalar bera olish mumkin?

2. Izlanish (tushuntirish) bosqichi.

O'quvchi – talabalar hodisa (dalil, qoida) ni o'rganib, bu yo'na-lishdagi o'z shaxsiy kuzatuvlarini tugatganlaridan so'ng o'qituvchi ularga ushbu kuzatuvlarni ma'lum bir qolipga tushirishga imkon berishi kerak. Bunda asosiy maqsad bu yo'nalishdagi «kontseptsiya»ni tuzishdir. Bunda o'qituvchining pirovard maqsadi o'quvchi – talaba-larning tanqidiy mustaqil fikrlashlariga erishish bo'lgani uchun, ularga to'g'ridan-to'g'ri lo'nda qilib tushuntirishi va ma'ruza o'qish-dan o'zini tiyishi lozim. U to'g'ri fikrlar majmuasini savol-ja-vobga asoslangan Suqrot usulini qo'llash orqali o'quvchi-talabalar-ning o'zidan tortib olishga intilishi kerak. Bunda o'qituvchi quyi-dagi savol (muammo) larga javob berishga tayyor bo'lishi zarur:

1. O'quvchi-talabalar qanday turdagi ma'lumotlar yoki yangi-liklar haqida gapirishlari mumkin va men bularga qoniqarli ja-vob berishga tayyormanmi?

2. Men qanday qilib o'quvchi-talabalarga ularning yangi fikrla-rini umumlashtirish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish uchun amaliy yordam bera olaman?

3. Men qanday qilib sinf yoki guruhdagi o'quvchi-talabalarni ko'rsatilgan maqsad yo'nalishida boshqaraman va ular bilmoqchi bo'l-gan narsalarni oldindan aytishdan o'zimni qanday qilib tiyib tu-ra olaman?

4. Agarda o'quvchi-talabalar muammoni yoki mavzuni yaxshi tushu-na olmasalar, savolning mohiyatini anglay bilmasalar men nima qilaman?

5. Ularga mavjud bo'lmagan, chegaralanmagan ma'lumotlarni, muammoni to'g'ri va xolisona tushunishlari uchun qanday amaliy yor-dam bera olaman?

6. O'rganilayotgan kontseptsiyaga yoki mavzuga mos bo'lgan muqobil fikrlar majmuasi nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

7. Agar o'quvchi-talabalar mendan «Bu muammo (dalil) ning yoki qoida (hodisa) ning qanday ahamiyati bor?», - deb so'rasalar, men ularga qanday ma'lumot bera yoki sabab ko'rsata olaman?

3. Umumlashtirish (kengaytirish) bosqichi

Bu bosqichda o'quvchi-talabalar o'zlarining mantiqiy fikrlari-ni (topilmalarini) yoki xulosalarini oldingi bilimlari bilan bog'laydilar yoki taqqoslaydilar. Buning asosida ular o'z shaxsiy fikrlariga ega bo'ladilar va olgan bilimlarini umumiy tushincha-lar bilan bog'laydilar. Bu bosqich bilan bog'liq xatti-harakatlar-ning pirovard maqsadi – o'quvchi-talabalarga o'z bilimlarini tar-tibga solishga yordam berish va yangi tushunchalar doirasida ijodiy, tanqidiy fikrlashni va mulohaza yuritishni o'rgatishdir. Bu bos-qich juda ham muhimdir, chunki bizning maqsadimiz o'quvchi-talaba-larga tayyor bilimlar majmuasini berishgina emas, balki o'rgan-ganligini his qilishlariga erishishdir.

Ushbu bosqichni rejalashtirganda o'qituvchilar o'zlariga quyi-dagi savollarni berishlari lozim:

1. O'quvchi-talabalarning o'rganilayotgan muammo yoki mavzu bi-lan bog'liq qanday amaliy tajribalari mavjud?

2. Men qanday qilib ushbu kontseptsiyani ularning hayotiy taj-ribasi va kuzatuvlari bilan bog'lay olaman?

3. O'quvchi-talabalarning olgan bilimlari qanday foyda kel-tirishi va u qaerda ishlatilishi mumkinligi haqida qanday misol-lar mavjud?

4. Qanday qilib ularga ilmiy izlanishlar, zamonaviy pedagogik texnologiya va jamiyat rivojlanishi orasidagi mavjud bog'liq-likni jonli hamda qiziqarli misollarda ko'rsatish mumkin?

5. Qanday qilib o'quvchi-talabalarda ijodiy, mustaqil, ilmiy izlanishlarga, o'rganishga, diqqat blan kuzatib xulosa chiqarishga qiziqish uyg'otish mumkin?

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, birinchi bosqichning mohiyati o'rganilayotgan voqea (hodisa, qoida) yoki faktga o'quvchi-ta-labalarning qiziqishini uyg'otish bo'lib, ularda savol berish zaru-riyatini keltirib chiqarishdir. Keyin berilgan savollarni ma'-lum faraz (gipoteza) lar shaklida ifodalab, ularni tekshirishni amalga oshirishga harakat qilinadi.

Ikkinchi bosqichning mohiyati hosil bo'lgan savollarga javob topish uchun izlanish ishlarini o'tkazishdir. Bunda masalan, o'quv-chi-talabalarga ularning farazlarini tekshirib ko'rish uchun test-lar ishlab chiqish topshirilishi mumkin. O'qituvchi o'tkazilgan taj-ribalarni o'quvchi-talabalar bilan muhokama qiladi va buning aso-sida ma'lum bir amaliy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Uchinchi bosqichda xulosalar chiqarilib, natijalar haqida at-roflicha mulohaza yuritiladi. Xulosa chiqarish bilan bog'liq bo'l-gan harakatlar oddiy yoki murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, statistik usullar bilan chiqarilgan xulosaning qancha-lik ishonchliligini, o'zgaruvchilarning bir – biriga qanchalik bog'-liqligini tekshirish, tegishli tenglamalarni chiqarish, natija-ning ishonchlilik darajasi ehtimolligini tekshirish mumkin. Nega bunday qilinayotganligini o'quvchi-talabalar to'la tushunishiga erishish juda ham muhimligini alohida aytib o'tish lozim. Demak, ularning: «Xo'sh, shunday bo'lsa nima qilibdi?» - degan

ko'rinish-dagi muammoni yanada chuqurroq o'rganishga oid savollar berishlari muammoni yanada yaxshiroq o'rganishlari uchun zamin yaratadi.

5.4. Seminar olib borishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, talabalarning seminarga tayyorgarligi, hozirjavoblighi va darsga aktiv qatnashish darajasini baholash.

Kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishda turli interaktiv metodlarni qo'llash. Tajriba ko'rsatadiki, kichik guruhlariga bo'lib dars o'tishda turli pedagogik texnologiyalarni qo'llashning imkoni katta. Bu erda eng asosiy farqlanadigan jihat tayyorlanadigan topshiriq va uni bajarishni tashkil etishdir.

Darsni bosqichma-bosqich(zinama-zina) metodi asosida tashkil etishda topshiriqni Blum taksonomiyasi bo'yicha tayyorlagan ma'qul. Bunda topshiriq masalan, xarajatlarni o'rganilayotgan bo'lsa, xarajatlar haqidagi tushunchadan boshlab, xarajatlarni hisoblash, taqqoslash, kamaytirish yo'llarini ko'rsatib, ularni baholashni o'z ichiga olgan topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bunday usul ayniqsa iqtidori bir-biridan ancha farqlanadigan guruhlarda qo'llashga mos tushadi. Bilimi bo'sh talabalarga dastlab taksonomiyaning birinchi bosqich darajasidagi topshiriqlar berilib, qolgan guruhlariga borgan sari murakkablashtirib boriladi. Har bir guruh topshiriqni yozma ravishda bajargach, guruhdan bir kishi taqdimot qiladi va guruh javobi berilgan topshiriqqa qarab, doskaga ilinadi. Natijada topshiriqlar javobidan iborat zina hosil bo'ladi. Bunda talaba albatta avvalgi guruh taqdimotiga nisbatan ular bajargan topshiriqdan qaysi tomonlari bilan farqlanishini aytib bersa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi izoh beradi va baholaydi. Kelgusi safar o'qituvchi bilimi bo'sh guruh a'zolariga taksonomiyaning keyinga darajasidagi topshiriq berishni unutmasligi kerak, chunki maqsad bosqichma-bosqich ularni ham yaxshi o'qiydiganlar safiga qo'shilishlariga yordam berish.

Charxpalak. Bunda tayyorlangan vazifa, topshiriqlar guruhlariga tarqatiladi. Har bir guruh a'zolari o'z fikrlarini yozadilar. Guruh raqami, ishtirokchining belgisi qo'yilib, boshqa guruhga uzatiladi. Navbatdagi guruh berilgan materialni o'rganadi, to'ldiradi, o'z belgisini qo'yib keyingi guruhga uzatadi. Shunday qilib, bir guruhga berilgan topshiriq barcha guruhlar qo'lidan o'tib aylanib, oxirida shu guruhga keladi. Bu guruh a'zosi garah raqami va o'zi qo'ygan belgi bo'yicha tanib oladi.

Har bir guruh a'zolari o'z javoblari bilan boshqa guruhlar yozgan javoblarni taqqoslashadi. Farqlarni aniqlab, o'z fikrlarini yozadilar va butun guruh oldida taqdimot qilishlari mumkin. Topshiriqlar javoblari bilan o'qituvchiga topshiriladi. Bu texnologiyani qo'llaganda o'qituvchi vaqt sarfiga alohida diqqat qaratishi va oldindan reglament belgilab qo'yishi kerak. **3X5 metodida** o'qituvchi guruhni kichik guruhlariga bo'ladi. Aytaylik, guruhda 25 nafar talaba bor. Ularni 5tadan 5ta kichik guruhga bo'linadi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha savollar yozilgan varaqlarni tarqatadi. Har bir guruh shu savolga javob tariqasida 3 ta gap, 3 so'z yoki so'z birikmasi yozishi zarurligini uqtiradi. Har bir guruhning o'z rangli qalami yoki flomasteri bo'lishi kerak. Natijada qaysi guruh qanday fikr bildirgani oson aniqlanadi. Vaqt belgilanadi.

Har bir guruh javobni yozib bo'lgach, stolni tark etadi va navbatdagi stolga o'tiradi. Qoldirilgan materialda bildirilgan fikrlarni davom ettiradi, so'ngra yana boshqa stolga o'tadi. Bu jarayon to o'z joylariga qvytib kelguncha davom etadi. Har bir guruh o'z joyiga qaytib kelgach boshqalar fikrlarini o'rganadi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, taqdimot qiladi.

O'qituvchi guruhlar ishini tashkil etadi, kuzatadi, berilgan javob-larni tahlil qilib baholaydi. Agarda kichik guruhlarini ko'chib yurishi uchun imkoniyat bo'lmasa, tarqatma material aylantiriladi.

Darsni kichik guruhlariga bo'lib tashkil etishning yana bir varianti **muammo qo'yib** uni yechishga qaratilgan. Buni tadqiqot metodini kichik guruhlarda qo'llash ham deyish mumkin. Eng asosiysi talabalar muammo-ni yechish uchun uni kelib chiqish sabablarini o'rganish lozimligini so'ngra muammoni yechish uchun yo'l qidirish mumkinligini o'rganadilar.

Bunda biron muammoga bag'ishlangan kinolavha, maqola, konferensiya materiallari, kitob o'rganib chiqilib, shu asosda o'tkaziladi. O'qituvchi talabalarga materialni diqqat bilan o'rganish, o'rganilayotgan material bo'yicha muammoni aniqlash, uni xotirada saqlab qolish yoki daftarga yozib quyish lozimligini uqtiradi. So'ngra kichik guruhlariga tarqatma material tarqatiladi. Har bir guruh a'zolari tomonidan ko'rsatilgan lavhadan, o'qilgan matndan birgalikda muammoni aniqlash va berilgan tarqatma materialga yozib chiqish topshiriladi. Berilgan vaqt tugagach, guruh vakili tomonidan bajarilgan ish o'qib eshittiriladi.

Navbatdagi bosqichda guruhlar o'rtasida tarqatma materiallar almashtiriladi. Har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi va mustaqil ravishda tahlil etadi. Muallif fikridan tashqari muammoni yechish uchun qo'shimcha qanday fikri bo'lsa, yoki uni qo'llab quvvatlasa bildiradi. Aytaylik, yerdan foydalanish masalalariga bag'ishlangan hujjatli film namoyish etildi. Shu lavhaga ko'ra tarqatma materialimizda muammo va uning echimi quyidagicha aks etishi mumkin.

Qo'yil- gan muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Mummoni echish uchun muallif tomonidan bildirilgan fikr	Guruhning yoki guruh a'zosining fikri
erning unum- dorligini pasayishi	erning me- liorativ hola-tining yomonlashuvi	Sizot suvlar uchun drenajlar o'tkazish	Sug'orish jara- yonida suvni ortiqcha isrof qilmaslik ham

Talabalar yakka tartibda ishlab bo'lganlaridan so'ng bajargan ishini barchaga o'qib eshittiradi. Muammolar bo'yicha guruhda fikr almashiladi. O'qituvchi darsni yakunlaydi. Umuman olganda darsni kichik guruhlariga bo'lib o'tishni turlicha tashkil etish, topshiriq, vazifalarni turli variantlarda qo'llashning imkoniyati katta.

Audit fanidan maliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar muhim o'rin tutadi. Didaktikaning asosiy printsiplaridan biri darsning ko'rgazmaliligini ta'minlash. Ayniqsa iqtisodiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmali

qurollardan foydalanish talabalarga iqtisodiy kategoriyalarni, muammolarni o'rganishda katta yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar batafsil o'quv jarayonini samarali tashkil etish zaruriyatidan kelib chi qadi. Ularni oldindan belgilangan o' quv ma qsadlar belgilangan va qt ichida iloji boricha t o'li q ravishda amalga oshirilishi lozim. Buning uchun o'quv jarayonini nixoyatda sezgirlik bilan boshqarib turilishi kerak.


Ko'rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o'zida muXokama qilinayotgan savolni, axborotni Xam eshitish, Xam ko'rish orqali qabul qilish shub Xasiz talabalarni puxta bilim olishlariga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar xilma-xil. Taraqqiyotning o'zi bir tomondan fanni chuqur o'zlashtirishni zarur qilib qo'ysa, ikkinchi tomondan turli -tuman yangi metodlari, ko'rgazmaliligini oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo'llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi.

Ko'rgazmalilik odatda xayolan ko'z o'ngiga keltirish bilan yoki namoyish qilish orqali ta'minlanadi. Ko'rgazmali qurollar: nomoddiy va moddiy turlarga bo'linadi.

Darsni boshlaganda eng avvalo o'qituvchi o'tilgan mavzuni talabalarning yodiga tushiradi. Yangi mavzuni boshlar ekan, talabalar diqqatini unga jalb qilish, fikrini yo'naltirish uchun adabiyot, sa'nat asarlari yoki Xayotda yuz bergan vokeani gapirib berish mumkin. Bu yangi mavzuni o'rganishga talabalar ru Xi, kayfiyatini tayyorlaydi. Masalan: «Tovar –pul nazariyasi» mavzusini boshlashdan avval auditoriyaga murojat qilish mumkin: Suvni Xamma biladi. Usiz Xayot yo'q. Suv shunga qaramay bepul yoki juda arzon. Brilliantni ko'z o'ngizga keltiring. Usiz yashash mumkin. Lekin juda kimmat, nima sababdan?

Bugungi darsda ana shu savollarga javob topishga Xarakat qilamiz. So'ngra o'qituvchi mavzu, uning maqsadi xaqida gapirib, so'ngra dars rejasini beradi.



Mashg'ulot jarayonida ko'rsatib izoxlash mumkin bo'lgan ko'rgazmali qurollar: jadval, sxema, plakat, chizma, diagramma va boshqalardan foydalanish talabalarining bilimini puxtalashtirishda mu Xim rol o'ynaydi.

Darsda doskani ishlatishch ko'p vaqtni oladigan, boshqa texnik vositalardan foydalanishga imkoni yo'q auditoriyalarda plakat, sxemalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jadval, sxema, grafik, diagrammalardan foydalanish universal:

- avvaldan slayd plyonkalarga chizib, texnik vositalar yordamida ko'rsatilishi;
- vatman kog'ozga chizib, texnik vositalardan foydalanish uchun sharoiti yo'q auditoriyada foydalanish;
- kserokopiyadan chiqarib, tarqatma material sifatida foydalanish;
- disketga kiritib, kompyuter orqali ko'rish, ta Xlil qilish mumkin.

Darsni ko'ngildagidek o'tishida ko'rgazmali materialni qanday namoyish qilish Xam katta a Xamiyatga ega.

Ko'rgazmali material.

Namoyish qilish jarayonini shunday tashkil qilinishi kerakki;

- ✓ hamma o'kuvchi talabalar namoyish qilinayotgan ob'ektni ko'rishlari kerak.
- ✓ iloji boricha faqat ko'rish emas, balki sezish organlari bilan his qilishlari kerak.

✓ ob'ektning muhim, asosiy tomonlari talabalarda katta taassurot qoldirishi, maksimum darajada diqqatlarini jalb qilishi kerak;

✓ o'rganilayotgan ob'ektni sifatini mustaqil ravishda o'lchash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Real narsalarni namoyish qilish metodi ko'proq tabiiy fanlar, texnika va texnologiya bilan bog'liq fanlarni o'rganishda qo'l keladi. Ayniqsa talabalarining o'zi shu predmetlar, buyumlarni o'z qo'llari bilan ushlab ko'rib, uni xossalarini o'rganishlari bilish jarayonini faol amalga oshishiga yordam beradi.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda ham ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilishni boshqarishni o'rganishda, sarf- xarajatlar tarkibini, maxsulot sifati va boshqalarni o'rganishda katta yordam beradi.

Namoyish qilish metodining o'ziga xos davomi illyustratsiya hisoblanadi. Namoyish qilishda ko'proq predmetlardan foydalaniladi. Illyustratsiya predmet, jarayon hodisalarni simvollar yordamida ifoda qilish bo'lib, odatda u plakatlar, karta, portret, fotografiya, rasm, chizma, grafik va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Illyustratsiyaning o'ziga xos turi adabiyot, kinofilm qahramonlari bo'lib, ularning obrazlari eslatilganda hotirada ularni jonlantirilishidir.

Illyustratsiya materiallarini oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytida ko'rsatiladi. Hozirgi paytda ularni tarqatma material sifatida foydalanish keng qo'llanilmoqda.

Illyustratsiyaning samaraliligi ko'p jihatdan uni qanday tarzda qo'llashga bog'liq. Ko'rgazmali qurollar va ularni namoyish qilishni rejalishtirganda uni mavzuni o'rganishda qanday rol o'ynashi va didaktik vazifasini yaxshilab o'ylash kerak. Chunki haddan tashqari ko'rgazmali materiallar ko'pligi, talabalarni mavzuni o'rganishdan chalg'itadi. Illyustratsiya materiallari oldindan tayyorlanadi, lekin zarur paytida ko'rsatiladi.

Xullas, ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi keng, ulardan qanday tarzda, qanday maqsadda foydalanish uchun o'qituvchiga bo'g'liq. O'qituvchi ko'rgazmali qurol tanlar ekan, albatta avvalo, dars ma'ruzami yoki seminar darsimi Xisobga oladi. Ikkinchidan, qaysi mavzu, bu mavzuda talabalar oldiga o'qituvchi nima vazifa qo'ymokchi, maqsadi nima, mu Xokama qilinayotgan muammoni echishda ko'rgazmali qurol qanday yordam berishi mumkinligini Xisobga olib tanlashi kerak.

Masalan, jadval raqamlaridan ma'ruzada biron gipotezani, ilgari surilayotgan fikrni tasdiqlash maqsadida foydalanilsa, seminar darsida masala yoki mashq bajarganda foydalanish mumkin. Bunda Xam ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi o'qituvchining mo'xirligi, fantaziyasiga bo'g'liq.

Ko'rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o'tishning barcha shakllari, uslublarida qo'llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi. Keyingi paytda darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo'llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning mu Xim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita talabaning qo'lida bo'lib, uzoqdan ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollarga xos kamchiliklardan xoli.

Hozirgi paytda axborotning oqimi nihoyatda katta. O'tilayotgan darslarda talabalarga axborot etkazish, ularni darsni puxta o'zlashtirishlari va faol qatnashishlarini ta'minlashda tarqatma materiallarning ahamiyati katta. Tarqatma materiallar - ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1-2 varaq) yozma o'quv materiallari hisoblanadi.

Tarqatma materiallarni maqsadi, mazmuni jihatdan: a) axborot beruvchi, b) topshiriq beruvchi, v) bilimni nazorat qiluvchi guruhlariga ajratish mumkin.

Axborot katta bo'lgani sababli qisqa vaqt ichida barcha axborotni talabalarga to'liq etkazib berish qiyin. Bunday paytda axborotni tarqatma material sifatida etkazib berish muhim rol o'ynaydi. Gaplar qisqacha yozilgan matnlar bo'lib, darsga tayyorgarlik ko'rishda, dars davomida yoki bilimlarni mustahkamlashda foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga taqdim etiladi.

Tarqatma materiallardan ko'rgazmali qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Ayniqsa iqtisodiy fanlarni o'rganishda turli jadval, grafik, chizmalardan juda ko'p foydalaniladi. Ulardan plakat sifatida tayyorlash talabalar uchun anchagina noqulay. Sababi oldingi partada o'tirganlar uchun qulay, lekin keyingilari, ayniqsa oxirgi partalarda o'tirganlar yaxshi ko'rish imkoniyati yo'q. Undan tashqari :

- Talabalarda raqamlarda ifodalangan ma'lumotlarni og'zaki etkazish ularni chalkashtirib yuborishi bilan birga eslab qolishlariga ham imkon bermaydi.

- Miqdori jihatdan ko'p ma'lumotlarni doskaga yozib tushuntirish uchun ko'p vaqt talab qilinadi, doskaga yozish paytida o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida kontakt uziladi.

- Bu jihatdan ko'rgazmali quroldan namoyish qilinuvchi material Xamda tarqatma material sifatida birgalikda foydalanish qator afzalliklarga ega

O'qituvchi raqamlarda, grafik, formulalarda ifodalangan axborotni tushuntirayotganda namoyish qilinayotgan materialga qarab tushuntiradi. Talabalar esa Xam namoyish qilinayotgan materialga Xam qo'llaridagi tarqatma materialga qarashadi. Ma'lumotlar talabalar qo'lida bo'lishi, ularni ko'rib turishi, tushunishi, anglashini osonlashtiradi.

Tarqatma materiallardan talabalarga topshiriq berib, hamkorlikda ishlash imkoniyatini Xam beradi. Ayniqsa buning uchun ishchi varaqalar tayyorlanishi va ular asosida dars jarayonida juft bo'lib yoki individual tarzda ishlashni tashkil qilish, shubxasiz talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi, diqqatlarini jalb qiladi. Ular masala ,mashq, turli jadvallarni to'ldirish va hokazolar tarzidagi turli topshiriqlar bo'lishi mumkin.

Tarqatma materiallar ta'lim oluvchilarni bilimini tekshirish nazorat qilishda xam keng qo'llaniladi. Bunda nazorat varaqalari tarzida tayyorlangan test savollari, masala va mashqlar bo'lishi mumkin. Ayniqsa testlardan keng foydalaniladi.

O'qituvchi tarqatma materiallar tayyorlar ekan, ma'lum qoidalarga rioya qilishi lozim.

Tarqatma materiallarni tayyorlash va qo'llash qoidalari:

- Ta'lim oluvchilarga haddan tashqari ko'p tarqatma materiallar bermang.
- Sarlavhalarni bosh Xarflar bilan yozing, bir matn uchun ikki-uchta

tarqatma material tayyorlasangiz, ularga nom-kod bering. Bu ularni ajratilishini osonlashtiradi.

- Matn shrifti 12 dan kichik bo'lmasligi kerak.
- Bir betda 80 tadan ko'p belgi (harf, qavs, undov belgisi va xokazo) ishlatmang.

- Matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo'lishi kerak.

- Varaq dizayni e'tiborni o'ziga tortishi kerak.

Xullas tarqatma materiallardan foydalanish qator afzalliklarga ega.

- Dars davomida o'tiladigan mavzuni ixchamlashtirgan xolda asosiy mazmunini berish;

- Olingan axborotni dars davomida, darsdan tashqari talabalar o'rtasida mustaqil muhokama qilish;

- Ta'lim oluvchilar diqqatini qaratish mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga yo'llash;

- O'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida kontakti jonlantirish, darsga faol qatnashishga jalb qilish;

- O'quvchi, talabalarning olgan bilimlarini nazorat qilish va sinash imkoni katta;

Bularning hammasi dars jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanishni zarur qilib qo'yadi.

Shu bilan birga dars jarayonida tarqatma materiallardan foydalanishda o'ziga xos kamchiliklari mavjud.

- Tarqatma materiallar tayyorlash o'qituvchidan ko'p kuch va vaqt, yuksak mahorat talab qiladi.

- Tarqatma materiallardan foydalanishni samarasini oshirish uchun bir kishiga bitta bo'lishi kerak. Bu qo'shimcha katta moddiy harajatni talab qiladi.

- Tarqatma material asosida o'zaro muhokama cho'zilib, mavzuning boshqa qismlariga, savollariga e'tiborni pasayishga olib kelishi mumkin.

Albatta har bir metodni afzalligi va kamchiliklari bor. Tarqatma materiallar yordamida darsni tashkil qilishning so'zsiz afzalligi ustun.

Ko'rgazmali qurol yoki namoyish qilinuvchi material va tarqatma materiallardan barcha metodlar asosida dars o'tishda keng foydalanish mumkin.

Muloqot vositasida dars berishning eng yaxshi usullaridan biri munozara (diskussiya)dir desak, yanglishmagan bo'lar edik. Munozarada o'qituvchining monopol (yakka hokim) ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi, birgina uning o'zi «monolog» (yakkaxon) sifatida gapirishi va fikrlar almashinishi faqat uning ko'rsatmasi asosidagina amalga oshmasligiga diqqat-e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bunday holda o'quvchilar juda ham zerikib va ba'zi holatlarda esankirab qoladilar. Munozara talabalar tomonidan mavzu tanlanganda, ular erkin fikr almashinish yo'nalishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlarida va bu ularning tabiiy qiziquvchanligini qondirgandagina qiziqarli va jonli o'tadi. Bunda o'qituvchining asosiy o'rni «tanqidiy-yo'naltiruvchi-jonlantiruvchi» shaklda bo'lishi lozim. Jarayonni amalga oshirish va munozarani bo'shashtirmay, tashabbus shak-shubxasiz talabalar qo'lida qolishi uchun o'qituvchi to'rt

bosqichdan iborat bo'lgan vazifalar (ishlar) ketma-ketligini amalga oshirishi zarur bo'ladi:

Mavzuning yangi o'rganilgan materiallarini talabalar bilan muloqot qilgan holda muhokama qilish va bu jarayonga ularni iloji boricha ko'proq jalb qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Agar biror-bir qoida, dalil, qonun, ko'rsatgich yoki tartibot talabalarga tushunarsiz bo'lib qolgani ma'lum bo'lib qolsa, ularni tushuntirishga harakat qilish va ularning tub mohiyatni anglaganliklarini his qilish. Talabalar ushbu bosqichda Siz bergan g'oya, fikr yoki nazariyaning asosiy jihatlarini o'zlashtirib olish uchun qulay imkoniyat olishlari lozim. Bu esa tamomila Sizning malakangiz, dars rejangiz va qolaversa, uslubiyatingizga bog'liq.

Dars rejasini tekshirish ketma-ketligi:

- Dars jarayonida ishlatilayotgan material o'rganilayotgan tilning real hayotda qo'llanilishiga mos keladimi yoki yo'qmi?

- Talabalar Sizning darsingizdan qoniqish hosil qildilarmi? Agar bunday bo'lmasa, ularni qiziqtirish uchun Siz nima qilmoqchisiz?

- O'rganish tsikli bilan bog'liq savol: Sizning rejalashtirgan darsingizda nazorat qilinishda erkinlikka qarab yo'nalgan harakat mavjudmi?

- Sizning darsingizda motivatsiya qilinishga, taqdimotga, amaliyotga va natijaga bag'ishlangan faoliyat turlari bormi?

- Darsning natijaviy tashkil etuvchi qismlari talabalarga ular nima deyishlari va qanday qilib gapirishlari haqida ma'lumot bera oladimi?

- Darsdagi ko'rsatmalaringiz va vazifalarning bajarilish tartibini talabalaringiz aniq tushuna oladilarmi?

- Dars tadbirlari talabalarining birgalikda ishlashi, fikr almashishi va o'qituvchi bilan bemalol muloqot qilishiga imkon yaratadimi?

- Darsda ishlatiladigan so'zlarning aniq tarjimasini Sizda bormi?

- Siz qaysi grammatik qoidalarni ularga o'rgatmoqchisiz va qanday qilib?

- Darsda o'qish, yozish, gapirish va tinglash kabi malakalarni rivojlantirishga ham imkon beriladimi?

- Dars Sizning guruhingiz uchun juda osonmi yoki juda ham murakkabmi?

- Siz o'z sinf tadbirlaringizni oddiy sharoitlarda va berilgan vaqt doirasida o'tkaza olasizmi?

- Agar vaqtingiz ko'proq bo'lsa, yana nimalar qilardingiz?

- Darsda madaniy-ma'naviy jihatdan mos kelmaydigan materiallar va ma'lumotlar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa, Siz nima qilishni rejalashtirayapsiz?

- Uy vazifasi berishni rejalashtirganmisiz?

- Dars vaqtida o'quvchilarni qiziqtirish uchun yana nimalar qilmoqchisiz?

Ushbu savollar majmuasiga rioya qilinsa, har qanday fanga oid bo'lgan dars rejasini ham to'la tekshirib, unga ma'lum bir ma'nodagi qo'shimcha rivojlantiruvchi elementlar qo'shish mumkin bo'ladi.

Audit fanidan amaliyot darslarida faol dars o'tkazish jarayonida ishlatiladigan tadbirlar:

«**Muzyoralar**» dars o'tilayotgan guruhda o'quvchilarning befarqligining oldini olishga va dars jarayonida xosil bo'lgan charchoqni yoki talabalarga ruhiy

bosim (ta'sir) bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol(aktiv) faoliyat turlaridir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan «muzlash»ning oldini olish va agarda bunday muzlash xosil bo'lgan bo'lsa, uni «yorib yoki eritib yuborish» uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar «muzyorar»larni ta'limning boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot ma'lum bir sabablarga ko'ra qiyinlashganida ham ishlatish mumkin. Masalan, o'quvchilar o'z millatlari, ish joylari, jinsiga bog'liq ravishda doimiy guruhlar tuzib olganlarida, ularni maqsadga muvofiq ravishda o'zgartirish uchun ham «muzyorar»lar muvaffaqiyatli ravishda qo'llanilishi mumkin. Ba'zi turlarga oid «muzyorar»lar talabalarning bir-birlari bilan tanishishlariga mo'ljallangan bo'lib, guruhlardagi shaxslarning bir-birlariga savol berishlarini, ularning o'qish va ish sharoitlari haqida o'zaro ma'lumot olishlarini, nimani yoqtirishlari haqida mulohaza qilishlarini va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi. Buning sababi shundaki, o'quvchi, talaba yoki tinglovchilar darslarning boshlanishida bir-birlarini unchalik yaxshi bilmaydilar va ular orasidagi muloqot unchalik yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Shu sababli, ular orasidagi «muzdek» aloqani qandaydir usullar bilan eritib, do'stona va iliq munosabatlar o'rnatish lozim bo'ladi, aks holda yuqorida zikr qilingan holatlar ta'lim berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, «muzyorar»lar tashkil qilishda guruhni yaxshi bilish va uni guruhdagi talabalar xususiyatlariga imkoniyat darajasida moslashtirish zarur bo'ladi, aks holda noqulay ahvolga tushib qolish ham ehtimoldan xoli emas.

Masalan, quyidagi turdagi tadbirlar «muzyorar» larga misol bo'la oladi:

1. Guruhdagi o'quvchilarga doira shaklida turish so'raladi va ularning bir-birlariga kichkina va yumshoq koptokchani (yoki buyumni) ularning nomlarini aytgan holda otish tashkil qilinadi. O'quvchilar bir-birlarining nomlarini yaxshi bilib olganlaridan so'ng, otish tezligini birmuncha oshirish ham mumkin bo'ladi.

2. Guruhdagi o'quvchilarga o'zlarining familiyalarini yoki ismlarini alfavit bo'yicha tartiblab chiqishni topshirish, bir joylarda tug'ilganlarni aniqlash ularning o'zaro tanishishlariga turtki bo'ladi.

3. Barchaning nomini kichkina karton qismlariga yozgan holda, ularni bir savatchaga solish va har bir o'quvchi uni savatchadan tasodifiy ravishda tanlab olganidan so'ng, o'sha nomli o'quvchini topishi ham tanishish jarayonini ancha tezlashtiradi.

«Kuchaytirgichlar» shunday bir turdagi darsni faollashtirish tadbirlariki, ular o'quvchilarning faolligini va ta'lim bilan uzviy bog'liq xatti-harakatlarini ma'lum darajada hamda ma'lum vaqtda kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ular dars jarayonining har qanday qismida ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilishi mumkin, ammo dars davomida uch martagina qo'llash yaxshi natijalarga olib keladi va bu pirovard natijada o'quv jarayonining maxsuldorligini sezilarli ravishda oshiradi.

Ularning qo'llanilishi ayniqsa quyidagi paytlarda maqsadga muvofiqdir:

- Ovqatlangandan so'ng o'quvchilarning mudroq kayfiyatini uyg'otish uchun. Bu ko'pincha «puding» dars qismchasi deb ham ataladi;

- Dars paytidagi kofe yoki choy ichish uchun ajratilgan qisqa tanaffuslardan so'ng;

- Dars uzoq muddat davom etib, talabalarning ko'pchiligi mavzu bo'yicha bilim olishdan sezilarli ravishda charchaganliklari bilinib qolgan taqdirda;

Ushbu tadbirlarning tub ma'nosi nafaqat o'quvchilarning faolligini oshirish, balki quyidagilar sababli hamdir:

- Talabalarning tegishli mavzu bo'yicha ta'lim olishga tayyorgarlik darajasini sezilarli ravishda oshirish uchun.

Masalan, u yoki bu sabablarga binoan o'quvchilarning passivlik darajasi yaqqol ko'rinib turganida, ularning ba'zilar yoki ba'zi bir guruhlar umumiy guruhda dars o'tishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ayon bo'lib qolganda, talabalarning bir qanchasi esnashni boshlaganda, bunday usulni qo'llash yaxshi natija beradi (ha aytganday, balki o'zingizga ham esnash kelib qolgandir);

- Darsga nisbatan qiziqish uyg'otish va uning qiziqarlilik darajasini oshirish uchun.

O'qituvchi dars berayotganida unga o'quvchilarning qiziqishi uchun avvalo uning o'zi darsga qiziqish bilan yondoshuvi lozim. Kuchaytirgichni o'zingiz berilib va qiziqo'an holda tashkil qilsangiz, bu ularda ham ijobiy emotsiyalarni uyg'otadi.

Bevosita ta'lim ko'proq bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, katta yoshdagilarni esa amaliy va hayotdan olingan misollar bilangina qiziqtirish mumkinligini zinhor yodingizdan chiqarmang;

- Tashqi muhitning ta'sirini va oqibatlarini iloji boricha kamaytirish uchun. Masalan, kunning uzunligi, darslarning xaddan tashkari cho'zilib ketganligi, issiq xonalarda ta'lim olish, toza havoning etishmasligi, dars materialining qiyinligi va uni o'zlashtirishdagi murakkabliklar o'quvchilarda dars materialiga befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, kuchaytirgich ishlatishdan maqsad – o'quvchilarni bu holatdan chiqarish yoki imkoniyat darajasida «uyg'otishdir»;

- Ta'lim olish jarayonidan qoniqtirish va xursandlik holatini yuzaga keltirish. qiyin mavzulardan dars berganda, kuchaytirgichlar orqali uni qiziqarli qilishingiz va o'quvchilarda ma'lum ma'noda uyg'onish xosil qilishingiz mumkin, chunki bunda Siz qiynalishingiz mumkin bo'lgan sharoitdan muvaffaqiyatli chiqib ketish yo'lini topdingizgina emas, balki, umid qilamizki, o'quvchilarni kuldira ham oldingiz.

Kuchaytirgichlar sifatida xilma xil xatti-harakatlar yoki o'yinlar ishlatilishi mumkinki, ular guruh va mavzu tabiatiga mos kelsin. Ba'zi kuchaytirgichlar raqobat muhitini yuzaga keltirishi, ba'zilar esa «regressiv» harakatlardan iborat bo'lib, yoshlikni eslatishi va ba'zi birlari yaratuvchanlikni talab qilishi mumkin. Bu ularning fikrlash jarayonini ochiq va erkin qiladi, yangi g'oyalar yaratishga olib keladi hamda ulardagi foydali ma'lumotlar miqyosini ancha oshiradi.

Misol sifatida quyidagi kuchaytirgichni berishimiz mumkin:

Guruhdagi talabalar doira bo'lib turadilar va har birining o'z nomeri bo'ladi. Ularning biri markazda turadi va o'zinikidan farqli bo'lgan ikki nomerni aytadi. Bu nomerlarga tegishli bo'lgan ikki o'quvchi joylarni almashishlari lozim, lekin ularga buni bajarishda markazda turgan halaqit berishi muki, chunki u ham shu

joylardan biriga turib olishga harakat qiladi. Joy ololmay tikka turib qolgan o'quvchi markazda qoladi va endi u markazda turib, yana ikki shaxsning nomerini aytadi va hokazo.

Har bir bilimli va mavzuning asl mohiyatini tushunadigan o'qituvchi hech bir qiyinchiliklarsiz «kuchaytirgich» larning xilma–xil va turfa turlarini o'ylab topishi mumkin.

Lekin xilma xil «aktivator»larni qo'llaganda doimo ta'lim berishning maqsadi qiziqarli vaqt o'tkazish emas, balki talabalarga tegishli bilim berish kerakligini ham hech qachon yoddan chiqarish kerak emas. Ba'zi paytlarda ushbu aktivatorni ishlatish o'quvchilarning yashash va hayot sharoitiga mos kelmasligi va kerak bo'lmagan paytlarda o'tkazilishi salbiy natijalarga ham olib kelishi mumkin. Demak, ularning turini va ishlatilish vaqtini puxta o'ylab va extio'tkorlik bilan amalga oshirish lozim. Masalan, ba'zi bir fizik harakatlar qilish bilan bog'liq bo'lgan aktivatorlarni ishlatishda, uni ushbu dars xonasida bajarish mumkinmi, tashqarida bajarishga ham imkoniyat bormi, o'quvchilar uni bajara oladilarmi, ushbu tadbir ba'zi bir talabalarning salbiy reaksiyasini keltirib chiqarmaydimi va hokazo kabi masalalarni o'rganib chiqish foydadan xoli bo'lmaydi. Ba'zi talabalar (ayniqsa, katta yoshdagilar) ba'zi bir aktivatorlarni bema'ni narsa deb qabul qilishlari ham mumkin. Bu esa o'z navbatida auditoriya talab va takliflarini ham hisobga olishni asosiy faktorga aylantiradi, aks holda o'qituvchi yaxshilik qilaman deb, noqulay ahvolga tushib qolishi ham mumkin. Ya'ni «Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman jabrini».

Bu borada yaxshilik qilayapman deb o'ylash qabilidagi bir xikoyatni ham keltirishimiz ham mumkin:

Bir obro'li ruxoniy kasblarga baho berganda, eng yomon kasb deb shifokorlikni tanlagan ekan. Undan nima uchun bunday deysiz, deb so'raganlarida, u bunday deb javob bergan: «Oллоh insonlarga ularning qilgan gunohlari uchun jazo beradi, shifokor esa doimo bunga halaqit berib, ularni gunohlari uchun yuborilgan jazodan foriq qilishga va qutultirishga intiladi».

Endi yuqoridagi aytganlarimiz tushunarliroq bo'lishi uchun bisotimizdagi ba'zi bir o'yinlar, kuchaytirgichlar, muzyoralar va aktivatorlardan misollar keltiramizki, Sizga ularning mohiyati kunday ravshan va ayon bo'ladi–qoladi:

O'yinning nomi: «Maqollar o'yini»

O'yinning turi: Faollashtiruvchi (Aktivator)

Maqsad: O'quvchilarning bir–birlarini yaxshiroq tanib olishlari uchun

Vaqt: 20–30 daqiqa

Guruh kattaligi: Hohlagancha kattalikda

Ishlatiladigan materiallar: Maqollar yozish uchun qog'oz bo'laklari va guruh uchun etarli bo'lgan maqollar turkumi.

Amalga oshirilishi: Qatnashuvchilarning har biriga maqolning yarmi yozilgan qog'oz bo'lagi berilib, uning qolgan yarmini topish va yozish topshirig'i beriladi. Ular maqolning keyingi qismini biladigan shaxsni o'quvchilar orasidan topishlari lozim bo'ladi. Bunday qatnashuvchi topilganidan so'ng ular bir–birlarini yaxshiroq

bilish uchun bir qancha vaqt suhbatlashadilar. Keyin esa ular katta guruhga maqolni to'raligicha aytib berishlari lozim bo'ladi.

O'yinning nomi: «Haqiqat va yolg'on»

O'yinning turi: Faollashtiruvchi (Aktivator)

Maqsad: Tegishli mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirish

Vaqt: 10–15 daqiqa

Guruh kattaligi: Hohlagancha

Ishlatiladigan materiallar: O'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha har bir talaba uchun qog'oz bo'lagida yozilgan hamda iloji bo'lsa mavzu bilan bog'liq bitta rost va bitta yolg'on misol, dalil, fakt, qoida, ko'rsatgich, so'z yoki misol beriladi.

Amalga oshirilishi: O'qituvchi har bir talabaga ma'lumotlar yozilgan qog'oz bo'laklarini tarqatadi va ularga 4 talabadan iborat guruhlariga bo'lingan holda buni muhokama qilishni topshiradi. O'yin so'nggida har bir guruhdagi bir talaba guruhga tegishli barcha ma'lumotlarni tahlil qilib berishi lozim bo'ladi. Ya'ni, u bularning ichida qaysi biri to'g'ri va qaysi biri noto'g'ri ekanligini aytib, talabalarning ushbu mavzu bo'yicha bilimlarini oshiradi.

O'yinning nomi: «Ism belgilari»

O'yinning turi: Kirish qismida qo'llanilishi mumkin.

Maqsad: O'quvchi (talaba)larning bir–biri bilan tanishishiga yordam beradi va keyinchalik ular o'zaro birgalikda ishlashlari uchun yordam beradi.

Vaqt: 5–10 daqiqa

Guruh kattaligi: 30–35 kishidan ortiq va bir–birini yaxshi bilmaydigan guruhlar uchun

Ishlatiladigan materiallar: Har bir shaxs uchun oldindan chop qilingan ism yozilgan belgilar (nishonlar).

Amalga oshirilishi: Guruhning qanday ajoyib va bilimdon ekanligi haqida so'zlagan holda ushbu o'yin boshlanadi. Barcha *ism belgilarini* tasodifiy tarzda o'quvchi (talaba)larga tarqatib chiqing. Bunda hech bir kimsa o'z nomi yozilgan ism belgisini olmasligini nazorat qilib turish lozim. Har bir shaxs o'zidagi ismi yozilgan shaxs bilan uchrashishi va u bilan bir necha daqiqa suhbat qilishi kerak. O'quvchilar bir yoki bir necha talaba bilan bu haqda fikr almashganlaridan so'ng, o'yin to'xtatiladi va ulardan bir nechtasiga o'z suhbatdoshi haqida guruhga qisqa ma'lumot berishi so'raladi.

O'yinning nomi: *Sizning belgingiz qanday?*

O'yinning turi: Muzyorar

Maqsad: Nomlarni eslab qolish

Vaqt: 8–12 daqiqa va guruhning kattaligiga bog'liq

Guruh kattaligi: Talabalar soni 5 tadan katta va 20 tadan kam

Ishlatiladigan materiallar: Hech nima kerak emas

Amalga oshirilishi: Barcha doira shaklida turadi va kimdir «Mening ismim ————— va mening belgim —————» deydi. Belgi sifatida biror–bir gulning nomi, tana harakati, chehra ifodasiga o'xshaganlar berilishi mumkin. Keyingi talaba uning nomini va belgisini qaytaradi hamda so'ngra o'zining nomi

hamda belgisini aytadi. Undan keyingi shaxs oldingilarning nomlari va belgilarini qaytarishi hamda o'zinikini ham aytishi lozim bo'ladi. O'yin shu tarzda davom etib hamma ishtirokchilar bir-birlarining ism va shartli belgilarini bilib oladilar. Agar bu o'yinni dars boshlanishida o'tkzangiz, barcha talabalar bir-birlarining nomlarini yaxshilab eslab qoladilar.

O'yinning nomi: «Guruhdagi o'xshashliklarni aniqlash»

O'yinning turi: Muzyorar

Maqsad: Kichiq guruhlar orasidagi o'xshashliklarni aniqlash

Vaqt: 20–25 daqiqa

Guruh kattaligi: 20–30 o'quvchi

Ishlatiladigan materiallar: O'qituvchining tanlovi va o'tiladigan dars materiallari bilan bog'liq ravishda to'plangan materiallar. Mavzuning yo'nalish, kichik mavzu, nishonlari va shunga o'xshashlar bilan bog'liq ob'ektlar. Masalan, agar loyiha tuzish bilan bog'liq dars o'tayotgan bo'lsangiz, loyihalarning nomini qog'ozlarga yozib qo'yishingiz mumkin va har bir shaxs o'zini qiziqtirgan loyiha nomini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amalga oshirilishi:

1. Ob'ektlar (masalan, loyihalarning nomlari yozilgan qog'ozlar) solingan idishni (savatni) o'quvchilar orasida aylantirib chiqish va har bir talabaga undan o'zini qiziqtirgan ob'ektni tanlashni taklif qilish;

2. Bir xil ob'ektlarni tanlagan o'quvchilarni bir xil guruhlariga birlashishlarini taklif qilish;

3. Har bir guruhga quyidagilarni muhokama qilishni taklif qilish:

a) Nega Sizning guruhingiz bir xil ob'ektlarni tanladi;

b) O'z guruh a'zolaringiz orasida bir-biriga o'xshash tomonlar borligini muhokama qiling (masalan, qiziqishlar, tug'ilgan kunlar, intilishlar, hobbilar va boshqalar);

v) O'z guruh a'zolaringiz haqida qiziqarli ravishda boshqa guruh a'zolariga so'zlab bering.

O'yinning nomi: «So'zlar tuzish»

O'yinning turi: Muzyorar

Maqsad: Yangi guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshilab bilib olishlari uchun

Vaqt: 8–15 daqiqa

Guruh kattaligi: Har qanday kattalikdagi

Ishlatiladigan materiallar: Ruchka yoki qalam, qog'oz bo'laklari

Amalga oshirilishi: Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqating va unda alifboning biror-bir harfini katta qilib chizishni so'rang.

Keyin barcha qatnashuvchilar o'rnilaridan turib, qo'llaridagi harflardan foydalangan holda boshqalar bilan birgalikda to'rt harfdan iborat so'zlar tuzishlari kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor berilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin:

- Tuziladigan so'zlar dars mavzusi bilan mos qilishi;
- Eng uzun so'zlar tuzishga ko'rsatma berib, uzunroq so'z topgan guruhga mukofot berish;

- O'rganilayotgan til bilan bog'liq so'zlar tuzish.

O'yinning nomi: «*Mashhur insonlar*»

O'yinning turi: Kuchaytirgich

Maqsad: Darsni faollashtirish

Vaqt: 10–15 daqiqa

Guruh kattaligi: Hohlagancha

Ishlatiladigan materiallar: Doska va bo'r

Amalga oshirilishi:

1. qatnashchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va hohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar;

2. Keyin talabalar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlardan birining kimligi, faoliyati haqida so'raladi va u bu haqdagi ma'lumotlarni barchaga aytib beradi;

3. Agar bu chaqirilgan talaba hech nima bilmasa yoki kam bilsa sinfdagi boshqa hohlovchilarga bu haqdagi ma'lumotlarni to'ldirish taklif qilinadi;

3. Shunday qilib, birin–ketin talabalarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

O'yinning nomi: «*Telefon*»

O'yinning turi: Faollashtiruvchi

Maqsad: Insonlar orasidagi muloqot va bir odamdan ikkinchisiga ma'lumotlar qanday borishini ko'rsatish va o'quvchilarning qiziqishi darajasini oshirish

Vaqt: 10 daqiqa atrofida

Guruh kattaligi: Hohlagancha

Ishlatiladigan materiallar: Hech nima kerak emas

Amalga oshirilishi: O'quvchilar xonada doira shaklida turadilar. Bir o'quvchi yonidagiga shivirlagan holda biror–bir ma'lumotni aytadi. U esa ushbu ma'lumotni keyingi shaxsga aytadi va bu ish doira bo'ylab davom etadi. Ma'lumot har bir kimsaga faqat bir martadagina aytilishi lozim. Oxirgi o'quvchi o'zi eshitgan ma'lumotni barchaga eshittirib aytadi va shundan so'ng uni boshda aytgan birinchi o'quvchi ham qaytaradi. Original va oxirgi ma'lumotlar orasidagi farq tahlil qilinadi.

O'yinning nomi: «*Sirli maktub*»

O'yinning turi: Guruh bo'lib ishlash

Maqsad: Bir–birini yaxshiroq bilib olish

Vaqt: 10–15 daqiqa

Guruh kattaligi: Bir guruhda yoki sinfda

Ishlatiladigan materiallar: Ruchka va qog'oz

Amalga oshirilishi: Har bir talaba o'zi haqida biror–bir ma'lumotni yoki ma'lumotlarni qog'ozga yozadida, uni bir idishga soladi (savat, yashik, shlyapa va xokazolar). Keyin ular yaxshilab aralashtiriladi va talabalarga ulardan bittadan olish taklif qilinadi. Ular bu ma'lumotlarni o'qib, uni kim yozganini aytishlari kerak. Bunda ko'pchilik sinfdoshlar bir–birlari haqida yangi, oldin bilmagan qiziqarli narsalarni bilib olishga muvaffaq bo'ladilar.

O'yinning nomi: «*Siz ajoyibsiz*»

O'yinning turi: Mashg'ulotlar oxirida o'tkaziladi
Maqsad: Darsni yoki seminarni ijobiy-pozitiv ravishda yakunlash maqsadida ishlatish mumkin.
Vaqt: 15–20 daqiqa
Guruh kattaligi: Hohlagancha
Ishlatiladigan materiallar: qog'oz va ruchka
Amalga oshirilishi: Har bir ishtirokchiga bittadan varaq tarqatilib chiqiladi va uning yuqori qismiga o'z nomlarini yozishlari so'raladi. Endi bu varaqlar doira shaklida joylashgan guruhga tarqatilib, har bir ishtirokchidan varaqning yuqori qismida nomi yozilgan shaxs haqida yaxshi va ijobiy fikrlar yozilishi hamda uni keyingi talabaga uzatishi so'raladi. Barcha o'z fikrini yozib bo'lganidan so'ng, har bir varaq nomi yozilgan insonga qaytariladi. U esa o'zi haqidagi yaxshi ma'lumotlarni o'qib quvonadi va uni sinfdoshlaridan esdalik sifatida saqlaydi.

6 - MAVZU: “AUDIT” FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

- 1. “Audit” fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari**
- 2. “Audit” fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish shakllari va turlari**
- 3. “Audit” fanidan talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni o’rganish va baholash tartibi**

6.1. “Audit” fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Keyingi yillarda ta’lim muassasalarida o’quvchi-talabalarning mustaqil ta’lim olishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki endilikda ta’lim berishning an’anaviy usullari orqali o’quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga, faollikka o’rgatib bo’lmaydi.

Tajriba ko’rsatadiki, boshlagan ishini sabr-toqat bilan mustaqil ravislida tinmay izlanish orqali oxiriga etkazadiganlarga hayotda ko’zlagan maqsadlariga erishadilar. O’quvchi-talabalarda ana shu xislatni tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etish o’ziga xos alohida o’rin tutadi. Undan tashqari, hozirgi kunda axborot oqimini nihoyatda kattaligi, fan-texnika taraqqiyoti tufayli o’qituvchi qanchalik mohir bo’lmasin, dars jarayonida fan bo’yicha barcha bilim, axborotlarni o’quvchi - talabalarga yetkaza olmaydi. Uni to’ldirishning yagona yo’li o’quvchi, talabalarining o’z ustilarida mustaqil ishlashlaridir. Mustaqil ishlashning yana bir ijobiy tomoni u mustaqil fikrlashni ham rivojlantiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda o’quvchi; talabalarning mustaqil ishini tashkil etishga alohida diqqat qaratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir “ nomli ma’ruzasida «Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy va ma’naviy sog’lom o’sishi, balki eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo’lgan, uyg’un rivojlangan insonlar bo’lib, XXI asr talabalariga to’liq javob beradigan barkamol avlod bo’lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz» deb ta’kidlaydi va ana shu maqsadga erishish yo’lida barcha imkoniyatlarimizni safarbar etishni nazarda tutadi.

O’quv jarayonida o’quvchi-talabalar mustaqil ishlarining tutgan o’rni. Mustaqil ta’limga alohida diqqat qaratilishi. Resurslarning cheklanganligi bizni har bir qadamimizda tanlov zaruriyatini qo’yadi u o’z navbatida turli variantlar orasidan eng maqbulini tanlay olish uchun bilim, mahorat talab qiladi. **Ikkinchidan**, bozor iqtisodiga noaniqlik yo’ldosh. Har bir tanlov tavakkal bilan bog’liq. **Uchinchidan**, hozirgi paytda axborot oqimi nihoyatda katta. Texnika, texnologiyadagi yangiliklarni anglab ulgurib bo’lmaydi. Bularning hammasi

yoshlarimizni har jihatdan barkamol bo'lishlari uchun o'z ustilarida mustaqil ravishda tinmay ishlash va izlanish ko'nikmasini hosil qilishni talab qiladi.

O'quvchi-talaba mustaqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib yetisha olmaydi chunki, talabaning o'qish yillari davomida olgan bilimlarining ko'p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko'pgina bilimlar esa unutiladi. Bilim eskirishi tez, axborot oqimi nihoyatda katta bo'lgan hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlash, izlanishga o'rganish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. Taniqli olim

G. Spenser tarbiya ishida o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga katta o'rin berilmog'i lozimligini ta'kidlab, insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etganini ko'rsatgan.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy shakllari — ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi sinf, auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkazilsa-da, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi. Hozirgi taraqqiyot darajasi, uning nihoyatda tezlashuvi natijasida belgilangan soatlar mobaynida qo'yilgan maqsadga yetish, barcha axborotni o'quvchi-talabalar ongiga yetkazish tobora qiyinlashib boradi. Bu muammoni yechishning asosiy yo'li yoshlarimizni o'z ustlarida mustaqil ishlashga o'rgatishdir.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish o'quvchi-talabalar dunyoqarashini shakllantirishda o'quvchi-talabalarni o'z ustida mustaqil ishlashi alohida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida o'quvchi-talabalarning mustaqil ta'limiga alohida diqqat qaratilmoqda.

O'quvchi-talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish Oliy va o'rta ta'lim vazirligining maxsus buyrug'i bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi: Talaba mustaqil ishi 2005-yil 21-fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari esa O'MKHT markazining 2005-yil 17-avgustdagi 192-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan «O'quvchining mustaqil ishini tashkil etish», to'g'risida muvaqqat Nizom asosida tashkil etiladi.

U Respublikamizning ijtimoiy-pedagogik rivojlanishida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy va ijtimoiy faollikka, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad, raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda o'quvchi-talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt budjeti, tadqiqot obyekti alohida ahamiyatga ega.

Talabaning mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Talabaning mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari **va** vositalarini aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar **bilan** ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsalilgan kamchiliklarni qayta ishlash;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari va tamoyillari.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir o'quvchi-talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni talabalar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishlarini tashkil etish o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni o'quvchi-talabaning o'zi tashkil qiladi. Muvafaqqiyatga erishish uchun uning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa o'quvchi-talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

2. Mustaqil ishlash jarayonida fan bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak: A) mustaqil ish o'qishning, aqliy mehnatning alohida turi;

V) axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengayadi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

3. O'quvchi-talabalar mustaqil ishlash vaqtini ham mustaqil ravishda o'zlari belgilaydi. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasidagi muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlari-ning tarkibiy qismi bo'lib, u dars jarayonini tashkil etishdan katta

farq qiladi, ya'ni uni bajarish vaqtini o'quvchi-talabanning o'zi imkoniyatidan kelib chiqib belgilaydi. Mustaqil ishlash vaqtdan to'g'ri foydalanishni, uni tejash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har bir o'quvchi-talaba individual tarzda vaqtini fanlar bo'yicha tabaqalashtirgan holda rejalashtirishi kerak. Undan kelib chiqib, talaba o'z haftalik rejasini kunlar bo'yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda o'quvchi-talabaga hech narsa bermayotganday, hech qanaqa yordami yo'qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, a'lochilar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

O'zlashtirish bo'yicha fakultet muvaffaqiyatini ham talabalarning o'z vaqtlarini to'g'ri rejalashtirishi, uni bajarishi bilan bog'lash mumkin.

Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashda o'quvchi-talabaga yordam lozim.

4. Mustaqil ishni bajarish uchun o'quvchi-talaba o'zini-o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham subyektiv omil asosiy o'rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiy prinsiplar mavjud. Mustaqil ishni shu prinsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar prinsiplarni o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

Har bir talaba mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas.

O'quvchi-talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari uni tashkil etishning tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular **quyidagilar:**

Mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning muntazamligidir, ya'ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish uchun har kungi mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Bugungi o'tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi uchun o'tilganlarni o'z qobiliyati va *olgan bilimi* darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o'rganishi zarur. Chunki ma'ruzada talabaga yo'llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha *asosiy* savollarni muhokama qilib bo'lmaydi. Uning iloji yo'q, ma'ruzada o'tilgan, muhokama qilingan masalalami psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko'ra, atigi 5 foizi talabalar yodida qolar ekan. O'zi o'qib o'rgangani, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishi esa bir necha baravar ko'p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabanning o'zini mustaqil tayyorlanib o'qishi fanni o'rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o'zlashtirishida, tahlil qilishi, o'z fikrini ifodalashida muhim rol o'ynaydi.

2. Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan xohlagancha davom etishi mumkin emasligi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17—25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, mehnat unumi pasayadi, odam charchaydi, ke-ying» kunlari charchog'i yozilishi qiyin bo'lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda sinf, auditoriyada o'tkazilgan holda hisobga olinishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'ladigan bo'lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo'lsa 3 soatdan ko'proq, agarda ko'p bo'lsa, kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Oliy o'quv yurtlarida haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22-24 soat atrofida bo'ladi. O'rta maxsus, kasb-hunar tal'im muassasalarida o'quvchilarning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi 16 soatni tashkil etadi.

Albatta, bu vaqt o'quvchi-talabani normal tarzda diqqat-e'tibor, g'ayrat qilib ishlashini mo'ljallagan holda belgilanadi. Lekin real hayotda sobiq talaba o'zini zo'rlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, predmetni o'rganishga ilhom bilan kirishib ketadi. Uchinchisi esa, umuman dars tayyorlagisi kelmaydi. Bunga qator obyektiv va subyektiv sabablarni keltirish mumkin.

3. Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega ekanligi. Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim prinsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa, semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qolganda, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabaning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda, talabaning kun tartibini dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa o'quvchi-talabaning o'ziga ham bog'liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi.

Mustaqil ishlash va izlanishning asosiy shakllari. Mustaqil ishlash quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifalarini bajarishda darslik, maruza matnlari tuplamlari bilan ishlash, konspekt tayyorlash.

2. Tipik topshiriqlarni yechish. Bunda talaba avvalgi bilimlarini xotirasida qayta tiklaydi va qisman qayta o'zgartirib, aniq topshiriqlarda qo'llaydi. Masalan: masala, mashq yechish;

3. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan sharoitda qo'llash. Talaba o'rgangan bilimlaridan yangi sharoitda foydalanadi. Sharoitlarda ma'lum umumiylik bo'lishi mumkin.

4. Ijodiy faoliyatga asos yaratish. Bunda talaba o'rganilayotgan sohaning mohiyatiga tushunadi, uning yangi munosabat, bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

Barcha mustaqil ishlar talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Talaba ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid

materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamia o'zi mustaqil fikr bildirishga qiynalishi mumkin.⁶

Mustaqil ishlarni individual - didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1) Bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda o'quvchi-talabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar - axborotlarni, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

2) O'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish va qayta ishlilashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda, avval egallangan bilimlarni faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar.

3) Avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtayi nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalalarning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g'oya- fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar.

4) Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar.

Bunda, yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsada, ungacha boshqacha nuqtayi nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Mustaqil ishlarning ajralmas qismi bu mustaqil tahsildir. O'quvchi, talabalarning mustaqil tahsili ulami o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir.

6.2.“Audit” fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish shakllari va turlari

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o'quvchi-talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs) ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzulami o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Prezident asarlari va pedagogik masalalami tadqiq qiiishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- berilgan mavzular bo'yicha referat, axborot tayyorlash;
- o'rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi

^{6 1} Rochinskiy V.M. «Azбука pedagogicheskogo truda» M., 1990. str. 33.

referatlar yozish;

- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob, grafik ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- maket, model va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- ijtimoiy, pedagogik siyosiy mavzularda bo'lib o'tadigan ilmiy, amaliy konferensiya, seminar mashg'ulotlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularda qatnashish;
- turli jamg'armalar tomonidan tashkil qilingan tanlovlarda ishtirok etish;
- o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ishlar tarkibida o'quvchi-talabalardan alohida diqqat-e'tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o'rganilayotgan fandan kurs ishi hamda kasb-hunar kollejlari diplom ishi, bakalavriat yo'nalishida bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor.

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda bosliqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil bajariladigan ishlardan biri pedagogik masalalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o'quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. Konspekt qilish talabani fanni o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to'g'ridan - to'g'ri ko'chirish deb tushunmasliklari kerak.

Berilgan topshiriqni bajarish o'qishdan boshlanadi. O'qish bu hali o'zlashtirish emas. O'qish, o'qilgan matnni anglash kerak. Tushunish, o'zlashtirish uchun qo'shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi. O'zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta, u o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, o'qish bu o'qish emas, tushunish boshqa, tushunganni o'zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa. Hammasi ham aqlni ishlatishni talab qiladi. O'qishga minimum vaqt va kuch sanlab, harakat qilib, asosiy diqqatni tushunishga, tushunganini yozishga, yodda saqlashga harakat qilish kerak. Sarflanadigan vaqt, uni o'qishga qancha va tushunish uchun o'ylashga qancha sarflanishi mavzuga, uning murakkablik darajasiga bog'liq.

Talabalarni pedagogik fanlarni o'rganishlarida pedagogik muammolarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, ilmiy to'garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, kortkurslari olimpiada va ko'rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi.

Talabalarni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o'rgatishda kafedra tomonidan tashkil etilgan ilmiy to'garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedra o'rganilayotgan fan bo'yicha talabalarning qiziqishi, fandagi yangiliklar o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolarni ilmiy to'garaklarda

muhokama qilinishini ko'zda tutishi kerak. Talabalar to'garakda tayyorlagan ilmiy maruzalarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to'garak a'zolari ham uni muhoka ma'ruzsida faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. To'garak a'zolarini soni, muhokama qilnadigan masalalar, ilmiy ma'ruza miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko'ra to'garak rahbari oy davomida ilmiy to'garaklar majlisi o'tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy ma'ruza talabalarning ilmiy konferensiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.

O'tkaziladigan konferensiyani umumiy mavzusini tasdiqlaga ma'ruzalarni mavzu yo'nalishiga ko'ra guruhlariga ajratgan ma'qul.

O'tkaziladigan talabalarning ilmiy konferensiyasida eng yaxshi deb topilgan ma'ruzalar rag'batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi

Fanni mustaqil o'rganishda mustaqil **izlanish** alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash, o'qishdan mustaqil izlanishning asosiy farqi uni ilmiy yo'nalishda bo'lishi fanda, tajribada erishilgan eng so'nggi yutuqlarni o'rganishga diqqat qaratilishi hamda o'z nuqtayi nazarini bayon qilish va taklif, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishidir.

Mustaqil izlanishning o'quv shakllaridan bin **kurs ishidir**.

Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar pedagogik fanlarni yanada chuqurroq o'rganishadi. Pedagogik kategoriyalar va qonunlar mohiyatini tushunish murakkab nazariy muammolarni tahlil etish, uni amaliyotda tatbiq qilish haqida o'ylashga, fikr yuritishga undaydi.

Albatta **oliy o'quv yurtlarida kurs ishiariga** qo'yiladigan talablar ilmiy va ijodiy jihatdan **kasb-hunar kollejlari**da **bajariladigan kurs** ishlaridan farqlanadi. Lekin ularni bajarishdan qo'yiladigan maqsad umumiy.

Kurs ishining fanni mustaqil o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma'lumotlar to'plash, ularni jadval, diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o'tilgan masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishga o'rganishadi. Ana shu jarayonda o'quvchi-talabalar o'zlari induktiv va deduktiv uslublarni qo'llab, alohida hodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Kurs ishi o'quvchi-talaba tomonidan tanlanadi. Ishning hajmi 25—30 betga (standart yozuv qog'ozi bo'yicha) mo'ljallanadi. Bu mavzuni har tomonlama chuqur o'rganib, o'z qobiliyatini, fanni o'zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi.

Kurs ishiga kafedradan iiniy rahbar tayinlanadi. U o'quvchi-talabalarga kurs ishini tayyorlashda zarur maslahatlarni beradi:

- kurs ishi mavzusi faqat darslik doirasida emas, balki qo'shimcha adabiyotlar, shu mavzu bo'yicha jurnal, gazetalardagi maqolalardan foydalanib yoziladi;

- kurs ishida ilmiy izlanish elementlari, nazariy qoidalar, tajribalar bilan yoritiladi;

- ish bo'yicha reja tuziladi, reja tarkibi: kirish, asosiy qism (yoritish kerak bo'lgan masalalar), xulosadan iborat bo'ladi;

- kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo'lishi kerak, ya'ni biron bir muallifning fikri keltirilsa, jumlar o'zgartirilmay, qanday bo'lsa shunday

ko'chiriladi va qo'shtirnoq ichiga olinadi, izoh beriladi. U sahifaning eng tagiga nomerlangan holda berilib, manba ko'rsatiladi. Unda havola qilingan muallif, asar yoki maqolaning, nashriyotning nomlari, nashr qilingan yili beriladi;

- matn mustaqil yoziladi. O'quvchi-talaba kurs ishi yozishda o'rganayotgan adabiyotlardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmay, avval o'qib chiqib, tushunib, boshqalari bilan taqqoslab, so'ngra o'zining fikri bayon qilmog'i lozim.

Kurs ishiga qo'yilgan bosh talab fanni chuqur o'rganishga erishish, ilmiy izlanishga havas uyg'otish. Kurs ishida o'quvchi-talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, dastlabki ilmiy izlanish kurtaklarini hosil bo'lishida kurs ishi rahbari muhim rol o'ynaydi. Kurs ishi rahbari asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va tanlangan mavzuni to'la ochib berish uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligi haqida maslahat beradi.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda o'quvchi-talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojat qiladi. Mavzu bo'yicha ayrim adabiyotlarni to'liq o'qib chiqishi zarur bo'lsa, ayrimlarini mavzu bo'yicha u yoki bu bobi yoki sahifalarini o'qishga, o'rganishga to'g'ri keladi.

Kurs ishida qo'yilgan savollar o'rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishi zarur. Savollar ko'p bo'lmasligi, mavzuning mazmunini ochib berishi lozim. Rejada qaysi adabiyotlar bilan ishlash ko'rsatiladi.

Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi o'zining kognitiv mazmuniga ko'ra quyidagi tamoyillarga ega:

- *kasbiy yo'nalganlik;*
- *o'quv menejmenti;*
- *mustaqil ishlashning turli shakllari (masalan, kasbiy fan-lar yoki ijtimoiy fanlar bo'yicha tuzilgan individual dasturlar bo'yicha ta'lim olish);*
- *o'z-o'zini boshqarishni ta'minlash va ta'lim oluvchilarining ijtimoiy safarbarligini oshirish (mashg'ulotlarda) o'quvchi-talabalarni didaktik qo'llanmalar bilan ta'minlash va ularni xona-larni ta'mirlash, jihozlarni sotib olishda yordamga jalb etish;*
- *ta'limda sifatiy ko'rsatkichlarga erishish maqsadida gu-ruhlarga o'quv faollari ishi (yuqori bosqich o'quvchi-talabalarining navbatchilikda turishi, maslahatlar berishi, kutubxonachiga yor-damlashish);*
- *o'quvchi-talabalarining rejalashtirish ishlarida ishtirok etishi va boshqalar.*

Ta'limdagi kasbiy yo'nalganlikni ta'lim mazmunini o'qitish-ning shakl va metodlarini oxirgi maqsad – raqobatbardosh muta-xassislar tayyorlashga yo'naltirish tarzida tushunmoq kerak. Ta'lim oluvchilarning ilgarilab ketuvchi intellektual, ma'naviy ri-vojlantirishsiz texnika va texnologiya sohasida muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Ushbu o'qitish texnologiyasida pedagogik kognitiv komponent etakchilik qiladi. Zero, kognitiv komponent kasbiy mahorat asosi-da yotuvchi bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirish-ni nazarda tutadi. U ilmiy izlanishlar mazmuni, qonuniyatlar va e'tiqodiga aylanib boruvchi dunyoqarash xarakteridagi g'oyalar mo-hiyatini anglab etishga va ularni amalda qo'llashga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda asosiy ko'nikma va malakalar oliy va kasb-hu-nar kolleji, maktab va akademik litsey ta'limi Davlat ta'lim standartlariga kiritilgan. Ular xalqaro ta'lim standartlariga mos keladi. Bundan tashqari, axborot asri mutaxassislardan kasbiy sa-vodxonlik va ijtimoiy safarbarlikni talab qiladi. Bu esa muta-xassislarda quyidagi sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi:

- *muloqotga kirisha bilish;*
- *jamo'a bilan hamkorlikda ishlay olish;*
- *o'z-o'zini kamol toptirish;*
- *iqtisodiy texnologiyalarni bilish;*
- *kundalik muammolarni hal eta olish, mustaqil ravishda qa-rorlar qabul qila bilish;*

- *moslashuvchanlik;*
- *tashabbuskorlik va ijodkorlik;*
- *chet tillarni bilish;*
- *tanqidiy munosabatda bo'lish, mulohazakorlik;*
- *axloqiylik va tarbiyalanganlik;*
- *stresslarga barqarorlik;*
- *o'z-o'zini boshqara bilish;*
- *ish jarayonini rejalashtirish va tashkil eta bilish qobi-liyati;*
- *maqsadga intiluvchanlik;*
- *tartib-qoidalarga qat'iy amal qila bilish va boshqalar.*

Ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyati motivatsiyasining asosi ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan malakalarni uzluksiz shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Bu, ta'lim oluvchilar uchun kelgusidagi kasbiy faoliyat ehtiyoji nuqtai nazaridan o'rganilayotgan fanning ma'nosi tushunarli bo'l-maguncha ularning ijodiy faolligini kuzatish mumkin emas de-makdir. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini ri-vojlantirish uchun o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy shakl-lari qo'llaniladi.

Shaxsni rivojlantirishda biz ijtimoiy va individual safar-barlik muhim deb hisoblaymiz. Mustaqil ta'lim olish texnolo-giyasida o'quvchi-talabalar o'z-o'zini boshqarishda ishtirok etadi, o'qituvchi bilan birgalikda mashg'ulotlarni (didaktik qo'llanma-larni tarqatadi, jadvallarni tayyorlaydi) tashkil etadi. Yuqori bosqich ta'lim oluvchilari navbatchi bo'ladilar, kutubxonachiga yor-damlashadi va maslahatchi-uslubchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu o'ziga xos o'quv menejmenti hisoblanadi. Bu o'quvchi-talabalarda individuallikni, kasbiy mahoratni rivojlantiradi. Zero, ular hayotda muvaffaqiyatga erishish va barqaror turmush kechirish uchun juda zarur. Ta'lim jarayonida quyidagi "metodik qonunlar"ga amal qilish maqsadga muvofiq:

- *tashkiliy masalalarga kamroq e'tibor berish, ko'proq aniq ishlarni bajarish;*
- *o'quvchi-talabaning kasbiy tajribasini barcha mashg'ulot-lar jarayonida e'tiborga olish;*
- *hayratlanishga o'rganish;*
- *kuch-quvvat; nekinlik; safarbarlik;*
- *ishni osonlashtirish, ammo soddalashtirmaslik;*
- *doimo yangilikka intilish;*

– *nafaqat o'quvchi-talabani, balki guruhning ham individual ekanini e'tiborga olish.*

Ma'lumki, o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishda o'quvchi-talabalar bir muncha qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois o'qituvchi dastlab o'quvchi-talabalarda o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanish bo'yicha quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishi zarur:

- *o'quv ma'lumotlarini qisqacha ma'ruza tarzida ifodalay olish;*
- *referat yoza bilish;*
- *tegishli o'quv axborotini tanlab, uni sxema, jadval va rasm ko'rinishida ifodalash.*

6.3. “Audit” fanidan talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni o'rganish va baholash tartibi

Bizningcha, o'quvchi-talabalarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishga o'rgatish uchun bosqichda amalga oshirilishi kerak:

1. O'qituvchi o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu bo'yicha o'quv axborotlari mazmunini sxema, jadval va rasmlar ko'rinishida ifodalab, tayyor holda mashg'ulotga olib kiradi va ularni tushuntiradi. Ularni kompyuter xotirasiga ham kiritish mumkin. Bunda asosiy tushuncha va atamalar alohida izohlanadi. O'quvchi-talabalarga mavzuga oid sxema, jadval va rasmlar doimo bir ko'rinishda chizilmasligi, ularni tayyorlashda ijodiy yondashilishi haqida ma'lumot beriladi.

2. Mashg'ulot jarayonida bevosita o'quvchi-talabalarning ishti-rokida o'quv axborotlari sxema, jadval va rasmlar ko'rinishida ta-yyorlanadi. Shu tariqa o'quvchi-talabalarda o'quv axborotlarini tan-lash, tizimlashtirish, ularni sxema, jadval va rasmlar ko'rinishida ifodalash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bunday mashg'ulotlar 2-3 marta tashkil etiladi. So'ngra keyingi bosqichga o'tiladi.

3. O'quv axborotlarini sxema, jadval va rasmlar ko'rinishida ifodalashlari uchun o'quvchi-talabalarga ma'lum topshiriq yoki mustaqil ishlar beriladi. Bunda o'qituvchi navbatdagi mashg'ulotni 2-bosqichdagi kabi tashkil etib o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlari uchun ko'proq imkoniyat yaratib beradi. O'quvchi-talabalar berilgan matnni o'qib, uning mazmunini mustaqil holda tizimlash-tiradi, asosiy tushuncha va atamalarni tasniflaydi. Keyin mavzu mazmunini sxema, jadval va rasmlar ko'rinishida ifodalab, tayyor holda o'qituvchiga taqdim etadilar. O'qituvchi ularni tekshirib, ta-komillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Mashg'ulotlar 2-3 marta xuddi shu tarzda takrorlanadi. So'ng vazifa sifatida o'quvchi-talabalarga topshiriqlar beriladi.

O'quvchi-talabalarning fan bo'yicha butun o'quv yili davomida tuzib borgan tayanch ma'ruza (sxema, jadval va rasm) laridan oraliq va yakuniy nazoratlarda foydalanishiga ruxsat berish maqsadga muvofiq. Bu ularning doimiy izlanishlari va o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashiga yanada katta rag'bat uyg'otadi. O'quvchi-talabalarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishga o'rgatish, ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish kabi vazifalarni qam-rab oladi. O'quvchi-talabalarga mustaqil ishlash bo'yicha uyga vazifa berishda quyidagilarga alohida e'tibor bering:

- *o'quv adabiyoti tuzilishi bilan tanishish;*

- *matnlarga ko'z yugurtirib chiqish;*
- *alohida boblarni o'qish;*
- *o'quv adabiyotidan savollarga javob qidirish;*
- *o'quv materiallarini o'rganish;*
- *referat yozish;*
- *qisqacha bayonnoma tuzish;*
- *misol va mashqlar echish;*
- *test sinovlarini bajarish;*
- *o'quv materiallari mazmunini tushunish va xotirada saqlab qolish.*

O'quvchi-talabalarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydala-nishga o'rgatishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- *o'quvchi-talabalarda o'z bilimni tekshirish malakasini shakllantirish;*
- *uyda kitob bilan ishlash orqali darsda olingan bilimlarni mustahkamlash;*
- *o'quvchi-talabalarining o'quv materiali mazmunini tushunish-lari uchun ularni reja asosida o'qish, mantiqiy–tuzilmaviy sxemalar, jadvallar va rasmlar shaklida ifodalash, konspekt yozish kabi amaliy ishlarga o'rganish.*

O'quvchi-talabaning bilimlarini o'zlashtirgani to'g'risida ki-tobni necha marta o'qiganiga emas, balki o'quv materiallari mazmunini tushunganiga ko'ra xulosa chiqarish va uni baholash kerak. Bunda o'quvchi-talabaning ko'p o'qishi emas, balki o'qiganlarini faol eslab qolishi muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni o'quv adabiyotlaridan mustaqil foydalanishga o'rgatishda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasidan foydalanishi lozim.

Birinchi bosqichda o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi, o'quvchi-talabalarining mustaqil o'rganishlari uchun o'quv materialini tanlaydi, o'quv faoliyatining maqsadi, vazifasi, natijasi va uni baholash mezonini belgilaydi.

Ikkinchi bosqichda mavzuni e'lon qiladi, yangi o'quv materiali mazmuni va mustaqil ishni bajarish tartibini o'quvchi-talabalar-ga tushuntiradi.

Uchinchi bosqichda o'quvchi-talabalar-ga individual yordam beradi.

To'rtinchi bosqichda o'quvchi-talabalarining bajargan ishini nazorat va tahlil qiladi, natijalarni baholaydi.

Shunday qilib, maxsus fanlardan tashkil etiladigan mustaqil ishlarning maqsadi o'quvchi-talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uni ijodiy ishlash va mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. O'quvchi-talabalar mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lganidan keyin to'garaklar, konferentsiyalar, konkurs-lar, olimpiadalar va boshqa tadbirlarda faol qatnashadilar.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy shakllari - maruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkazilsada, unga Xam avvaldan soatlar belgilanadi.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish uchun dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar Xam katta rol o'ynaydi.

Mustaqil ish faoliyatida bilimlarni egallash bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak:

A) mustaqil ish - o'qishning, aqliy me Xnatning alo Xida turi.

B). **Axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi.** Ayniqsa internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengaydi.

Ta'lim berishning an'anaviy usullari orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash, faollikka o'rgatish qiyin. An'anaviy ta'limda tushuntirish, so'rash, mustahkamlash, baholash tartibiga amal qilinadi.

Bugungi kunda quyidagilar an'anaviy ta'limning kamchiliklari sifatida e'tirof etilmoqda:

✓ ta'lim jarayonida o'qituvchining ko'proq faollik ko'rsatishi, faqat tushuntirish, buyruq berish, o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi;

✓ ta'lim jarayonida o'quvchilarga asosan nazariy bilim (ma'lumotlar) berilishi;

✓ ta'limda majburiylik, nasi Xatgo'ylik, qattiqqo'llik, avtoritarizm tamoyillariga amal qilish;

✓ o'quvchilarning faollik ko'rsatmasligi, faqat o'qituvchining ma'ruzasini tinglashi va topshiriqlarni bajarishi, ularning mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka o'rgatilmassligi;

✓ ta'limning o'rtacha darajada bilim oluvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitishning interfaol usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishni taqozo etadi. O'qitishning interfaol usullari afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

✓ o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng hamkorlik o'rnatiladi;

✓ dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchining ichki motivatsiyasiga tayaniladi: majburlab o'qitilmaydi, (lekin dunyoda kerak degan so'z bor, inson o'zini majbur qilishi kerakki, gohida unga ko'ra hayot-mamot masalasi hal bo'ladi, buni Xam unutmasslik zarur) o'quvchi-talabalar tabaqalashtirilib o'qitiladi;

✓ ta'lim berishda o'quvchi-talabalar aqliy rivojlanganlik darajasi, qobiliyati e'tiborga olinadi;

✓ o'quvchi-talabalar ko'proq mustaqil ta'lim oladilar;

✓ ta'lim jarayonining ob'ekti o'qituvchi emas, o'quvchi hisoblanadi;

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib etisha olmaydi, chunki talabaning o'qish yillari davomida olgan bilimlarning ko'p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko'pgina bilimlar esa unutiladi. Bilimning eskirishi tez, axborot oqimi nihoyatda katta bo'lgan

hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlash, izlanishga o'rganish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt byudjeti, tadqiqot ob'ekti alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning reyting tizimi, ayniqsa o'qish jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklar, axborot hajmining kattaligi talabalardan mustaqil ishlash va vaqtdan to'g'ri foydalanishni, uni tejash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har qanday talaba, bo'lg'usi mutaxassis. Tahlil qilish, baholash, har qanday vaziyatda to'g'ri yo'l tanlay bilish ko'p jihatdan uning olgan bilimiga bog'liq. Mukammal bilim esa dars, mashg'ulotlarda qatnashishdan tashqari mustaqil mutolaa qilish, vaqtdan samarali foydalanish orqali vujudga keladi.

Bilim olish, mahsus malakaga ega bo'lish, talabalarni dunyo qarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar katta rol o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi axborot asrida borgan sari, bir tomondan axborot miqdori, yangiliklar ortib borsa, ikkinchi tomondan axborot olish manbalari rang-baranglashib boradi. Ularning ahamiyati ortib boradi. Demak talabalarni o'z ustilarida mustaqil ishlashlarini tashkil etish mu Xim a Xamiyatga ega.


Talabalarining mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish lozim.

Mustaqil ta'limni olib borish yo'llaridan biri Y o'naltiruvchi tekst usuli o'tgan asrning 70-chi yillarida «Daimler Benz korxonasining Gaggenau sha xridagi (Daimler Benz AG (Gaggenau)) o' quv ustaxonasi tomonidan ishlab chi qarilgan. Bu usul tovush va tasvirli prezentatsiyalar bilan jixozlangan mustaqil o'rganish dasturlari shaklidagi loyi xaviy ta'lim ga qo'shimcha sifatida ishlab chi qarilgan. Boshlan g'ich shaklida bu usul kasb- xunar ta'limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chi qarilgan, keyinchalik esa nazariy ji xatdan asoslanib, ilmiy asosda takomillashtirilgan. Yo'naltiruvchi tekst usulida quydagi 6 bosqich farqlanadi; ular doirasimon xarakatda almashishadi:

1. Ma'lumot yig'ish
2. Rejalashtirish
3. qaror qabul qilish
4. Amalga oshirish
5. Tekshirish
6. Xulosa chiqarish

Bu bosqichlar xammasi o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chi qarilishiga sabab loyixalar ustida ish bilan bo g'li q tashkiliy muammolar edi, chunki o' quvchilar xar xil tezlikda ishlashlari tufayli butun

guru x uchun tushuntirish o'tkazishga qulay vaqtni topish qiyin edi. Bir o'quvchi xammadan tez ishlab, yangi k o'nikmani o'rganishga tayyor bo'lgan bo'lsa, sekinroq ishlagan o'quvchilar uchun esa yangi tushuntirishning foydasi juda kam edi. qaytaga, yangi tushuntirish ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo'q to'xtalish kabi tuyular edi. Ya'ni o'quvchilar qizi qishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi.



Y o'naltiruvchi tekstlar yordami bilan mustaqil tushuntirish imkoniyati paydo bo'ldi va xar bir o'quvchi aynan unga yangi k o'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi. Eng birinchi y o'naltiruvchi tekstlar – bu asli og'zaki ravishda o'tkaziladigan tushuntirishlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma'lumotlar o'quvchilarga iloji boricha og'zaki berilar edi.

Bugungi kunda esa y o'naltiruvchi tekstlar shunday tuzilganki, o'quvchilar yo'naltiruvchi savollar yordamida o'zlari kerakli ma'lumotlarni (kitob, jadval, instruktsiya, videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib) ishlab chiqarishni o'rganishadi.


Natijada xozir yangi bir o'rgatish usuli va yangi bir o'rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi – bu o'quvchi k o'prok mustaqil ravishda o'rganishidir; o'qituvchi esa zaifrok o'quvchilar bilan k

o'prok shu g'ullanishi mumkin b o'lib qoldi. o' quvchilarning musta qil ishlashi esa o'z navbatida q o'shimcha foyda keltirmo qda: yu qoriro q k o'nikma va qobiliyatlar soxasida, ya'ni birgalikda mulo qotda b o'lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish xamda o'z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Guruxda birgalikda) ishlash orqali muayan ijtimoiy kompetentsiyalar rivoj topadi va ularga m o'ljallangan ma qsadlar xam belgilanishi mumkin b o'ldi. K o'rib turibmizki, va qt o'tgan sari y o'naltiruvchi tekst usuli q o'llanishining ma'nosi o'zgardi, chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o'sha «poydevor kvalifiktsiyalar» (klyuchevie kvalifikatsii) deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Bu tushunchani Germaniyada ta'limot munozarasiga mexnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetentsiyalarni (ya'ni fikrlash, tashkillashtirish va rejalashtirish usullarini) atagan.

Xozirgi kunda esa, bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar, k o'nikma va o'zini tutish tarzlari ataladiki, ular aynan shu kasb-xunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo'shimcha sifatida barcha bosh qa kasb- xunarlarda kerak bo'ladigan xatti-xarakatlarni bildiradi.


Mustakil xarakat qilish degani, shu anglatadiki, o'quvchiga unga topshirilgan ishlarni mustakil ravishda, ya'ni birovning boshkarib turishisiz amalga oshirishi kerak. Masalan, biror ishni boshlashdan oldin ish tartibini rejalashtirish, ishlab chiqarish usulini belgilash lozim.



Bundan tash qari, mustakil va ma'suliyatli ishlovchi o'quvchilardan kutiladigan narsa shuki, ular ish tartibini iktisodiy, ilmiy kriteriyalar asosida, ya'ni tejamkorlik, ilmiy yo'nalishli asosida rejalashtirish va amalga oshirishlari kerak.

Didaktik xatti- xarakatlar deganda, biz o'qituvchining ta'lim jarayonini didaktika va metodika bilimlarini q o'llash or qali tashkillashtirish xatti- xarakatlarini tushunamiz. Ular o'zaro bog'liq va aylanma xarakatda amalga oshadigan o'qitish tadbirlari modeliga asoslangan. Ya'ni ular mashg'ulot jarayonida yoki ish o'rnida o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda takrorlanadigan tadbirlarni bildiradi. Ular biror jarayonning barcha elementlarini qamrab oladi, misol uchun ani q bir nazariy darsni yoki tushuntirishni o'tkazish uchun «Tayyorgarlik ko'rish- o'tkazish-Baxolash» kabi xarakatlar kerak.

Mustaqil ishni tashkil qilishda didaktik xarakatlar qonun qoidasiga amal qilishni o'rgatish lozim, Bunda kuyidagi daidaktik xarakatni ko'rib chiqishimiz zarur.



Ular, umuman olganda, o'qituvchi faoliyatining yo'l-yo'rig'i sifatida xizmat qiladi, alo xida olganda esa tushunarlik printsiptini qo'llab- quvvatlaydi.

o'qitishning asosiy qoidalari:

- Tushunarlikdan tushunarsizga
- Ya qindan uzoqqa
- Osondan qiyinga
- Aniqdan mav xumga
- Umumiydan xususiyga
- Umumlashtirilgandan yakkaga

Didaktik xatti- xarakatlar quyidagi savollar bilan uzviy bog'langan: 1. **Kimlar** o'qitadi?

2. **Kimlarni** o'qitish kerak?
3. o'qitish orkali qanday **maqsadlarga** erishish kerak?
4. Maqsadlarga erishish uchun qanday **mazmunlarni** o'qitish kerak?
5. Nazariy yoki amaliy darsda qaysi **usullar** yordamida o'qitish kerak?
6. Nazariy yoki amaliy dars qanday **sharoitda** o'tkazish kerak?
7. o'qishni qanday **tashkil kilish** kerak?
8. Ko'zlangan maqsadga erishishni tekshirish uchun **natijalar** qanday baxolanadi?

Nazariy bilimlarni o'qitish bo'yicha quyidagi didaktik xatti- xarakatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Nazariy dars yoki tushuntirishga oid dastlabki shart-sharoitlar va tayyorgarlikni bajarish
2. o'quv maqsad va o'quv mazmunlarni belgilash
3. Nazariy dars va tushuntirish rejalarini ishlab chiqish
4. o'quv-didaktik materiallarni tayyorlash
5. Nazariy dars va tushuntirishlarni o'tkazish
6. Nazariy bilimlarni bajarish

Bu bosqichni o'quvchilar xar bir amaliy ish- xarakatni bajarish uchun mustaqil amalga oshirishlari kerak, faqat (kerak bo'lganda) o'qituvchining rahbarligida:

1. Ma'lumot yig'ish

o'quvchi berilgan ish topshiri g'ini taxlil qiladi va kerakli xamma ma'lumotlarni mustaqil ravishda yig'adi.

2. Reja tuzish

o'quvchi mustaqil ravishda barcha kerakli ish bosqichlaridan iborat ish rejasini tuzadi

3. qaror qabul qilish

o'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda ish rejasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

4. Amalga oshirish

o'quvchi ish rejasi asosida ishni mustaqil bajaradi

5. Tekshirish

o'quvchi ish natijasini mustaqil tekshiradi va «Bajarish va o'rganish»ni to'ldiradi

6. Xulosa chiqarish

o'quvchi va o'qituvchi birgalikda ish jarayonini, shuningdek, ish natijalarini taxlil qiladi va xulosa chiqaradi.

o'qituvchi va o'qituvchining turli xil topshiriqlaridan uning tipik topshiriqlarini ajratish mumkin. Ular ta'limga qaratilgan faoliyat bilan o'zaro bog'liq.

o'zaro bog'liq bilimlar, strategiya, texnika va tadbirlardan iborat bunday tuzilishni (strukturani) biz «faoliyat sohasi» deb nomlaymiz.

Ammo buni o'qituvchi yoki o'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan didaktik xatti- xarakatlar bilan adashtirish mumkin emas, chunki didaktik xatti- xarakatlar aynan nazariy dars yoki tushuntirishlarning tsikli bilan bog'liqdir. Faoliyat soxasi ko'proq narsani o'z ichiga oladi.

Faoliyat soxalarini belgilashning maqsadi - o'qituvchi va o'qituvchining turli xil topshiriqlaridan tipik topshiriqlarini ajratish va ta'riflash. Bunday faoliyat soxasi turli topshiriklarni qamrab o'z ichiga olishi mumkin, ya'ni u keng xam tor xam bo'lishi mumkin.

Albatta, faoliyat soxasi o'z ichiga didaktik xatti- xarakatlarni qamrab olgan, lekin bu xarakatlar uning faqat bir qismini tashkil qiladi.

Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan hohlagancha davom etishi mumkin emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17-25 yosh darajasida me Xnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. haddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, me Xnat unumi pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchoqli yozilishi qiyin bo'lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda auditoriyada o'tkazgan vaqtini Xisobga olishi kerak. Agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'ladigan bo'lsa, mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo'lsa 3 soatdan ko'prok, agarda ko'p bo'lsa kamroq tarzda rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, Haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22-24 soat atrofida bo'ladi. Albatta bu vaqt talabani normal tarzda diqqat-e'tibor, fayrat qilib ishlashini mo'ljallagan Xolda belgilanadi. Lekin real Xayotda turlicha bo'lishi mumkin. Bir talaba o'zini zo'rqlab dars tayyorlasa, ikkinchisi qiziqib, vaqtini qanday o'tganini Xam unutib, predmetni o'rganishga il Xom bilan ijodiy yondashib kirishib ketadi. Uchinchisi esa umuman dars tayyorlagisi kelmaydi.

7-MAVZU: “AUDIT” FANI BO’YICHA O’QUV-USLUBIY KOMPLEKSI, ULARNI TUZISH VA O’QUV JARAYONIDA QO’LLASH METODIKASI

REJA:

- 1. Audit fanini o’qitish bo’yicha o’quv-uslubiy kompleksning tarkibiy qismlari, ularni turlari va o’quv jarayonida qo’llash metodikasi.**
- 2. “Audit” fani bo’yicha namunaviy dasturlar, ishchi dasturlar, va o’quv dasturlariga qo’yiladigan talablar. Texnologik xaritalar, kalendar rejalar, individual ish rejasi. Ularni bajarishni tashkil etish va nazorat qilish.**

7.1.Audit fanini o’qitish bo’yicha o’quv-uslubiy kompleksning tarkibiy qismlari, ularni turlari va o’quv jarayonida qo’llash metodikasi

«Audit» fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua har yili kafedra tomonidan har yangi o’quv yili uchun yangitdan tayyorlanib, u quyidagi 21 elementdan iborat shaklda tayyorlanadi.

«Audit» fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmuadagi materiallar ro’yxati

1.	Annotatsiya	
2.	O’quv dasturi	
3.	Ishchi dasturi	
4.	Ta’lim texnologiyasi	
5.	Masala va mashqlar to’plami	
6.	Testlar	
7.	Nazorat uchun savollar (JN, ON, YaN)	
8.	Umumiy savollar	
9.	Tarqatma materiallar	
10.	Glossariy	
11.	Referat mavzulari	
12.	Adabiyotlar ro’yxati	
13.	Tayanch konspekt	
14.	O’quv materiallari (ma’ruza matni, maruza matnlari tuplamilar)	

5.	1	Xorijiy manbalar	
6.	1	Foydali maslahatlar	
7.	1	Normativ hujjatlar	
8.	1	Baholash mezonlari	
9.	1	Mualliflar haqida ma'lumot	
0	2	Fan bo'yicha kurs ishi mavzulari ro'yxati	
1	2	Fan bo'yicha bitiruv malakaviy ishi mavzulari ro'yxati	

«Audit» kursining dolzarbligi va o'qitish strukturasi. Iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish va chuqurlashtirish natijasida xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tub burilishga erishildi. Bu auditorlik tashkilotlari oldiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik, shuningdek ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, sub'ektlar o'rtasida hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish, byudjet bilan soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha hisoblashishlarni o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan maslahatlar berish va boshqa malakali xizmatlar ko'rsatish masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Shularni e'tiborga olganda, auditorlik tashkilot (auditor) lar xizmatiga ehtiyoj oshmoqda. Jumladan, hozirgi kunda auditorlik tashkilotlari quyidagi malakaviy xizmatlarni ko'rsatishlari Qonun⁷ bilan belgilab berilgan: buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot yuritish va tuzishni xalqaro standartlarga o'tkazish; xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va boshqa xizmatlar ko'rsatish. Shu ma'noda «Audit» faniga bo'lgan ahamiyat oshib bormoqda.

Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari. «Audit» fanini o'qitishdan maqsad, talabalarga auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborotlarining to'g'riligi va qonun hujjatlarga mosligi to'g'risida xolis va asosli fikrni shakllantirish uchun zarur bo'lgan auditorlik amallarini bajarish bo'yicha nazariy bilim berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fanning predmetini o'rgatish uchun bir necha vazifalar qo'yildi, jumladan:

- auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan chuqur tanishtirish;
- auditorlik tekshiruvini tayyorlash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati bilan tanishish, shartnoma tuzish, dastlabki kelishuvlarni amalga oshirish, auditning dastlabki rejasi va dasturini tuzish to'g'risida bilim berish;

⁷ O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. T.: 2000, 17-modda.

- auditorlik tekshiruvi jarayonida auditorlik hujjatlari va dalillarini to'plash;
- moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotning to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotini tekshirish usullarini o'rgatish;

- auditorlik tekshiruvini yakunlanish bosqichida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzishni o'rgatish va h.k.

«Audit» fanini chuqur o'rganish moliya, soliq, bank ishi va boshqa iqtisodiy sohalaridagi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Uning asosiy maqsadi - moliyaviy buxgalteriya hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash, sub'ekt faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish bo'yicha maslahatlar berish va boshqalardan iborat. «Audit» fanini o'rganish uning turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarni boshqarishda tutgan o'rnini tushunish va nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan boyitishni vazifa qilib qo'yadi.

Mazkur fanni o'rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada buladi: Iqtisodiyot nazariyasi, Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar, Moliya, Pul, kredit va banklar, Soliqlar va soliqqa tortish, Boshqaruv hisobi, Moliyaviy hisob, Moliyaviy va boshqaruv tahlili va boshqa maxsus fanlar.

«Audit» fanining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida aqliy hujum, klaster, «Bumerang» va «Veer», amaliy ish o'yini, portfolio, keys-stadi, onlayn tizimida suhbat va erkin yozuv usullaridan, muammoli ta'lim texnologiyasi, didaktik o'yinlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (Audit XP-Kompleks audit, Audit IT,1S: Prof. Buxgalteriya, Buxgalteriya (VS), Balans, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust), slaydlardan, multimediya vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

1.1. 5340900 «Buxgalteriya hisobi va audit» va 5140900 «Kasb ta'limi» (Buxgalteriya hisobi va audit) yo'nalishlarida «Audit» fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

t/r	Fan mavzularining nomi	Jam i soatlar	shu jumladan		
			Ma' ruza	Am aliy mashg'ul ot	M ustaqil ta'lim
1.	Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari xamda auditorlik tekshiruvining turlari	8	2	2	4
2.	«Audit» fanining predmeti va metodi	8	2	2	4
3.	O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari	8	2	2	4
4.	Auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar	8	2	2	4
5.	Auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik tavakkalchiligi	8	2	2	4
6.	Auditorlik tekshirishni rejalashtirish	8	2	2	4
7.	Auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi tizimini va ichki nazoratini o'rganish hamda baholash	8	2	2	4
8.	Auditorlik dalillar	8	2	2	4
9.	Auditorlik tanlash	8	2	2	4
10.	Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	8	2	2	4
11.	Ichki audit asoslari	18	6	6	6
12.	Asosiy vositalar auditi	14	4	4	6
13.	Nomoddiy aktivlar auditi	8	2	2	4
14.	Moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar) auditi	16	4	4	8
15.	Tovar-moddiy zahiralari auditi	16	4	4	8
16.	Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning auditi	22	6	6	1

					0
17.	Pul mablag'lari auditi	18	4	4	10
18.	Hisob-kitoblar auditi	22	6	6	10
19.	Korxona xususiy kapitali auditi	14	2	2	10
20.	Moliyaviy natijalar auditi	18	4	4	10
	Jami	246	62	62	122

1.2. 5340600 – «Moliya», 5340700 – «Bank ishi», 5341200 - «Investitsiyalarni moliyalashtirish», 5341300 - «Sug'urta ishi», 5341500 - «Moliya injiniringi», 5341600 - «Bozorlardagi faoliyat va operatsiyalar», 5341700 - «G'aznachilik» yo'nalishlarida «Audit» fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

t/r	Fan mavzularining nomi	Jam i soatlar	shu jumladan		
			Ma' ruza	Amali y mashg'ulot	M ustaqil ta'lim
1.	Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari xamda auditorlik tekshiruvining turlari	6	2	2	2
2.	Auditorlik faoliyatining predmeti va metodi	6	2	2	2
3.	O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari	16	4	4	8
4.	Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari	8	2	2	4
5.	Auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar	12	2	2	8
6.	Auditorlik tekshirishni rejalashtirish	10	2	2	6
7.	Auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi tizimini va ichki nazoratini o'rganish hamda baholash	14	2	2	10
8.	Auditorlik dalillar	12	2	2	8
9.	Ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish	12	2	2	8
10.	Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	18	4	4	10
11.	Uzoq muddatli aktivlar auditi	24	6	6	12
12.	Tovar-moddiy zahiralari auditi	16	4	4	8
13.	Pul mablag'lari va xisob-kitoblar auditi	16	4	4	8
14.	Korxona xususiy kapitali auditi	8	2	2	4
15.	Moliyaviy natijalar auditi	8	2	2	4
	Jami	186	42	42	102

1.3. 5341800 – Byudjet hisobi va nazorat yo'nalishida «Audit» fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

t/r	Fan mavzularining nomi	Jam i soatlar	shu jumladan		
			Ma' ruza	Amali y mashg'ulot	usta q il ta'lim
1.	Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari xamda auditorlik tekshiruvining turlari	8	2	2	4
2.	O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari	12	2	4	6
3.	Auditorlik tekshirishni rejalashtirish	8	2	2	4
4.	Auditorlik dalillar	8	2	2	4
5.	Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi	8	2	2	4
6.	Uzoq muddatli aktivlar auditi	8	2	2	4
7.	Tovar-moddiy zahiralari auditi	8	2	2	4
8.	Pul mablag'lari va xisob-kitoblar auditi	8	2	2	4

9.	Korxona xususiy kapitali auditi	8	2	2	4
10.	Moliyaviy natijalar auditi	8	2	2	4
	Jami	84	20	22	4

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni. Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

“Audit” fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi taqsimoti

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mazmulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari	Hajmi (soatda)
Auditning mohiyati, maqsadi va vazifalari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Auditning asosiy tamoyillari	Taqdimot va slaydlar tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Fanlar tarkibida auditning o'rni	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	4
Auditorlik faoliyatining xuquqiy asoslari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Auditorlik tekshiruvning bosqichlari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Auditorlik tekshiruvda qo'llaniladigan usullar	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	4
Auditorlik tekshiruvda ekspert ishlaridan foydalanish	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	4
Auditda tahliliy amallarning qo'llanilishi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Muhimlikni aniqlash metodlari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	4
Auditorlik riskini aniqlash tartibi	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	4
Ichki nazorat tizimini baholash tartibi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	4
Auditorlik rejasi va dasturini tuzish	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	8
Auditorlik dalillarini olish tartibi	Keys stadi tayyorlash	Oraliq baholashda	6
Asosiy vositalar auditida aniqlanadigan kamchiliklar	Keys stadi tayyorlash	Mavzu jarayonida	10
Tovar moddiy zaxiralar auditida soliq munosabatlari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	8
Moliyaviy investitsiyalar auditida tahliliy	Loyiha ishi tayyorlash,	Mavzu	6

amallarni qo'llash	taqdimot va slaydlar	yakunida	
Korxonalar faoliyatini o'rganishda ichki auditning ahamiyati	Keys stadi tayyorlash	Mavzu yakunida	10
Hisob-kitoblar auditini o'tkazish ketma-ketligi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Mavzu yakunida	10
Maxsulot ishlab chiqarish va sotish auditining xususiyatlari	Keys stadi tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	10
Moliyaviy natijalar auditida ichki nazorat tizimini baholash	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar	Oraliq baholashda	10

KURS ISHLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

«Audit» fani bo'yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo'yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdir. Kurs ishi «Audit» fani rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak.

Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzusining dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqu, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo'yilgan savollarning o'zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta'minlash. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash talabaga kurs ishining maqsadi va vazifalarini aniq qo'yish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to'g'ri tanlashga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini to'g'ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning ilmiy jihatdan etukligi hamda «Audit» fani bo'yicha chuqur bilimga va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlagan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda auditni tashkil qilishning o'ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini o'zimizda orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda hisob siyosatining xususiyatlarini, belgilangan muammolarning echimini topish yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
- kurs ishida chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- kurs ishi bo'yicha to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi;

- talaba tomonidan fikrning ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilinishi;

- qo'yilgan talablar bo'yicha kurs ishining rasmiylashtirilishi.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari kafedra tomonidan tuziladi va yangilanib boriladi.

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter programmalari yordamida audit o'tkazish uchun kerakli manbalar nazariy jihatdan shakllantiriladi va undagi ma'lumotlar o'rganiladi. Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatlashtirish bo'yicha amaliy dastur paketlaridan ("1S Predpriyatie", "1S Buxgalteriya", "Audit-ekspert" va hokazo) shuningdek, EXCEL jadval prosessoridan foydalaniladi.

FAN BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 26 avgust 1981-1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"da ko'rsatilganidek, «Audit» fani bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholash quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi: joriy nazorat (J.N.); oraliq nazorat (O.N.); yakuniy nazorat (Ya.N.).

«Audit» fani bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha qo'yidagicha taqsimlanadi:

- J.N. – 35 ball; - O.N. – 35 ball; - Ya.N. – 30 ball.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir baholash turlaridan to'plagan ballar yig'indisiga teng bo'ladi va "Nizom"da belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

"Audit" fani bo'yicha talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagi **umumiy mezonga** asosan aniqlanadi:

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
86-100	A'lo	Audit faoliyati bilan bog'liq masalalari(amallari) bo'yicha xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yuritish, amalda qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Audit faoliyati bilan bog'liq masalalari(amallari) bo'yicha mustaqil mushohada yuritish, amalda qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Audit faoliyati bilan bog'liq masalalar(amallar) mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Audit faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq tasavvurga ega emaslik, bilmaslik.

J.N.da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilimi va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish, auditoriya darslaridagi davomati va mustaqil ta'lim

vazifalarining bajarilish darajasi nazarda tutiladi va u amaliy mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Talabanning darsga davomati, fan mavzulari bo'yicha bilim darajasi, mustaqil ta'lim vazifalarini bajarishi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan shaxsiy jurnallarida xronologik belgilab boradilar va ularning umumlashgan natijasi reyting rasmiylashtirish davridagina ballar tizimida aks ettiriladi. «Audit» fani bo'yicha J.N.lar 2 marta o'tkaziladi, Uning natijalari guruh va professor-o'qituvchi jurnallari hamda dekanat qaydnomasida qayd etiladi.

“Audit” fanidan joriy nazoratda talabanning bilimni reyting tizimi asosida baholash

	Ko'rsatkichlar	Joriy nazorat-dagi maksimal ball
	2	3
	Darsga qatnashganlik darajasi	2,0
	Amaliy mashg'ulot darslariga tayyorgarligi, adabiyotlardan konspekti, so'zga chiqishi, tahliliy jadvallarni bajara bilishi hamda ularga xulosalar berish saviyasi, mustaqil ish mavzulari bo'yicha ma'ruzalar qilishi	8,0
	Mustaqil ta'lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda fan bo'yicha berilgan qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi	6,0
	Ilmiy to'garakda ma'ruza bilan chiqishi, viktorina va talabalar konferensiyalarida “Audit” bo'yicha ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashishi	3,0
	Gazeta va jurnallarda auditga oid maqolalar bilan chiqishi	2,0
	Mavzular bo'yicha multimedialar tayyorlashi, slaydlar, ko'rgazmali qurollar va chizmalar tayyorlashdagi faoliyati, “Audit” fani bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishda qatnashganligi	6,0
	Amaliy mashg'ulot (ma'ruza) darslarida faolligi, fan bo'yicha ish o'yinlarini tashkil qilishdagi faolligi	8,0
	Jami	35

“Audit” fanidan oraliq nazoratda talabanning bilimni reyting tizimi asosida baholash

	Ko'rsatkichlar	Oraliq nazoratdagi maksimal ball		
		1-ON	2-ON	Jami
	2	3	4	5
1	Darsga qatnashganlik darajasi	1,0	1,0	2,0
2	O'tilgan mavzular bo'yicha konspekti va ma'ruzada o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasi	4,0	4,0	8,0
3	Mustaqil ta'lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda audit bo'yicha berilgan qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi	3,0	3,0	6,0
4	Ilmiy to'garakda ma'ruza (referat) bilan chiqishi, viktorina va talabalar konferensiyalarida “Audit” bo'yicha ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashishi	2,0	2,0	4,0
5	Gazeta va jurnallarda auditga oid maqolalar bilan chiqishi	1,0	2,0	3,0

6	Mavzular bo'yicha multimedialar tayyorlashi, slaydlar, ko'rgazmali qurollar va chizmalar tayyorlashdagi faoliyati, "Audit" fani bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishda qatnashganligi	3,0	3,0	6,0
7	Ma'ruza darslarida faolligi, fan bo'yicha ish o'yinlarini tashkil qilishdagi faolligi	3,0	3,0	6,0
	Jami	17	18	35

“Audit” fani bo'yicha talaba bilimini yakuniy baholashning reyting ballari quyidagi **mezonga** asosan aniqlanadi:

Baholash mezonlari	Ma ksi-mal ball	Mini mal ball (saralash ball)	Shu jumladn ballar					
			a'lo		yaxshi		Konikarli	
			Ma ksimal	Mi nimal	Ma ksimal	Mi nimal	M aksim al	M inimal
Yakuniy nazorat	30	16	30	26	25	21	2 0	1 6

Yakuniy nazoratni “Yozma ish”asosida o'tkazish

MEZONI

Talabalar “Audit” fanidan yakuniy nazoratni “Yozma ish” usulida topshiradilar va ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi. Har bir yozma ish variantida 3 ta savol qo'yilgan. Ushbu sinov davomida har bir talaba 3 ta savol bo'yicha jami 0-30 ballgacha to'plashi mumkin, shu jumladan bitta savol bo'yicha esa 0-10 ball to'plashi mumkin.

Savolning quyidagi qirralarining oydinlashtirilishi tegishli reyting ballari bilan baholanadi:

1. Savollarga javoblarda me'yoriy hujjatlar va audit qonunchilik asoslariga izoh berilishi (maksimal 2 ballgacha).

2. Javoblarda audit sohasidagi muammolarini nazariy asosini fikran to'g'ri bayon eta olinishi (maksimal 2 ballgacha).

3. Savollarga javoblarda mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlilining qilinganligi (maksimal 2 ballgacha).

4. Ko'rilayotgan savolning auditorlik tashkilotlarida audit uslubiyoti tahlilining mavjudligi (maksimal 2 ballgacha).

5. Savollarga javoblarda ushbu savol bilan bog'liq tortishuvli masalalarning izohlanishi (maksimal 2 ballgacha).

Agar talaba javoblarida har bir savolning mohiyati Hukumat karorlari va Prezident I.A. Karimov asarlaridan, audit qonunchilik asoslaridan foydalanilgan holda, hamda mustaqil fikrlanilgan, berilgan savollarga javoblarni tushunarli tarzda bayon etilgan va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon eta olsa, unga 26 dan 30 ballgacha qo'yilishi mumkin.

Agar savollarning mazmuni ochib berilgan, huquqiy-me'yoriy aktlardan foydalanilgan, lekin audit amaliyoti zamonaviy muammolarini chet el tajribalariga asoslanib to'liq tahlil etilmagan bo'lsa, unga 21 dan 25 ballgacha qo'yilishi mumkin.

Agar savollarning barchasiga javoblar berilgan bo'lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlari va amaliyot tahliliga to'liq asoslanmasa, bunday holatda 16 dan 20 ballgacha qo'yiladi.

Agar talaba tomonidan savolnomadagi 2 va undan ko'p savolga javob berilmagan bo'lsa, berilgan javoblar hajmi va mazmunidan qat'iy nazar, talabaga 0 dan 15 ballgacha qo'yiladi.

Yakuniy nazoratni “Test topshiriqlari” asosida o'tkazish M E Z O N I

Talabalar “Audit” fanidan yakuniy nazoratni test topshiriqlari asosida topshirsa, ularni o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Agar yakuniy nazorat “Test topshiriqlari” asosida amalga oshirilsa, sinov ko'p variantli usulda kompyuter sinflarida o'tkaziladi. Har bir variantda 30 tadan test topshirig'i bo'lib, talabaga savollarning javobini belgilash uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Har bir test topshirig'iga talaba tomonidan berilgan javoblar 1 ball bilan baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 26-30 tasiga to'g'ri javob belgilagan talaba 26-30 ball oralig'ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 22-25 tasiga to'g'ri javob belgilagan talaba 22-25 ball oralig'ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 17-21 tasiga to'g'ri javob belgilagan talaba 17-21 ball oralig'ida baholanadi.

Berilgan test topshiriqlarining 16 va undan kamiga to'g'ri javob belgilagan talaba 0-16 ball oralig'ida baholanadi.

«AUDIT» FANIDAN YAKUNIY BAHOLASH SAVOLLARI

1. **Tovar-moddiy qiymatliklarning butligi va ulardan foydalanish auditi.** Tovar-moddiy qiymatliklari baholash metodlari, hujjatlashtirish, harakati, QQS, hisobdan chikarilishi.

2. **Rezerv kapital auditi.** Rezerv kapitalini shakllantirish miqdori, maqsadi, dividend va zararlarni qoplash, taqsimlanmagan foyda.

3. **Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini auditi.** Hisobot shakllari, balans moddalari, inventarizatsiya, moliyaviy hisobot natijalari, o'zaro bog'liqligi.

4. **Qo'shilgan kapital auditi.** Qo'shilgan kapitalni shakllantirilishi, uning miqdori, maqsadi, kurs farqlari, bepul olingan mulk.

5. **Da'volar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Da'volarning paydo bo'lishi, ularning miqdori, jarima, penya, nizoli da'volar, ularning analitik hisobi.

6. **Byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Soliq va ajratmalar, hisoblash bazasi, miqdor va to'lash muddatlari, moliyaviy jarimalar.

7. **Tovar-moddiy qiymatliklarning butligi va ulardan foydalanish auditi.** Tovar-moddiy qiymatliklarning inventarizatsiyasi, ularni o'tkazish tartibi, natijasini rasmiylashtirish, baholash metodlari, QQS, hisobdan chikarilishi.

8. **Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini auditi.** Hisobot shakllari, balans moddalari, inventarizatsiya, moliyaviy hisobot natijalari, o'zaro bog'liqligi.

9. **Favqulodda olingan foyda va zararlar auditi.** Favqulodda olingan foyda va zararlar mezonlari, moliyaviy natijalar, soliqqa tortilishi.

10. **Mahalliy soliqlarning hisob-kitoblarining auditi.** Mahalliy soliqlar, miqdori, hisoblash bazasi, to'lash muddatlari, obodonchilik yig'imi, reklama va mol-mulk solig'i, jarima.

11. **Ustav kapitalini shakllantirishni tekshirish.** Ta'sis etuvchilar, ustav kapitalining tarkibi, ularning ulushi, nazorati, ma'naviy jihatlar.
12. **Kassa va kassa operatsiyalari auditi.** Kassani yuritish qoidalari, kirim va chiqimlar, hujjatlarda rasmiylashtirish, inaentarizatsiya, kamomad.
13. **Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditi.** Hisob-kitob turlari, avans, hujjatlarda rasmiylashtirish, to'lov muddatlari, penya, da'volar.
14. **Korxona xodimlari bilan hisob-kitoblar hisobining auditi.** Ish haqi, tabel, oklad, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi, daromad solig'i va boshqa ushlanmalar, ish haqi fondidan ajratmalar.
15. **Tovar-moddiy qiymatliklarining buzulishi, kamomadi va etkazilgan zararni qoplash bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Buzilish va kamomadlar, tabiiy kamayish normasi, inventarizatsiya, muomala xarajatlari, hisobdan chikarilishi.
16. **Asosiy faoliyatdan olingan boshka daromadlar auditi.** Operatsion daromadlar va tushumlar, olingan jarima, penya, hisobot yilida aniqlangan o'tgan yil daromadlari, renta daromadlari.
17. **Yalpi daromad va muomala xarajatlari auditi.** Yalpi daromadni aniqlash, tushum, haqiqatdagi tannarxi, hisoblash printsiplari, ma'muriy-boshqaruv va sotish xarajatlari, foyda va zararlar.
18. **Yakuniy moliyaviy natijalar auditi.** Foyda va zararlar schetlari, ularni solishtirish, hisoblangan va to'langan soliq, sof foyda, taqsimlanmagan foyda.
19. **Korxona ta'sis hujjatlari va faoliyat turlari auditi.** Ustav kapitali, shakllantirish, ulushni baholash, foydani taqsimlash, alohida hisobni yuritish.
20. **Mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditi.** Hisob-kitob turlari, avans, hujjatlarda rasmiylashtirish, to'lov muddatlari, penya, da'volar.
21. **Qo'shilgan kapital auditi.** Qo'shimcha kapitalning shakllanish tartibi, ularning miqdori, maqsadi, kurs farqlari.
22. **Nomoddiy aktivlar va ularning amortizatsiya qiymatining auditi.** Nomoddiy aktivlar, gudvil, tashkiliy xarajatlar, amortizatsiya normasi va hisoblash usullari, muomala xarajatlari.
23. **Audit o'tkazish to'g'risidagi shartnoma.** Shartnoma shartlari, boshqa shartnomalardan farqi, tomonlar majburiyati, huquqlari va javobgarligi.
24. **Auditni rasmiylashtirish.** Audit rejasi, audit dasturi, ekspress-audit, faoliyat turlari, hisob siyosati, iqtisodiy sub'ektni xususiyatlari.
25. **Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditi.** Hisob-kitob turlari, avans, hujjatlarda rasmiylashtirish, to'lov muddatlari, penya, da'volar.
26. **Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar auditi.** Royalti, transfert kapitali, ijobiy va salbiy kurs farqlari, mulkni ijaraga berish, qo'yilgan mablag'ni qayta baholash.
27. **Auditda moddiylikni baholash.** Xatoning absolyut va nisbiy miqdori, hisobot moddalarining mazmuni, aniqsizlik, kumulyativ samara.
28. **Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkachlarining ishonchliligining auditi.** Hisobot shakllari, balans moddalari, inventarizatsiya, moliyaviy hisobot natijalari, o'zaro bog'liqligi.
29. **Moliyaviy hisobot haqida ijobiy auditorlik xulosasi.** Auditor hisoboti, xulosa turlari, ijobiy xulosa, ta'sir ko'rsatuvchi omillar, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi ahvoli.
30. **Auditorlik tavakkalchiligi.** Tavakkalchilik tushunchasi, auditorlik tavakkalchiligi, induktiv va hisob-kitob usuli, muolaja tavakkalchiligi, samaradorsizlik tavakkalchiligi.
31. **Moliyaviy hisobot haqida salbiy auditorlik xulosasi.** Auditor hisoboti, xulosa turlari, salbiy xulosa, ta'sir ko'rsatuvchi omillar, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi ahvoli.
32. **Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash.** Buxgalteriya hisobi masalalari va samaradorligi, buxgalteriya hisobi usullari va shakllari, ichki xo'jalik nazoratni tashkil etish.
33. **Ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan iqtisodiy sub'ektga imtiyozlar.** Ijobiy xulosa, byudjet oldidagi qarzlarning yo'qligi, tekshirilmaslik muddatlari, auditorlik firmalarning javobgarligi.

34. **Ekspert ishidan foydalanish.** Ekspert xizmatlari, shartnoma, ekspert ishini taqqoslash, ekspert huquq va majburiyatlari.
35. **Majburiy audit va jarimalar miqdori.** Majburiy va tashabbus auditorlik tekshiruv, auditni o'tish muddatlari, xulosani taqdim etish, jarima va uning miqdorlari.
36. **«Qalloblik» va «Xato» ni aniqlaganda auditorni harakati.** Hisob va hisobotda qalloblik va xato, soxta hujjatlar va yozuvlarni bajarish.
37. **Konsolidatsiyalashgan (Umumiylashgan) moliyaviy hisobot.** Nazorat, shu'ba xo'jalik jamiyat, asosiy jamiyat, ozchilik ulushi, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish usullari.
38. **Auditorlik ishchi hujjatlarni tayyorlash.** Auditni rejalashtirish, auditda hujjatlashtirish, ishchi hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash tatibi.
39. **Korxona ta'sis hujjatlari va faoliyat turlari auditi.** Ustav kapitali, shakllantirish, ulushni baholash, foydani taqsimlash, alohida hisobni yuritish.
40. **Iqtisodiy sub'ekt rahbariyati uchun axborot.** Auditor hisoboti, kamchiliklar to'g'risida ma'lumotlar, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga oid tavsiyalar.
41. **Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning auditi.** Amortizatsiya normasi va hisoblash usullari, kumulyativ, sonlar qoldig'i, ishlab chiqarish, to'g'ri chiziqli, muomila xarajatlari.
42. **Auditorlik xulosalar turlari. Auditorlik hisoboti.** Ijobiy va salbiy auditorlik xulosasi, xulosa berishdan bosh tortish, auditorlik hisoboti, ochiq va yopiq hujjatlar.
43. **Olingan va berilgan avanslar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai avans to'lovlarning asoslanganligi, qo'shilgan qiymat solig'i, talab qilib olinmagan avanslarni hisobdan chiqarilishi.
44. **Ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarining kirimi, ularni tayyorlash va sotib olish, baholash, sotish, hisobda aks ettirish.
45. **Kassani taftish qilish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, taftish komissiya, audit davomiyligi, davriyligi, dalolatnoma tushuntirish xati, inventarizatsiya natijalarini hisobda aks ettirilishi.
46. **Byudjet bilan soliq va to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, soliq va to'lovlarning stavkasi, imtiyozlar, hisob-kitoblar, analitik va sintetik hisobi, deklaratsiyalarni rasmiylashtirish va taqdim qilish, hisobda aks ettirish.
47. **Inventar va xo'jalik jihozlarning auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, inventar va xo'jalik jihozlarni turkumlash, ularni kirimi, amortizatsiya hisoblash, hisobdan chiqarish, boshlang'ich hujjatlar, hisobda aks ettirish.
48. **Hisob-kitob scheti bo'yicha operatsiyalar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, hisob-kitob schetini olish, pul mablag'i harakati, qonuniyligi, ishonchliligi, hisob-kitob-to'lov tartibi, holatini tekshirish va hisobda aks ettirilishi.
49. **Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, xarajatlarni qoplash normasi, kunlik xarajatlar, daromad solig'i, harakati, hisobda aks ettirish.
50. **Ishlab chiqarish zahiralarining butligini tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, inventarizatsiya, uni o'tkazish davriyligi va davomiyligi, natijasi, hisobda aks ettirish.
51. **Valyuta scheti bo'yicha operatsiyalar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, valyuta aktini olish, qonuniyligi, to'g'riligi, valyuta tushumini o'z vaqtida va to'la aks ettirish, valyutani majburiy sotish, kurs quvvati.
52. **Moliyaviy qo'yilmalarni turkumlash va baholashni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ulush va qarz, uzoq va qisqa muddatli, davlat va nodavlat, qimmatli qog'ozlar, nominal, emissiya, bozor, sotib olish, balans qiymatlari va ularni hisobda aks ettirish.
53. **Bankdagi boshqa maxsus schetlar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, akkreditiv, ularni ochish, turlari, chek daftarchalari.
54. **Har xil debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarning auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, debitorlik va kreditorlik qarz tushunchasi, hisob-kitoblar va da'vo muddati, oldindan pul o'tkazish, analitik va sintetik hisobi, hisobda aks ettirish.

55. **Qimmatli qog'ozlarni boshqa tashkilotlarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shishni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ulush sifatida qo'shish, hisobdan chiqarish, dividend, foizlar hisoblash, hisobda aks ettirish.

56. **Asosiy vositalarning butligi va harakati auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, qabul-qilish-topshirish dalolatnomasi, inventar kartochkasi va raqami, asosiy vositalarni baholash, hisobda aks ettirish.

57. **Aktsiyalarga moliyaviy qo'yilmalarning auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, aktsiya turlari. Qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilma; dividend, hisobda aks ettirish.

58. **Kamomadlar va moddiy boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, kamomad va buzilish sabablari, tabiiy kamayish normasi, sotish xarajatlari, inventarizatsiya natijasi, hisobda aks ettirish.

59. **Qarz qimmatli qog'ozlar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, qarz qimmatli qog'ozlar turlari, foizlar, sotib olish bahosi, nominal baho, amortizatsiya, hisobda aks ettirish.

60. **Asosiy vositalarning remonti auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, joriy va kapital remont, remont uchun rezerv, xo'jalik va pudrat asosida remont, defekt qaydnomasi, hisobda aks ettirish.

61. **Byudjetdan tashqari fondlar bilan ajratma va ushlanmalar bo'yicha hisob-kitoblar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ajratma va ushlanma miqdori, analitik va sintetik hisobi, deklaratsiya rasmiylashtirish va taqdim qilish, hisobda aks ettirish.

62. **Moliyaviy qo'yilmalarning butligini tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, inventarizatsiyaning davriyligi, davomiyligi, qiymatining realligi, daromadlari to'g'ri to'la va o'z vaqtida aks ettirish, butligini ta'minlash, natijasi, hisobda aks ettirish.

63. **Ijaraga olingan va berilgan asosiy vositalar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, qisqa va uzoq muddatli ijara, amortizatsiya hisoblash, ijara haqi, balansdan tashqari schet, ijara majburiyati, hisobda aks ettirish.

64. **Mehnatga haq to'lash bo'yicha mehnat kodeksi qoidalariga rioya qilishni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, mehnatga haq to'lash bo'yicha hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, bajarilgan ish hajmi, mehnat shartnomalari, ularning qonuniyligi, to'g'riligi, hisobda aks ettirishni tekshirish.

65. **Berilgan qarzlarni bo'yicha moliyaviy qo'yilmalarning auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, qarzlarning turlari, daromadlar va ularni hisobda aks ettirishni tekshirish.

66. **Asosiy vositalarning inventarizatsiya auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, inventar kartochka va daftarlari, asosiy vositalarning butligi va holati, inventarizatsiya natijasini hisobda aks ettirishni tekshirish.

67. **Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, shtatdagi va shtatdan tashqari xodimlar, mehnatga haq to'lash tizimi, eng kam oylik ish haqi, yagona tarif setkasi, hisob-kitob-to'lov hujjatlarini tekshirish, hisobda aks ettirishni tekshirish.

68. **Kredit va qarzlarni tushunchasi, ular auditining xususiyati.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, kredit, qarz tushunchasi, bank krediti, tijorat krediti.

69. **Nomoddiy aktivlarni turkumlash va baholash auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, nomoddiy aktivlarni turkumlash, baholash, hisobda aks ettirishni tekshirish.

70. **Jismoniy shaxslar binoan soliqlarni to'g'ri hisoblash va to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ish haqidan ushlab qolinadigan soliq va ushlanma turlari, stavkasi boshlang'ich hujjat, hisob-kitoblar, iqtisodiy choralar, hisobda aks ettirishni tekshirish.

71. **Bank kreditining auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, kredit turlari, foizlar, analitik va sintetik hisobi, hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.

72. **Omborda va buxgalteriyada ishlab chiqarish zahiralar hisobini tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarining ombor hisob kartochkasi, TMQ qoldig'i va harakati bo'yicha hisobotlar, qaydnomalar, operativ buxgalteriya yoki qoldiq usuli.

73. **Mehnatga haq to'lash tartibi, tizimi, shakli, turlari.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishbay, vaqtbay, yagona tarif setkasi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi, asosiy va qo'shimcha ish haqi, normal mehnat sharoiti, mehnat ta'tili.

74. **Nomoddii aktivlarning amortizatsiya va hisobdan chiqarilishi auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, amortizatsiya normasi, hisobdan chiqarish (sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shishi, yaroqsizligi), hisobda aks ettirish.

75. **Umumishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri taqsimlanishini tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ustama xarajatlar, kommunal xarajatlar, xarajatlarni taqsimlash turlari, xisobda aks ettirish.

76. **Maqsadli moliyalashtirish va tushumlar auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, maqsadli moliyalashtirish manbai, hisobda aks ettirish.

77. **Davr xarajatlarni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, davr xarajatlarining elementlari, sotish, ma'muriy, boshqa operatsion xarajatlar, xarajatlarni qoplash manbai, hisobda aks ettirish.

78. **Byudjetning maqsadli ssudalaridan foydalanishni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, byudjet ssudasining tushunchasi, ssuda turlari, foizlar, hisobda aks ettirish.

79. **Ishlab chiqarish zahiralarini turkumlash va baholashni tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarini turkumlash (asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilgi, idishlar, ehtiyot qismlar va boshqalar), baholash, hisobda aks ettirish.

80. **Davlat subsidiyalari va boshqa yuridik va ijtimoiy shaxslardan kelib tushgan mablaglarning auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, subsidiya tushunchasi, likvid va nolikvid, subsidiyalar, xisobda aks ettirish.

81. **Ishlab chiqarish zahiralarining kirimi va chiqimi auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarining kirimi va chiqimi, tijorat dalolatnomasi, naryad, ishonchnoma, talabnoma, ombor hisob kartochkasi, hisobda aks ettirish.

82. **Savdo korxonalarida muomala xarajatlarining auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, muomala xarajat moddalari, analitik hisobi, kelgusida davr xarajatlari, kelgusidagi xarajatalr va to'lovlar rezervi, hisobda aks ettirish.

83. **Omborda va buxgalteriyada ishlab chiqarish zahiralar hisobini tekshirish.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarining ombor hisob kartochkasi, TMK koldig'i va harakati bo'yicha hisobotlar, qaydnomalar, operativ buxgalteriya yoki qoldiq usuli.

84. **Ishlab chiqarish zahiralarining sintetik hisobi auditi.** Tekshirish maqsadi, axborot manbai, ishlab chiqarish zahiralarining kirimi, ularni tayyorlash va sotib olish, baholash, sotish, hisobda aks ettirish.

7.2. "Audit" fani bo'yicha namunaviy dasturlar, ishchi dasturlar, va o'quv dasturlariga qo'yiladigan talablar. Texnologik xaritalar, kalendar rejalar, individual ish rejasi. Ularni bajarishni tashkil etish va nazorat qilish.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Albatta, ommaviy chiqishlar va ma'ruzalarning tashkil qilinishida auditoriyaning qiziqishlari hamda uning Siz bermoqchi bo'lgan ma'lumotlarga ehtiyoji bor-yo'qligini hisobga olish hayotiy ahamiyat kasb etadi. Chunki savdogarga matematika haqida, qassobga astronomiya haqida yoki sotuvchiga fizika haqida gapirsangiz, Sizni tushunmasidan tashqari, boshqa fikrga ham borishi mumkin. Bu borada bir yaxshi hikoya ham mavjud:

Kemada ketayotganlardan biri boshqasidan «Matematikani bilasizmi?» - deb so'rabdi. Sherigi esa «Afsuski bilmayman» - deb javob beribdi. «Bo'lmasa chorak umringizni yo'qotibsiz» - debdi yo'lovchi. Bir muncha muddat o'tgandan so'ng u yana «Mantiqni bilasizmi?» debdi. Sherigi yana «Bilmayman» deb javob beribdi. «Bo'lmasa yarim umringizni yo'qotibsiz» debdi bilimdon kishi. Birozdan so'ng u yana bir savol beribdi «Fizikani bilasizmi?» Sherigi esa bunga javoban «Suzishni bilasizmi, azizim?» - deb so'rabdi. Bilimdon inson esa «Afsuski bilmayman» - deganida, sherigi «Bo'lmasa butun umringizdan ajrabsiz» - deb uni suvga uloqtirib yuborgan ekan. Bundan xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, auditoriya ozgina bo'lsa ham biladigan, bilishni hohlaydigan, tushunadigan va o'rganishga intiladigan sohalarda ma'ruza o'qish yaxshi natijalarga olib keladi.

Omma oldida maqsadingizni tushuntirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berishingiz maqsadga muvofiqdir:

1. O'z chiqishlaringizni shunday tashkil qilingki, barcha ishtirokchilar «Men buni hohlaymanmi?», «Menga bu kerakmi?» va «Men buni uddalay olamanmi?» degan savollarga ma'ruzadan so'ng to'la-to'kis javob bera olishsin. Lekin ilk bor uchrashganingizda yoki birinchi ma'ruzada juda ham tugal ma'lumot bermang, chunki ular hali bunga tayyor emaslar. Ma'lumotni berishda o'z obro'-e'tiboringizga alohida urg'u berish tufayli Siz bilan muloqot qiluvchilarni noqulay ahvolga solib qo'ymang. Hamma ham Siz singari bilimli, aqlli va omadli bo'lish mumkinligini his qilsin hamda «Men shubhasiz buni tushuna, o'zlashtira va qila olaman!» degan qat'iy xulosaga kelsin.

2. Uzluksiz ma'ruza qilish bo'laklarining juda ham uzoq vaqt davom etishi maqsadga muvofiq emas, uning Sizdan ma'ruza eshituvchilar kutgan vaqt hajmida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Agar buning iloji bo'lmasa, eng ko'pi bilan 25-30 daqiqalik ma'ruza qilgan ma'qul. Keyin biror bir faol hamda o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq tadbir o'tkazish lozim. O'quvchi (talaba)larning charchog'i tarqalganidan so'ng, ma'ruzani yana davom ettirish mumkin. To'xtovsiz va juda ko'p vaqt davom etgan ma'ruza (tadbir) insonni charchatib, uning ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilishiga mone'lik qiladi.

3. O'z chiqishlaringizni quyidagi reja asosida uyushtiring:

- Kirish;
- Nima to'g'risida gapirishingiz kerakligi haqida so'zlab bering;
- Asosiy qismda kerakli ma'lumotlarni bering;
- Xulosa qismi;
- Nega bu haqda gapirganingizni tushuntirib bering.

4. Doimo ma'ruzangizning asosiy maqsadini nazardan qochirmang. Chalg'imasdan va qat'iyat bilan faqatgina o'sha yo'nalishda harakat qiling. Aks holda fikr tarqoqligi yuzaga keladi va o'zingiz ham, o'quvchi (talaba, tinglovchi) ham mavzudan chetga chiqib ketishi mumkin.

5. Birinchi o'n minutda mavzuga oid yangi ma'lumotlar va fikrlar bering, keyingi o'n minutda bu ma'lumotlar bilan bog'liq ijobiy va salbiy imkoniyatlarni (sharoitlarni, dalillarni, kontseptsiyalarni, hodisalarni) tushuntirib, uni Sizni eshituvchilar qiziqishlari (intilishlari, talablari) bilan solishtiring. Oxirgi o'n

minutda yuqorida gapirganlaringizdan xulosa chiqaring va hodisalarning keyinchalik rivojlanish yo'nalishini imkoniyat darajasida ko'rsating.

6. Xulosa sifatida albatta tinglovchilardan nima hohlayotganingizni eslatib qo'yishni yoddan chiqarmang.

7. Qog'ozga (daftarga, kitobga) qaramasdan ishonch bilan, berilib gapiring.

8. Ko'proq «Siz» va «Bizlar» deb gapiring, chunki bu tinglovchilarning hurmatini qozonishga olib keladi. «Men»ni kamroq ishlatib, chunki bu auditoriyaning Sizga nisbatan qarama-qarshi ta'siroti (reaktsiyasi) ga sabab bo'lishi mumkin.

9. Esingizda qolsin – ommaviy chiqishlarning taxminan 80 foizi o'zingizning kimligingiz haqida tinglovchilarga ma'lumot berishdir. Chiqishingiz muvaffaqiyatining faqatgina 20 foizigina Sizning gapirayotgan gapingiz ma'nosi bilan bog'liq, 40 foizi esa ovozingiz, intonatsiya va so'zlash ritmingiz bilan va nihoyat 40 foizi gavda harakatlaringiz (ya'ni bosh harakati, qo'l va oyoq harakati, ko'zlar holati) bilan aniqlanadi.

10. Gapirayotganda intonatsiyani va jestikulyatsiyani asosiy fikrlarga urg'u berish uchun ishlatishga harakat qiling.

11. Auditoriyada ko'proq harakat qiling, jonsiz predmetday sahnada yoki tribunada qotib turmang.

12. Ma'ruzangizda vizual qo'llanmalarni ishlatishga harakat qiling. Masalan, chizmalarni, grafiklarni, plakatlarni, slaydlarni, video va audio materiallarni ishlatish yaxshi natijalarga olib keladi. Lekin ularning ishlatilishini xonaning katta-kichikligi va odamlar soni bilan mutanosib ravishda amalga oshiring.

13. Quyidagi qoidani ishlatishingiz mumkin: «Har bir asosiy fikrga bitta ko'rsatuv»

14. Menga hech kim bermaydi, deb o'ylagan savollaringizga albatta javob tayyorlab keling, chunki ko'pincha xuddi shu savollar berilishi mumkin.

15. Agar berilgan savollarga javoblarni bilmasangiz, uni bilaman deb ko'rsatishga aslo harakat qilmang. Uylab ko'rib, ma'nosiga etganingizdan so'ng javob berishingiz haqida tinglovchilarga va'da bering yoki «Javobini quyidagi sabablarga ko'ra bilmayman» deb rostini ayting. Javobning oxirida o'z fikringizning qanday ekanligini quyidagicha qilib qo'shib qo'ysangiz ham bo'ladi: «Lekin men bu haqda quyidagilarni ayta olaman».

16. Bo'lajak ma'ruzangiz rejasini tuzing va ommaviy chiqishdan oldin uni biror bir kimsaga ko'rsating yoki shu sohada ishlovchi biror-bir kimsa bilan atroflicha muhokama qiling.

17. O'z ma'ruzangizni video yoki audioga yozib oling yoki kichikroq bir guruh oldida chiqish qiling va uni tanqidiy ravishda muhokama qilishga yoki fikrlashga erishing.

18. Ma'ruzadan oldin juda ham to'yib ovqat emang, chunki bu miya faoliyatini sekinlashtirib, yorqin, chuqur va atroflicha fikrlashga halal berishi mumkin.

Har qanday samarador bo'lish da'vosini qilishi mumkin bo'lgan dars rejasi, u ma'ruzami, amaliy darsmi yoki boshqa biror bir xilga mansubmi – to'rt asosiy elementni o'z ichiga qamrab olishi lozim:

- qiziqtiruv – motivatsiya
- Taqdimot – prezentatsiya
- Amaliyot – praktika
- Natija - o'zlashtirish darajasini tekshirish.

Ushbu to'rt asosiy element o'qituvchiga katta imkoniyatlar yaratib, talabalar bilan bevosita muloqot qilishga yordam beradi va ularga bilim berishdagi an'anaviy usullardan farqli o'laroq, darsda faol ishtirok qolishni ta'minlab beradi. Bunda talaba va o'quvchilar biror-bir mavzuni o'rganishning to'rt bosqichdan iborat tsikli bo'ylab harakat qiladilar. Uning birinchi bosqichida o'qituvchilar talabalarning bilim olishlarini qattiq nazorat qiladilar, keyin esa ularga erkin muhitda bemalol harakat qilishga va fikr almashinishga imkon beradilar.

Yuqorida aytib o'tilgan to'rt bosqichning mohiyatini quyidagicha qilib ta'riflash mumkin:

qiziqtiruv – motivatsiya. Dars rejangizning ushbu qismida Siz o'quvchilaringiz bilan dars mavzusiga bog'liq bo'lgan shunday qisqa bir o'yin yoki tadbir o'tkazasizki, bu ularning diqqatini tortsin va mavzuni o'rganish uchun qandaydir qiziqish (stimul) yaratsin. Bu bosqichning davomiyligi ko'pincha 4-5 daqiqa atrofida bo'lishi va uning o'rganilishi lozim bo'lgan mavzuga mos kelishi katta ahamiyatga egadir.

Taqdimot – prezentatsiya. Dars rejasining bu qismi yangi mavzu bilan bog'liq yangi materiallar berish yoki mavzuning bir qismi bilan bog'liq ma'lumotlar, dalillar, qoidalar taqdim qilish faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bunda asosiy maqsad talabalarizning bilgan narsalarini asos qilib olgan holda bilmaganlari haqidagi bilimlari darajasini oshirishdir. Agar Siz oldingi darsda o'tilgan materiallarni qaytaradigan bo'lsangiz, ularni bu safar yangi ijodiy nuqtai-nazardan yoritishingiz lozim bo'ladi.

Amaliyot – praktika. Darsingizning ushbu qismida Siz talabalarning oldingi bosqichda olgan bilimlari asosida ularni amaliy fikrlashga o'rgatish, nazariya bilan amaliyotning qanday bir-biriga bog'liqligini namoyish qilish, nazariya asosida ma'lum bir qoidalar majmuasini birgalikda yaratish yoki ularga ularni yorqin misollar vositasida o'rgatishni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunday turfa xil amaliy mashg'ulot turlarini darsdan oldin tayyorlab kelishingiz maqsadga muvofiqdir. Siz dars jarayonida talabalarning bajarayotgan ishlarini diqqat bilan kuzatishingiz, yangi ma'lumotlarning to'g'ri o'zlashtirilayotganiga ahamiyat berishingiz va amaliyot bilan nazariyaning bir-biriga qo'pol ravishda qarama-qarshi kelib qolmasligiga e'tibor berishingiz zarur bo'ladi. Agar shunday bo'lib qolsa, buning sabablarini aniqlab, talabalarga atroflicha tushuntirishingiz kerak bo'ladi.

Natija - o'zlashtirish darajasini tekshirish. Mavzuning yangi o'rganilgan materiallarini talabalar bilan muloqot qilgan holda muhokama qilish va bu jarayonga ularni iloji boricha ko'proq jalb qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Agar biror-bir qoida, dalil, qonun, ko'rsatgich yoki tartibot talabalarga tushunarsiz bo'lib qolgani ma'lum bo'lib qolsa, ularni tushuntirishga harakat qilish va ularning tub mohiyatni anglaganliklarini his qilish. Talabalar ushbu bosqichda Siz bergan g'oya, fikr yoki nazariyaning asosiy jihatlarini o'zlashtirib olish uchun

qulay imkoniyat olishlari lozim. Bu esa tamomila Sizning malakangiz, dars rejangiz va qolaversa, uslubiyatingizga bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tilgan bosqichlarning ma'nosi va mohiyatini quyida, o'rta maktablarda chet tilidan dars berish rejasini tuzish jarayonida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Qiziqtiruv – motivatsiya

Maqsad	Talabalarning darsga qiziqishini oshirish va ularga ta'lim olish uchun qulay ma'naviy sharoit yaratish
Faoliyat turlari	1. Shaxsiy kuzatuv yoki tajribalarning muhokamasi 2. Ashula aytish 3. Ovoz chiqarib o'qish 4. Jismoniy harakat yoki mashq 5. Muammoni yoki rasmni muhokama qilish 6. Erkin bayon 7. Erkin suhbat 8. Xilma-xil turdagi o'yinlar
O'qituvchining roli	Boshqaruvchi yoki rahbar
O'zaro munosabat turi	O'qituvchi-Talaba Talaba-Talaba
Nazorat darajasi	Faoliyat turiga qarab, nazorat orqali yoki erkin holda
Xatolarni to'g'rilash	Hech qanday tuzatilishga yo'l qo'yilmaydi va natijada talabalar o'zlarini erkin his qiladilar
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	1. Qisqa vaqtda 2. Ko'pincha darsning boshida

Taqdimot - prezentatsiya

Maqsad	1. O'quvchilarga yangi tilni o'rganishning foydaliligini va zarurligini tushuntirish 2. So'zlarning ma'nosini va ifodalanish usullarini ko'rsatish
Faoliyat turlari	1. Talabalar model so'zlarni qaytaradilar 2. Ma'ruza va uni yozib olish 3. Grammatik tarjima 4. Sokin o'qish 5. Diktovka qilish
O'qituvchining roli	An'anaviy ravishda ma'lumot berish
O'zaro munosabat turi	1. O'qituvchi - o'quvchi birgalikda 2. O'quvchi-o'qituvchi alohida
Nazorat darajasi	Qat'iy nazorat, o'qituvchi alohida ahamiyat kasb etadi
Xatolarni to'g'rilash	O'qituvchi uchun o'quvchilarning xatolarini

	to'g'rilash alohida ahamiyat kasb etadi
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	1. Qisqa 2. Ko'pincha darsning boshida
	Amaliyot – praktika
Maqsad	1. Til o'rganish muhitida boshqariladigan amaliyotni ta'minlash 2. Yangi tilda muloqot qilishda o'z-o'ziga ishonch muhitini yuzaga keltirish
Faoliyat turlari	1. Tayyorlanish 2. Savol-javoblar 3. Ma'lumot berish va fikr almashinish 4. Ko'p variantli tanlov 5. Mos so'zlarni topish 6. Yozma ravishda so'zlarni ifodalash 7. Mavzuga mos ravishda nimanidir chizish
O'qituvchining roli	Boshqaruvchi va to'g'rilovchi
O'zaro munosabat turi	O'qituvchi-o'quvchi O'quvchi-o'quvchi
Nazorat darajasi	Nazorat amalga oshirilgan sharoitda O'quvchilarga chegaralangan imkoniyatlar beriladi
Xatolarni to'g'rilash	O'qituvchi, o'quvchi yoki o'z-o'zini to'g'rilash
Qancha muddat va darsning qaysi qismida	1. O'quvchilarning talablariga bog'liq ravishda 2. Taqdimot bilan tugallanishi lozim yoki tekshirib ko'rilishi kerak

Natija (o'zlashtirish darajasini tekshirish)

Maqsad	1. O'quvchilarga yangi tilni erkin muloqot sharoitida yaratuvchanlik bilan o'rganishlariga sharoit yaratish 2. O'rganish jarayonini tekshirib turish 3. Yangi tildagi tushunchalar va so'zlarni esqisi bilin bog'lash
Faoliyat turlari	1. O'yinlar 2. yozma ish 3. So'zga chiqishlar 4. Rol o'ynash 5. Guruhli ish bo'yicha hisobot berish 6. Intervyular o'tkazish 7. Plakatlar chizish 8. Ko'rsatma yoki stendlar qilish
O'qituvchining roli	Maslahatchi, ishga qiziqish uyg'otadigan
O'zaro munosabat turi	O'quvchi-o'quvchi (juftliklar, guruhlar, tasodifiy yoki qiziqishlar bo'yicha kichik guruhlar)
Nazorat darajasi	Erkin ravishda
Xatolarni to'g'rilash	Asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va

- bunda aralashuv minimal ravishda bo'lishi lozim
- | | |
|---|---|
| Qancha muddat va darsning qaysi qismida | 1. Qanday ish amalga oshirilayotganiga bog'liq
2. Taqdimotdan so'ng yoki amaliyot tugaganidan keyin
3. Bir dars yoki bir necha darslar davomida |
|---|---|

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy bilimni solishtirish usullarini tashkil etish, magistrantlarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Endi faraz qilaylik, Sizga kimdir qandaydir dars rejasini tayyorlab olib keldi. Uning samaradorligini va foydalilik darajasini tekshirish qanday amalga oshiriladi? Bu ishni amalga oshirish uchun quyida keltirilgan tartibda ishlasak va fikr yuritsak, yaxshi natijalarga kelishimiz mumkin.

Dars rejasini tekshirish ketma-ketligi:

- Dars jarayonida ishlatilayotgan material o'rganilayotgan tilning real hayotda qo'llanilishiga mos keladimi yoki yo'qmi?
- Talabalar Sizning darsingizdan qoniqish hosil qildilarmi? Agar bunday bo'lmasa, ularni qiziqtirish uchun Siz nima qilmoqchisiz?
- O'rganish tsikli bilan bog'liq savol: Sizning rejalashtirgan darsingizda nazorat qilinishda erkinlikka qarab yo'nalgan harakat mavjudmi?
- Sizning darsingizda motivatsiya qilinishga, taqdimotga, amaliyotga va natijaga bag'ishlangan faoliyat turlari bormi?
- Darsning natijaviy tashkil etuvchi qismlari talabalarga ular nima deyishlari va qanday qilib gapirishlari haqida ma'lumot bera oladimi?
- Darsdagi ko'rsatmalaringiz va vazifalarning bajarilish tartibini talabalaringiz aniq tushuna oladilarmi?
- Dars tadbirlari talabalarining birgalikda ishlashi, fikr almashishi va o'qituvchi bilan bema'lol muloqot qilishiga imkon yaratadimi?
- Darsda ishlatiladigan so'zlarning aniq tarjimasiz Sizda bormi?
- Siz qaysi grammatik qoidalarni ularga o'rgatmoqchisiz va qanday qilib?
- Darsda o'qish, yozish, gapirish va tinglash kabi malakalarni rivojlantirishga ham imkon beriladimi?
- Dars Sizning guruhingiz uchun juda osonmi yoki juda ham murakkabmi?
- Siz o'z sinf tadbirlaringizni oddiy sharoitlarda va berilgan vaqt doirasida o'tkaza olasizmi?
- Agar vaqtingiz ko'proq bo'lsa, yana nimalar qilardingiz?
- Darsda madaniy-ma'naviy jihatdan mos kelmaydigan materiallar va ma'lumotlar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa, Siz nima qilishni rejalashtirayapsiz?
- Uy vazifasi berishni rejalashtirganmisiz?
- Dars vaqtida o'quvchilarni qiziqtirish uchun yana nimalar qilmoqchisiz?

Ushbu savollar majmuasiga rioya qilinsa, har qanday fanga oid bo'lgan dars rejasini ham to'la tekshirib, unga ma'lum bir ma'nodagi qo'shimcha rivojlantiruvchi elementlar qo'shish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni. (yangi tahrir) - T., 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. – T., 1996.
4. “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi PF-3665-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005 yil oktyabr, 40-son.
5. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3618-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005 yil iyun, 23-24-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni. 2005 yil 14 iyun.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» Qarori.
8. «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika komissiyalari va kengashlari faoliyatini tartibga solish to'g'risida» 2005 yil 6 noyabrdagi PF-3675-son Farmoni)» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 yanvardagi 2-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2006 yil yanvar, 1-son.
9. “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori.
10. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisdagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2009 yil 13 fevral.
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. O'zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. “O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida”- T.: O'zbekiston, 2005.
13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005.

14. “Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to’g’risidagi nizomga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida” O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2005 yil 23 sentyabrdagi 93-son buyrug’i. (O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 18 oktyabrda 977-2-son bilan davlat ro’yxatiga olingan). O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2005 yil oktyabr, 41-42-son.
15. O’zbekiston auditorlarining kasbga doir Kodeksi. O’zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasining 2005 yil 26 avgustdagi 4-son va O’zbekiston auditorlar Palatasining 2005 yil 25 iyundagi 3-son qarorlari bilan tasdiqlangan.
16. O’zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro’yxatga olingan 1999-2005.
17. Mejdunarodnie standarti audita. Uchebnoe posobie. - T., YuSAID, 2003.
18. Audit. Darslik. 1-2 jild. M.M. Tulaxodjaeva va Sh.I. Ilxomovlarning umumiy tahriri ostida. Mualliflar jamoasi. Toshkent. Norma, 2008.
19. Abdullaev A., Abduvahobov O., Qayumov I. Audit asoslari. Darslik. - T., 2003.
20. Do’smuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. - T., 2003.
21. Musaev H.N. Audit. Darslik. - T., 2003.
22. Podolskiy V.I. Audit: Uchebnik dlya vuzov. M.: YuNITI - DANA, 2009.
23. Audit. Uchebnik. N.V. Parushina, S.P. Suvorova. M.: ID. «Forum»-Infra-M, 2008.
24. Suyts V.P. i dr. Audit: Obshchiy, bankovskiy, straxovoy. Uchebnik dlya vuzov. – M.: INFRA-M, 2005.
25. Sheremet A.D., Suyts V.P. Audit. Uchebnik. M.: Infra-M, 2008.
26. Auditorlar uchun qo’llanma. - T., O’BAMA, 2007.
27. Audit. Maruza matnlari tuplami. 1-tom. M. Tulaxodjaeva va F. Gulomovalarning umumiy tahriri ostida. – T., TDIU va O’BAMA, 2004.
28. Yo’ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. Maruza matnlari tuplami.-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, 652 bet.
29. Ashurova S. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o’qitish. // Kasb-hunar ta’limi. 2004 yil 5-soni.
30. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik ma-horat. –T.: 2006.
31. Ahrorova Z. O’qitishning yangicha usullari. // Ta’lim va tarbiya, 2003 yil 3-4-sonlari.
32. Alimov X.M. Aqliy hujum. // Ta’lim va tarbiya, 2006 yil 2-soni.
33. Abdurazzoqova Z., Mamatova M. Darslarda yangi ilg’or texnologiyaning qo’llanilishi // Ta’lim texnologiyalari; 2007 yil 1-soni.
34. Abdullaeva Sh. Bilim va tarbiya jarayoni yaxlitligi pedagogik texnologiya masalalaridir. // Guliston, 2001 yil 2-soni.
35. Boltaev N., Norimov Sh., Abdalova S. Pedagogik texnologiya-larni amalga oshirish yo’llari // Ta’lim texnologiyalari, 2006 yil 3-soni.
36. Bozorova S. Kasbiy yo’naltirilgan muammoli o’qitish samaradorligini oshirish // Kasb-hunar ta’limi, 2006 yil 5-soni.

37. Bayboeva A. Mustaqil ta'lim olish texnologiyasi va kasbga yo'naltirilganlik. // Kasb-hunar ta'limi, 2005 yil 5-soni.
38. Bepalko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989.
39. Gulboev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'-lim jarayoniga tatbiq etish. –Navoiy, 2001.
40. Gulyamov S.S., Mibaratova L.I., Abdullaeva A.X. Vnedrenie novix informatsionnix texnologii distantsionnogo obucheniya v obrazovatelnix uchrejdeniyax Uzbekistana. –T.: 2002.
41. Gulyamov S.S., Mibaratova L.I., Abdullaeva A.X. Novie pedagogicheskie texnologii. Rekomendatsii po organizatsii distantsionnogo obucheniya. –T.: 2002.
42. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. –T.: Tasis 2001.
43. Davron Sh. Algoritmik texnologiyalar. Kasb-hunar ta'limi, 2007 yil 2-soni.
44. Dehqonova M.U., Djanalieva G.A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari, 2006 yil 2-soni.
45. Jumaev A.Sh. O'quvchilar faolligini oshirishda innovatsion metodlarning o'rni // Kasb-hunar ta'limi, 2007 yil 3-soni.
46. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. –T.: 2001.
47. Ziyomuhammadov D. Komillikka eltuvchi kitob. –T.: 2006.
48. Zamonaviy ta'limning tashkiliy va ilmiy-metodik muammolari. –T.: 2005.
49. Ibodullaev Q. Rivojlantiruvchi ta'lim modelini loyiha-lash // Kasb-hunar ta'limi, 2005 yil 4-soni.
50. Ismoilova M.Yu. Kasbiy mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. Ta'lim texnologiyalari, 2006 yil 4-soni.
51. Ishmuhamedov A. Masofadan o'qitish – yangi pedagogik texnologiya. // Iqtisodiyot va ta'lim, 1-soni
52. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: 2004.
53. Karimova V. Psixologiya. Maruza matnlari tuplami. –T.: 2002.
54. Mamajonov I. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda aniqlashtirilgan maqsadli differentsial texnologiyalarni qo'llash // Xalq ta'limi, 2005 yil 5-soni.
55. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
56. Olimov Q. Modul texnologiyasi asosida o'quv adabiyotlarini yaratish // Kasb-hunar ta'limi, 2004 yil 6-soni.
57. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2002.
58. Rahmonova E.R., Razzoqov D.N. "Pedagogik texnologiyalar" fanidan maruza matnlari tuplami. –T.: 2007.
59. Salomov A.A., Mirzaev M.B. Masofadan o'qitish texnologiyalari. Termiz, 2004
60. Tolipov O.Q., Usmonberdieva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Maruza matnlari tuplami; -T.:«Fan», 2006.
61. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T.: 2007.

62. “Ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari” mavzusidagi seminar trening materiallari. –T.: 2002.

63. Talim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to’plami. -T.:2007.

64. Tillashayxova M. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiya-lari va ularning talim tizimini rivojlantirishdagi o’rni. // Iq-tisodiyot va talim, 2005 yil 2-soni.

65. Usmonova Sh., Rahimov B. Muammoli ta’limni tashkil etish-ning psixologik asoslari. // Xalq ta’limi, 2005 yil 5-soni.

66. Farberman B.L. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000.

67. Farberman B.L., Musina R.G. Jumaboeva F.R. Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari. –T.: 2002.

68. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. –T.: 2006.

69. Ergashev R.X. Interaktiv usullarni ta’lim tizimiga jo-riy etish tajribasi, // Uslub va vositalari. // Ta’lim texnologiyala-ri, 2006 yil 2-soni.

www.cer.uz - (tsentr ekonomicheskogo issledovaniya).

www.nao.gov.uk - (UK National Audit Office).

www.gov.uz – (novosti pravitelstva Uzbekistana).

PS “Norma”.

IPS “Pravo”.

**Audit fanini o'qitish metodikasi. /Maruza matnlari tuplami.
Fayziev Sh.N., Meliev I.I. -T.: TMI, 2012. 190 bet.**

Muharrir:

Bosishga ruxsat etildi:

Adadi:

Shartli bosma tabog'i:

Buyurtma № _____

**Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida «RISO» nusxa ko'paytirish
qurilmasida chop etildi.**

700084, Toshkent shahri, X. Asomov ko'chasi, 7-uy.